

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA  
MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**RAYXON RASULOVA**

**AKADEMIK YOZUV**

Toshkent 2025

Rayxon Rasulova.

Akademik yozuv/ darslik.

Mazkur darslik respublika oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda yurtimizni taraqqiyotning yangi bosqichiga olib chiqishda akademik yozuv ko'nikmalarini shakllantirishning muhim jihatlari qamrab olingan. Akademik yozish –bu olingan bilimlar yuzasidan murakkab ko'nikmalarga ega bo'lish hisoblanib, bugungi kunda butun dunyoda oliy ta'limda muvaffaqiyatli o'qish uchun zarur bo'lgan barcha boshqa ko'nikmalarga nisbatan eng muhimi sifatida tan olinadi.

Mas'ul muharrir:

Shukurullo Mardonov,

Pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Elzara Azmiyeva

Pedagogika fanlari nomzodi, professor v.b.

Ravshanxo'ja Rasulov

Filalogiya fanlari doktori, professor

## KIRISH

Kelajak insonini tarbiyalashda biz, avvalo, bugungi taraqqiyot tendensiyalarini va shu bilan bir paytda milliy ma'naviyatimiz xususiyatlarini, qadriyatlarimizni hisobga olmog'imiz lozim. Binobarin, sun'iy intellekt va yuksak texnologiyalarga tayanadigan "to'rtinchi sanoat inqilobi" insonga qo'yadigan talablarini oldindan prognozlashtirishimiz va ta'lim-tarbiya tizimini ulardan ajratmagan holda olib borishimiz kerak. Avvalo, hozirgi tub yangilanishlar davrini e'tiborga olish, jumladan, muttasil olg'a intilish, hayotni va tafakkurni isloh qilish, yangilanish tomon sobitqadamlik bilan borish zarur. Yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirishni dolzarb vazifaga aylantirish masalasi yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunimizda ham aks etgan. XXI asrda global axborot oqimining tezkor o'sishi, ilmiy-texnologik taraqqiyot va xalqaro akademik hamkorlikning kengayishi natijasida akademik yozuv ta'lim va ilmiy faoliyatning ajralmas qismiga aylandi. Akademik yozuv — bu ilmiy bilimlarni yozma shaklda mantiqiy, aniq va tizimli ifodalash jarayoni bo'lib, u nafaqat ilmiy hamjamiyat a'zolari o'rtasida bilim almashish vositasi, balki talabalarning tanqidiy fikrlash va tahliliy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi<sup>1</sup>.

Yurtimiz taraqqiyotini yangi bosqichiga olib chiqish orqali Yangi O'zbekistonni, pirovardida, Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etish mumkin. Zotan, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish g'oyasi ham tasodifiy emas, balki xalqimizning ulkan madaniy merosi, intellektual salohiyati, zaminimizning azaldan buyuk allomalar va tarixiy shaxslar yurti bo'lganligini unutmaslik darkor. Milliy tariximizda Birinchi va Ikkinchi Uyg'onish davrlariga asos solgan ulug' ajdodlarimiz, alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari, bunyodkorlik, yaratuvchanlik, o'qish va izlanishga da'vat akademik salohiyatning asl ko'rinishlaridir.

Ilmiy yozuvning tarixiy ildizlari qadimgi yunon falsafasiga borib taqaladi. Aristotel, Platon va boshqa mutafakkirlar nutq madaniyati, dalillash va mantiqiy asoslash qoidalarini ishlab chiqib, hozirgi zamon akademik yozuv tamoyillariga

---

<sup>1</sup> Hyland, K. *Academic Discourse: English in a Global Context*. Continuum, 2009.

poydevor qo‘ygan (Aristotle, *Rhetoric*). Keyingi asrlarda, Yevropa Uyg‘onish davridan boshlab, yozma ilmiy muloqotda obyektivlik, dalillilik va aniq terminologiya kabi sifat mezonlari shakllandi <sup>2</sup>.

Zamonaviy ta‘lim tizimida akademik yozuv quyidagi sabablar bilan alohida ahamiyat kasb etadi:

- talabalarni ilmiy muloqotga tayyorlaydi;
- tadqiqot natijalarini aniq va tushunarli shaklda ifodalash imkonini beradi;
- xalqaro baholash dasturlarida (PISA, PIRLS, TIMSS) muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo‘lgan yozma savodxonlik kompetensiyasini rivojlantiradi <sup>3</sup>.

Shuningdek, akademik yozuv **obyektivlik, mantiqiy izchillik va dalillarga tayangan holda fikr bildirishga** o‘rgatadi. Bu esa ta‘limning kompetensiyaviy yondashuvi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ta‘lim oluvchilarni mustaqil tadqiqot olib borish, ma‘lumotlarni tanqidiy tahlil qilish va yangi bilim yaratishga tayyorlaydi.

Shu bois ushbu darslikda akademik yozuvning tarixiy rivojlanish jarayoni, asosiy xususiyatlari, ilmiy uslub mezonlari hamda amaliy qo‘llash yo‘llari bosqichma-bosqich yoritiladi. Matn davomida talabalar nazariy tushunchalarni chuqur o‘zlashtirish bilan birga, amaliy mashqlar va topshiriqlar orqali akademik yozuv ko‘nikmalarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

## MAQSAD VA VAZIFALAR

**Maqsad** — ta‘lim oluvchilarda akademik yozuv ko‘nikmalarini shakllantirish, ilmiy-ijodiy fikrlash, tanqidiy tahlil va dalillangan xulosalar chiqarish qobiliyatini rivojlantirish.

### Vazifalar:

1. Akademik yozuvning mohiyati va tarixiy rivojlanish bosqichlarini o‘rgatish.
2. Ilmiy uslubning asosiy xususiyatlarini tahlil qilish.
3. Akademik nutqning og‘zaki va yozma shakllarini farqlashga o‘rgatish.

---

<sup>2</sup> Bazerman, C. *Shaping Written Knowledge: The Genre and Activity of the Experimental Article in Science*. University of Wisconsin Press, 1988.

<sup>3</sup> OECD. *PISA 2018 Results*. OECD Publishing, 2018.

4. Obyektiv, aniq va dalillangan matn yaratish qoidalarini amaliy topshiriqlar orqali mustahkamlash.
5. Xalqaro baholash dasturlarida talab qilinadigan yozma savodxonlik mezonlarini tushuntirish va qo'llashga tayyorlash.
6. Iqtibos keltirish, manbalarni tahlil qilish va bibliografik ro'yxat tuzish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish.

# 1-MAVZU: AKADEMIK YOZUVNING RIVOJLANISH TARIXI. AKADEMIK YOZUVNING ROLI VA AHAMIYATI. AKADEMIK NUTQ. ILMIY USLUBNING XUSUSIYATLARI

## Reja:

1. Akademik yozuvning tarixiy bosqichlari.
2. Akademik yozuvning dunyo hamjamiyatidagi o‘rni.
3. Fanning mazmuni, maqsadi va vazifasi.
4. Akademik yozuv va uning xususiyatlari.
5. Nutq uslublarining xususiyatlari.
6. Ilmiy uslub va uning akademik yozuvda tutgan o‘rni.

**Tayanch tushunchalar:** akademik yozuv, nutq, ilmiy faoliyat, ilmiy yozuv, rasmiylik, ilmiy matn, nutqning to‘g‘riligi, nutqning mantiqiyligi, nutqning sofligi, nutqning ifodaliligi, adabiy nutq, monografiya, ma’lumotnoma, darsliklar, axborotnoma.

Akademik yozuv fani o‘z tarixiga ega bo‘lib, jahon tilshunosligida XX asr oxirilarida o‘rganila boshlangan, yozuvning dastlabki belgilari esa eramizdan oldin paydo bo‘lgan. Uning ilk unsurlari qadimgi sivilizatsiyalarda, xususan, **Bobil**, **Misr** va **Qadimgi Yunoniston** madaniyatida kuzatiladi. Misr papiruslarida diniy, huquqiy va ilmiy matnlar aniq, tizimli va ma’lum qoidalarga asoslangan holda yozilgan (Parkinson, 1999). Qadimgi Yunoniston falsafachilari, jumladan **Aristotel** va **Platon**, ilmiy muloqotning asosiy tamoyillarini ishlab chiqdilar, ular mantiqiy izchillik, dalillilik va obyektivlikdir (Aristotle, *Rhetoric*). Shuningdek, antik davr olimlari Aristotel, Platon, Sitseron — ilmiy g‘oyalarni yozma shaklda ifodalashning mantiqiy va uslubiy asoslarini yaratganlar<sup>4</sup>.

O‘rta asrlarda universitetlarning tashkil topishi bilan (Bolonya — 1088-yil, Parij — 1150-yil) akademik yozuv rasmiy o‘quv jarayonining ajralmas qismiga aylandi<sup>5</sup>. Yangi davrda, xususan, XVII–XVIII asrlarda ilm-fan rivoji, ilmiy jamiyatlar va akademiyalarning paydo bo‘lishi (masalan, 1660-yilda Angliya Qirollik jamiyati) ilmiy maqola va monografiya kabi janrlarning shakllanishiga olib keldi<sup>6</sup>. XX asrda esa ilmiy axborot texnologiyalarining taraqqiyoti natijasida akademik yozuv global ilmiy hamkorlikning asosiy vositasiga aylandi<sup>7</sup>.

O‘rta asrlarda Yevropadagi universitetlar (Bolonya, Parij, Oksford) yozma ilmiy an‘analarni rivojlantirdi. Ilmiy asarlar lotin tilida yozilib, qat’iy struktura va

<sup>4</sup> Aristotle. *Риторика*. — М.: Наука, 2000. — 384 с.

<sup>5</sup> Rashdall, H. *The Universities of Europe in the Middle Ages*. — Vol. 1. — Oxford: Clarendon Press, 1936. — 502 p.

<sup>6</sup> Lyons, H. G. *The Royal Society 1660–1940: A History of its Administration under its Charters*. — Cambridge: Cambridge University Press, 1944. — 350 p.

<sup>7</sup> Day, R. A., Gastel, B. *How to Write and Publish a Scientific Paper*. — 9th ed. — Cambridge: Cambridge University Press, 2022. — 402 p

qat'iy ilmiy uslub qoidalariga amal qilindi (Clanchy, 2013). Bu davrda akademik yozuv diniy-falsafiy va yuridik mavzularda ko'proq qo'llanilgan.

Uyg'onish davrida (XIV–XVI asrlar) ilmiy yozuvning qo'llanilish ko'lami kengaydi: tabiiy fanlar, matematika, filologiya va ijtimoiy fanlarda yozma tadqiqotlar keng yoyildi. **Galileo Galilei**, **Francis Bacon** va boshqa olimlar tajriba va kuzatuv natijalarini yozma ravishda aniq, mantiqiy va dalillangan holda ifodalash an'analarini mustahkamladi<sup>8</sup> (Bazerman, 1988).

XVII–XIX asrlarda akademik yozuvning standartlashuvi ilmiy jurnallar paydo bo'lishi bilan kuchaydi. 1665-yilda Fransiyada *Journal des sçavans* va Angliyada *Philosophical Transactions of the Royal Society* chop etila boshladi. Bu jarayon ilmiy muloqotda aniq struktura (kirish, metod, natijalar, xulosa) va manbalarni ko'rsatish qoidalarini shakllantirdi.

XX–XXI asrlarda akademik yozuv global miqyosda standartlashtirildi. Ingliz tili xalqaro ilmiy muloqotning asosiy vositasiga aylandi (Swales & Feak, 2012). Yozma ilmiy matnlarni yaratishda **APA**, **MLA**, **Chicago** va **GOST** kabi standartlar keng qo'llanila boshlandi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar (Google Scholar, ResearchGate, Mendeley) akademik yozuv jarayonini tezlashtirdi va ommalashtirdi.

Bugungi kunda akademik yozuv nafaqat ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar va hisobotlar yaratishda, balki xalqaro baholash dasturlarida ham asosiy kompetensiya sifatida qaralmoqda (OECD, 2018).

Akademik yozuvning roli va ahamiyati:

Akademik yozuv — bu ilmiy muloqotning markaziy vositasi bo'lib, bilimlarni saqlash, uzatish va baholash jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega. U nafaqat ilmiy hamjamiyat ichida, balki ta'lim tizimida, davlat boshqaruvi va xalqaro hamkorlikda ham muhim rol o'ynaydi.

Akademik yozuv ilmiy g'oyalar, tadqiqot natijalari va nazariy qarashlarni aniq, tizimli va hujjatlashtirilgan holda bayon etishga xizmat qiladi.<sup>9</sup> Ta'kidlaganidek, yozma ilmiy matnlar orqali bilimlar vaqt va makon chegaralaridan oshib, keyingi avlod olimlari uchun saqlanadi.

Ilmiy hamjamiyatda tadqiqotning ilmiy qiymati uning yozma shaklda taqdim etilish sifatiga bog'liq.<sup>10</sup> Qayd etilishicha, ilmiy maqola yoki dissertatsiya nafaqat yangi bilimlarni aks ettiradi, balki metodologiya, tahlil va dalillarning ishonchligi orqali baholanadi.

Akademik yozuv talabalarni mantiqiy fikrlashga, dalillarni tahlil qilishga va ilmiy muloqot madaniyatiga o'rgatadi. Bu kompetensiya PISA va boshqa xalqaro

---

Bazerman, C. *Shaping Written Knowledge: The Genre and Activity of the Experimental Article in Science*. University of Wisconsin Press, 1988.<sup>8</sup>

<sup>9</sup> Swales, J. M., & Feak, C. B. *Academic Writing for Graduate Students*. University of Michigan Press, 2012

<sup>10</sup> Swales, J. M., & Feak, C. B. *Academic Writing for Graduate Students*. University of Michigan Press, 2012

baholash dasturlarida ham asosiy ko'rsatkichlardan biri sifatida qoraladi (OECD, 2018).

XXI asrda akademik yozuv ingliz tilida xalqaro ilmiy muloqotning asosiy vositasiga aylandi. Bu jarayon ilmiy hamkorlikni kuchaytiradi, tadqiqotchilarga o'z ishlanmalarini global miqyosda taqdim etish imkonini beradi (Hyland, 2009).

Akademik yozuv shaxsiy bilimlarni tizimlashtirish, tanqidiy fikrlash va kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi. **Bazerman (1988)** fikricha, yozma ilmiy faoliyat insonni o'z bilim sohasining faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Akademik yozuv ilmiy bilimlarni tizimlashtirish, tarqatish va tekshirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Swales va Feak (2012) ta'kidlaganidek, "ilmiy hamjamiyat a'zolari o'z g'oyalarini baham ko'rish, tanqid qilish va rivojlantirish uchun yozma kommunikatsiyadan foydalanadi"<sup>11</sup>.

Uning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- **Bilimni saqlash va uzatish** — yozma matn ilmiy merosni avlodlarga yetkazadi.
- **Tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish** — muallif o'z g'oyasini mantiqiy asoslashga majbur bo'ladi.
- **Ilmiy hamkorlik** — turli mamlakat olimlari o'z ishlarini umumiy standartlar asosida baham ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi

### **Akademik nutq**

Akademik nutq — bu ilmiy yoki ta'limiy maqsadda og'zaki yoki yozma shaklda amalga oshiriladigan muloqot bo'lib, unda rasmiy-ilmiy uslub me'yorlari qo'llanadi<sup>12</sup>. U ikki shaklda bo'ladi:

- **Yozma akademik nutq** (maqola, dissertatsiya, monografiya, referat).
- **Og'zaki akademik nutq** (taqdimot, ma'ruza, ilmiy konferensiyalardagi ma'ruzalar, seminar).

Akademik nutqning asosiy talablari — aniqlik, mantiqiy izchillik, ishonchlilik va manbalarga asoslanishdir.

### **Ilmiy uslubning xususiyatlari**

Ilmiy uslub — bu ilmiy ma'lumotlarni ifodalashning til va uslub tizimi bo'lib, u quyidagi belgilar bilan ajralib turadi:

1. **Aniqlik va obyektivlik** — shaxsiy hissiyotlardan xoli, dalillarga asoslangan bayon.
2. **Mantiqiy izchillik** — g'oyalar o'zaro bog'langan, ketma-ket.
3. **Terminologiyaning qo'llanilishi** — tushunchalarni aniq ifodalovchi ilmiy terminlardan foydalanish.

<sup>11</sup> Swales, J. M., Feak, C. B. Academic Writing for Graduate Students. — 3rd ed. — Michigan: University of Michigan Press, 2012. — 418 p

<sup>12</sup> Swales, J. M., Feak, C. B. Academic Writing for Graduate Students. — 3rd ed. — Michigan: University of Michigan Press, 2012. — 418 p

4. **Dalillilik** — manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlar bilan asoslash.
5. **Standartlashtirilgan shakl** — iqtiboslar, bibliografiya, struktura (kirish, metodlar, natijalar, xulosa).

Akademik yozish –bu olingan bilimlar yuzasidan murakkab ko'nikmalarga ega bo'lish hisoblanib, bugungi kunda butun dunyoda oliy ta'limda muvaffaqiyatli o'qish uchun zarur bo'lgan barcha boshqa ko'nikmalarga nisbatan eng muhimi sifatida tan olinadi. Ushbu ko'nikmalar bo'limi nafaqat lingvistik (lingvistik, sintaktik va stilistik) balki, birinchi navbatda mantiq, tahlil, tanqidiy fikrlash, obyektivlik va boshqa g'oyalar va boshqa odamlarning matnlariga hurmat kabi metalingvistik kompetensiyalarni o'z ichiga oladi. Bu ko'nikmalar ko'pincha talabalar va yosh mutaxassislar uchun yetishmaydi. Xullas, fan tarixining empirik xazinasini ham o'tmishdagi ilmiy matnlar, kitoblar, jurnal maqolalari, olimlarning o'zaro yozishmalari, nashr qilinmagan qo'lyozmalari tashkil qiladi. Olim o'zining kasbiy mahoratini, asarlar e'lon qilish, taqrizlar yozish, ilmiy davralarda ma'ruzalar qilish bilan isbotlaydi.

Islom olamida akademik yozuv shakllanish ildizlari IX-XII asrlarga borib taqaladi. Uyg'onish davri allomalari: Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Muhammad al Xorazmiy o'z asarlarida fanga doir ilmiy fikrlarni berishga va ularni asoslashga harakat qilganlar.

Abu Nasr Forobiy Aristotelning "Ritorika" asariga yozgan sharhida so'z turkumlarini ot, fe'l, bog'lovchi deb uch guruhga ajratgan va so'z ma'nolari, tovushlar tahlili, yozuv tizimi, uslubiyat haqidagi fikrlari bilan asoslab bergan.

Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosining ko'lami ancha keng. Alloma o'z davridagi barcha fan sohalarini bo'yicha qalam tebratib, 150 dan ortiq asar qoldirgan. Bizgacha yetib kelgan asarlari orasida "Xronologiya", "Hindiston", "Geodeziya", "Ma'sud qonuni" hamda "Saydana" asarlari tadqiqotchilar tomonidan maxsus o'rganildi. Olim tarix, riyoziyot, matematika, falsafa, handasa, kimyo, astronomiya, geografiya, tibbiyot, adabiyot, musiqa, tilshunoslik singari o'nlab sohalar bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan, bu sohalarida dunyoni hozirgacha lol qoldirib kelayotgan buyuk kashfiyotlarini yaratgan.

Ibn Sino ham qomusiy bilim egasi bo'lib, ko'plab fan sohalariga doir tadqiqotlar olib borgan hamda ilmiy asarlar qoldirgan. Jumladan, Ibn Sinoning lingvistikaga doir "Asbobi hudut al huruf" asari bugungi kunga qadar ilm ahlining diqqatini tortib kelmoqda. Asar arab tili fonetikasiga bag'ishlangan bo'lib, unda undosh tovushlar o'z xususiyatlariga ko'ra farqlanishi dalillab berilgan. Bu asarda fonetikaga oid qimmatli ilmiy fikrlar mavjud.

Mahmud Qoshg'ariy "Devonu lug'otit-turk" asari bilan qiyosiy - chog'ishtirma tilshunoslikka asos solgan. U turkiy tilning fonetikasi, leksikologiyasi, sintaksisi, lingvogeografiyasini o'rgangan. Olim yurt kezib turkiy

qabilalarning tillarini o'rganadi va ularning farqli xususiyatlarini aniqlab, guruhlarga bo'ladi. "Devonu lug'otit-turk" qiymat jihatidan jahon tilshunosligining noyob durdonasi hisoblanadi.

O'rta asr madaniyatining rivojiga beqiyos hissa qo'shgan Alisher Navoiy o'z davrida turkiy tilning rivoji uchun harakat qilgan. U badiiy asarlar bilan bir qatorda "Mezon ul -avzon", "Muhokamat ul -lug'atayn" singari ilmiy asarlar yozgan. "Mezon ul -avzon" da aruz ilmi qonun -qoidalari yoritilgan bo'lib, unda shoir aruzshunoslikka oid ilmiy fikrlarini ham asosli dalillab o'tgan. Alisher Navoiyning "Muhokamat ul -lug'atayn" asari turkiy va fors tillar chog'ishtirmasiga bag'ishlangan. Mazkur asar orqali biz Alisher Navoiyning fonetik, leksik, grammatik qarashlari haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lamiz.

Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa yuzlab olimlar ham o'z asarlarida fanga doir muhim qarashlarini keltirib o'tganlar. Zahiriddin Muhammad Bobur avlodni savodli va o'qimishli qilish maqsadida o'zining benazir ishlari bilan o'chmas iz qoldirgan betakror siymodir. Millatimizning ma'naviy olamini yarata olgan hamda asarlarida tarannum etgan ezgu g'oyalari bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmay kelayotgan mutafakkir turkigo'y elning so'zlari va talaffuzi arab imlosida to'kis mujassam topa olmasligini anglagan va turk xalqlari uchun mukammal bir xatga ega bo'lish maqsadida soddalashtirilgan imloni kashf etadi va "Xatti Boburiy" deb nomlaydi. Avlodlarining ilm olishi, xat-savodini chiqarishni soddalashtirishni istab jon-jahdi bilan urindi.

Ulug' ajdodlarimiz tarixda bir emas, ikkita Ma'rifiy Renessansga asos solganlar. Demak akademiklik biz uchun yangilik emas, balki mavjud bo'lgan sohadir.

**Birinchi Sharq Uyg'onish davri** –IX-XII asrlarda mintaqamizda yuz bergan "**Ma'rifiy Renessans**" hisoblanadi. Birinchi Ma'rifiy Uyg'onish davrida buyuk allomalar, qomusiy bilim sohiblari, mashhur mutafakkirlar yetishib chiqqan. Aniq fanlar sohasida Muhammad Xorazmiy, Abu Bakr Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg'oniy, Umar Hayyom, falsafa sohasida Abu Nasr Forobiy, Ibn Rushd, Muhammad G'azzoliy, Aziziddin Nasafiy, tibbiyot sohasida Abu Ali ibn Sino, tilshunoslikda Mahmud Zamaxshariy, she'riyatda Abu Abdullo Rudakiy, Abulqosim Firdavsiy, Hofiz Sheroziy, Nizomiy Ganjaviy barakali ijod qilganlar. Ularning jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlari umumbashariyat taraqqiyoti rivojiga mislsiz hissa qo'shgan.

Bag'dodda tashkil etilgan "Bayt ul-hikma" ("Donishmandlar uyi") da O'rta Osiyolik olimlar faol ishtirok etdilar. XI asrning boshlarida Xorazmda tashkil qilingan mashhur "Ma'mun akademiyasi" da Beruniy atrofida o'sha zamonning bir guruh olimlari, jumladan, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr ibn Iroq, shuningdek, faylasuf Abu Saxl Masihiy, tabib Abul Xayr Hammar va boshqa olimlar ko'plab

ilmiy izlanishlar olib bordilar. Bu davrda tabiyot ilmi, panteistik falsafa bilan birga islom ilohiyoti ham keng rivojlandi. “Islom madaniyatining oltin asri” deb e’tirof etiladigan bu davrda ona zaminimizdan muhaddis sifatida butun musulmon olamida mashhur Imom Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy, kalom ta’limotining asoschilari Abu Mansur Moturidiy va Burhoniddin al-Marg’inoniy, *Abul Mu’in Nasafiy* hamda Abu Homid Muhammad al-G‘azzoliylar islom dini rivojiga katta hissa qo’shdilar. “Baytul hikma”da 40 dan ortiq tarjimonlar qadimgi yunon tilidan, 14 nafar tarjimon sanskrit tilidan, 4 nafar tarjimon Xitoy tilidan ilmiy, tibbiy va falsafiy asarlarni arabchaga o’giran. Bundan tashqari, lotin, suryoniy, ibroniy tillardan tarjimonlar bo’lgan. Ilm diniy mansublikdan ustun qo’yilib, ilmiy asarlar ma’jusiylarniki, kofirlarniki deb ajratilmagan. Ajdodlarimiz til o’rganib, ilm ortidan dunyo kezan, mahdudlik qobig’iga o’ralib qolmagan, turg’unlik, mahalliychilik yot bo’lgan. “Baytul hikma”, Xorazm Ma’mun Akademiyasi, umuman, islom olami olimlari faoliyati o’sha davrdagi xalqaro ilmiy integratsiyaning eng yorqin namunasidir. Bu davrda yashagan mutafakkirlarning deyarli barchalariga quyidagi xususiyatlar xos edi: madaniyatning o’tmishda erishgan yutuqlarini, xususan, qadimgi Yunon, Hind, Xitoy merosini chuqur o’rganish va uni ijodiy rivojlantirish, tabiatni o’rganishga qiziqishning ortishi va tabiiy fanlar taraqqiyoti (astronomiya, geografiya, riyoziyot (matematika), meditsina va hokazo); ratsionalizm, ya’ni aqlni haqiqatning mezon sifatida tan olish va buning natijasida mantiqiy rivojlantirish, aqidaparastlikni rad etish va hurfikrlilikning rivojlanishi; insonparvarlikni ulug’lash, insonning axloqiy, ma’naviy go’zalligini, kamoloti Allohning yuksak in’omi sifatida talqin etilishi, so’z san’atiga muhabbat, ilmiy asarning badiiy shakliga alohida e’tibor berilishi, qomusiy bilimlarga ega bo’lishlik. Ular fan va san’atning ko’p sohalarini chuqur bilgan allomalar bo’lganlar. Bu davrda Yaqin Sharqda Al-Ma’mun xalifalik qilgan davrda (813-833) ilm-ma’rifatning o’sishiga yordam berdi. Bag’dodda, so’ngra Damashqda astronomik rasadxonalar qurildi. Ajdodlarimiz nimalarga erishganini, jahon sivilizatsiyasiga qo’shgan hissasini, ilm-fan, san’at va adabiyotlarni, ilg’or ijtimoiy fikru qarashlarini qisqa, lo’nda, dabdabali jumalalarsiz yoritishgan.

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda madaniy yuksalish yuz berganligi, madaniyat tarixida so’nmas iz qoldirdi va Yevropa Renessansining vujudga kelishiga katta ta’sir ko’rsatdi. “**Renessans**” so’zi – fransuzcha “**Renaissance**”, italyancha – “**Rinascimento**”– qayta yuzaga kelmoq, yangidan tug’ilmoq, qayta tirilish, uyg’onish – degan ma’nolarni anglatadi. “**Uyg’onish**” istilohi ilk bor XVI asrda me’mor, musavvir va san’at tarixchisi **Jorj Vazari** (1511-1574) tomonidan G’arbiy Yevropada burjua munosabatlari rivojlanishining dastlabki bosqichi bilan shartlangan tarixiy davrni tavsiflash uchun qo’llanilgan. Ushbu istilohning hozirgi

ma'nosi farang tarixchisi **Jyul Mishle** (1798-1874) tomonidan XIX asrda joriy qilindi.

Tarix faniga **“Musulmon Renessansi”** tushunchasi taniqli sharqshunos **Adam Mets** (1876-1946) tomonidan XX asr boshlarida 1909 yilda kiritildi. Olim **“Sharq”** atamasini tarixiy mazmunda ishlatib, bunda O'rta yer dengizidan to Yevropa qit'asigacha bo'lgan yurtlarni va bu hududlarda IX-XII asrlarda madaniyat yuksaklarga ko'tarilganligini ko'zda tutgan. **“Musulmon Renessansi”** asari IX-X asrlarda musulmon sharqida yuz bergan madaniy rivojlanishning tarixiga bag'ishlangan. Unda qayd etilishicha, **“Keyingi o'zgarishlarning sababi shunda ediki, huquqshunoslik ilohiyotdan ajralib chiqib, olimlar guruhi bir-biriga dushmanlik ruhida bo'lgan ikki toifaga bo'linib ketdi, ya'ni faqihlar (fuqiho) va olimlar (ulamo)”**. Birinchi guruh atrofiga bir parcha non topish umidida bo'lgan juda ko'plab talabalar to'plandi, negaki, kimki huquq va urf-odatlarini bilib olsa, qozilik va voizlik qilishi mumkin edi. ...Ko'p o'tmay bunday odamni shahar yoki hatto viloyat qozisi etib tayinlashlari mumkin bo'lgan”.

Dunyoviy fanlarning bilimdoni ilohiyotchidan o'zining kiyimi bilan ham farq qilar va **“kotib”** deb atalar edi. Ilohiyotchining taylason kiyimi uzun bo'lib, to'pig'igacha tushar edi. Kotiblarning tayanchi dunyoviy ilmlar o'lkasi bo'lgan Fors poytaxti Sherozda ilohiyotchilardan ko'ra, ularga katta ehtirom ko'rsatilar edi. Har bir e'tiborli masjid huzurida o'zining kutubxonasi bo'lar edi, negaki, shunday odat mavjud ediki, olimlar o'lim oldidan o'z kitoblarini masjid kutubxonasiga berishni vasiyat qilar edilar. Aytishlaricha, Marv shahridagi masjidning kutubxonasi asosini Yezdigerd III o'zi bilan olib kelgan kitoblar tashkil etgan.

Shuningdek, amerikalik mashhur fan tarixchisi Jorj Sartonning **“Fan tarixiga kirish”** nomli fundamental ishi ham bu to'g'rida qimmatli ma'lumotlarni bergan.

**Ikkinchi Sharq Uyg'onish davri** –XIV-XVI asrlardagi **“Temuriylar Renessansi”**dir. Sohibqiron bobomiz ilm-fan va madaniyat ravnaqiga keng imkoniyatlar yaratgan, din peshvolari, olimlar, san'atshunoslar, yozuvchilar, shoirlarga alohida g'amxo'rlik ko'rsatgan. Bu ma'naviy-ma'rifiy siyosat natijasida **Sharq Uyg'onish davrining ikkinchi bosqichiga** asos solingan. Bu davrda yashab, ijod etgan olim va mutafakkirlar Sa'diddin Taftazoniy, Mir Sayyid Sharif Jurjoni, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek, G'iyosiddin Jamshid al-Koshiy, Qozizoda Rumiy, Alauddin Ali ibn Muhammad Qushchi kabi benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy Abdurahmon Jomiy, Nizomiddin Mir Alisher Navoiy, Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar mashhur tarixchilar Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond va Xondamir, rassomlar Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod va shoh Muzaffarlarning nomlari, ko'plab xattot va sozandalar, musiqashunos va me'morlarning shuhrati dunyoga yoyilgan. Davlatni boshqaruvida din va tasavvuf qoidalariga amal qilindi.

Ahmad Yassaviy va Bahouddin Naqshband ta'limotlari ma'naviyat rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ilm-fan rivojlantirildi, me'morchilik san'ati yuksak darajaga ko'tarildi. Ilm-fan, xususan, falsafa, mantiq ilmi rivojiga katta e'tibor berildi. Buning natijasida XIV-XV asrdan boshlab islom madrasalarida mantiq ilmini o'qitish huquq va tilshunoslik fanlari bilan bog'liq holda olib borildi. Buyuk falakiyotchi olim va davlat arbobi Muhammad Tarag'ay Ulug'bek matematika, astronomiya, geometriya, tarix, kimyo va boshqa sohalarda ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Uning eng mashhur asari "Ziji jadidi Ko'ragoniy"da 1118 yulduzning o'rni va holati aniqlab berilgan. Ulug'bek Quyosh va Oy harakatlari, ularning tutilish vaqtlarini hisoblab chiqqan. Atrofiga iqtidorli yoshlarni to'plab, o'zining ilmiy maktabini yaratdi. Sharq Renessansining ikkinchi davrida yaratilgan falsafiy, badiiy tafakkur rivojining yorqin namunasi Alisher Navoiy ijodida o'z ifodasini topgan. *Donishmand xalqimiz har ikki Renessans davrida jahonning eng ilg'or, taraqqiy etgan xalqlari qatorida bo'lgan.*

**Mamlakatimizda Uchinchi Renessansni XX asrda ma'rifatparvar jadidlar amalga oshirishlari mumkin edi.**

Buyuk geografik kashfiyotlar tufayli Buyuk Ipak yo'lining tanazzuli, ichki va tashqi nizolar, taxt talashishlar, ayirmachilik va uch davlatga bo'linib ketish, inson komilligi faqat insonning ichki dunyosiga qaratilib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga yetarlicha e'tibor berilmaslik kabi omillar keyinchalik inqirozni keltirib chiqardi. Bu inqirozni birinchilardan bo'lib ma'rifatarparvarlarimiz his qilishdi. Ahmad Donish, Berdaq, Feruz, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Bayoniy, Avaz O'tar kabi olim, shoirlar o'z davrining muhim masalalarini ko'tarib chiqdilar va xalqni ilm-fan, ma'rifatni egallashga undadilar. Bu yo'lda ular o'zlarining aziz jonlarini ham ayamadilar hamda **"Ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lishi ham mumkin emas"** degan hadisi sharifni hayotiy e'tiqod deb bildilar. Milliy istiqlol, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ma'rifat orqali, dunyoviy va diniy bilim, zamonaviy ilm-hunarlarni chuqur egallash orqali erishish mumkin, deb hisoblaganlar. Yurtparvar, millatparvar bobolarimiz— "jadidchilik", ya'ni yangilanish va erkinlik, adolat va tenglik, ilm-ma'rifat va milliy o'zlikni anglash g'oyalari bilan Turkiston xalqini dunyoviy ilm-fan bilan qurollantirib, umumbashariy rivojlanish yo'liga olib chiqish maqsadida mardona kurashganlar. Yangi usuldagi maktablar ochib, teatr, kutubxona va muzeylar, gazeta va jurnallar hamda Turkiston farzandlarini chet ellarga o'qishga yuborish maqsadida tuzilgan xayriya jamiyatlari bilan millatni ma'rifatli qilishga bel bog'ladilar. Bu davrda Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Ibrat domla, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Ashurali Zohiriy, Hoji Muin va boshqa yana yuzlab ulug' insonlar Milliy uyg'onish va Millatparvarlik harakatining oldingi saflarida turdilar.

Ular yangi usul maktablari bilan bir qatorda gazeta-jurnallar, nashriyot va kutubxonalar, teatrlar tashkil etganlar.

Avvalgi ikkala Renessans mustahkam ma'naviy-mafkuraviy negizda, birinchi galda yuksak axloqiylik, adolat, ilmga tashnalik va bag'rikenglik asosida yuz bergan. Islom halollik va to'g'rilikni, insof va adolatni, ilm va amaliy faollikni hamma narsadan ustun qo'ygan. "Ilm izlab Chinga bo'lsa-da, bor", "Sendan harakat — mendan barakat", "Bir soatlik adolat barcha ins-u jinslarning qirq kunlik ibodatidan ustun" kabi ko'plab hadislar, naqlar ajdodlarimizning ijtimoiy mo'ljaliga aylangan edi.

XIX asrning oxiri XX asrning boshida Turkiston madaniyati qator talantli olim, sayyoh, shoir, pedagog, jurnalistlarni yetishtirib chiqardi, ular xalqimizning umumiy madaniyati rivojlanishiga juda katta ta'sir ko'rsatdilar. Yangi ta'lim-tarbiya, yangi maktab, yangi maorif, uni boshqarish, madaniy targ'ibot, tashkilotchilik masalalari asosiy o'ringa ko'tarildi. Turkistonning o'z rivojlanish yo'lini targ'ib etishda jonbozlik ko'ratdilar. Har bir jamiyat o'ziga zarur shaxsni tarbiyalaydi. Jamiyat taraqqiyotining pirovard maqsadi ham inson, uning farovon, erkin va xavfsiz turmush kechirishidir. Uchinchi Renessans to'rtinchi sanoat inqilobi bilan muvoziy, bir vaqtda kechadi. Shu sababdan u, avvalo, texnologik inqilobni, yuksak rivojlangan raqamli smart (aqlli) iqtisodiyotni taqozo qiladi. O'z navbatida, raqamli, smart iqtisodiyotga o'tish uchun ishlab chiqarishni bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, avtomatlashtirish, robotlashtirish talab etiladi. Mazkur jarayon O'zbekistonda qanday bosqichlarda amalga oshirilishi, uning moddiy-moliyaviy, insoniy, ilmiy va ilmiy-texnologik ta'minoti bo'yicha istiqbolli aniq kompleks dasturlar yangi Renessans g'oyasi bilan mafkuraviy jihatdan bog'lanishni taqozo etadi. Ilmiy, ilmiy-texnologik ta'minot taqozosidan kelib chiqib, ta'lim-tarbiya sohasining barcha bo'g'inlari uzluksiz isloh etib borilishi kerak.

Kishilik jamiyati shakllangan dastlabki paytlardan boshlab, biror narsani yozishni, va albatta, bilganlarini avlodlariga yozib qoldirishni istaydi. Biror kishi qanday qilib to'g'ri gapirishni hali bilmaganida va uning tili o'nlab tushunarsiz so'zlardan iborat bo'lganida ham, u allaqachon g'orlar devorlarida rang-barang, realistik rasmlarni qoldirgan. Keyinchalik bir kishi nutq so'zlaganida, odamlar birlariga nima deyishlarini aniqlash uchun ham yozish juda muhim bo'lib qoldi. Shu ehtiyoj tufayli yozuvning ilk shakllari paydo bo'la boshladi. Yozuvning dastlabki ko'rinishlari turli xil tasvirlardan iborat bo'lib, g'orlarga, qoya-toshlarga chizilgan. Keyingi bosqichda og'zaki nutq bilan yozma nutqni birlashtirishga harakat qilindi. Natijada yozuvning boshqa turlari ixtiro qilina boshladi. Keyinchalik, ma'lumotni yetkazish bilan bog'liq bu sodda usullar takomillashgan. Masalan, Qadimgi Inklar sugunchalar yordamidagi yozuvni ixtiro qilgan. Buning

uchun turli rangdagi inklardan foydalanilib, ular bir-biriga bog‘langan va shoxchaga ulangan. Shu tarzda “xat” manziliga jo‘natilgan. Inklar shu yo‘sinda qonunlarni, she‘rlarni va muhim voqealarni qayd qilganlar. Biroq, haqiqiy yozuv alohida grafik belgilar tarzida ma‘lumotni yetkazish usuli piktogrammadir. Piktogramma bu narsa voqea va hodisalarni rasmlarda ifodalashdir. Tosh asrining so‘nggi davrida piktogramma turli xalqlarda keng tarqalgan. Piktogrammaning takomillashuvi natijasida muayyan tushunchani o‘zida ifodalovchi shartli belgilar paydo bo‘lgan (masalan, qo‘lning qovushtirilishi almashish belgisi). Bunday belgilar ideogrammalardir. Yozuvning navbatdagi muhim bosqichi ireoglifli yozuvdir. Dastlab, u Qadimgi Misrda paydo bo‘lgan keyinchalik ierogliflardan uzoq Sharqda, Xitoy, Yaponiya va Koreyada foydalanilgan. Yozuvni o‘rganish uchun bir-necha ming belgilarni eslab qolish talab qilingan shuning uchun kam sonli qadimgi odamlar yozish va o‘qishni bilganlar. Miloddan avvalgi 2 ming yil ilgari finikiylar harfli tovushli alfavitni ixtiro qilganlar va bu boshqa xalqlar alfaviti uchun namuna hisoblangan. Shu tarzda piktografik, iyeroglif va fonografik yozuv turlari paydo bo‘ldi.

Ajdodlarning dunyo va tabiat haqidagi bilimlari avlodlarga aynan yozma asarlarda yetkazilgan, chunki yozuv o‘tmish va hozirgi kun o‘rtasidagi bog‘liqlik bo‘lib, yozuv taraqqiyoti natijasida yozma asarlar paydo bo‘la boshlagan va avlodlarga meros sifatida qoldirilgan. Aynan shu davr akademik yozuvning yuzaga kelgan davri hisoblanadi. Akademik yozuv –akademik nutqda yozma matnlar yaratish, olingan asl bilimlarni ma‘lum bir ilmiy sohaning tadqiqot mezonlari bo‘yicha, janrning ma‘lum bir shaklida kognitiv faoliyat predmetining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq holda tashkil etish va ifodalash. Akademik yozuvning prototiplari so‘nggi besh ming yil ichida toshdagi iyerogliflardan qog‘ozdagi harflarga qadar rivojlangan. Bizgacha saqlanib qolgan yozma yodgorliklarda kundalik va diniy ma‘lumotlardan tashqari astronomiya va geometriyaga oid ma‘lumotlar ham mavjud. Zero, bu fanlar bundan yuz yil avval paydo bo‘lmagani, balki qadimgi dunyoda mavjud bo‘lganligi hech kimga sir emas. Toshlar yoki gipsli planshetlarga yozilgan birinchi ilmiy ma‘lumotlar faqat odamlarning maxsus doirasi uchun mo‘ljallangan edi va yozib olish uchun ishlatilgan qadimgi tillar endi o‘lik deb hisoblanadi. Ilmiy matn yozish qobiliyati hayot davomida rivojlanadi.


Zamonaviy akademik yozuv fani tarixi 1930-yillarga borib taqaladi. Akademik yozuv yoki ilmiy yozuv bu o‘quv ishining bir qismi sifatida ishlab chiqarilgan yozuv.

XX asrdan buyon ham juda ko‘plab sohalarga oid ilmiy asarlar yozilganiga qaramay, O‘zbekistonda akademik yozuvni o‘rganish endigina shakllana boshladi.

Xorijda tadqiqotchilar uzoq yillardan beri akademik yozuvdan foydalanadilar. Ingliz tilida so‘zlashuvchi olimlar uning rivojiga hissa qo‘shib kelmoqdalar.

Axborotni aniq va ishonarli matn shaklida yetkazish qobiliyati faqat amaliyot bilan birga keladi, shuningdek, har bir yangi matn murakkab ish natijasidir.

### **Akademik yozuvning rivojlanish bosqichlari davriy ko‘rinishi:**



Akademik yozuvning rivojlanish bosqichlari jadvali:

| Bosqich        | Davr                 | Asosiy xususiyatlar                                                         | Namuna manbalar                          |
|----------------|----------------------|-----------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------|
| Qadimgi davr   | mil. avv. V–I asrlar | Ritorika va mantiq asoslari yaratilishi                                     | Aristotel – <i>Ritorika</i>              |
| Oʻrta asrlar   | XI–XIV asrlar        | Universitetlarning paydo boʻlishi, ilmiy matnlarning lotin tilida yozilishi | Parij universiteti maʼruza matnlari      |
| Yangi davr     | XVII–XVIII asrlar    | Ilmiy jamiyatlar va jurnallar tashkil topishi                               | <i>Philosophical Transactions</i> (1665) |
| Sanoat davri   | XIX–XX asrlar boshi  | Bibliografik standartlar, ilmiy janrlarning rivoji                          | Ilk ilmiy konferensiya materiallari      |
| Zamonaviy davr | XX–XXI asr           | Elektron nashrlar, raqamli maʼlumotlar, ochiq ilmiy resurslar               | Scopus, Web of Science                   |

Jamiyat talabiga toʻliq javob beradigan kishi turli davrlarda har xil atalgan. Yusuf Xos Hojib uni “tugal er”, Forobiy “fozil kishi”, tasavvuf namoyandalari “komil inson” deb ataganlar. “Har tomonlama rivojlangan shaxs”, “uygʻun rivojlangan shaxs” atamallari ham qoʻllanilgan. Shunday ekan taʼlim-tarbiya uchun asrlar davomida toʻplangan maʼnaviy va madaniy meroslar avlodlarga yetib borishi uchun yozuv muhim ahamiyatga ega boʻlgan. Shuningdek, yozuv insoniyat sivilizatsiyasining eng buyuk kashfiyotlaridan biridir.

Jadal rivojlanishi sharoitida, akademik yozuv malakasi dolzarb boʻlgan jahon taʼlimi hamda ilmiy hamjamiyatlarida keng tarqalgan kompetensiya boʻlib, ilmiy matnlarni oʻqish, tushunish, tuzish va formatlash imkonini beradi.

#### **Nazariy savollar:**

1. Akademik yozuv tushunchasiga berilgan taʼriflarni ilmiy adabiyotlardan toping va ularni taqqoslang.
2. Akademik yozuvning rivojlanishidagi asosiy tarixiy bosqichlarni sanab bering.
3. Akademik yozuv va ilmiy nutq oʻrtasidagi farq nimada?
4. Ilmiy uslubning beshta asosiy xususiyatini izohlang.

5. Aristotel ritorikasining hozirgi akademik yozuvga ta'sirini misollar bilan tushuntiring.

#### **Tahliliy topshiriqlar:**

6. Jadvaldagi "Zamonaviy davr" bosqichini kengaytiring va unga XXI asrning yangi ilmiy kommunikatsiya vositalarini qo'shing.
7. Quyidagi jummalarni aniqlik, obyektivlik va dalillilik tamoyillariga mos holda qayta yozing:  
"Hozirgi kunda ko'pchilik talabalar internetdan foydalanadi."  
"Akademik yozuv juda foydali narsadir."
8. Matnda keltirilgan "Akademik yozuvning roli" bo'limiga qo'shimcha ravishda, uning kamida ikki cheklovini yozing.

#### **Amaliy topshiriqlar:**

9. "Akademik yozuv va ilmiy uslub" mavzusida 3–4 jumladan iborat matn yozing va unda kamida bitta iqtibos keltiring.
10. Quyidagi ikki jumladan birlamchi va ikkilamchi axborotni ajrating:  
"Newton (1687) mexikaning klassik qonunlarini shakllantirdi.  
Smirnov (2020) ularni zamonaviy fizika ta'limida qo'llash bo'yicha tavsiyalar berdi."
11. Akademik yozuvning rivojlanish bosqichlarini chiziqli vaqt shkalasida (timeline) tasvirlang.
12. "Akademik nutq"ning yozma va og'zaki shakllarini solishtiruvchi jadval tuzing.
13. GOST 7.1–2003 talabiga muvofiq, uchta ilmiy manba asosida adabiyotlar ro'yxatini tuzing.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdiyeva, M. Akademik yozuvning rivojlanish tarixi // Евразийский журнал академических исследований. — 2023. — Т. 3, № 4, Ч. 3. — С. 77–80. — URL: <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/12816> (murojaat sanasi: 12.08.2025).
2. Aristotel. Ritorika. — M.: Nauka, 2000. — 384 s.
3. Боголепова, С. В. Обучение академическому письму на английском языке: подходы и продукты // Высшее образование в России. — 2016. — № 1. — С. 87–94.
4. Day, R. A., Gastel, B. How to Write and Publish a Scientific Paper. — 9th ed. — Cambridge: Cambridge University Press, 2022. — 402 p.
5. Halliday, M. A. K., Martin, J. R. Writing Science: Literacy and Discursive Power. — London: The Falmer Press, 1993. — 352 p.
6. Karimov, S. A. Nazariy tilshunoslik masalalari. — Samarqand, 2012.

7. Ключев, Е. В. Риторика и культура речи: учебник для вузов. — 3-е изд., перераб. и доп. — М.: Юрайт, 2019. — 383 с.
8. Колябина, Н. С. Роль академического письма в формировании общепрофессиональных компетенций магистра // Научные ведомости. Серия Гуманитарные науки. — 2016. — № 21 (242). — С. 180–187.
9. Короткина, И. Б. Академическое письмо: процесс, продукт и практика: учебное пособие для вузов. — М.: Юрайт, 2015. — 295 с.
10. Lyons, H. G. The Royal Society 1660–1940: A History of its Administration under its Charters. — Cambridge: Cambridge University Press, 1944. — 350 p.
11. Nurmonov, A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. — T.: O‘zbekiston, 2002.
12. Rashdall, H. The Universities of Europe in the Middle Ages. — Vol. 1. — Oxford: Clarendon Press, 1936. — 502 p.
13. Swales, J. M., Feak, C. B. Academic Writing for Graduate Students. — 3rd ed. — Michigan: University of Michigan Press, 2012. — 418 p.
14. В. Н. Академическое «письмо» (методический аспект). — М.: Изд-во СГУ, 2015. — 276 с.
15. Хасянова, Д. З. Академическое письмо: история развития и современное состояние. — Москва: Исследования молодых учёных, 2020.

## 2-MAVZU: AKADEMIK YOZUV VA AXBOROT. AXBOROTNING TURLARI VA XUSUSIYATLARI

### Reja:

1. Professor-o'qituvchilarning, olimlarning ilmiy salohiyatlarini oshirishda akademik yozuvning ahamiyati.
2. "Ritorika va kompozitsiya".
3. Axborot haqida tushuncha.
4. Axborotning shakliyl turlari.
5. Axborotni o'zlashtirish usuli bo'yicha turlari.

Insoniyat tomonidan eng ilg'or kashfiyotlardan biri bu yozuvdir. ***Yozuv-insoniyat tarixini o'rganish, saqlash va qayta ishlashda muhim voqelikdir.***

G'arbda ilmiy matn yozish, fikrni mantiqiy dalillashning ahamiyati ortgani esa bu sohani alohida fan, alohida yo'nalish sifatida o'rganish ehtiyojini keltirib chiqardi. 1991-yildan akademik yozish markazi Markaziy Yevropa universitetining ajralmas qismi bo'lib shakllandi. Universitet tashkil etilganda til o'qitish markazi umumiy til o'qitish kurslarini taqdim etish uchun tashkil etilgan. Bu kurs o'qituvchilar va talabalarning fikr-mulohazalari bilan hamkorlikda talabalarning o'z ustida ishlash, yozuv mahoratini oshirish bilan shug'ullanib kelmoqda.

Nijmegen Radbound universiteti Niderlandiyada yozuv markaziga ega bo'lgan birinchi universitet edi. 2004-yil fevral oyida tashkil etilgan Nijmegen Akademik Yozuv Markazi (ASN) natijalariga asoslangan edi. Markazning tashkil topishidan asosiy maqsad talabalarga maqola yozish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat bo'lgan. 2006-yilda Nijmegen Radbound universitetida 1012 talaba o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma 54 foizi akademik yozuv bilan tanish ekanligi aniqlandi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida "ritorika va kompozitsiya" deb nomlangan akademik yozuv fani barcha fanlardan mustaqil fikrlarni shakllantirish hamda o'z dalillarini yaratish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan ilmiy fan bo'lib, bularning barchasini juda yuqori darajada tashkil etadi. So'nggi o'n yilliklarda ushbu fanning jadal rivojlanishi uni ko'plab xorijiy universitet dasturlarining asosiga aylantirdi va bugungi kunda u eng dinamik rivojlanayotgan tadqiqot yo'nalishlaridan biri bo'lib qoldi.

**Akademik yozuv** — bu ilmiy yoki o'quv maqsadlarida yaratilgan matnlarni yozish jarayoni bo'lib, unda aniq, izchil, mantiqiy va asosli bayon uslubi qo'llaniladi, unda aniq struktura, mantiqiy izchillik va ilmiy manbalarga

asoslanish talab etiladi. Swales va Feak fikricha, akademik yozuv “muayyan ilmiy hamjamiyat ichida fikr almashish vositasi sifatida xizmat qiladi”<sup>13</sup>

Bailey esa uning vazifasini “murakkab g‘oyalarni tizimli, izchil va asosli tarzda ifodalash” sifatida ta’riflaydi<sup>14</sup>. Akademik yozuvning asosiy belgilariga aniqlik, neytrallik, mantiqiy izchillik, dalillarga tayanish va til me’yorlariga amal qilish kiradi<sup>15</sup>.

**“Akademik yozuv” fani** har bir fan tarmog‘ida zarur bilimlarni egallash uchun asosiy omillardan biri bo‘lib, ilmiy faoliyatni to‘g‘ri yo‘naltirishga yordam beradi va shu nuqtayi nazardan o‘z maqsad hamda vazifalariga ega.

**Mazkur fanning maqsadi** talabalarga ilmiy faoliyatni yo‘lga qo‘yish, ilmiy matn va uning turlari, har bir matnda aks etishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar, turli axborotlar, ijtimoiy-siyosiy hayotga doir hamda o‘z mutaxassisligiga oid terminlar, ularni tanlash va qo‘llashdagi o‘ziga xos xususiyatlar haqida ma’lumot berishdan iborat.

**Fanning vazifasi** talabalarga o‘z sohasi doirasidagi so‘z va terminlarning shakllanishi, tilimizga qanday shakllarda kirib kelishi va qo‘llanishi, matnlarning tuzilishi va turlari, uni tahrir qilish, dastlabki ilmiy ishlarni yozishga o‘rgatishdan iborat. Mazkur o‘quv kursining o‘qitilishi muayyan amaliy yo‘nalishga ega bo‘lib, bakalavr bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarda ilmiy faoliyatni yo‘lga qo‘yish va rasmiy hujjatlar matni bilan ishlashda nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni, o‘z sohasiga oid so‘zlarni to‘g‘ri yozish malakasini hosil qilishni ko‘zda tutadi. Har bir fan bo‘yicha talabalar, professor va tadqiqotchilar fikrlarini yetkazish, bahsmunozara va ilmiy muloqot qilish uchun akademik yozuvni mukammal o‘zlashtirishlari zarur bo‘ladi.

Akademik yozuv faktlarga asoslanadigan misollar, aniq so‘z tanlash, mantiqiy tartib va shaxssiz tusga ega. Ba’zida kuchli ilmiy maqola deb qaralishiga qaramay, u o‘z nomiga qarama-qarshidir. Ya’ni u ma’lumot beradi, tahlil qiladi va soddalik bilan ishontiradi hamda ilmiy muloqotda tanqidiy foydalanishga imkon yaratadi. Akademik yozuv deganda aynan yozuvning o‘zinigina tushunish xatodir. Bunda o‘z ilmiy auditoriyasiga ega, ilmiy dalillar bilan boyitilgan, sohaviy terminlar, ilmiy hamda rasmiy jumalarga ega matn namunalari tushuniladi. Bunday matnlar shakli, mazmuni va qo‘llash maqsadi doirasida turlarga bo‘linadi. Xususan, rasmiy uslubda, kanselyarizmdan foydalangan holda ma’lum ijtimoiy yoki kasbiy faoliyat doirasida qo‘llanuvchi matnlar, ilmiy izlanishlar va ularning tahlili asosida ilmiy atamalar bilan kengaytirilgan matnlar ham kiradi. Akademik

<sup>13</sup> Swales, J. M., Feak, C. B. Academic Writing for Graduate Students. — 3rd ed. — Michigan: University of Michigan Press, 2012. — 418 p.

<sup>14</sup> Bailey, S. Academic Writing: A Handbook for International Students. — 5th ed. — London: Routledge, 2018. — 340 p.

<sup>15</sup> O’sha asar

yozuv ilmiy faoliyatni yo'lga qo'yishda yordam beribgina qolmay, mavjud matnni imloviy savodxonlik bilan shakllantirishga, axborotlarni animatsion shaklda yetkazishga, o'rganilayotgan ilmiy matnlar doirasida yozma shaklda munosabat bildirishga, mavjudlarini tahrirlay olishga o'rgatadi. Akademik yozuv mantiqiy dalilni obyektiv nuqtai nazardan yetkazishda asosiy qurol vazifasini bajaradi. Akademik yozuv his-tuyg'ularga zid bo'lib, munosabat bildirilgan fikrni aniq va xolisona taqdim etish kerak.

Akademik yozuv, ya'ni ilmiy yozish nasriy yo'lda, shaxssiz va shijoatli ohangda taqdim etiladi, u sinchkovlik bilan o'rganilgan va tasdiqlangan bilimlarga asoslangan tanqidiy va xabardor auditoriyaga qaratiladi; tushunchalar yoki dalillarni mustahkamlash yoki e'tiroz bildirish uchun mo'ljallanadi. Ushbu uslub akademik (ilmiy) foydalanishda qo'llaniladi.

Akademik yozuv, tushuncha sifatida, ingliz tilidagi adabiyotlarda ko'proq qo'llaniladi, o'zbek tilida odatda matnning "ilmiy uslubi" tushunchasi qo'llaniladi. Murakkablik darajasi bilan ajralib turadigan akademik yozish darajalari:

1. Matn qismlari bilan ishlay olish ko'nikmalari;
2. Kichik hajmdagi matnlarni yozish va izohlash;
3. Maqolani xalqaro jurnallarda chop etish sifat darajasiga yetkazish;
4. Nafaqat nashrning o'zi, balki tinglovchilarga taqdim etilgan ma'lumotlarni (hisobot, xabar) taqdim etish, shu jumladan auditoriya bilan o'zaro munosabatlarni (savollarga javoblar, yozishmalar, raqiblar va tarafdorlar bilan munozaralar) tayyorlash.

Akademik yozuv fani nimani o'rganadi?

Ushbu fan talabalarda tezis, esse, izoh, adabiyotga oid sharhlar kabi o'quv matnlarini yozish ko'nikmalarini, hisobot va taqdimotlarni yaratish va tahrirlash, bibliografik tavsiflarni to'g'ri tuzish ko'nikmalarini shakllantirishga bag'ishlangan. Akademik yozuv janrlari bir qator xususiyatlarga ega:

- oddiy struktura (kirish, asosiy qism, xulosa);
- boshqa mualliflarning asarlariga iqtibos va havolalar;
- kelajakdagi auditoriyani anglash;
- taqdimotlarning ravshanligi va aniqligi;
- tinish belgilari, grammatika va imlo qoidalariga rioya qilish.

Akademik yozuv – bu ilmiy ishlarni bayon qilish uslubi bo'lib, ilmiy ishlarda fikrlarni qisqa va tushunarli shaklda bayon qiladi.

Bu uslubda matnning tuzilishi va uni rasmiylashtirishga qo'yiladigan quyidagi talablarning mavjudligi bilan farqlanadi:

- ilmiy va publitsistik bayon qilish uslubini qo'llash;
- dalillar keltirish va jumalarni o'zgartirib ifodalash;
- havoalarni to'g'ri joylash va adabiyotlar ro'yxatini to'g'ri shakllantirish qobiliyati.

Akademik yozuv uchun shaxsiy fikrni bildirish emas, balki keltirilgan muammoga e'tiborni qaratish zarur. Birinchi shaxs o'rniga uchinchi shaxsni qo'llash, og'zaki uslubni, qisqartmalarni, iboralarni qo'llamaslik va boshqa uslublardan farqli o'laroq, materialni yaxshi o'zlashtirish maqsadida bir so'zni bir necha bor qaytarish mumkin, sinonimlarni kamroq ishlatish kerak.

Bayon qilishning akademik uslubi oliy ta'lim muassasalarida, davlatlar o'rtasida ta'limiy va ilmiy aloqalarni olib borishda qo'llaniladi. Uning yordamida talabalar, aspirantlar va malakali olimlar ma'ruza, kurs ishi yozadilar hamda xorijda ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib boradilar.

Xalqaro ilmiy jurnallar bu uslub tamoyillariga tayanadilar, shuning uchun ilm dunyosida muvaffaqiyatga erishmoqchi bo'lgan hamda chet ellarda ilmiy ishlarini chop etmoqchi bo'lgan har bir olim bu uslubni bilishi lozim.

Akademik yozuvning asosiy xususiyatlari:

- **Aniqlik** — mavzu bo'yicha ortiqcha yoki noaniq iboralardan qochish, faqat fakt va isbotlangan ma'lumotlar keltirish.
- **Mantiqiy izchillik** — g'oyalar bir-biriga bog'liq va tushunarli ketma-ketlikda ifodalanishi.
- **Rasmiy-uslub** — adabiy til me'yorlariga rioya qilish, hissiy bo'yoqli so'zlardan ko'ra neytral ifodalarni ishlatish.
- **Manbalarga tayangan holda yozish** — iqtiboslar, statistik ma'lumotlar, ilmiy manbalarni keltirish.

Bugungi kunda O'zbekistonni 2030 yilga qadar Global innovatsion indeks reytingidagi 50 ta yetakchi davlat qatoriga kiritish bo'yicha ulkan maqsadlar belgilab olingan. Unga erishish yo'lida inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan strategik rejani amalga oshirish vazifasi turibdi.

Buning uchun avvalo, professor-o'qituvchilarning, olimlarning ilmiy salohiyatlarini ifodalay oladigan ilmiy matn yaratish qobiliyatlarini shakllantirish zarur. Oliy ta'lim tizimida akademik yozuv ko'nikmalarining rivojlanmaganligi munosabati bilan so'nggi yillarda katta e'tibor qaratilayotgan ilmiy nutq madaniyatini rivojlantirish muammolari paydo bo'ldi. Bu, ayniqsa, yozma ilmiy matn yaratish sohasida sezilmoqda, professor-o'qituvchilarning ilmiy nashrlarini rivojlantirish zarurati akademik yozuvning xalqaro standartlari, darsliklar, ilmiy nutq madaniyatini va umuman akademik madaniyatni rivojlantirish uchun o'qituvchilar malakasini oshirish kurslarining yo'qligi, nafaqat indekslangan jurnallar, shuningdek, yetakchi xorijiy nashrlar o'rtasida ziddiyatlar yaratmoqda. Yosh tadqiqotchilar o'rtasida yetakchi xorijiy nashrlardagi faoliyati; Web of Science, Scopus va xalqaro ilmiy indekslangan turli darajadagi nashrlarda ilmiy yozish, uning ahamiyati ayniqsa, nashrlarni rivojlantirish zarurati ortdi.

Bu muammolarni hal etish, ya'ni yozma ilmiy nutq madaniyati asoslarini shakllantirishni oliy ta'lim bosqichlaridan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu ta'limda bakalavrlarning xalqaro miqyosda muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi uchun tadqiqot faoliyati komponentini kuchaytirish, ilmiy va professional muhit ehtiyojini keltirib chiqaradi.

Akademik yozuv – bu qisqa va ishonchli ilmiy matn yordamida o'z fikrini bayon qilish hamda asoslay olish qobiliyati. Bu oliy ta'limda muvaffaqiyatli bilim berishning hamda keyingi ilmiy-tadqiqot faoliyati, shuningdek xalqaro miqyosda ham muhim aspektlaridan biri hisoblanadi. Akademik yozuv yordamida oxirgi o'n yilliklar ichida turli mamlakatlar orasida ilmiy va ta'limiy kommunikatsiya amalga oshirib kelinmoqda. Uning tamoyillariga butun dunyodagi eng kompetentli ilmiy nashrlar redaktorlari amal qiladilar, shuning uchun har bir olim istalgan fan bo'yicha ma'lum bir yutuqlarga erishmoqchi bo'lsa, akademik yozuv malakasini egallashi lozim. Akademik yozuv bugungi kunda ilmiy matnlarni o'qish, tushunish, tuzish va formatlash imkonini beruvchi oliy o'quv yurtida muvaffaqiyatli o'qishning asosiy kompetensiyasidir.

Akademik yozuv-bu axborot jarayonlarining jadal rivojlanishi, xalqaro almashinuvlar, akademik aloqalar, jahon ta'lim va ilmiy hamjamiyatlarida keng tarqalgan sharoitda yangi usulda dolzarb bo'lgan an'anaviy vakolat turi.

Axborot (lotincha informatio (informātiō) “ma'lumot, ma'no, biror narsani tushuntirish, taqdim etish, tanishtirish tushunchasi” ← informa – “shakl berish, o'rgatish; o'ylash, tasavvur qilish, mulohaza qilish”) - taqdim etish shaklidan qat'i nazar. Axborot — bu “atrof-muhitdagi obyekt, hodisa yoki jarayonlar haqidagi ma'lumotlar majmui”<sup>16</sup>. Ilmiy faoliyatda axborot faqatgina to'plangani bilan emas, balki uning tahlil qilinishi, tasniflanishi va talqin etilishi bilan ham ahamiyatli bo'ladi. Axborot tushunchasi antik davrlarda faylasuflar tomonidan qo'llanila boshlangan.

XX asrda axborot nazariyasi masalalari bilan kibernetika va informatika shug'ullana boshlagan.

Hozirgi vaqtda axborotning ilmiy termin sifatida yagona ta'rifi mavjud emas. Turli bilim sohalarida ushbu tushuncha o'zining maxsus belgilari orqali ifoda etiladi. Masalan, «axborot» tushunchasi informatika kursida bazaviy tushuncha hisoblanadi, unga “oddiy” tushunchalar orqali ta'rif berib bo'lmaydi (shuningdek, geometriyada, masalan, «nuqta», «o'q», «tekislik» kabi bazaviy tushunchalarni sodda tushunchalar orqali mazmunini berib bo'lmaydi). Barcha fanlarda asosiy, bazaviy tushunchalar mazmuni misollar orqali berilishi yoki boshqa tushunchalar bilan qiyoslash orqali aniqlanishi lozim. “Axborot”

---

<sup>16</sup> ГОСТ 7.0–99. Информационно-библиотечная деятельность, библиография. Термины и определения. — М.: Изд-во стандартов, 1999. — 28 с

tushunchasi umumilmiy tushuncha bo'lganligi sababli, unga ta'rif berish murakkab, u turli fanlarda qo'llaniladi.

Axborot inson sezgi organlari orqali qabul qiladigan ma'lumotlar, sezish a'zolari, texnikada turli asboblardan va hokazolar yordamida qayd etiladigan tashqi dunyo dalillari bo'lib, ular aniq vazifalarni hal etishda zarur va foydali deb topilsa axborotga aylanadi.

Ma'lumot axborot xabar shaklida uzatiladi. Xabar - bu har qanday ma'lumotning nutq, matn, rasm, raqamli ma'lumotlar, grafikalar, jadvallar va boshqalar ko'rinishidagi shakli.

Ma'lumotlarning axborotdan farqi nimada? Ma'lumotlar - bu ba'zi bir sabablarga ko'ra ishlatilmaydigan, faqat saqlanadigan narsalar va hodisalarni kuzatish natijalari. Ma'lumotlar har qanday amaliy maqsadlarda ishlatila boshlanishi bilanoq, axborotga aylanadi. Axborot ishlatilgan ma'lumotlardir. Masalan, oliy matematika qo'llanmasi matematika uchun axborot manbai, ammo biolog yoki filolog uchun tushunarsizdir, shuning uchun unda yozilganlarning barchasi ular uchun ma'lumot bo'ladi.

### **Axborotning asosiy xususiyatlari**

Ilmiy yozuvda ishlatiladigan axborot quyidagi talablarga javob berishi zarur:

- **Ishonchlilik** — manba tekshirilgan va tan olingan bo'lishi kerak<sup>17</sup>.
- **Dolzarblik** — mavzuga va zamonga mos bo'lishi.
- **To'liqlik** — mavzuni yetarlicha qamrab olishi.
- **Aniqlik** — tushunarli va chalkashliksiz bo'lishi.
- **Moslik** — auditoriya va vazifaga mos kelishi.

Axborotning turlari:

#### **1. Manbaiga ko'ra:**

- **Birlamchi axborot** — original tadqiqot natijalari, tajriba ma'lumotlari, statistik ma'lumotlar<sup>18</sup>.
- **Ikkilamchi axborot** — sharhlar, tahliliy maqolalar, bibliografiyalar.

#### **2. Taqdim etilish shakliga ko'ra:**

- Matnli (maqola, monografiya, hisobot).
- Grafik (jadval, diagramma, infografika).
- Audiovizual (video, audioyozuv, prezentatsiya).
- Tovushli axborot;
- Videolavhali axborot;
- Belgili axborot;
- Raqamli axborot.

<sup>17</sup> ГОСТ 7.0–99. Информационно-библиотечная деятельность, библиография. Термины и определения. — М.: Изд-во стандартов, 1999. — 28 с

<sup>18</sup> Ключев, Е. В. Риторика и культура речи: Учебник для вузов. — 3-е изд., перераб. и доп. — М.: Юрайт, 2019. — 383 с

### 3. Tarkibiga ko'ra:

- Faktologik (aniq faktlar, raqamlar, sanalar).
- Analitik (tahlil va izohlar).
- Konseptual (nazariya, model, konsepsiya).

Axborotni turli mezonlar bo'yicha turlarga bo'lish mumkin.

#### 1.O'zlashtirish usuli bo'yicha:

Ko'rish orqali — ko'rish organlari orqali qabul qilish.

Eshitish orqali — eshitish organlari orqali qabul qilish.

Sezish orqali — tashqi sezish retseptorlari orqali qabul qilish.

Hid bilish orqali — hid bilish retseptorlari orqali qabul qilish.

Maza bilish orqali — maza bilish retseptorlari orqali qabul qilish.

#### 3.Vazifasi bo'yicha:

Ommaviy — xalqning katta qismiga tushunarli bo'lgan tushunchalar va jiddiylik kasb etmagan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Maxsus — maxsus tushunchalarni o'z ichiga oladi, ularni qo'llashda shunday ma'lumotlar ishlatiladiki, ular keng ommaga tushunarli bo'lmasa ham, ushbu axborot qo'llaniladigan tor doiradagi ijtimoiy guruhga tushunarli va zarur bo'ladi.

Maxfiy — tor doiradagi shaxslarga yopiq (himoya qilingan) kanallar orqali uzatiluvchi.

Shaxsiy — biron-bir shaxs haqida ma'lumotlar yig'indisi, ijtimoiy mavqeini va ijtimoiy munosabatlarni anglatadi.

#### 4.Ahamiyati bo'yicha:

Dolzarb — ushbu vaqtda qimmatli bo'lgan axborot.

Ishonchli — xatolarsiz olingan axborot.

Tushunarli — yo'naltirilgan insonga tushunarli bo'lgan tilda berilgan axborot.

To'liq — to'g'ri yechim qabul qilish uchun yoki tushunish uchun yetarli bo'lgan axborot.

Foydali — qo'llanilish imkoniyatlarining hajmiga bog'liq axborotni olgan subyekt orqali axborotning foydaliligi aniqlanadi.

#### Axborot izlash

Zamonaviylik cheksiz ma'lumotlar ummoniga o'xshaydi, unda kerakli talablarni qondiruvchi axborotlarni topish shart bo'ladi. Axborotni izlash jarayonini strukturalash maqsadida hatto alohida fan yaratilgan. Uning otasi Kelvin Mauers hisoblanadi. Axborot izlash, tadqiqotchining fikriga ko'ra, zarur ma'lumotlarga ega, axborotga bo'lgan ehtiyojlarni qondira oladigan cheksiz miqdordagi hujjatlarni aniqlash jarayonidir.

Harakatlar algoritmi so'ralgan ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va taqdim qilish bo'yicha operatsiyalarni o'z ichiga oladi. Axborotni samarali izlash uchun quyidagi rejaga amal qilish kerak:

so'rovni shakllantirish (topmoqchi bo'lgan ma'lumotlarni);

zarur ma'lumotlarning manbalarini topish;

kerakli materiallarni tanlash;

olingan bilimlar bilan tanishib chiqish va bajarilgan ishni baholash.

Ushbu algoritm ta'lim jarayoni va ilmiy ishni yozishga tayyorgarlikni yengillashtiradi. Axborot atrofimizdagi cheksiz borliqni anglash orqali yaratilgan.

Quyidagi harakatlarga alohida e'tibor qaratildi: kerakli axborotni ajratib olish, asosiy va ikkinchi darajalilarni aniqlash. Ta'kidlash joizki, bilim ko'rinishidagi istalgan axborotni olish uchun tanishdan notanishga (yangiga), oddiydan murakkabga tomon borish kerak.

Keng tarqalgan bo'lsa-da, axborot tushunchasi fandagi eng munozarali tushunchalardan biri bo'lib qolmoqda va bu atama inson faoliyatining turli sohalarida turli ma'nolarga ega bo'lishi mumkin.

Axborot materiya yoki energiya emas, axborot axborotdir. (Norbert Viner).

Har qanday ilmiy tadqiqot uchun zarur bo'lgan axborot, ma'lumot va bilim darajasi muhim ahamiyatga ega. Umumiy ma'noda axborot mavjudot va hodisalar haqidagi har qanday ma'lumotni anglatadi. Axborotning eng sodda klassik ta'rifi bu - ma'lumot berishdir. N. Viner fikricha, "Axborot - tashqi olamga ko'nikish jarayonida undan olingan mazmunni ifodalashdir"<sup>19</sup>. L. Popov "Axborot kommunikatsiya va aloqa jarayonidagi noaniqlikning bartaraf qilinishi"<sup>20</sup> deb hisoblaydi. Bu ta'rifda asosan axborotning falsafiy -psixologik (kommunikatsiya, aloqa) tomoniga e'tibor qaratiladi. R. Eshbi "Axborot - strukturalarning me'yori, yangilik, originallik"<sup>21</sup>, S. Mol esa, "Axborot - tanlash ehtimolligi"<sup>22</sup> deb ta'rif beradi. L. G. Svitich "Axborot tushunchasi ko'p ma'noga ega, lekin umumiy falsafiy, metolingvistik ma'noda potensial, keng yoritilgan real mohiyatlarning majmui"<sup>23</sup> deb tushunadi. *Axborot - obyektiv reallikning muhim qismini ifodalovchi tushuncha bo'lib, o'zini saqlash, qayta ishlash va ta'sir natijalari (izlari)dan foydalanish uchun mo'ljallangan moddiy tizimlarda namoyon bo'ladi.* Obyektivlik, moddiylashtirish va uzatish imkoniyatining mavjudligi - axborotning muhim xususiyatlari bo'lib, «axborot», «ma'lumot», «bilim» tushunchalari ko'pincha bir-biriga o'xshatiladi. Bu qisman shu bilan izohlanadiki, bir darajada axborot sifatida amal qiluvchi dalillar boshqa darajada ma'lumotlar sifatida amal qilishi mumkin. Masalan, radio yoki televideniye muxbiri intervyu jarayonida muayyan axborot oladi. Bu axborot jamoatchilik fikrini o'rganish markazi uchun ma'lumot bo'lib xizmat qiladi. Mazkur markaz tomonidan e'lon qilingan

<sup>19</sup> Винер Н. Кибернетика и общество. –М.: Наука, 1991. –С.620.

<sup>20</sup> Попов Л. Информациология и информационная политика. –М.: Луч, 1999. –С. 27

<sup>21</sup> Эшби Р. Массовая информация: стратегия и тактика потребления. –М.: Дело, 1993. –С.469

<sup>22</sup> Моль С. Информационное воздействие в современном мире. –М.: Крымский мост, 2004. –С. 484.

<sup>23</sup> Свитич Л.П. Социальная информациология. –М.: Алгоритм, 2000. –С.250

axborotdan, o'z navbatida, yuqori idora tahlil uchun ma'lumot sifatida foydalanishi mumkin. *Ma'lumotlar muayyan xulosa chiqarish yoki qaror qabul qilishga xizmat qiladi. Ular saqlanishi, uzatilishi va berilishi mumkin, ammo axborot sifatida amal qilishi mumkin emas.* «Ma'lumotlar» tushunchasi o'zaro bog'liq bo'lmagan dalillar majmuini aks ettiradi. Ma'lumotlarni tahlil qilish, aloqalarini aniqlash, eng muhim dalillarni ajratish va ularni sintez qilish yo'li bilan axborotga aylantirish mumkin. Shu bois axborot ma'lumotlarga qaraganda ko'proq qimmatga ega bo'ladi. *Axborot bu oqilona foydalanish uchun muayyan shaklga solingan ma'lumotlardir.* O'z navbatida, axborot bloklarini tegishli tarzda ishlov berib yaxlit bilim korpusiga aylantirish mumkin. Ammo har qanday axborot ham bilim bo'la olmaydi, axborot tushunchasi bilim tushunchasidan kengroq. Masalan, yog'ayotgan yomg'ir axborot beradi – tabiat hodisasini belgilaydi, ammo ob-havo haqida – uning o'zgarishi, isishi, sovishi, qulay kun vaqti yoki yil mavsumi va hokazolar to'g'risida bilim bermaydi. Bilim – bilish faoliyatining natijasi, mazkur faoliyat yordamida olingan borliq haqidagi tushunchalar tizimi. Binobarin, har qanday bilim ham axborot beravermaydi. Faqat muayyan darajada o'rganilgan, isbotlangan, zarur o'zgartirishlar kiritilgan, muayyan darajada, tilda (ovozlar, imo-ishoralar, rasmlar va b.) qayd etilgan va ifodalangan axborotga bilim deb qarash mumkin. Bilim, ijtimoiy va tabiiy borliqning belgi shaklidagi ideal in'ikosi sifatida, axborotdan farqli o'laroq, shaxsiy insoniy hodisa hisoblanadi, u subyektiv shaklda mavjud bo'ladi. Axborot nafaqat subyektiv shaklda (bilim shaklida), balki obyektiv shaklda ham mavjuddir. U o'zining bevosita yaratuvchisidan ajratilib boshqa moddiy tashuvchilarda mustahkamlanadi. Axborot doim aloqa tarmoqlari orqali bilim berish xususiyatiga ega, bilim esa doim o'z yaratuvchisining shaxsi bilan bog'liq. Boshqa tomondan, agar biz axborotni faqat formallashtirilgan bilim deb, bilimni esa ongning mavjudligi shakli deb tushunadigan bo'lsak, bilim tushunchasi axborot tushunchasidan kengroq. Biron bir simvol yoki simvollar guruhi o'zining faqat fizik xususiyatiga ko'ra bilim bo'la olmaydi. Ular bilimga aylanishi uchun muayyan ma'noga ega bo'lishi va faoliyat uchun asos bo'lib xizmat qilishi, ma'lum pragmatik munosabatlarga kirishishi lozim. Bilim jarayon yoki narsa emas, balki subyekt bilan obyekt o'rtasidagi munosabatlarning alohida tizimidir. Bilim insonning borliqqa nisbatan amaliy munosabatda bo'lishi jarayonida yuzaga kelgan, inson faoliyatining zarur sharti hisoblangan borliqning hissiy va mantiqiy shakllardagi in'ikosidir. Bilim tarkibida doim axborot mavjud, lekin bu «insoniy» axborot o'z xususiyatlariga ega. Bilim – inson ongining tarkibiy qismi, ular bilan chambarchas bog'liq. Ong, bilimdan tashqari, hissiyot, kayfiyat, sezgi, iroda va hokazolarga ham ega. Axborot kommunikativ jarayonga qo'shilib, bilim muayyan shaxsning boyligiga aylanishiga imkoniyat yaratadi. Bilim - subyekt ongining mazmuni, bilish faoliyatining natijasi, amalda mavjud predmetlarga bog'langan

bilish obrazlari majmui. Muayyan subyekt bilimining mazmuni hech qachon idrok etilgan axborot mazmuni bilangina cheklanmaydi. Idrok etish bilimning alohida turi sifatida olingan axborotni anglab yetish, tushunish, talqin qilishni nazarda tutadi. Insoniyat ilgari hozirgidek jadal sur'atlarda axborot to'plamagan. Bu ilmiy bilimlarning o'sishiga xosdir. Axborot ijtimoiy - iqtisodiy, texnologik va madaniy taraqqiyotning muhim resursidir; undan foydalanish masshtablari, an'anaviy resurslardan foydalanish (energiya, xom ashyo va h.k.) masshtablariga teng. Axborotga sarf qilingan mablag' makroiqtisodiy ahamiyatga ega, shu sababli uning jamiyatdagi ahamiyati kundan kunga ortmoqda. Axborot bilan ishlash usullari o'zgarmocda, yangi axborot texnologiyalarini qo'llash sohalari kengaymoqda. Axborot o'z subyeksi va obyekti (manbai) o'rtasidagi o'zaro aloqa jarayonining mahsuli (natijasi) sifatida vujudga keladi. Axborot murakkab tarkibli tizimlarda aks ettirilgan rang-baranglikning boshqaruvga xizmat ko'rsatuvchi muhim qismi, kommunikatsiya vositasi sifatida namoyon bo'ladi. U bir qancha xossalarni o'zida mujassamlashtiradi - nafaqat aks ettirish, boshqarish, balki aloqa vositasi sifatida ham amal qiladi. Bu yerda axborotning kommunikativ jihati birinchi o'ringa chiqadi. Axborot-obyektiv reallikning muhim qismini ifodalovchi tushuncha bo'lib, o'zini saqlash, qayta ishlash va ta'sir natijalari (izlari)dan foydalanish uchun mo'ljallangan moddiy tizimlarda namoyon bo'ladi. Axborot bu tizimlarning faoliyati jarayonida o'z mazmuniga ega. Obyektivlik, moddiylashtirish va uzatish imkoniyatining mavjudligi — axborotning muhim xususiyatlaridir. «Axborotni o'rganish axborotboshqaruv jarayonini tahlil qilish bilan uzviy bogliq, chunki axborot unda funksional xossa sifatida mavjuddir»<sup>24</sup>. Ilmiy bilimlar hajmining o'sishi bilan bog'liq bo'lgan demokratik jamiyat sharoitida bilimning yangi shakllarini izlash muammosi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu muammo asosan bilimni semiotika vositalari yordamida soddalashtirish yo'li orqali shaklan o'zgartirish bilan bog'liq. Axborotning evristik mazmunini o'rganishda informatsion vaziyatning quyidagi unsurlari muhim o'rin tutadi: 1) axborot subyeksi (axborot oluvchi, uni o'zgartiruvchi va undan foydalanuvchi), axborot obyekti (axborot manbai): subyekt bilan o'zaro aloqaga kirishadi; 2) ehtiyojlar: aks ettirilgan rang-baranglikning muhim qismini tanlash masalasini yechadi. Subyektning qizg'in izchil faoliyati axborotning shakllanish jarayonida muhim omillardan biri sifatida amal qiladi. Tashqi ta'sirlardan axborot obyektining subyektga ta'siri, ta'sirni kodlashtirish va modellashtirish, teskari aloqa, subyektning bilim darajasi ta'sirida o'zgarish va hokazolarni qayd etish mumkin. Axborot va bilim o'rtasida chuqur dialektik aloqa mavjud. Bu aloqa shu qadar chuqurki, ba'zan axborot va bilim tushunchalari kundalik amaliyotimizda, ayniqsa,

<sup>24</sup> Тураев Б. Информационное свойство пространства и времени // Естественное знание и философия. III международный семинар. – СанктПетербург: 1992. – С.64

hozirgi kunda informatsion portlash deb nom olgan inson bilimining jadal o'sishi haqida so'z yuritilganda bir-biriga o'xshatiladi. *Bilimning informativligi bilish faoliyatining barcha sohalari, kommunikativ jarayonlarda muhim ahamiyatga ega.* Bunda «kundalik amaliyot, ishlab chiqarish faoliyati, odamlar o'rtasidagi munosabatlarda aloqa texnikasi ma'nosidagi axborot miqdori emas, balki avvalo axborotning mazmuni yoki boshqacha aytganda informativlik muhimdir. Zotan, axborot miqdori qancha ko'p bo'lmasin, agar u idrok etilmasa, tushunib yetilmasa, undan zarracha naf bo'maydi»<sup>25</sup>. Bilimning informativligi borliq qonunlarini aniq aks ettiruvchi va insonga uning amaliy-o'zgartirish va bilish faoliyatida xizmat qiluvchi tushunchalar, mulohazalar, konsepsiyalar, nazariyalar va bilimning boshqa shakllarida ifodalangan muhim axborot majmuidir. *Bilim informativligining mazmunini quyidagilar tavsiflaydi: 1) yoritilayotgan masalalarning muammoliligi; 2) o'rganilayotgan obyektning xossalari, aloqalari va munosabatlarini aniq aks ettiruvchi bilimning muhimligi va o'ziga xosligi; 3) axborotning yangiligi, agar u amalda ijtimoiy ahamiyatga ega va o'zlashtirilgandan so'ng foydalanuvchining munosabatini o'zgartirishi mumkin bo'lsa; 4) axborotdan faoliyat jarayonida foydalanayotgan subyekt maqsadlari va vazifalariga muvoftqligi; 5) bilimning tushuntiruvchi, bashorat qiluvchi va uyushtiruvchi kuchi; 6) bilim mazmuni mantiqiy-gnoseologik o'zagingining xususiyati sifatidagi bilimning invariantligi; 7) bilimning nomuayyanlik darajasi.*

Ilmiy bilimning informativligi fanning hozirgi davrdagi rivojlanish qonuniyatlari, avvalo uning samaradorligini oshirishga ko'maklashuvchi bilishdagi integratsiya jarayonlari bilan belgilanadi. Fanning integratsiyalashuvi informativlikning muhim xususiyatlaridan biri - bilimning tushuntiruvchi va bashorat qiluvchi kuchini oshiradi. Ilmiy bilishga informativlikni invariantlik orqali tahlil qilish xos bo'lib, ko'p jihatdan konseptual tizimlarning tushuntiruvchi kuchi yordamida ifodalanadi. Hozirgi zamon fanining mantiqiy-gnoseologik asoslaridan biri bo'lgan integratsiya bilimning informativlik darajasi va asosiy information imkoniyatlarini o'zgartiradi. Bu bilimning bir darajasidan boshqa darajasiga, narsalar va hodisalar mazmunini yanada teranroq aks ettiruvchi bilimga o'tishi bilan bog'liq. Integratsiya nazariy tizimlarning teranligini oshirib, nazariya va empirik ma'lumotlarning qo'llanish doirasini kengaytiradi. Nazariya mazmunining yanada teranlashuvi informativlik darajasining oshishiga, tushunchalar haqidagi axborotning integrativ jarayonlarga ta'sir ko'rsatish imkoniyatini ro'yobga chiqarishga ko'maklashadi. Fanning integratsiyalashuvi tizimlarning informativligini ularning o'zaro aloqasi asosida ro'yobga chiqarish mexanizmi hisoblanadi. Bilimning informativligi ilmiy faoliyatni o'zgartirish, bilish, ijtimoiy-kommunikativ va psixologik jihatlarini qayd etishni taqozo qiladi.

<sup>25</sup> Бирюков Б.В. Кибернетика и методология науки. – М.: Наука, 1994. –С.315.

Ilmiy axborot kommunikativ jarayonga qo'shilib, bilimning samaradorligini oshirish vositasiga aylanadi. Bu bilimning informativligiga nisbatan gnoseologik va sotsiologik yondashuvlarning birligi bilan belgilanadi. Sotsiologik yondashuv shuni ko'rsatadiki, bilimning informativlik darajasini moddiy ishlab chiqarishning o'sishi, moddiy o'zgartirish faoliyati asosiy vazifalari kompleks, integrativ xususiyatining kuchayishi ham, ilmiy kommunikatsiyalarning rivojlanishi ham oshiradi. Bilimning yangi unsurlari vujudga kelishida ijtimoiy-kommunikativ jarayonga qo'shilgan, o'zlashtirilgan ijtimoiy muhim unsurlar faol ishtirok etadi. *Ijtimoiy axborot - bilimning shunday bir qismiki, u muayyan moddiy jismlarda qayd etilgan va belgilar tizimida ifodalangan holda ijtimoiy-kommunikativ, subyektlararo jarayonga qo'shilib idrok etiladi va insonning bilim darajasini o'zgartiradi, shuningdek uning o'zi ham o'zgartirilib, undan faoliyatning turli jabhalarida foydalaniladi.* Shu ma'noda bilim tushunchasi olimning bilim jarayonini gnoseologik tomondan, axborot tushunchasi esa, asosan kommunikativ tomondan tavsiflaydi. Inson faoliyatining o'ziga xos tomoni axborotni talqin qilish imkoniyatidan yetarli foydalana olishida. Biroq bilish faoliyatining gnoseologik (aks ettirish) va kommunikativ jihatlarining farqlanishi (tegishli ravishda bilim va axborotning farqlanishi) ularning mushtarakligini tushunish bilan to'ldirilishi lozim. «Axborot kommunikativ jarayonga qo'shilib, bilim muayyan olimning qadriyatlari jabhasida rivojlanishiga ko'maklashadi»<sup>26</sup>. Ijtimoiy axborotni o'zlashtirish uchun uni anglab yetish va talqin qilish lozim. *Ijtimoiy axborot jarayoni ikki faoliyat turi - interiorizatsiya va eksteriorizatsiyaga asoslanadi. Interiorizatsiya insonning ijtimoiy-kommunikativ jarayonlarda moddiylashgan ijtimoiy (shu jumladan ilmiy) axborotni anglab yetish, uni ijodiy o'zgartirish borasidagi faoliyati, eksteriorizatsiya yangi axborot yaratish borasidagi faoliyatdir.* Shu sababli inson bilish faoliyatida gnoseologik, ijtimoiy-kommunikativ va psixologik jihatlar mushtarakdir. Tabiat, jamiyat va tafakkur haqidagi mavjud axborotni o'zlashtirish jarayonida insonda anglab yetilmagan obyektlar va jarayonlarni bilishga ehtiyoj tug'iladi. U subyektlararo kommunikativ jarayonga qo'shilib, bilish ehtiyoji obyektiga aylanadi va ijtimoiy merosning funksional-genetik tarkibiga «o'rinish», yana interiorizatsiyani keltirib chiqaradi. Insonning faoliyatida bilim til, hujjat, texnika va boshqa tizimlar ko'rinishida moddiylashadi (obyektivlashadi) va rivojlanib, ijtimoiy axborotdan keng foydalanish mumkin bo'lgan yaxlit izchil amaliyotda mujassamlashadi. Faoliyat vositalari sifatida nafaqat moddiy vositalar (mehnat qurollari, asboblari va h.k.), balki obyektivlashgan bilim, axborotning texnik va operatsional-metodik unsurlari, bevosita va teskari aloqa yo'llari, axborot tanlashni belgilovchi «mezonlar tizimi»dan ham foydalaniladi. Bilimni rivojlantirish individual va ijtimoiy

<sup>26</sup> Шульман Е.А. Социальное реагирование на информацию. – Т.: Узбекистан, 1993. – С.80.

shakllarining o‘zaro aloqasi inson faoliyatining kommunikativ jihatini aks ettiradi. Ijtimoiy axborot faoliyat predmeti, vositasi va mahsuli sifatida amal qiladi. Ijtimoiy axborot ijtimoiy-kommunikativ jarayon bilan uzviy bog‘liq, chunki bilish mahsuli (natijasi) va bilish jarayoni bilan mushtarakdir. Ijtimoiy axborot axborot oqimlarida moddiy omillar (so‘z, matn va h.k.) yordamida ro‘yobga chiqariladi. Statik ko‘rinishda ijtimoiy axborot ijtimoiy ma’no kasb etmaydi. Ijtimoiy axborotning muhim belgilaridan biri uning insonning o‘zini qurshagan dunyo haqidagi bilim darajasini o‘zgartirish qobiliyatidir. Ijtimoiy axborot inson ongida aks etgan oddiy bilim emas, balki bizning ongimizda o‘zgarishlar yasaydigan, ruhiyatimiz darajasida faol amal qiladigan, o‘zligimizdan mustahkam o‘rin oladigan bilimdir. Ijtimoiy axborotning bilish faoliyatida foydalaniladigan alohida turi – ilmiy axborotdir. *Ilmiy axborot - ilmiy bilish jarayonida olingan, tushunchalar, mulohazalar, xulosalar, nazariyalar va gipotezalar tizimida qayd etilgan, tabiiy yoki sun‘iy belgilar iizimi yordamida ifodalangan, obyektiv borliqni olimning ma’naviy faoliyati natijalari orqali aniq aks ettiradigan va ijtimoiy - tarixiy amaliyotda foydalaniladigan ijtimoiy ahamiyatga molik va mantiqiy jihatdan (shaklan) umumiyashtirilgan axborot.* Bilimning yangilik darajasini tekshirish uchun uni ayrim shaxs emas, balki butun jamiyat rivojlanishining muayyan tarixiy bosqichida shakllangan bilim bilan solishtirish lozim, chunki bir shaxs uchun yangi hisoblangan axborot boshqa shaxs uchun doim ham yangi bo‘lavermaydi. Shu sababli *ilmiylik talabiga javob beruvchi, ilgari aniqlangan ilmiy bilimlar ro‘yxatida bo‘lmagan bilimning u yoki bu birligi «yangi» deb ataladi.* Shu munosabat bilan moddiy va ma’naviy dunyo faoliyati va rivojlanish qonuniyatlari haqida jamiyatga ilgari ma’lum bo‘lmagan axborot ifodalangan bilim yangi deb hisoblanishini qayd etish muhimdir. Ayni vaqtda, ijtimoiy muhim bilimlarning yangilik darajasini berilayotgan axborotning nafaqat mazmuni, balki shakli nuqtai nazaridan ham baholash lozimligini hisobga olish kerak. Ilmiy bilimlar hajmining o‘ssishi natijasida fanda amal qilayotgan bilimning yangi shakllarni izlash muammosi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu muammo asosan bilimni semantik soddalashtirish orqali shaklan o‘zgartirish bilan bog‘liq. Obyektiv hodisalar va jarayonlarni aks ettiruvchi ilmiy axborot ularga xos bo‘lgan muayyanlikni ham, nomuayyanlikni ham qayd etishi lozim. Axborotning bunday xossalari birligi A.D.Ursul tomonidan asooslangan: «Ilmiy axborotning nomuayyanligini, ayniqsa kelajakni aks ettirish bilan bog‘liq noaniqlikni hisobga olishi kelajakni bashorat qilish metodlarini o‘rganuvchi shakllanayotgan ilmiy yo‘nalishlarni ilmiy-texnik prognoz qilishning «aksiomalari»dan biridir»<sup>27</sup>. Ilmiy bilimning turli sohalarida ilmiy tafakkur uslubining shakllanishiga semantik axborotning nomuayyanligi haqidagi g‘oyalar ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Bilishning

<sup>27</sup> Урсул А. Д. Диалектика определенности и неопределенности. -Кишинев, 1996. –С.61

rivojlanishi noto'liq va nomuayyan axborotdan to'liqroq va muayyanroq axborotga o'tishni taqozo etadi. Olimga kerak bo'lgan bilim mavjud bilimning nomuayyanligini kamaytirishi, ko'proq axborot berishi lozim. Ilmiy axborot hajmi ijtimoiy axborot hajmidan ancha ko'p, ularning mazmuni esa rang-barangdir. Ilmiy axborotda emotsiyalar, kechinmalar, dunyoni idrok etishning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq individual ruhiy unsurlar namoyon bo'lishi mumkin. Ilmiy axborot kompleks tuzilma sifatida murakkab bo'lib, olim ilmiy faoliyatining ko'pgina tomonlari bilan belgilanadi.

Informatika va informatizatsiya. XX asrda insoniyat rivojlanishining muhim xususiyatlari qatorida kompyuterlar paydo bo'lib, axborotlashgan jamiyat jadal sur'atlarda o'sdi. *Informatika (fransuzcha information — axborot va automatique - avtomatika) - axborot olish, unga ishlov berish, uni saqlash va taqdim etish jarayonlarini tadqiq qilish; jamiyat hayotining barcha sohalarida axborot texnikasi va texnologiyasini yaratish, amaliyotga joriy etish va ulardan foydalanish masalalarini hal qilish bilan shug'ullanuvchi fan-texnika faoliyatidir.* Informatika texnik vositalari axborot texnologiyasining negizini tashkil etadi<sup>28</sup>. Informatika vositalari rivojlanishining tarixiy bosqichlarini quyidagicha tasniflash mumkin: informatika tabiiy vositalari (insoniy - imo-ishora, raqs, nutq; tabiiy - olov, belgi); informatika mexanik vositalari (o'rta asrlar telegrafi, matbaachilik, hisoblash moslamalari, arifmometr); informatika elektr vositalari (telegraf, telefon, kino); informatika elektron vositalari (televizor, kompyuter, printer). Ilmiy bilimlarni o'quv bilimlariga aylantirish jarayonida informatika katta rol o'ynaydi. Informatika har xil ta'lim dasturlari tuzish, nazorat masalalarining nazorat yechimlari algoritmlarini ishlab chiqish, rasmi, grafikli, diagrammali, jadvali, formulali va chiroyli sarlavhali matnlar tuzish, laboratoriya topshiriqlarini ishlab chiqish, o'rganilayotgan materialning o'zlashtirilishi ustidan nazorat qilish orqali fanning eng yangi yutuqlarini ta'lim jarayoniga nisbatan tez kirib kelishiga imkoniyat yaratadi. Hozir informatika usullari va vositalari insonning butun tafakkuriga katta ta'sir ko'rsatmoqda - nazariy-informatsion yondashuv va kompyuterlar odamlar turmushiga kirib bormoqda. Informatika nazariya, obyektiv borliqqa yangicha nazar va texnika vositalari majmui sifatida ilmiy bilishga, ilmiy tadqiqotlarni tashkil etishga va ularning natijalarini amalga tatbiq qilishga juda katta ta'sir ko'rsatmoqda. Qadimdan meros qolgan ilmiy tafakkurning eski oqilona usuli, mavhum tushunchalar va deduktiv mulohazalarga asoslangan dalillar o'zgarmoqda. Murakkab nazariyalarni bevosita tekshirish hamda bunday tekshiruv natijalarini son ko'rinishida ifodalash imkoniyati paydo bo'lmoqda, ularni turli fanlarda tadqiq qilishga nisbatan miqdoriy yondashuv doirasi kengayib bormoqda.

<sup>28</sup> Shermuxammedova N.A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi /darslik/, Ikkinchi nashr. Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2021, 450 b.

Fan juda ulkan axborot to'plamiga katta tezlikda ishlov berish imkoniyatiga ega bo'ldi. Dunyo miqyosidagi axborot tizimlari, internet orqali ilmiy faoliyatning baynalminallashuvi sodir bo'lmoqda. Kompyuterlar ilmiy faoliyatning cheklanganligini bartaraf etmoqda.

Axborot vositalarini keng jalb qilganda bilishning boshqa vositalari yaratiladi, umumiy qonuniyatlarni ifodalovchi yangi darajadagi kengroq va chuqurroq umumlashtirish amalga oshiriladi. Bunda alohida, umumilmiy tushunchalar turkumi: tizim, struktura, element, boshqaruv, modeldan foydalaniladi. Bu turkumga informatika tushunchalari: algoritm, ma'lumotlar banki, axborot va boshqalar qo'shilganda turli fan tushunchalarini o'zaro taqqoslash va umumilmiy tilni ishlab chiqish imkonini beruvchi konseptual sxema yaratiladi. Natijada alohida bilim shakli - kompleks bilim yuzaga keladi. Kompleks bilim hajmi tadqiqotda ishtirok etayotgan fanlarning bilim hajmidan ko'proq bo'ladi va tadqiq qilinayotgan obyekt mohiyatini bilimning boshqa darajasida aks ettiradi. Shu narsa diqqatga sazovorki, informatika fanlarning o'zaro aloqasida, umumiy ilmiy tilni ishlab chiqishda ishtirok etibgina qolmasdan, balki ilmiy bilimning mustaqil sohasi sifatida boshqa fanlar bilan o'zaro ta'sirga kirishib, ilmiy bilimning yangi sohalari - axborot psixologiyasi, mexatronika, axborot iqtisodiyoti, ijtimoiy informatika va boshqalarni vujudga keltiradi.

Odatda til, yozuv, matbaachilik va zamonaviy texnologiyalarning kashf etilishi bilan bog'liq axborot inqiloblari qayd etiladi. Bunday inqiloblar sifat jihatidan har xil jamiyatlar paydo bo'lishiga olib kelgan. Bu fikr ijtimoiy rivojlanishning boshqa sabablarini inkor etuvchi texnokratik determinizm hisoblanadi. Ammo axborotning yo'qligi kishilik jamiyatining rivojlanishini ma'lum darajada cheklaydi. Shu bois D. S. Robertsonning quyidagi fikriga qo'shilish mumkin: «Yangi sivilizatsiyaga o'tilishiga olib kelgan har bir informatsion portlash odamlarning turmush tarzi, madaniyati va h.k.ni tubdan o'zgartirgan. Yangi darajadagi sivilizatsiyaga o'tishga olib keluvchi hozirgi informatsion portlash oldingi barcha portlashlardan kuchli va salmoqliroqdir»<sup>29</sup>.

Inson texnik vositalar yordamida o'z organizmining psixofiziologik cheklanganligini yengishga harakat qilib, axborot texnikasiga aqliy mehnat, axborotga ishlov berish va hatto ayrim mavhum fikrlash funksiyalarini yuklamogda. Zamonaviy axborot texnik vositalarining paydo bo'lishi fan-texnika taraqqiyotining ilg'or yutuqlari - elektron sanoat, aloqa texnik vositalari, audiovizual texnikaga asoslanadi. Informatika fan va ishlab chiqarishning yangi munosabatlarini o'zida mujassamlashtirdi. Kompyuterlar rivojlanishi hozirgacha besh avlodni o'z ichiga oladi. 1937-yilda amerikalik fizik J. Atanasovda

---

<sup>29</sup> Robertson D.S. Informatsionnaya texnologiya. Moskva: Progress, 1998. -24.

dissertatsiya ustida ishlash jarayonida hisoblash amallarini avtomatlashtirish g'oyasi tug'iladi va o'z aspiranti K. Berri bilan hamkorlikda kompyuter modelini yaratadi. Bu modelni ular 1942-yilgacha takomillashtiradilar. Ayni shu vaqtda bu yo'nalishda AQShda A. Felirs va Rossiyada S. A. Lebedev ham ish olib bordi. Sal keyinroq elektron lampalarda ishlaydigan kompyuterlar - AQShda ENIAK va Angliyada KOLOS kompyuterlari yaratildi. 1946- yilda J. Fon Neyman kompyuterlar yasashga oid bir qancha yangi g'oyalar taklif qildi<sup>30</sup>. Mana shu g'oyalar negizida hozirgacha mavjud kompyuterlar arxitekturasini yaratildi. 1949-yilda Buyuk Britaniyada konstruktor M. Uilks J. Fon Neyman g'oyalarini EDAK mashinasida texnik jihatdan gavdalandirib, saqlanadigan dasturli birinchi kompyuterni yaratdi. Sal keyinroq, 1951-yilda Rossiyada MEVM kompyuteri yaratildi. Saqlanadigan dasturli lampali kompyuterlarni seriyali ishlab chiqarishga o'tilishi bilan birinchi avlod kompyuterlari davri boshlandi. Informatsion portlash axborot inqirozini keltirib chiqardi, ya'ni o'sib borayotgan axborot hajmi bilan uni idrok etishning cheklangan imkoniyatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga keldi. Informatsion portlash odamlarni ma'lum darajada shoshirib qo'ydi, ammo odamlar muammoni yuzaga keltirgach, qoida tariqasida, uning yechimini ham topadilar. Informatikaning yangi vositalarini ishlab chiqish fanning ilg'or yutuqlaridan foydalanishga asoslanadi va, o'z navbatida, ilmiy bilimning yangi sohalari shakllanishi va rivojlanishiga turtki beradi. Insoniyat hamda inson faoliyati turli sohalarining globallashtirishida internet katta rol o'ynaydi. Internet — jahon axborot tizimi yoki bir-biri bilan uzluksiz bog'langan tarmoqlar birlashmasidir. Mazkur tarmoqqa ulangan har qanday kompyuter boshqa kompyuter bilan bir lahzada bog'lanishi mumkin.

Sun'iy intellekt. Intellekt (lotincha intelligence- aql, insonning fikrlash qobiliyati) insonning tafakkuri mahsuli, sun'iy intellekt (artificial intelligence) inson faoliyati sohasiga tegishli vazifalarning avtomatik qurilmalarda bajarilishini nazarda tutiladi. Shu nuqtai nazardan sun'iy intellektning ikki xil ta'rifi mavjud: sun'iy intellekt - insonning aqliy faoliyatiga tenglashtirilgan amaliy jarayon va sun'iy intellekt kompyuter yordamida inson tafakkurini imitatsiyasi bilan shug'ullanuvchi informatikaning bir bo'limi. Bunga tabiiy tilda dialogni davom ettiruvchi informatik tizimlar (tabiiy til interfeyslari), turli vaziyatlarda foydalanuvchiga maslahat beruvchilar (masalan, avtomobillardagi navigatorlar), amaliy vazifalarni dasturlashtirishsiz bajaradigan amaliy dasturlarning intellektual paketlari va h.k. Tabiiy til interfeyslari EHM bilan ular yaratilgan davrdan boshlab muloqot qilishning eng qulay usuli hisoblanadi. Bu foydalanuvchiga buyruq tilini o'rganish yoki kompyuterda boshqa vazifalarni yechish bo'yicha qulaylik yaratadi.

---

<sup>30</sup> Raxmonqulova S.I. Shaxsiy kompyuterlarda ishlash. Toshkent.:Universitet.1996.. B.86.

Shu bois, bunday interfeyslarni yaratish amaliyoti XX asrdayoq boshlangan. Ekspert tizimlari dastlab tibbiyotda qo'llanilgan.

#### YODDA TUTING

Ilmda axborot haqqoniy dalillar, ma'lumotlar va isbotlarga tayanishi kerak. Barcha ilmiy nashrlar - bu yangi, haqqoniy dalillar, kuzatishlar, umumlashtirishlar haqidagi xabarlar. Haqqoniy bo'lmagan axborot ilmda real voqelikka zid bo'lgan axborot kabi chetlatiladi.

Axborotni ma'lum bir model asosida uzatish lozim:

1. Berilgan axborotning maqsadi.
2. Kimga mo'ljallangan
3. Axborotning hajmi
4. Axborotning mazmuni(og'zaki, yozma)

Axborot mazmun va tasavvur qilish shakliga ega.

Axborotda eng asosiysi – bu uning ma'nosi, mazmuni. Axborotning mazmuni qanday maqsadlar uchun va qanday yo'l bilan axborot qo'llanilishini aniqlab beradi. Axborot olgan kishi mazmuniga qarab yangiligi, mazmundorligi, qisqaligi, tushunarligi, o'zgaruvchanligi kabi axborot xususiyatlariga baho beradi. Axborotning har bir xususiyatini baholash mumkin. Agar axborotning o'zgaruvchanlik xususiyati haqida gapiradigan bo'lsak, axborot turg'un (doimiy, o'zgarmas) va dinamik (o'zgaruvchan) bo'lishi mumkin.

Axborot bir necha xususiyatlarga ega.

Agar axborot ishning haqqoniy holatini aks etsa, u ishonchli hisoblanadi. Ishonchsiz axborot esa noto'g'ri xulosa chiqarishga olib keladi. Agar axborot kimningdir fikri yoki mulohazasiga bog'liq bo'lmasa, bu axborot obyektiv hisoblanadi. Obyektiv axborotni, masalan, to'g'ri ishlaydigan o'lchov asboblardan olish mumkin. «Avtomobil katta tezlikda harakatlanayotgan edi» kabi xabar subyektiv axborot. «Avtomobil 100 km/s tezlik bilan harakatlanayotgan edi» kabi xabar to'g'ri ishlaydigan spidometrda o'lchansa, obyektiv axborot bo'ladi.

Agar axborot xulosa qilishga yetarli bo'lsa, u to'liq bo'ladi. To'liq bo'lmagan axborot xato xulosa va harakatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, «Ko'chada temperatura 10 daraja» kabi xabarda issiq yoki sovuqligi aytilmasa, inson ustki kiyimni noto'g'ri tanlashiga olib keladi.

Agar axborot hozirgi paytda zarur bo'lsa, u dolzarb bo'ladi. Masalan, do'stlar kelishi haqidagi telegramma o'z vaqtida ularni kutib olish imkonini beradi. Eskirgan, bevaqt yoki ahamiyatsiz axborot inson uchun dolzarb bo'lmaydi.

Inson tushunarli bo'lgan tilda bayon etilsa, axborot tushunarli bo'ladi.

Olish imkoniyati bo'lganda axborot ochiq bo'ladi. Turli to'siqlar axborotni yopiqqa aylantirishi mumkin. Masalan, arxivdagi maxfiy hujjatlarni bu arxivga

kirish huquqi bo'lmagan kishilar ololmaydi. Shu sababli bu kishilar uchun arxivdagi hujjatlar yopiq hisoblanadi.

Har bir inson o'zi uchun olingan axborot foydali va muhim ekanligi haqida hukm chiqaradi. Axborotning asosiy xususiyatlarini bilish insonga olingan axborotni to'g'ri baholash hamda to'g'ri qaror qabul qilishga yordam beradi.

Inson doimiy ravish atrof muhitdan axborot oladi, uning xususiyatlarini tahlil qiladi, muhim qonuniyatlarni aniqlaydi va buning ortidan dunyoni bilib oladi. Axborotni tushunish, uni tahlil qilish va amaliyotda qo'llash orqali insonda bilimlar shakllanadi. Bir axborot turli insonlarda turlicha bilimlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shakllangan bilimlarni inson o'z faoliyatida qo'llaydi. Ayni damda inson faoliyati uning atrof- muhit haqidagi bilimlarining ko'payib borishiga yordam beradi.

Axborot bilan inson tug'ilishi bilanoq to'qnashadi.

Axborot insonga quyidagilar uchun kerak:

Yechim qabul qilish uchun (biron-bir ishni qilishdan avval inson nimani va qanday qilishini aniqlab olishi kerak);

Rivojlanish uchun (axborotni qabul qilib va u bilan ishlab inson xotira va aqlni rivojlantiradi);

Ehtiyojlarini qondirish uchun (insonga qiziqarli kitob, chiroyli musiqa, rasm, sportchilarning hayajonli janglari kerak).

Inson miyasi doim ishlaydi – kunduzi hissiyot organlaridan olgan signallarni qabul qiladi va qayta ishlaydi, kechqurun esa miya faoliyati natijasida tushlar paydo bo'ladi. Inson uchun eng xavflisi – bu axborot bo'lmashligi.

Axborot nafaqat inson hayotida, balki butun insoniyat jamiyati hayotida muhim o'ringa ega. Jamiyat mavjudligining asosi axborot almashinishdan iborat.

Axborot almashinish tufayli jamiyat alohida jamiyat a'zolarini birlashtira oladi. Agar insoniyat jamiyatini nazarda tutsak, ijtimoiy jamoa tuzumidagi odamlarning bargalikda ovga chiqishlari bir-birlari bilan axborot almashinishlari orqali amalga oshgan. Axborotning birlashtiruvchilik roli hozirgi kunda ham o'zgargani yo'q – insonlarning katta jamoasini maqsad sari yo'naltirishning boshqa usuli yo'q (axborot almashinishdan tashqari).

Axborot jamiyat hayotida boshqarish uchun qo'llaniladi. Jamiyat hayotining turli tomonlarini boshqarish uchun bir necha axborot vositalari (qurilmalari) yaratilgan. Oddiy misol – yo'l svetofori – harakat qatnashchilariga avtomatik tarzda ma'lum bir rangdagi signallarni yuborib yo'l harakatini boshqaradi.

Insoniyat jamiyatiga xos xususiyatlardan biri – avloddan avlodga axborotlarni uzatish va to'plashdan iborat. Zamonaviy ilm-fandan olingan ma'lumotlarga qaraganda, jamiyat darajasi jamiyatda to'plangan va qo'llaniladigan axborot miqdori bilan aniqlanadi. Shunday qilib, axborot jamiyatni tashkil qiladi,


boshqaradi va rivojlantiradi. Ta’kidlash joizki, axborot tabiatdagi barcha tirik organizmlar hayotida muhim rol o’ynaydi.

Axborot insoniyat jamiyatida axborot resurslari shaklida mavjud.

Axborot resurslari – bu insoniyat g’oyalari va ularni amalga oshirish mumkin bo’lgan shakldagi ko’rsatmalardir.

### **Tuushuncha xaritasi**

Akademik yozuv



**AXBOROT RESURSLARI** - bilimlarni (fanda, ta’limda, iqtisodiyotda) qo’llash bilan bog’liq faoliyat olib boruvchi foydalanuvchilarga saqlash (elektron va qog’ozli hujjatlar, kitoblar, filmlar va b.), to’plash, qayta ishlash va taqdim qilishga mo’ljallangan shakldagi axborot (matnli, grafikli, audio, video va b.)

Axborot resurslari, uni yaratganlar ishtirokisiz, bir necha marotaba qo’llanilishi mumkin. Bilimlarni saqlash obyekti bo’la turib, axborot resurslari bir vaqtda yangi bilimlarni egallashda boshlang’ich manba vazifasini o’tashi mumkin, o’z navbatida, ular axborot resurslari shaklida taqdim etilishi mumkin. Axborot resurslarini qo’llash yoki inson tomonidan yoki kompyuter dasturlari tomonidan talqin qilinishi mumkin. Axborot resurslari elektron shaklda (masalan, elektron hujjat fayllari) va boshqa shakllarda (qog’oz shaklidagi kataloglangan matnlar va

tasvirlar, kinoplyonkadagi kinofilmlar) mavjud. Axborot resurslari davlat va boshqa hujjat arxivlarida, kutubxonalarda (elektron shaklda ham), axborot tizimlari serverlarida saqlanadi. Har bir axborot resursi uning joyi, qo'llanish sohasi va boshqa ma'lumotlarga ega tasnifi bilan beriladi. Masalan, XX asr o'rtalarida kutubxonalarda bunday tasniflash katalog yashiklarida joylashtirilgan kartochkalarda aks etgan. Zamonaviy kutubxonalarda, arxivlarda, odatda, elektron kataloglar va qidiruv tizimlari qo'llaniladi. Elektron axborot resurslarini saqlashda qattiq disklar, optik disklardan foydalaniladi. Elektron axborot resurslari kompyuter axborot tizimlarida qo'llash uchun mo'ljallangan. Elektron to'plagichlarning ixchamligi, katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlay olishi, tez ishlashi hamda u bilan ishlashning qulayligi turli axborot resurslarini elektron shaklga (hujjatlarni va kitoblarni skanerlash, foto, videokameralar yordamida tasvirga olish) o'tkazishni taqozo etdi. Elektron shakldagi axborot resurslari (elektron ensiklopediyalar, elektron kitoblar) tezlik bilan an'anaviy ko'rinishdagilarni siqib chiqarmoqda. XX asr oxiri XXI asr boshlarida axborot resurslari ahamiyati jihatidan davlatning mehnat, energetik resurslaridan kam emas hatto milliy boylik sifatida qaraladi.

#### **MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:**

1. Akademik yozuv fani nimani o'rganadi?
2. Akademik yozuv qachon paydo bo'lgan?
3. Akademik yozuv fanining vazifalari?
4. Akademik yozuv nima va uning asosiy maqsadi nimadan iborat?
5. Akademik yozuvning uchta asosiy xususiyatini sanab bering.
6. Axborot tushunchasining ilmiy ta'rifini keltiring.
7. Axborotning manbaiga ko'ra turlari qanday? Misol keltiring.
8. Faktologik, analitik va konseptual axborot o'rtasidagi farq nimada?
9. Akademik yozuvda ishlatiladigan axborotning beshta asosiy xususiyatini ayting.
10. Iqtibos va adabiyotlar ro'yxatini rasmiylashtirishda GOST 7.1–2003 talablari nimalardan iborat?

#### **Topshiriqlar (amaliy ko'nikma uchun)**

##### **1-topshiriq**

Quyidagi jumlaning akademik yozuv talablariga moslab qayta yozing:

“Axborot deganda odamga kerakli hamma ma'lumot tushuniladi.”

##### **2-topshiriq**

Berilgan axborotlarni turkumlang (manbaiga ko'ra, shakliga ko'ra, tarkibiga ko'ra):

- a) 2024-yilgi PISA tadqiqoti natijalari hisobotidagi diagramma.
- b) “Constructivism in Education” nomli ilmiy maqolaga yozilgan sharh.

c) O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining yillik ma’lumotnomasi.

3-topshiriq

Quyidagi matndan birlamchi va ikkilamchi axborotlarni ajrating:

“Vigotskiy (1934) o‘z tadqiqotlarida til va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib, bolaning nutqiy rivojlanishi ijtimoiy muloqot jarayonida shakllanishini ta’kidlaydi. Ushbu g‘oyalarni tahlil qilgan Zalaletdinov (2020) esa ularning zamonaviy ta’lim jarayonidagi ahamiyatini izohlagan.”

4-topshiriq

Axborotning quyidagi xususiyatlariga mos misol yozing:

- Ishonchlilik
- Dolzarblik
- To‘liqlik

5-topshiriq

Maqola yoki dissertatsiyangizning bir bo‘limidan **5 ta iqtibos** yozing va ularni talablarga mos ravishda “Foydalanilgan adabiyotlar” ro‘yxatiga joylashtiring.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bailey, S. Academic Writing: A Handbook for International Students. -5th ed. London: Routledge, 2018. — 340 p.

2. Creswell, J. W., Creswell, J. D. Research Design: Qualitative, Quantitative, and Mixed Methods Approaches. -5th ed. - Los Angeles: SAGE Publications, 2018. - 304 p.

3. Файзуллаев, О. XX аср зиёлилари: устозларим ва сафдошларим. Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2008. -278 б.

3.ГОСТ 7.0–99. Информационно-библиотечная деятельность, библиография. Термины и определения. — М.: Изд-во стандартов, 1999. — 28 с.

4. Hart, C. Doing a Literature Review: Releasing the Social Science Research Imagination. — London: SAGE Publications, 2018. — 252 p.

5. Ibadova, F. M. Akademik yozuv - ta’lim oluvchilarda fikrlarini qisqa, ishonchli va ilmiy asoslangan matn orqali ifodalash kompetensiyalarini shakllantirish asosi sifatida // Xalq ta’limi. — 2024. — № 6. — B. 24–27.

6. Ibadova, F. M. Effective approaches to teach academic writing skill in higher school pupils // “Ta’lim tizimida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy pedagogik texnologiyalar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. — 2025. — 12 mart. — B. 378–383.

7. Ibadova, F. M. Formation of academic writing skills in pupils (9-10 classes on the example of English language) // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал. — 2023. — № 2/3. — B. 114–117.

- 8.Ibadova, F. M. Innovative technologies for the formation of academic writing skills in pupils // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал. — 2023. — № 6/3. — В. 114–117.
- 9.Ibadova, F. M. Innovative technologies for the formation of academic writing skills in students // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал. — 2025. — № 2/3. — В. 161–163.
- 10.Ibadova, F. M. Specific features of teaching English to students of higher education on the basis of the credit system // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал. — 2023. — № 12/5 (109). — В. 215–217. URL: <http://mamun.uz/uz/page/56> (murojaat qilingan: 2025-08-12).
- 11.Ibadova, F. Teaching effectively and productively academic writing skill in higher school pupils // International Journal of Pedagogics. — 2025. — Vol. 05, Issue 03. — P. 35–37.
- 12.Ibadova, F. Umumta’lim maktab o‘quvchilarining akademik yozuv qobiliyatlarini rivojlantirish omillari // Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. — 2024. — 14 dekabr. — В. 398–401.
- 13.Karimov, N. va boshq. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti, 2021. — 196 b.
- 14.Клюев, Е. В. Риторика и культура речи: учебник для вузов. — 3-е изд., перераб. и доп. — М.: Юрайт, 2019. — 383 с.
- 15.Swales, J. M., Feak, C. B. Academic Writing for Graduate Students. - 3rd ed.- Michigan: University of Michigan Press, 2012. - 418 p.19.c.
- 16.Черняк, Л. А. Информационные ресурсы: учебное пособие. — М.: Юрайт, 2020. — 247 с.
- 17.Shermuxeamedova, N. A. Falsafa va fan metodologiyasi. — Toshkent: Aloqachi, 2008. — 436 b.
- 18.Shermuxeammedova N.A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi /darslik/, Ikkinchi nashr. Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2021, 450 b.
- 19.Шермухамедова, Н. А. Гносеология — билиш назарияси. — Тошкент: Noshir, 2011. — В. 179–183.
- 20.Шермухамедова, Н. А. Социально-философский анализ стиля научного мышления.

### 3-MAVZU: MATN VA UNING TURLARI

#### Reja:

1. Matn tavsifi.
2. Matnning hajm va ifoda maqsadiga ko'ra tiplari.
4. Matnda tema-rema munosabatining ifodalanishi.
5. Badiiy matn. Badiiy matn qismlarini bog'lovchi vositalar.
6. Badiiy nutq uslubi.

Matn — bu mazmunan va grammatik jihatdan yaxlit, mantiqan bog'langan nutq bo'lagi bo'lib, u muayyan kommunikativ maqsadga xizmat qiladi.

N. Mahmudov ta'rifiga ko'ra:

«Matn — bu mantiqiy va grammatik bog'langan, ma'lum bir maqsad asosida yaratilgan nutq butunligi»<sup>31</sup>. Matnning asosiy belgilari:

- **Mazmuniy yaxlitlik** – matn umumiy g'oya yoki mavzuga bo'ysunadi.
- **Mantiqiy izchillik** – voqealar yoki fikrlar tartibda joylashadi.
- **Grammatik bog'liqlik** – gaplar til vositalari orqali bog'lanadi.
- **Kommunikativ yo'naltirilganlik** – matn aniq maqsadga qaratilgan.

Matnning turlari:

Mazmuniga ko'ra:

- **Badiiy matn** – obrazli, estetik ta'sirchan bo'ladi.
- **Ilmiy matn** – mantiqan asoslangan, aniq terminlarga boy.
- **Rasmiy matn** – hujjatlar, qonunlar, arizalar tili.
- **Publitsistik matn** – ijtimoiy-siyosiy mavzuda, ta'sirchan.

Tuzilishiga ko'ra

- **Monologik matn** – bir kishining izchil nutqi.
- **Dialogik matn** – ikki yoki undan ortiq shaxs suhbatidan iborat.
- **Polilogik matn** – ko'p ishtirokchili muloqot.

Bayon qilish shakliga ko'ra

- **Hikoya** – voqealarni ketma-ket bayon qilish.
- **Tavsif** – narsa, hodisa, shaxs belgilarini tasvirlash.
- **Munosabat bildirish** – fikr, baho, dalil keltirish.
- Matn turlarini aniqlashda tilshunoslar qarashlari

Nurmonov yozishicha:

«Matn turlarini aniqlashda mazmun, tuzilish va uslub mezonlari birgalikda qo'llaniladi»<sup>32</sup>.

Matn — til birliklarining eng yirik shakli bo'lib, uning turlari mazmun, tuzilish va uslubiy belgilarga qarab farqlanadi. Har bir matn turi o'z kommunikativ vazifasini bajaradi.

<sup>31</sup> Mahmudov N. O'zbek tilining funksional uslublari. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. 85-b.

<sup>32</sup> Nurmonov A. Nutq madaniyati va uslubiyati. — Toshkent: Fan, 2012. 104-b.

Matnlar xilma-xil bo'lib, ta'limiy-ma'rifiy va ta'limiy-tarbiyaviy matnlarga bo'linadi. Ulardan uzluksiz ta'lim tizimining o'rta bosqichida ko'proq foydalanilsa, samarali natijalar beradi. Chunki, aynan shu davr ona tilining grammatik qurilishi, til qoidalariga va ta'riflarga oid nazariy bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilib, ham bilim berishni, ham tarbiyalashni ko'zda tutadi. Matnlar turli ko'rinishlarga egadir. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini hamda ijtimoiy muhit bilan uzviy aloqada kamol toptirish maqsadida darsliklarda **ma'lumotnoma matni va ijodiy-tavsifiy matn** berilgan. **Ma'lumotnoma matn**ida voqea-hodisa yoki holat haqida oddiy axborot beriladi. Bunday matn obrazlilik va bo'yoqdorlikdan, badiiy-tasviriy vositalardan xoli bo'ladi. Ma'lumotnoma matnida so'zlovchi axborotni o'z nuqtayi nazarisiz, xolis bayon qiladi. Rasmiy matnlar ma'lumotnoma matniga misol bo'ladi. **Ijodiy-tavsifiy matn**da dalillar so'zlovchi yoki yozuvchining shaxsiy munosabati, nuqtayi nazari asosida ifodalanadi; badiiy-tasviriy vositalar qo'llanishi mumkin. Ilmiy, publitsistik va badiiy matnlar, shuningdek, insho ham ijodiy-tavsifiy matnning ko'rinishlari.

**Ma'lumotnoma matnida**, asosan, uslubiy betaraf so'zlar ishlatiladi. **Ijodiy tavsifiy matn** badiiy-tasviriy vositalar, dalillar bilan ta'riflab, izohlab yaratiladi. Shu o'rinda aytish joizki, "matn yaratish" va "matn tuzish" tushunchalarining o'zaro farqlanishi va ulardagi lug'aviy ma'no semalarining butunlay uyg'un emasligi sababli bu tushunchalarni o'z o'rnida to'g'ri tatbiq etishga erishishimiz lozim. Matn tuzish deganda o'qituvchi tomonidan maxsus tayyorlangan yoki darsliklardan, mavjud o'quv manbalaridan foydalangan holda gap va so'zlarni mavzu talabiga mos tarzda joylahstirish ma'nosini anglatadi. Matn yaratish qo'shimcha manbalardan foydalanmagan holda, o'quvchi ongida mavjud bilim, ko'nikma va malakalardan ijodiy foydalanish asosida yaxlit fikr ifodalash tushuniladi.

Matn yaratish o'quvchi uchun to'liq ijodiy izlanish hisoblansa, matn tuzish qisman ijodiy izlanishga taalluqli bo'ladi. "Matn yaratish" faoliyati o'quvchi so'z boyligi, nutqiy savodxonligi, mustaqil, izchil, o'rinli fikr ifodalash bo'yicha egallangan bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniq ko'rsatishga xizmat qiladi. "Matn tuzish"da esa o'quvchining lug'at xazinasini, idrok va xotirasini zo'riqtirishga hojat yo'q, chunki berilgan manba unga o'ziga xos tayyor mahsulot, yordamchi material vazifasini o'taydi. O'quvchi manbadagi tayyor fikrlarni o'z o'rnida, to'g'ri, ravon qo'llashni bilsa yetarli hisoblanadi, matn tuzish katta qiyinchilik tug'dirmaydi. "Matn yaratish" tushunchasi ko'proq milliy maktablarda ona tili amaliyotiga xos, "matn tuzish" tushunchasi boshqa millat vakillariga o'zbek tilini o'rganishda samarali qo'llaniladi. Matn tuzuvchi matn yaratuvchi kabi mualliflik huquqiga ega emas (masalan, diktantlar, bayonlar to'plamlari,

buyruq va ko'rsatmalar, adabiy va grammatik xrestomatiyalarni to'plab, tartib bergan va nashr qilgan kishilar "tuzuvchi" maqomida bo'ladi.

Barcha matnlar, muayyan janr xususiyatlarini namoyon qiladi. Turli janrdagi matnlarni yaratish sermulohaza, savodli, ma'naviyati yuksak o'quvchini tarbiyalaydi, tildagi ma'no nozikliklarini fahmlash, obrazli fikrlash va ijodiy tafakkurni rivojlantiradi.

O'quvchilar uchun matn ko'rinishlaridan asosiylari:

1. Mashg'ulotda hosil qilingan bilim va ko'nikmalar asosida matn yaratish. Bunday matnlar 2-3 bosqichdan iborat bo'lishi, monolog va dialog tarzida, ixcham tasvir yoki hikoya bo'lishi mumkin.

2. Mavzu bo'yicha tasvir (kichik insho) yaratish.

3. Insho-matnning oliy ko'rinishi. Dasturda quyidagi insho turlari berilgan: a) ilmiy insho (barcha fanlardan har bir fan uchun xos bo'lgan biror mavzu yoki masalani ochish); b) ilmiy-badiiy insho (badiiy asar, yozuvchi ijodi, adabiy jarayonlar tahliliga bag'ishlangan insholar); v) badiiy-ijodiy insholar (san'at asarini o'rganishdan o'quvchining hosil qilgan shaxsiy kechinmalari tasviri); g) tasviriy insho (narsa, shaxs, manzara va h.k. tasviriga bag'ishlangan insho); d) erkin mavzudagi insho.

Matnlar **sodda va murakkab tarkibli** bo'ladi. *Sodda tarkibli matn* bir yoki bir necha gaplardan tuzilib, xabar, maqol, e'lon, taklifnoma kabi ko'rinishlarda bo'lib, hajmi kichik, bir qancha tarkibiy qismlarga ajralmaydi, yagona maqsad va fikrda birlashadi.

*Murakkab tarkibli matnda* biror g'oya, mavzu yoritilib, bo'limlar, qismlar, boblardan tashkil topadi.

Bir necha so'zning mazmunan birikishidan tortib butun boshli badiiy romanlar, yirik trilogiyalar ham matndir. O'quvchilarninig tafakkurini rivojlantirishda o'qituvchi tomonidan turli ko'rinishdagi matnlar yaratishning yo'lga qo'yilishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun, avvalo, o'qitish jarayonini tom ma'nodagi ijodiylik va izlanuvchanlik asosida shakllantirish zarur.

Tilning eng oliy va mukammal birligi bo'lgan matn ko'pgina fanlarning tadqiqot obyekti hisoblanadi. Jumladan, sotsio va psixolingvistika, funksional stilistika, kommunikatsiya nazariyasi, nutq aktlar nazariyasi, lingvistik pragmatika, hamda sintaksisdan ajralib chiqib, lingvistikaning alohida yo'nalishi sifatida shakllangan matn lingvistikasi fanlarida o'rganiladi.

Yozma matn ko'rinishlari:

|                                  |
|----------------------------------|
| Yozma matnlar bilan ishlash:     |
| Asarlardan keltirilgan parchalar |

|                                                                                                                                      |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Kasbga yo'naltirilgan materiallar; rasmiy uslubda ish yuritish hujjatlari                                                            |
| Ensiklopedik maqolalar, qomusiy maqolalar                                                                                            |
| Shaxsiy xatlar, o'z yaqinlariga maktublar                                                                                            |
| Kundaliklar va kun tartibi aks ettirilgan matnlar                                                                                    |
| Informatsion bukletlar, broshyuralar, (filmlar, ko'rgazma va hokazolar.), sayyohlik yo'riqnomalari, publitsistik uslubga xos matnlar |
| Jurnal maqolalari (mashhur shaxslar bilan suhbatlar); intervyular                                                                    |
| Ma'ruzalarda keltirib o'tilgan g'oyaga nisbatan bildirilgan fikrlar va muhokama qilingan matnlar, tahliliy- qiyosiy matnlar          |
| Yangiliklar bayoni, axborot matnlari                                                                                                 |
| Internet matnlari (bloglar)                                                                                                          |
| E'lonlar (grantlar, sayohat manzillari haqida), turizm sayohatlari asosida                                                           |
| Yo'riqnomalar (texnik vositalar, asboblarni uchun), texnik xavfsizlik qoidalari                                                      |
| Kichik hikoyalar, masallar                                                                                                           |
| She'rlar, nasriy she'rlar                                                                                                            |

Xulosa yasash, "qatorlar orasi" ma'noni anglash:

|                                                                                                       |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Xulosa qilish va yozma bayon etish                                                                    |
| Muallif fikrini yoqlash yoki inkor qilish va uni asoslash; - tahlil qilish; - sintez qilish, tezislar |
| Turli janrdagi matnlarni tahlil qilish, xulosalash                                                    |
| O'qish ko'nikmasini baholovchi yozma ishlar o'qib tushunganlarini yozma ifodalash                     |
| Mustaqil o'qish, darsdan tashqari o'qiganlari bo'yicha yozma mustaqil ish                             |

Yozish ko'nikmalarini rivojlantiradigan ishlar:

|                                                                             |
|-----------------------------------------------------------------------------|
| Tabriknomalar va taklifnomalar, tilaklar va niyatlar matni                  |
| Shaxsiy ma'lumotnomalar,                                                    |
| Sodda xatlar, eslatmalar, qaydlar, hikmatli so'zlarni yozib borish          |
| Voqea-hodisa, odamlar va predmetlar tasviriga bag'ishlangan xatlar, matnlar |
| e-mail, internet forumlariga xatlar;                                        |
| Rezyume va tarjimai hol;                                                    |

Grammatik tamoyillar:

|                                                           |
|-----------------------------------------------------------|
| Gap tuzish (gapda so'z tartibi)                           |
| Gapda ega va kesimning o'rni, moslashuvi;                 |
| Gap turlari (oddiy, qo'shma gaplar);                      |
| Bog'lovchilar va kirish so'zlar;                          |
| So'z tanlash (rasmiy va norasmiy uslubdagi so'zlar va h.) |
| Punktuatsiya                                              |

Qisqa insho (paragraf) yozish bosqichlari:

|                                                             |
|-------------------------------------------------------------|
| Mos sarlavhani tanlash;                                     |
| Kirish qismini yozish                                       |
| Inshoning asosiy g'oyasini ifodalash                        |
| Dalil va isbotlarni bayon etish;                            |
| Yozma ishda plagiatga (ko'chirmakashlikka) yo'l qo'ymaslik. |

Faktlar asosida yozish:

|                                                                                                    |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Bayonnomalar (masalan, ijtimoiy tadqiqotlar, jamoa muammolari, darsjarayoniga oid muammolar va b.) |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------|

Esselar:

|                                                                       |
|-----------------------------------------------------------------------|
| “Qarshi yoki qarshi emaslik fikrini bayon etuvchi” insho              |
| Bahs munozarali insho turi - tanqidiy bayonlar-voqea-hodisalar sharhi |
| Fikr bildiruvchi insho                                                |
| Tasviriy                                                              |

Maqola sharhi:

|                                              |
|----------------------------------------------|
| Hikoya tarzidagi;                            |
| Qiyosiy                                      |
| Tahliliy (sabab va natijalarni tahlil qilish |
| Kitob yoki filmlarning qisqa taqrizi         |
| Maktab gazetasi uchun maqola                 |

Turli matnlar tahlili ( gazeta, jurnal maqolalari):

|                                          |
|------------------------------------------|
| Matnlarni qiyoslagan holda tahlil qilish |
| Darsdan tashqari yozma vazifalar         |

Yozma nutq jarayoni:

|                                         |
|-----------------------------------------|
| Yozma nutq uchun tayyorgarlik mashqlari |
| Dastlabki (xomaki)                      |
| O'zaro qayta ko'rib chiqish             |
| O'z-o'zini baholash.                    |

Matnni o'rganuvchi lingvistik va nolingvistik fanlarning o'zlariga xos tadqiqot usullari mavjud bo'lib, bu yangi qarashlar orqali tadqiqotning yangi istiqbollari yo'l ochiladi. Tilshunoslikda matn nafaqat til fenomeni sifatida o'rganilgan, balki matnni tadqiq qilishda muloqot holati, kommunikativ vaziyat va muhit, kommunikanlar va ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, dunyoqarashi, o'zaro munosabatlar tahlilining integratsiyalashuvi amalga oshirilgan. Natijada, lingvistik va ekstralingvistik omillar, hodisalarni o'zaro bog'liqlikda o'rganadigan diskursiv lingvistika paydo bo'lgan. O'zbek tilining

izohli lugʻatida matnga quyidagicha taʼrif beriladi: “Yozilgan, koʻchirilgan yoki bosilgan ijodiy, ilmiy asar, nutq, hujjat va shu kabilar yoki ularning bir parchasi matndir”. Olimlarning fikricha matn intra va ekstralingvistik hodisa, u axborot toʻplash, saqlash va uzatish, kommunikatsiya, insonning kognitiv faoliyatini ragʻbatlantirish va aks ettirish; tarixiy jarayonlar, milliy anʼanalar, mentalitet hamda madaniyatning rivojlanish shakli hisoblanadi. Matn:

- nutqiy va fikrlash faoliyatining verbal va belgilar yordamida (ogʻzaki va yozma shakllarda) aks ettirilgan mahsuli;

- vaziyatga verbal va belgilar asosida aks ettirilgan “reaksiya”;

- vaziyatning bilvosita belgilangan va verballashtirilgan ifodalanishi;

- nutq va fikrlash mahsuli boʻlib, mazmun jihatidan yakunlangan va axborot yaxlitligiga ega;

- mavzu, tuzilish va kommunikativ jihatdan uygʻunlikka ega nutq va fikrlash mahsuli;

- ekstralingvistik vositalar (misol uchun, yozish qurollari, qogʻoz, audio/videoyozuvlar va h.k.) yordamida aks ettirilgan obyektiv, mavjud hodisa;

- oʻziga xos predikativ birlik boʻlib, unda predikatsiya deganda muallif ongida oʻz aksini topgan dunyo manzarasini oʻrab turgan voqelikka interferensiya qiluvchi verbal akt tushuniladi, buning natijasida obyektiv jihatdan mavjud real olamning oʻzgarishi sodir boʻladi. Qadimiy matnlar, neyron tarmoqlar, sunʼiy intellekt yordamida va hatto sunʼiy tillarda yaratilgan matnlar tadqiqot obyekti sifatida xizmat qilib, matnlarning morfologik va grammatik xususiyatlari oʻrganiladi, murakkab sintaktik birliklar matn kategoriyasi sifatida tahlil qilinadi. Tilshunos E.Qilichev «Matnning lingvistik tahlili» deb nomlangan kitobida «Matn – hamma elementlari oʻzaro zich aloqada boʻlgan va avtor nuqtai nazaridan maʼlum bir maqsadga yoʻnaltirilgan nominativ – estetik axborotni ifodalovchi murakkab tuzilma» degan taʼrifni keltiradi. Tilshunos I.Rasulovning fikricha, gapdan katta birlik murakkab sintaktik butunlik boʻlib, u fikran va sintaktik jihatdan oʻzaro bogʻliq boʻlgan gaplar birlashmasidan iborat. M. Yoʻldoshev matnning oʻziga xos belgilari sifatida axborot berish, mustaqil gaplar yoki murakkab sintaktik butunlikdan tashkil topishi, tarkibiy qismlar orasida mazmuniy va sintaktik aloqalarning mavjudligi, makon va zamon izchilligi, yaxlitligi va tugallanganligi deb tariflaydi. Y.A. Proxorov oʻzining ilmiy ishlarida fenomenatlarni tadqiq qilib, kommunikativ faoliyatga real matnlar, leksik, morfologik, mantiqiy va boshqa aloqalar natijasida paydo boʻlgan kvazi-matnlar, yashirin yoki latent matnlar (odatda adresat uchun), kommunikatsiya ishtirokchilar uchun nomaʼlum (odatda retsipient uchun nomaʼlum) boʻlgan virtual matnlar kirishini taʼkidlab oʻtgan. Albatta, ushbu atamani tadqiq qilishda uning subyektlari boʻlmish muallif va adresatlarni hisobga olmaslikning iloji yoʻq. Matnning eng muhim

belgilari bog‘liqlik va tugallanganlikdan tashqari uning kogerentligi (yaxlitligi, mazmunan bog‘liqligi) ham muhim bo‘lib, gaplarning qismlarga ajralishi, matn delimitatsiyasi (parchalash) tamoyillari hamda matnda mavzu va remaga oid harakatlar sxemalari ham ahamiyatlidir. Tilning ierarxik modelida matn oliy birlik bo‘lib, xususiyl belgilardan iborat, tartibga keltirilgan to‘plam hisoblanadi. I.R. Galperin matnni tafsiflashda uning grammatik belgilarini asosiy deb hisoblagan va bu belgilarga matn qismlarining tobeligi/mustaqilligi, retrospektivlik, shartlanganlik, integratsiyalanganlik, davomiylik (kontinium), ketma-ketlik, qayta urg‘u berish, chuqurlik (podtekst yoki submatn), predikativlikning o‘ziga xos turi, informativlik (axborotni yetkazib berish to‘laligi), pragmatika kabi belgilarni kiritgan. L.N. Murzinaning fikricha, gaplarning matnga birlashishi matnning bazaviy darajasidagi **inkorporatsiyalash** universal qonuni asosida amalga oshiriladi. Inkorporatsiyalash matn yasallshning asosiy qonuni sifatida axborotni kengaytirish va qisqartirishda ifodalanadi, bu esa fikrning mavzu va remaga oid tuzilishi bilan bog‘liq. L.A. Kiseleva matnni til birliklarining eng oliy pog‘onasiga tegishli deb hisoblaydi. Uning fikricha, matn – bu yaxlit, murakkab tuzilma va tizim hisoblanadi. **Kogeziya** matnning semantik birligini ta‘minlaydi. M. A. K. Xellidey va R.Xasan 1976 yilda kogeziyani quyidagicha ta‘riflashgan: “Kogeziya – bu ahamiyatli munosabatlar to‘plami bo‘lib, matnlar uchun umumiy hisoblanadi, matnni matn bo‘lmagan konstruksiyalardan farqlaydi hamda alohida qismlarning mazmunan o‘zaro bog‘liqligini aniqlash vositasi bo‘lib xizmat qiladi”. Kogeziyaning uch turi ajratiladi: leksik (semantik takrorlanish), grammatik (referensiya, substitutsiya va ellipsis) va oraliq vaziyat (conjunction, ya‘ni bog‘lanish). Matning kompozitsion jihatdan yakunlanganligi uning mantiqiy ketma-ketligini ko‘zda tutadi. Har qanday matn – bu matn birliklari bo‘lmish frazalararo birliklarga birlashgan gaplar yig‘indisi. Matning ushbu birliklari yaxlit asarni tashkil qiladi. Kompozitsiya darajasida gapdan sifat va son jihatdan farq qiluvchi birliklar ajratiladi: bob, bo‘lim, paragraf, fragment (parcha), abzas (xatboshi), murakkab sintaktik birlik (butunlik)/ superfrazali birlik va h.k. Bunday differensiatsiya ilmiy matnlar uchun ahamiyatlidir. Kompozitsion birlik sifatida tadqiqotchilar yangi *subtekst* (*submatn*) terminini taklif qilishgan. Xususan, Y. A. Bajenova dissertatsiya kabi muhim ilmiy matn turlaridan birini yaxlit matnning strukturaviy-semantik birliklarning, ya‘ni submatnlar ketma-ketligi, nisbati va o‘zaro ta‘siri sifatida ta‘riflab, ular yordamida muallif adresatining e‘tiborini shunday boshqaradiki, ushbu asar yagona va yaxlit yoki har bir submatn butun matn doirasida uning ahamiyatiga qarab e‘tibor beraladigan ierarxiya deb qabul qiladi. Xatboshi matnning an‘naviy umume’tirof etilgan birligi bo‘lib, semantik va kompozitsion jihatdan birlashgan bir necha gaplarning yig‘indisi sifatida tavsiflanadi. Xatboshi odatda bir kichik mavzuga ega va grafik nuqtai nazardan

alohida ajratiladi. Xatboshining hajmi asosan matn uslubiga va muallifning individual yondashuviga bog‘liq. Ilmiy matn uchun bir betda 3-6 xatboshi bo‘lishi tavsiya qilinadi. Matn haqida turli tushunchalar mavjud bo‘lib, matn tushunchasini talqin qilishda yagona ta’rif qabul qilinmagan. Umuman olganda, *matn* bir mavzu ostida birlashgan, gaplar ketma ketligi bilan bog‘lanish xususiyatiga ega ma’lumotlardir. Matn turlari va uslublari ko‘p va turli belgilardan iborat, tugallangan asardir. Demak, matn yozma yoki og‘zaki shaklda ifodalangan, turli janrlar bilan bog‘liq hodisa bo‘lib, vaziyatga qarab, xabar beruvchiga nisbatan bir shaklda takrorlanuvchi pragmatik qarashlar va muallifning ma’lum munosabati bilan tavsiflanadi.

Ilmiy matn esa ma’lum bilimlar yig‘indisi hisoblangan akademik nutq, nashrdan chiqqan ilmiy asardir. U o‘ziga xos asar hisoblanishi va ilmiy salohiyatga ega bo‘lishi zarur.

Akademik matnlar yaratishning o‘ziga xos xususiyatlari. Matn tilini ilmiy o‘rganishda undagi tovush (harf) va mazmun munosabatiga alohida e’tibor qaratish kerak. Matn tilshunosligi ilmiy jihatdan boshqa tilshunoslik sohalaridan farq qiladi. Tilshunoslik, umuman, tilda fonema (tovush), morfema (eng kichik ma’nodor birlik), so‘z (tilning asosiy markaziy birligi), so‘z birikmasi va gapni birliklar sifatida ajratib, ularni fonologiya, morfologiya, leksika, sintaksis va stilistika kabi til bosqichlarida o‘rganadi. An’anaviy tilshunoslik va matn tilshunosligi o‘rtasida katta farqlar bor. Matnga bir butun sistema va struktura sifatida yondashilsa, farqlar yanada oydinlashadi. Hozirgi davrda mavjud bo‘lgan matn tilshunosligiga doir turli nazariy qarashlar ham o‘zaro farqlanadi, lekin ular negizidagi eng asosiy muammo — matn tuzilishi va unda mazmunning tildagi ifoda vositalari bilan berilishidir. Biroq matndagi har bir birlik doirasida tildagi turli kategoriyalar va ularning qo‘llanishini alohida o‘rganish mumkin. Tavsifiy matn yaratishda uyushiq bo‘laklar, ajratilgan gap bo‘laklari, atov gaplar, sodda gaplar, qo‘shma gap ko‘rinishlaridan ham keng foydalaniladi. Tilda eng yirik birlik gap bo‘lsa, matnda u eng kichik birlik bo‘lib qoladi. Albatta, matnshunoslik va manbashunoslik adabiyotshunos, tilshunos, psixolog, tarixchi va faylasuflarni birlashtirib turadi. Uzoq paytlar asosiy semiotik belgi sifatida lug‘aviy birlik — so‘z bo‘lgan, keyinchalik lisoniy belgilar qatoriga so‘z birikmasi va gap kiritildi. Lekin matnning bu qatordan o‘rin olishi qiyin kechmoqda. Xo‘sh, nimalarga asoslangan holda matnni lisoniy belgi, ya’ni birlik sifatida qarash mumkin? «Belgi» semiotikaning asosiy tushunchasi va semiotik tadqiqotlar oldiga belgilarni ajratish hamda tavsiflash vazifasi qo‘yiladi. Belgini ajratish uchun uning shakliy tuzilishini farqlash yetarli emas, bunda u yoki bu belgi tashiydigan axborot - ma’noni anglash ham muhimdir. Axborotning belgilar vositasida uzatilishi, tadqiq qilinishi voqelikni tasavvur qilishning faqat insonga xos shaklidir. Belgilar vositasidagi

tasvir umumlashtirish va o‘rin almashtirish harakatlarining bajarilishini talab qiladi. Bu harakatlar, o‘z navbatida, lisoniy tafakkur faoliyati jarayonida bajariladi. Matn birliklar yoki belgilarning ketma-ket birikishidan hosil bo‘ladigan murakkab tuzilma bo‘lib, tarkibidagi har bir til belgisi ma‘lum bir ma’noga ega. Demak, matn ham alohida ko‘rinishdagi belgidir. Ba’zilar matnni bu xususiyatga ega ekanligini inkor etadilar. Matnni lisoniy belgi maqomiga kiritmasliklarining sababi uni til tizimi birliklari guruhiga kiritmaslik bilan bog‘liqdir. Belgining idealligi uning ma’nosida bo‘lib, u o‘z navbatida, harakat, rivoj asosida shakllanadi. Matnga doimiy harakat, dinamika xosdir. Uning mavjudligi materiyaning asosiy harakat shakllari bilan bog‘liq va ma’no-mazmuni ham shunday harakat davomida namoyon bo‘ladi.

Matn- (lotincha-„textus“-mato, birikma) ma‘lum moddiy tashuvchiga bog‘langan inson fikri, belgilarning umumiy izchil va to‘liq ketma-ketligi. „Matn“ tushunchasining ikkita asosiy talqini mavjud: immanent ( kengaytirilgan falsafiy qarashlarga yo‘g‘rilgan) va reprezentativ ( asosan, xususiy munosabat aks etgan). Immanent yondashuv matnda voqelikka xolis munosabat bildirilib, uning ichki tuzilishini, uchinchi –shaxs tomonidan yoritishga e’tibor qaratishni nazarda tutadi. Reprezentativ yondashuv esa matnni tashqi voqelik haqidagi ma’lumotni taqdim etishni maxsus shakli sifatida ko‘rib chiqishni anglatadi. Tilshunoslikda „matn“ atamasi keng doirada, jumladan og‘zaki nutq namunalarida ham qo‘llaniladi. Matnni idrok etish matn lingvistikasi va psixolingvistika doirasida o‘rganiladi. R.Galperin matn xususiyatlari haqida to‘xtalib o‘tar ekan, unga quyidagicha ta’rif beradi. „ Matn bu yozma hujjat shaklida obyektivlashtirilgan, turli xil leksik, grammatik va mantiqiy bo‘g‘lanishlar bilan birlashtirilgan bir qator bayonlardan tashkil topgan, axloqiy xarakter, pragmatik munosabat va shunga mos ravishda adabiy qayta ishlangan ma’lum bir xususiyatlarga ega bo‘lgan yozma xabardir“. K.M.Abdullayevning fikricha : “Matn- ikki yoki undan ortiq mustaqil gaplardan iborat bo‘lgan, ichki xususiyatlariga ega murakkab sintaktik butunlikdir. Matn o‘ziga xos takrorlanmaydigan va uni shakllantiruvchi qandaydir tamoyillar bo‘lishi lozim”. Ozaybayjonlik tilshunos K.N.Veliyev matnlarni mikromatnlar va makromatnlar kabi ikki guruhga ajratadi: ya’ni bir necha gaplarning o‘zaro grammatik va mazmuniy bog‘lanishidan tashkil topgan, mazmuniy yaxlitlikka ega bo‘lgan qo‘shma gaplarga nisbatan yirikroq yozma va og‘zaki nutq parchasi mikromatn hisoblanadi. Bir umumiy mavzu ostida birlashgan bir necha mikromatnlardan tashkil topuvchi yaxlit asar makromatn deyiladi. Masalan, Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasida ishtirok etgan barcha mikromatnlar “Sotiboldining bemor xotinini davolash” mavzusi ostida birlashib, makromatnni hosil qilgan. K.N.Valiyevning yozishicha: “Birinchi darajali mikromatnlar murakkab sintaktik butunlikni, ikkinchisi bir nechta (ikki yoki undan ortiq)

murakkab sintaktik butunlikni birlashtirgan yaxlitlikni uchinchi darajali mikromatnlar esa alohida bayon etilgan fikr yoki boblarni qamrab oladi. Makromatn esa butun bir asardir”.

Savol va topshiriqlar:

1. Matn deb nimaga aytiladi?
2. Matn hajm va mazmun belgisiga ko‘ra qanday tiplarga bo‘linadi?
3. Hajm belgisiga ko‘ra matn tiplari haqida ma’lumot bering.
4. Mikromatn va makromatn haqida ma’lumot bering.
5. Matnning asosiy belgilarini sanab bering.
6. Matn turlarini belgilashda qaysi mezonlar ishlatiladi?
7. Badiiy va ilmiy matnning farqlari nimada?
8. Monologik va dialogik matn o‘rtasidagi asosiy farq nima?
9. Publitsistik matnning o‘ziga xos belgilarini tushuntiring.
10. Biror maqolani o‘qib, uning matn turini aniqlang va izoh bering.
11. Hikoya matnidani leksik va grammatik bog‘lovchi vositalarni toping.
12. Berilgan matnni monologik shakldan dialogik shaklga o‘zgartiring.
13. Uch xil matn turiga mos kichik matnlar yozing (badiiy, ilmiy, rasmiy).
14. Matnni mantiqiy qismlarga ajratib, har qismga sarlavha qo‘ying.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1, Абдуазизов А. Tilshunoslik asoslari. — Toshkent: Universitet, 2010.
2. Абдуллаев А. О‘zbek tilida supersintaktik butunliklar. — Toshkent: NDA, 1997.
3. Абдурахмонов Г., Мамажонов Н. О‘zbek tili va adabiyoti. — Toshkent, 1985.
4. Горелов И. Н., Седов К. Ф. Основы психолингвистики. — М.: Изд-во «Лабиринт», 2001. — 304 с.
5. Halliday, M. A. K., Hasan, R. Cohesion in English. — London: Longman, 1976.
6. Ёўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик тахлили асослари. URL: <https://uz.denemetr.com/docs/769/index-315719-1.html> (murojaat qilingan: 2025-08-12).
7. Красных В. В. Виртуальная реальность или реальная виртуальность. — М.: Диалог МГУ, 1998. — 352 с.
8. Mahmudov, N. O‘zbek tilining funksional uslublari. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
9. Nurmonov, A. Nutq madaniyati va uslubiyati. — Toshkent: Fan, 2012.
10. O‘tkir Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. — Toshkent, 2005.
11. Смирнов С. Д. Психология и педагогика. — М.: Академия, 2005.
12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. — М.: Русский язык, 1981. — 452 б.
13. URL: <http://www.ziyouz.com> (murojaat qilingan: 2025-08-12).

#### **4-MAVZU: MATN HOSIL QILUVCHI VOSITALAR. MATNNI MA'NOVIY GURUHLARGA BO'LIH TAMOIYILLARI**

Reja:

1. Matn hosil qiluvchi vositalar.
2. Matnning ma'noviy guruhlarga bo'linishi.
3. Inkorporatsiyalash?
4. Kogeziya- matnning semantik birligi.
5. Kompozitsion birlik - *subtekst (submatn)*.
6. Ilmiy matn

Matn vaziyatga qarab, xabar beruvchiga nisbatan bir shaklda takrorlanuvchi pragmatik qarashlar va muallifning ma'lum munosabati bilan tavsiflanadi. Matn hosil qiluvchi vositalar — bu matnning yaxlitligini, mantiqiy bog'liqligini va kommunikativ maqsadga erishishini ta'minlaydigan til birliklari majmui. N.Mahmudov ta'rifiga ko'ra:

«Matn hosil qiluvchi vositalar — mazmuniy va grammatik jihatdan matn qismlarini bog'lab, uning yaxlitligini ta'minlovchi til birliklari majmuasidir»<sup>33</sup>.

Matn hosil qiluvchi vositalar turlari

Leksik vositalar:

- Sinonim, antonim, takrorlash, leksik bog'lanish.
- Matn mazmunini yaxlitlashtiradi.

Grammatik vositalar:

- Olmoshlar, fe'l zamon shakllari, bog'lovchilar.
- Gaplararo grammatik moslashuvni ta'minlaydi.

Sintaktik vositalar:

- Parallel tuzilma, inersiya, gaplarni izchil bog'lash.

Mantiqiy vositalar:

- Sabab-oqibat bog'lanishlari, umumlashtirish, solishtirish.

Matnni ma'noviy guruhlarga bo'lish tamoyillari:

Matnni ma'noviy qismlarga ajratish — uning mazmuniy butunligini saqlagan holda, o'quvchi uchun tushunarli qilib tartiblash jarayoni.

Nurmonov (2012) yozadi:

«Matnni ma'noviy guruhlarga bo'lish mazmunni mantiqan izchil, oson idrok etiladigan qismlarga ajratishga xizmat qiladi»<sup>34</sup> (Nurmonov, 2012, 93-bet).

Mazmuniy yaxlitlik tamoyili:

- Har bir bo'lim alohida g'oyani ifodalaydi.

Mantiqiy izchillik tamoyili

<sup>33</sup> Mahmudov N. O'zbek tilining funksional uslublari. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.142-b.

<sup>34</sup> 93-b. Nurmonov A. Nutq madaniyati va uslubi. — Toshkent: Fan, 2012.

- Bo‘limlar o‘zaro sabab-oqibat yoki vaqt tartibida joylashadi.

Tematik birlashuv tamoyili

- Barcha qismlar bitta umumiy mavzuga xizmat qiladi.

Stilistik uyg‘unlik tamoyili

- Bir xil uslub va til vositalarining qo‘llanishi.

#### 4. Xulosa

Matn hosil qiluvchi vositalar va ma’naviy guruhlar matnning tuzilishida asosiy rol o‘ynaydi. Ular matnning tushunarligini, mantiqiylikini va stilistik uyg‘unligini ta’minlaydi.

Tabiiyki, har qanday butunlik kabi matn ham uni tarkib toptiruvchi unsurlardan, muayyan birliklardan iborat bo‘ladi. Tilshunoslikda qanday birliklar matnni shakllantirishi yoki matnni bo‘laklarga ajratganda qanday birliklar aynan matn birligi deb hisoblanishi borasida ancha-muncha muzokaralar mavjud. Bir qarashda matn birliklarini tayin etish, belgilash u qadar ham qiyin ish emasday tuyiladi. Ammo aslida unday emas, shuning uchun ham bu masalada matn lingvistikasi tadqiqotchilari orasida juda ko‘p va farqli qarashlar mavjud. Biz matnga ta’rif berganda, ikki asosiy belgiga, ya’ni bog‘lanishlilik va yaxlitlikka alohida e’tibor berdik. Tabiiyki, bog‘lanishlilik va yaxlitlik gaplar o‘rtasida va gaplarning mazmuniy-grammatik birligi asosida yuzaga keladi. Deyarli barcha matn tadqiqotchilari bu ikki belgini hech vaqt nazardan qochirgan emas. Ayniqsa, g‘arb tilshunoslari tomonidan matnga berilgan ta’riflarda gaplarning ketma-ket bog‘lanishi gaplar zanjiri matnda asosiy jihat ekanligi, busiz matn yuzaga kela olmasligi muntazam ta’kidlanadi. Masalan, golland tilshunosi S.Dik “Gaplarning zanjirida koordinatsiyaning oliy shakli“ ni ko‘radi. Boshqacha qilib aytganda, mustaqil gaplarning oliy darajadagi koordinatsiyasi (albatta, muayyan axborotni ifodalash maqsadi bilan) mahsuli o‘laroq matn shakllanadi. Oliy darajadagi koordinatsiya, aniqki, ayni matn deyiladigan butunlik, yaxlitlikni paydo qiladigan gaplar o‘rtasidagi barcha jihatlarda, ya’ni semantik, sintaktik, kommunikativ, estetik va yana boshqa barcha jihatlarda uyg‘unlikdir, muvofiqlashuvdir. Gaplarning ana shunday o‘zaro uyg‘unligi, muvofiqlashuvining natijasi sifatida matn mavjud bo‘ladi. Ana shunday birinchi va ikkinchi mulohazadan kelib chiqib, matnning asosiy birligi gapdir. Ammo gapni matn birligi sifatida baholash tilshunoslikda u qadar keng tarqalgan emas. Aksincha, bu borada bahsli yondashuv anchagina. Matn juda keng qamrovli tushuncha bo‘lganligi sababli hali uning muayyan tan olingan ta’rifi mavjud emas.

Matn hajm va mazmun belgisiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi: 1. Hajm belgisiga ko‘ra matn turlari. 2. Ifoda maqsadi va mazmun belgisiga ko‘ra matn turlari. I. *Hajm belgisiga ko‘ra matn turlari*. Matn gapdan ko‘ra yirik hajmli aloqa vositasi, nutqiy faoliyat maxsuli, muayyan qonuniyatlar asosida shakllangan yozma nutq

ko‘rinishidir. Matn hajm belgisiga ko‘ra ikkiga ajratiladi. Minimal matn (mikromatn) va maksimal matn (makromatn). Badiiy uslubda minimal matn deyilganda biror mavzuni yoritishga bagishlangan qatralar, xalq donishmandligini ifodalaydigan maqol, matal va aforizmlar, miniatyuralar, hajviy asarlar, nomalar, she‘r va she‘riy parchalar, umuman, kichik mavzuni qamrab oluvchi bir necha gaplardan iborat butunlik tushuniladi. Matnning ichki tomonini mazmun yaxlitligi, tashqi tomonini esa turli shakldagi bog‘lamalar, sintaktik vositalar birlashtirib turadi. Maksimal matn deyilganda keng ko‘lamdagi voqealarni yoritish ehtiyoji bilan yuzaga kelgan butunlik nazarda tutiladi. Badiiy uslubda hikoya, qissa, roman, epopeya kabi yirik hajmli asarlar maksimal matn hisoblanadi. Maksimal matn mikromatnlardan iborat. Eng kichik butunlik abzatsga, eng katta butunlik esa bob (qism yoki fasl)larga to‘g‘ri keladi. Bunday matn tarkibida epigraf, so‘zboshi (muqaddima), so‘ng so‘z (epilog) kabi yordamchi qismlar ham ishtirok etishi mumkin. Ular asar mazmuni va g‘oyasiga, shuningdek, mavzuning tanlanishi va yoritilishiga oid ayrim masalalarga qo‘shimcha izoh, sharh bo‘lib keladi.

II. *Ifoda maqsadiga va mazmuniga ko‘ra* badiiy matnni quyidagi turlarga bo‘lib chiqish mumkin: 1. Hikoya mazmunli matn. 2. Tasviriy matn. 3. Izoh mazmunli matn. 4. Didaktik matn. 5. Xabar mazmunli matn. 6. Buyruq mazmunli matn. 7. Hissiy ifoda mazmunli matn.

1. Hikoya mazmunli matnlar (Le texte narratif – narrativ matn). Bunday matnda muallif yoki asar qahramoni o‘zi boshidan o‘tkazgan eshitgan, ko‘rgan yoki guvoh bo‘lgan biror voqeani hikoya qilib beradi. Xotiralar, esdaliklar, ertak va rivoyatlarni narrativ matn turiga kiritish mumkin. Hikoya tarzi, asosan, o‘tgan zamon shaklida, birinchi shaxs birlik yoki ko‘plikda ifodalanadi.

2. Tasviriy matnlar (Le texte descriptif – deskriptiv matn). Bunday matn tinglovchiga noma’lum bo‘lgan biror kishi, joy, hayvonot va nabotot olamiga mansub mavjudot yoki qandaydir narsa-buyum hamda voqea-hodisani batafsil tasvirlab berish maqsadida tuzilgan bo‘ladi. Tasviriy matnda ham monologik nutq ko‘rinishi yetakchilik qiladi. Partonimik tasvir bunday matnning eng xarakterli xususiyati hisoblanadi, ya’ni tasvirlanayotgan obyektning dastlab, birlamchi xususiyati tilga olinadi. Keyin unga aloqador xususiyatlar va qismlardan so‘z yuritiladi.

3. Izoh mazmunli matnlar (Le texte argumentatif-argumentli matn). Bunday matnda aytilayotgan fikrning ishonarliligini ta’kidlash uchun turli dalil va izohlar keltiriladi. Asoslash, isbotlash, o‘zini oqlashga urinish yoki himoya maqsadida har xil vajlarni keltirish argumentli matn turining o‘ziga xos jihatlaridan hisoblanadi.

4. Didaktik matnlar (Le texte explicatif- eksplikativ matn). Kingadir pand-nasihat qilish, uni turli hayotiy voqealar vositasida tarbiyalash yoki aytilganlardan xulosa chiqarishga o‘rgatish istagi asosida tuzilgan matn eksplikativ yoki didaktik

matn deyiladi. Maqsadga erishish uchun maqol, matal, aforizm, turli hayotiy voqealar, rivoyatlar, masallardan namuna sifatida foydalaniladi.

5. Xabar mazmunli matnlar (Le texte informative - informativ matn). Biror voqea-hodisa haqida xabar berish maqsadida tuzilgan yoki havola qilingan matn informativ matn hisoblanadi. Badiiy matnda informativlik o'ziga xos tarzda bo'ladi. Oddiy xabardan farqlanib, estetik maqsad yuklangan bo'ladi.

6. Buyruq mazmunli matnlar (Le texte injonctif-injonktiv matn). Buyruq hamda maslahat ohangi yetakchilik qiladigan, buyruq maylidagi gaplardan tuzilgan, biror ishni bajartirish yoki turli ta'qiqlashlarni ifoda etadigan matn tipiga buyruq mazmunli matn deyiladi. Asosan qahramonlar nutqida kuzatiladi.

7. Hissiy ifoda mazmunli matnlar (Le texte expressif - ekspressiv matn). Insonning ichki kechinmalarini, voqelikka munosabatini, o'ziga xos pafos bilan ifodalash maqsadida tuzilgan matnlar hissiy ifoda mazmunli matn deyiladi.

Ilmiy –metodik adabiyotlarda matnlar uslubga ko'ra ham turlarga ajratiladi. Bular quyidagilardir.

1. Rivoyat matn. Bu tur matnda voqea-hodisa rivoya qilinadi. (Sharq faylasuflarining ilmiy merosi, axloqiy-tarbiya va ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashlar, ibora, hikmatli so'z va maqollarning kelib chiqishi, etimologiyasi talqiniy.h.) Ona qishloq! Sen naqadar kichik va ko'rimsiz bo'lmagin, biz uchun dunyo-da eng katta va chiroyli maskansan doim! Sen biz uchun dunyoning o'zisan! Vatan deb faxrlanganimizda, biz, avvalo, poyonsiz dalalaringni, olamdagi bor go'zallikni o'z bag'rida yashirib turgan yam-yashil bog'- rog'laringni, anhorlaringda sharaqlab oqqan suvlaringni, subhidamdan bo'stonlaringda muhabbatdan roz aytib, navo bazmini boshlagan bulbullaringni o'ylaymiz. Biz qishloq suvini ichib, qishloqning arpa, zog'ora nonini yeb, aqlini tanigan odamlarga Vatan sendan, sening dalangdagi egatdan boshlanadi.

2. Tasviriy matn. Tasviriy matnda voqeada ishtirok etadigan shaxslar bo'lmaydi. Unda, asosan, tabiat manzarasi, alohida narsalar (buyumlar), voqea va hodisalar, ish jarayonlari tasvirlanadi. Matnning bu turida tasvirlanayotgan narsa, voqea-hodisa kabilarning o'ziga xos tashqi belgilariga alohida e'tibor beriladi.

3. Muhokama matnining o'ziga xos xususiyati shundaki so'zlovchi (o'quvchi) bayon qilinayotgan voqea-hodisaga o'z munosabatini bildiradi. O'z fikrini isbotlash uchun dalillar izlaydi va uni asoslashga intiladi. U kuzatish taqqoslash, natijalariga tayanib, ma'lum bir fikrni rad etadi va bu haqda o'z hukmini chiqaradi. Muhokama tarzidagi matnlar yaxshilik va yomonlik, mehnatsevarlik va ishyoqmaslik, halollik va tekinxo'rlik, to'g'rilik va egrilik, yaxshi so'z va yomon so'z, do'stlik va dushmanlik, botirlik va qo'rqqoqlik, odob va odobsizlik, qadr- qimmat va qadrsizlik, sabr-qanoat va sabrsizlik kabi mavzularda bo'lishi mumkin. Ayniqsa, xalq maqollarini muhokama matnining mavzusi qilib

tanlash maqsadga muvofiqdir. Masalan, “Betga aytganning zahri yo‘q”, “Dili to‘g‘rining - yo‘li to‘g‘ri”, “Sayoq yurgan-tayoq yer” kabi. Badiiy uslubda yozilgan matnlarning o‘ziga xos xususiyatlari ularda tasviriylik va ta’sirchanlikning kuchliligidir. O‘quvchi badiiy matn yaratishda tabiat va ishtimoiy borliqqa nisbatan erkin munosabatda bo‘ladi: uning mohiyatini ochish uchun turli-tuman leksik birliklar (ko‘p ma’noli so‘zlar, ma’nodosh va qarama- qarshi ma’noli so‘zlar), tasviriy ifoda va frazeologik birikmalar, adabiy tilning tasviriy vositalari: o‘xshatish, mubolog‘a, kichraytirish, jonlantirish kabilardan o‘z imkoniyatiga qarab bemalol foydalana oladi. Badiiy matn o‘quvchilarda badiiy didni shakllantirishning asosiy vositalaridir. O‘quvchi bunday matnlar orqali go‘zallik va nafosat olamiga kiradi, o‘z quvonchi va tashvishlari bilan o‘rtoqlashadi, sevimli qahramonlariga ergashadi. Badiiy matn bilish va yaratish aks ettirish va ijodning dialektik birligi asosida vujudga keladi. Badiiy asar kishilarning estetik ma’naviy talablarini qondirish uchun xizmat qiladi.

Ma’lumki, matn yaratishda quyidagi me’yorlarga rioya qilinsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. 1. Fonetik me’yorlar. 2. Leksik-semantik me’yorlar (so‘z qo‘llash). 3. Talaffuz (orfoepik) me’yorlari. 4. Aksentologik (urg‘uning to‘g‘riligi) me’yorlar. 5. Grammatik me’yorlar. 6. So‘z yasaliş me’yorlari. 7. Imloviy me’yorlar. 8. Grafik (yozuv) me’yorlar. 9. Punktuation me’yorlar. 10. Uslubiy me’yorlar. Shulardan puntuatsiya yozuvning barcha ko‘rinishlarida keng foydalaniladi. Yozuv madaniyatining o‘sishi, matbuot va nashriyot ishlarining keng rivojlanishi puntuatsiyaning ijtimoiy-amaliy ahamiyatini oshirmoqda. Shulardan kelib chiqib, tinish belgilarining asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: 1. Yozuv orqali ijodkor (muallif) va o‘quvchi o‘rtasida amalga oshadigan ijtimoiy aloqa-aralashuvning to‘g‘ri borishiga yordam berish. Agar muayyan gap yakunida ijodkor undov yoki so‘roq belgisini qo‘ysa, o‘quvchi shu belgilar yordamida gapda so‘roq yoki undov, his-hayajon mazmuni borligini angelaydi va muallif maqsadini aniq tushunadi. 2. Yozma nutqdagi maqsad, mazmun va so‘zlarning ma’no qirralarini aniqlashtirishda ishtirok etadi. Masalan, gap oxiriga qo‘yilgan nuqta, so‘roq va undov belgisi yoki ko‘pnuqta shu gapda qanday mazmun, so‘zlovchining nutqiy maqsadi ifodalanganligini bildiradi, ayni paytda, ularni bir-biridan farqlaydi. 3. Gap qurilishini aniq belgilashga yordam beradi. Bunda gap bo‘laklari, gapning tuzilishiga ko‘ra turlari (sodda yoki qo‘shma), uyushiq va ajratilgan bo‘laklar, undalma, kiritmalar orasidagi chegarani, bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari hamda muallif va ko‘chirma gap o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatadi. 4. Yozma nutqning ixcham va ravon ifodalanishini ta’minlaydi. Qiyoslang: Toshkentdan Buxoroga qatnaydigan poyezd / “Toshkent - Buxoro” poyezdi. Keyingi misolda tirening qo‘llanishi gapni ancha ixchamlashtirgan. 5. Yozma nutqda murakkab fikriy munosabatlarni ifodalashda

qo'llanadi. Shuningdek, matn mazmunga (ilmiy, rasmiy, badiiy va hokazo) yoki hujjat xarakteriga ega bo'ladi. Matn ikki xil ko'rinishda bo'ladi: dialogik va monologik. Dialogik matn ikki va undan ortiq suhbatdoshning turlicha mazmundagi fikr-axborot almashinuvidan iborat. Dialogik matn tarkibida so'roq olmoshlari, muomala odobiga oid so'z va iboralar, yuklamalar, undovlar, kirish so'zlar keng qo'llanadi. Ikki kishi o'rtasidagi dialog - nutq savol-javob, buyruq-javob, xabar-e'tiroz kabi mazmunlarda bo'lib, fikr xususidagi tasdiq yoki inkorni, ziddiyat yoki munozarani ifodalaydi. Dialogik matn so'zlashuv uslubi va badiiy uslubga xos, ma'lumot bayonidir. Ko'p kishilik dialoglarda suhbat mavzusi savol-javobdan iborat bo'lmay, o'rtaga tashlangan savol, taklif, da'vat, biror xabar, dalillar bilan xulosalanadi. Bunday matndagi gaplar, asosan, sodda gaplardan tashkil topadi, sodda gaplarning bir tarkibli turlari, to'liqsiz gaplar, so'z-gaplar faol ishlatiladi. Tavsifiy(monologik) matn so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan bayon etilgan voqea-hodisa, narsa yoki shaxs tasviri, tavsifi yoxud xabardir. Ma'lum voqelik haqida tasavvur (ma'lumot) beradigan bir yoki bir necha sintaktik birliklardan tashkil topgan nutqiy butunlik matn hisoblanadi. Maqola, insho ham tavsifiy matnning bir turi sanaladi. Ma'lum voqea-hodisalarga, narsa va shaxslarga oid fikr-mulohaza bildirish, ularni badiiy-tasviriy vositalar yoki dalillar bilan ta'riflash, izohlash, isbotlash, asoslash tavsifiy matnga xos xususiyatlardandir. Tavsifiy matnda belgi-xususiyat ifodalovchi so'zlar, atamalar, modal so'zlar, fe'lining funksional shakllari, ravishlar faol qo'llanadi.

Matnning juda ko'p tiplari mavjuda bo'lib, ulardan biri tasviriy matndir. Bunday matn tinglovchiga noma'lum bo'lgan biror kishi, joy, hayvonot va nabodot olamiga mansub mavjudot va qandaydir narsa-buyum hamda voqea-hodisani ba'tafsil tasvirlab berish maqsadida tuzilgan bo'ladi. Tasviriy matnda ham monologik nutq ko'rinishi yetakchilik qiladi. Partonimik tasvir bunday matnning eng xarakterli xususiyati hisoblanadi. Ya'ni, tasvirlanayotgan obyektning dastlab, birlamchi xususiyati tilga olinadi. Keyin unga aloqador xususiyatlar va qismlar haqida so'z yuritiladi. Masalan: Yakan degan o'simlik bo'ladi. Nima uchundir san'atkorlar, aniqrog'i otarchilar pulni "yakan" deyishadi. Aslida esa yakan-qamishzorda o'suvchi o'simlik. Yakanni o'rib, quritib uzum osadilar yoki savat qalpoq to'qiydilar. Ma'lumki, qamish uzun, yakan esa aksincha, pastak o'simlik. Shunday bo'libdiki, bir kuni yakan qamishga qarab: - O', birodar, hadeb g'o'ddayaverma, salgina egil. Allohning quyoshi nuridan biz ham bahramand bo'laylik,-debdi. Qamish unga qaragisi ham kelmabdi, javob ham bermay burnini jiyirib qo'ya qolibdi. Vaqti – soati kelib avval qamishni, so'ng yakanni o'ribdilar. Tasodifni qarangki, shu uy to'sinlariga uzumlarni osibdilar, yakandan to'qilgan savat qalpoqlarni esa devordagi qoziqlarga ilibdilar. Oradan kunlar o'tiveribdi. Qamish pastda, oyoq ostida, yakan esa tepada ekan. Oyoqosti bo'laverib xorlangan

qamish axiyri yakanga qarab zorlanibdi: - meni o‘rib olib quritdilar, tepkilab qovurg‘alarimni sindirdilar, so‘ng suvga bo‘ktirdilar. So‘ng qayirib-bukib mana shu bo‘yra holiga keltirdilar. Bu ham yetmaganday sal qayirib, ostinga noslarini tupuradilar. Bu zorlanishni eshitib yakan debdiki: - Siz bekorga g‘o‘ddaydingiz. G‘o‘ddayib o‘ saverdingiz. Ichingiz g‘ovak ekanini unutdingiz. G‘ovak bo‘lganingiz uchun ham tepkilashdan bo‘lak narsaga yaramagingiz. ( Tohir Malik)

Orol o‘sha -o‘sha. Uzoqdan turib qarasang, ko‘z to‘ymaydi. Ilon kabi buralib oquvchi daryo shu yerga kelganda ikkiga ajralgan, uch chaqirimdan so‘ng yana birlashadi. Qo‘sh kokil yanglig‘ irmoq orasidagi orol esa yashnab turadi. Na‘matak, yovvoyi jiyda, baqaterak joy talashgandek ayqash-uyqash bo‘lib ketgan. Suvga egilib turgan jiyda barglari kumush kabi tovlanadi. Atrof sokinlik hukmida. Daryoning oqishi ham, oroldagi qalin daraxtzorning epkin tebranishi ham ulug‘vor. (Tohir Malik)

#### Savollar:

1. Matn hosil qiluvchi vositalarga nimalar kiradi?
2. Leksik va grammatik vositalarning farqi nimada?
3. Matnni ma‘noviy guruhlariga bo‘lishda qaysi tamoyillar mavjud?
4. Tematik birlashuv tamoyilining mohiyati nimada?
5. Mantiqiy izchillik matnning qanday sifatini ta‘minlaydi?

#### Topshiriqlar:

1. Berilgan matndan leksik bog‘lovchi vositalarni aniqlang.
2. Gaplararo grammatik vositalarni toping va izohlang.
3. Kichik matnni ma‘noviy qismlarga ajrating.
4. Bir maqoladan foydalanib tematik reja tuzing.
5. Matnni mantiqiy izchillik tamoyiliga ko‘ra qayta tuzing.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуазизов А. Tilshunoslik asoslari. — Toshkent: Universitet, 2010.
2. Abdullayeva Q., Rahmonbekova S.. Diktantlar to‘plami,-T.:1997
3. Abdurahmonova E., Grammatika imlo va nutq o‘stirishda tarqatma materiallar.- T.: 1996
4. Almamatov T. Yadgorov Q, Pochchayeva G. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi metodik qo‘llanma. Jizzax - 2006
5. Mahmudov N. O‘zbek tilining funksional uslublari. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
6. Mirzayeva S., O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. –T.: O‘qituvchi, 1992.
7. Nurmonov A. Nutq madaniyati va uslubiyati. — Toshkent: Fan, 2012.
8. Halliday M.A.K., Hasan R. Cohesion in English. — London: Longman, 1976.
9. Смирнов С.Д. Психология и педагогика. — М.: Академия, 2005

## 5-MAVZU: REJA. REJANING TURLARI.

### **Reja:**

- 1.Rejaga nisbatan qo'yiladigan talablar.
- 2.Matnni qismlarga bo'lish.
3. Reja tuzish.
4. Reja turlari.
- 5.Adabiy asar rejasini tuzish.
- 6.Sodda reja.
- 7.Murakkab reja.

**Reja** — bu matn, ma'ruza yoki nutqning mazmunini mantiqiy izchillikda qisqa sarlavhalar shaklida tartibga soluvchi yozma yoki og'zaki tuzilma.

N.Mahmudov reja haqida shunday deydi:

«Reja – matn mazmunini tartibga soluvchi, uni qismlarga ajratib, asosiy fikrlarni mantiqiy ketma-ketlikda ifodalovchi vositadir»<sup>35</sup>.

Reja – ish-faoliyatni tartibga solish, amalga oshirish rejimidir. Reja forschatojikcha “kir yoyiladigan ip”, “arqon”; “saf”, “qator” ma'nosidagi bo'lib, biror ishni tartibi bilan va o'z vaqtida bajarish uchun oldindan belgilab olingan aniq yoki taxminiy mo'ljal, belgili tartib, qoida, o'lchovni bildiradi (O'TIL, III, 369). Jumladan, muayyan narsani ko'rib chiqish, yondashish usuli, aniq tartib, bajarilayotgan ishning to'g'ri chiqishi uchun tortilgan ip, sim, chiziq kabi ma'nolarni ham bildiradi.

Reja tuzishning asosiy vazifasi — matnni tushunishni yengillashtirish, izchillikni ta'minlash va eslab qolishni osonlashtirish.

### **2. Rejaning asosiy vazifalari**

- Matn mazmunini qismlarga ajratish
- Asosiy g'oyalarni aniqlash
- Mantiqiy izchillikni ta'minlash
- Matnni qayta hikoya qilish yoki yozishga tayyorgarlik

### **3. Rejaning turlari**

Tilshunoslik va metodik adabiyotlarda rejaning bir necha turi ko'rsatiladi<sup>36</sup>:

#### **3.1. Oddiy reja**

- Matn mazmuni qisqa sarlavhalar ko'rinishida, oddiy ketma-ketlikda beriladi.
- Odatda **raqamlanadi** yoki belgilanadi.
- Misol:
  1. Kirish
  2. Asosiy voqea

<sup>35</sup> Mahmudov N. O'zbek tilining funksional uslublari. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. 101-b.

<sup>36</sup> Абдуазизов А. Tilshunoslik asoslari. — Toshkent: Universitet, 2010.

### 3. Yakun

#### 3.2. Murakkab reja

- Har bir bo‘lim kichik bo‘limlarga bo‘linadi.
- Mantiqiy tuzilma ancha batafsil bo‘ladi<sup>37</sup>.
- Misol:

##### 1. Kirish

###### 1.1. Mavzuga kirish

###### 1.2. Maqsad va vazifalar

##### 2. Asosiy qism

###### 2.1. Birinchi fikr

###### 2.2. Ikkinchi fikr

#### 3.3. Tezisli reja

- Matnning asosiy fikrlari qisqa tezislar ko‘rinishida yoziladi.
- Ko‘proq ilmiy chiqishlar va referatlar tayyorlashda ishlatiladi.

#### 3.4. Savol-javobli reja

- Har bir bo‘lim savol shaklida beriladi.
- Talabani faollashtiradi va matnni o‘zlashtirishni osonlashtiradi.

#### 3.5. Tasviriy reja

- Bo‘limlar tasviriy ifoda (voqea, holat, tasvir) shaklida yoziladi.
- Ko‘proq badiiy matnlarni tahlil qilishda ishlatiladi.

#### Reja tuzish

Reja matnning tuzilishi, qismlarga bo‘linishi va shu qismlarni izchillik bilan bayon qilish hamda matnda asosiy masalalar yoritilishi, nomuhimlardan qochish uchun tuziladi. Manba bilan tanishilgach, yoziladigan matn rejasi ustida ishlanadi. Reja yozishga kirishishda muhim bosqich hisoblanib, asosiy masalalarni ajratib olishdan boshlanadi. Rejaning mavzu mazmuniga mos bo‘lishi uchun mavzu mohiyatiga tushishi, yoritiladigan materialni chegaralab olish zarur. Reja yozma ish mazmuni va g‘oyasini yoritishda mantiqiy izchillikka qay darajada erishishda mavzuga bo‘lgan munosabatni ko‘rsatadi. Shuningdek, reja mavzuni va g‘oyasini yoritishda asosiy bosqich bo‘lib, ifodalash lozim bo‘lgan fikrni, voqea va obrazni tasavvur etish, ma’lum bir xulosaga kelish uchun vosita hamdir. Ishni reja asosida boshlash har bir ishga alohida, mas’uliyat bilan yondashishni taqozo etadi, matn bilan tanishib chiqilgach, reja tuziladi, reja asosida qayta hikoya qilinadi, keyin bayon rejasi tuziladi, sarlavha topiladi. Shuningdek, bir mavzuga oid bir necha rasm asosidagi reja, ya’ni rasmi reja tuzish ham mumkin. Reja tuzishdan oldin nimaga to‘xtalish, qanday davom ettirish, nihoyat, matnni qanday tugatish kerakligini e’tiborga olish o‘ta muhim hisoblanadi. Rejani ish boshlanishdan oldin, unga tayyorgarlik jarayonida tuzish maqsadga muvofiq, ya’ni ish yuzasidan

<sup>37</sup> Смирнов С.Д. Психология и педагогика. — М.: Академия, 2005

material to'plash, material tanlash va uni tartibga solish jarayonida tuziladi, shuningdek, reja yozishdan oldin ko'rib chiqiladi va zarur aniqliklar kiritiladi. Ma'ruzachining muhim masala bo'yicha reja asosida qiladigan ma'ruzasi yaxshi ish namunasi bo'lishi mumkin, ya'ni tinglovchi ma'ruzadan kirish so'zni, keyin asosiy qismga o'tishni, asosiy maqsadni bayon etish va iqtiboslar keltirish bilan uni isbotlashni, xulosalash yo'llarini bilib oladi.

### **O'quvchilarni yozma ishga tayyorlash.**

O'quvchilarni yozma ishga tayyorlash alohida mashg'ulotlar uyushtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. O'quvchilar bu mashg'ulotlarda o'zlari mustaqul amalga oshiriladigan ishlarni o'rtoqlari bilan hamkorlikda bajaradilar. Ishni bajarish qiyinchilik tug'dirmaslik uchun tayyorgarlik darsi aniq va qiziqarli mavzu asosida uyushtiriladi. Shundagina, bu dars o'quvchilarda reja ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi. O'quvchilar rejaga nisbatan qo'yiladigan quyidagi talablarni bilishlari kerak.

Mavzuni puxta o'zlashtirish, nimalar haqida yozishni aniqlab olish, mavzuga oid lug'at tanlash;

- ishning asosiy mazmunini, shu mazmunni yoritish uchun nimalar haqida va qanday yozishni aniqlab olish va reja tuzish;
- yozma ishning tiliga, fikrning yaxshi ifodalanganligiga e'tibor berish, zarur o'rinlarga tuzatish kiritish;
- oqqa ko'chirish.

Yozma ish murakkab ijodiy ish bo'lganligi uchun ham u zarur bilim, ko'nikma va malakalarni talab etadi. Birinchi yo'nalish deyarli barcha mashg'ulotlarda amalga oshiriladi. O'quvchilar o'rganilayotgan til hodisasini amalda tadbqiq etgan holda ijodiy matnlar yaratish uchun ikkinchi yo'nalish ijodiy yozma ish ustida ishlash uchun ajratiladigan maxsus soatlardir. Shu bois, ijodiy yozma ish ustida ishlash usullarini morfologiya o'rganilgandan keyin kiritish maqsadga muvofiq. Ma'lumki, maktabda o'tkaziladigan yozma ishlarda ko'zga tashlanadigan muhim kamchiliklar, asosan, mavzudan chetga chiqish, ya'ni uning haddan tashqari qisqa yoki, aksincha, ortiq darajada keng hajmda bo'lishidir. Shu sababli o'rinli, izchil va mantiqli tuzilgan reja yozma ishning sifat samaradorligini ta'minlaydi. Ishga tayyorgarlik bir necha kun ilgari boshlanadi, darsdan tashqari vaqtlardan ham unumli foydalaniladi. Og'zaki va yozma matn ustida ishlash quyidagi uch bosqichga bo'linadi:

1. Material yig'ish, ya'ni kuzatish, ekskursiya, mehnat jarayoni, rasmni ko'rib chiqish, kinofilm, spektaklni ko'rish, badiiy va boshqa adabiyotlarni o'qish;
2. Mavzuga va uni yoritishga mos material tanlash, uni tartibga solish, joylashtirish, ya'ni suhbat, muhokama qilish zarur materialni ajratish, reja tuzish, lug'at ustida ishlash, imlo va leksik tomondan ko'rib chiqish va hokazo.

3. Matnni nutqiy shakllantirish, ya'ni yozma ish matnini tuzish, yozish, takomillashtirish, xatolarni to'g'rilash va tekshirish;

- a) rejaga mos ravishda matnni xatboshilarga bo'lish va har birini yangi qatordan yozish;
- b) matnni mustaqil tekshirish, uni takomillashtirish

Matnni rejalashtirish uchun uni mantiqiy qismlarga ajratish va ularga sarlavha qo'yish qobiliyati talab qilinishi bois, qismlarga bo'lish, uning tuzilishini ko'rish qobiliyati har qanday mavzu bo'yicha matn bilan ishlashni yengillashtiradigan muhim umumiy ta'lim mahoratidir.

Chunki asosiy narsani ko'rish va ajratib ko'rsatish, ya'ni matnning ma'lum bir qismidagi mazmunni umumlashtirib ifodalash, matn bilan, kitob bilan ishlashda asosiysini umumlashtirish va ajratib ko'rsatish qobiliyati olingan ma'lumotlarni tez va aniq idrok etish, munosabat bildirish va ulardan foydalanish imkonini beradi. Quyidagi reja turlaridan foydalanish mumkin:

1. Og'zaki reja (mantiqiy) - voqealar ketma -ketligini, eng oddiy mantiqiy aloqani aniqlash asosida tuziladigan reja.
2. Rasmi reja - bu asar mazmunini emotsional idrok etish asosida tuziladigan reja va rejaning o'zi majoziy (rasmi) tarkibga ega;
3. Buzilgan reja-bu bolalar qayta qurishi kerak bo'lgan navbatdan tashqari reja.

Adabiy asar ustida ishlayotgan "ideal o'qituvchi" o'z oldiga o'qishning mazmuni ustida ishlash, tahlil qilish va assimilyatsiya qilish uchun har xil turdagi ishlarga qulay sharoit yaratish vazifasini qo'yishi kerak. Bolalar avval barcha materialni tushunib, keyin reja tuzishlari kerak. Ya'ni o'qishdan oldin, o'qish paytida va o'qib bo'lgandan keyin matn ustida ishlash, albatta, darsda bajarilishi kerak, shuning uchun bolalarga darsda batafsil takrorlashni o'rgatish kerak. Chunki to'g'ridan-to'g'ri o'qishdan oldin eng qiyin va ko'p vaqt talab qiladigan jarayonga tayyorgarlik ko'riladi. O'qish ko'nikmalari ham qattiq nazorat qilinadi. Shu bilan birga, ikkinchi darajali sintez kabi ishning ikkinchi bosqichi zaiflashadi yoki umuman bajarilmaydi. O'qituvchi hech qachon matnni batafsil aytib berishni talab qilmaslik kerak. Ba'zan, adabiy asarni qanday qayta aytishni, nimaga e'tibor berish kerakligini, ish va tayyorgarlik qanday ketma -ketlikda bajarilishini va baholash mezonlarini bilmay, odatda matnni so'zma -so'z o'rganishga harakat qilinadi. Ammo har qanday takrorlashni baholashning asosiy mezonlaridan biri jonli nutqdir. Shu sababli, asarning mazmunini o'z so'zlari bilan, to'liq va ifodali tarzda taqdim etish uchun hech qanday qiyinchiliksiz mustaqil ravishda tayyorlashga ishonch hosil qilish kerak. Buning uchun o'qituvchi hikoya qilishda ishlash texnikasidan foydalanishi kerak. Ushbu texnikalardan biri *adabiy asar rejasini tuzish*. Bu mazmunli takrorlashga olib keladi, chunki matnning mazmunini tushunmasdan reja tuzish qiyin, shu bois birinchi navbatda matnni tushunish zarur.

Boshlang'ich sinflarda reja tuzish talablari:

Reja tuzishga tayyorlaydigan ishlar savodxonlik davridan amalga oshiriladi. Uning eng oddiy shakli - sarlavhalarining kichik matnlar mazmuniga mosligini aniqlash. Reja tuzishga tayyorlaydigan ikkinchi turdagi ish - o'qituvchi rahbarligida tanlab o'qish. O'qituvchi bergan savolga javob bo'lgan matnning qismlari qayta-qayta o'qiladi. Tanlab o'qish hikoyadan kerakli fikrlarni ajratib ko'rsatishni o'rgatadi, hikoyani qismlarga bo'lish qobiliyatini rivojlantiradi. Reja tuzish qobiliyatiga o'rgatish qiyinchiliklarning asta -sekin o'sib borishini hisobga olgan holda quriladi va ma'lum bir tizimda olib boriladi. Hikoya yoki ertak rejasi ustida ishlash mazmunni hissiy idrok etishga asoslangan va rejaning o'zi ko'pincha majoziy (tasviriyy) ifodaga ega bo'ladi. Dastlabki mashq sifatida hikoya uchun buzilgan ketma -ketlikda bir nechta illyustratsiya beriladi va o'quvchilar ularni mazmuniga ko'ra tartibga soladilar, rasmlar nomlanib, matnda ularning har birining o'rnini belgilaydilar, ishlar *rasm rejasi deyiladi*. Keyin voqealar ketma -ketligini aniqlashga asoslangan reja tuzish o'rgatiladi (eng oddiy mantiqiy aloqa), bunday reja *mantiqiy reja* deyiladi. Ilk davrlarda sarlavhalarni ham savol ko'rinishida shakllantirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, so'roq mazmunidagi sarlavhalar bolani javob izlashga undaydi. Matn rejasini tuzishni o'rganishning dastlabki bosqichlarida o'qituvchilar tez -tez texnikadan foydalanadilar - bu qanday bo'lishi kerakligini misol bilan ko'rsatadilar. Buning uchun birinchi navbatda tayyor reja beriladi. Reja va sarlavhalar qanday tuzilganligi ko'rsatilib va tayyor holda beriladi. Bunday sarlavhalar bilan ishlashda bolalar nafaqat ulardan namunani ko'rishlari, balki ularning har biri matnning qaysi qismiga tegishli ekanligini aniqlashlari kerak. Tayyor reja bo'yicha bir nechta matnlar yozilgandan so'ng, bolalar shu tartibda rejani o'zlari tuzishni boshlashlari kerak.

1-sinfda reja rolini o'qituvchi savollari, ya'ni so'roq gaplar tarzidagi reja bajaradi; 2-sinfda reja o'qituvchi rahbarligida jamoaviy tarzda tuziladi; 3-4-sinflarda esa mustaqil tuziladi. Boshlang'ich sinflarda 3 - 5 talik oddiy reja tavsiya qilinadi. Bolalar avval o'qigan hikoyalariga reja tuzadilar va uni reja asosida qayta hikoya qiladilar, keyin bayon rejasini tuzadilar, so'ng bir mavzuga oid bir necha rasm (rasmlar seriyasi) asosidagi insho rejasini, ya'ni rasmlar reja tuzadilar, inshoga sarlavha topadilar. Shundan so'ng tasvirlangan voqea-harakatlar aniq ajratilgan, reja tuzishga qulay bo'lgan rasm yoki kuzatishlar asosida yoziladigan insho rejasini tuzishga o'tiladi. Reja tuzishga o'rgatishda oldin nima haqida to'xtalish, keyin uni qanday davom ettirish, undan so'ng nima haqda aytish, nihoyat, hikoyani qanday tugatish kerakligini o'quvchilarga tushuntirish foydali usul hisoblanadi. Reja avval so'roq gap tarzida, keyin darak gap, oxiri nominativ gap tarzida tuziladi. Reja ko'pincha insho yozishdan oldin unga tayyorlanish jarayonida (rasm

asosida yoziladigan insho rejasi kabi) tuziladi. Ba'zan tabiatga ekskursiya uyushtirilganda rejani ekskursiya, kuzatishdan oldin, unga tayyorgarlik jarayonida tuzish maqsadga muvofiq. Ekskursiya, kuzatish, ijtimoiy foydali mehnat rejasi shu ishlar bajarilishidan oldin yoki ular yuzasidan material to'plash, insho uchun material tanlash va uni tartibga solish jarayonida tuziladi. Bunday reja insho yozishdan oldin ko'rib chiqilib, unga ayrim aniqliklar kiritiladi.

Inshoni yozishga tayyorlash.

Og'zaki yoki yozma inshoning turi va vazifasiga qarab unga tayyorgarlik ko'riladi. Inshoga tayyorgarlikni o'qituvchi boshqaradi va o'quvchilarning faolligi va mustaqilligiga erishadi. Tayyorgarlik deganda, birinchidan, o'quvchilarda nimanidir tasvirlashga, hikoya qilishga rag'bat uyg'otadigan vaziyat yaratish; ikkinchidan, insho uchun yetarli bo'lgan zarur material yig'ish; uchinchidan, mavzuga oid, uni yoritishga mos bo'lgan til vositalarini tanlash tushuniladi. Og'zaki yoki yozma insho ustida ishlash quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

1) material yig'ish, ya'ni kuzatish, ekskursiya, mehnat jarayoni, rasmni ko'rib chiqish, kinofilm, spektaklni ko'rish, badiiy va boshqa adabiyotlarni o'qish;  
2) mavzuga va uni yoritishga mos material tanlash, uni tartibga solish, joylashtirish, ya'ni suhbat, muhokama qilish, zarur materialni ajratish, reja tuzish, lug'at ustida ishlash, imlo va leksik tomondan tayyorlash va hokazo; Birinchi va ikkinchi bosqichdagi ishlar, odatda, darsdan tashqari vaqtda bajariladi. Masalan, ekskursiya asosidagi insho uchun material yig'ish uni yozishdan ancha ilgari boshlanadi; tabiat hodisalarini kuzatish bir hafta, hatto undan ko'proq davom etadi; rasmlar esa insho yozishdan oldin ko'riladi. Shunday qilib, insho yozish yoki og'zaki hikoya qilish darsi ilgari bajarilgan ishlarning yakunidir. Insho yozish darsining umumlashtiruvchilik roli bog'lanishli nutq sohasidagi ko'nikmalarni egallash me'yoriga qarab ortib boradi. Insho yozish darsining qurilishi tayyorlov bosqichining xarakteriga bog'liq. Tayyorlov bosqichida qancha ko'p ishlansa, insho yozish darsida matn ustida shuncha chuqur ishlash imkoniyati yaratiladi. Insho yozishdan oldin yoki og'zaki hikoyalashda yig'ilgan materiallarni o'quvchilar yodiga tushirish, ularda qiziqish uyg'otish, yozishga yoki hikoya qilishga xohish uyg'otish zarur. Insho yozish darsida quyidagi bosqichlarga rioya qilinadi: 1. Mavzuni, inshoning vazifasini e'lon qilish (yoki yodga tushirish), uni o'quvchilar bilan muhokama qilish. 2. Kuzatish davrida to'plangan materialni tartibga solish yoki material yig'ish (masalan, rasmga qarab insho yozish uchun rasmni ko'rish) maqsadida suhbat o'tkazish. Keyingi ona tili darsining ikkinchi qismidan 15-25 daqiqa vaqt ajratib, tekshirilgan insholar yuzasidan yakuniy mashg'ulot o'tkaziladi (insho tahlil qilinib, xatolar ustida ishlanadi). O'qituvchi har bir insho turi uchun o'quv vazifasini belgilab oladi. Masalan, rasmlar seriyasi

asosida birinchi marta yozdiriladigan insho uchun quyidagi vazifalar belgilab olinadi:

1. O'quvchilarni inshoning yangi turi bo'lgan rasmlar seriyasi asosidagi insho bilan tanishtirish.

2. Rasmlari reja asosida matn rejasini tuzish. O'quvchilarning mustaqillik darajasi o'sib borib sayin, inshoga talab ham oshib boradi.

Shu bilan birga, o'quvchilarga hikoya rejasini tuzish uchun eslatma beriladi.

### **Hikoya rejasini tuzishda zarur ko'rsatmalar.**

Hikoyani to'liq o'qib chiqing va qismlarini ajrating. Qalam bilan boshini va oxirini belgilang. Qismlarni namaga asoslanib bunday ajratdingiz?

Birinchi qismni o'qib, undagi asosiy g'oyani toping va qalam bilan ostini chizib qismga nom bering.

Boshqa qismlarda ham xuddi shunday ishlarni amalga oshiring.

Insho mavzusi aniqlab olingach, mazkur mavzu asosida insho rejasini tuziladi. Tuziladigan reja insho mazmunini o'zida to'la-to'kis namoyon qilib turmog'i, izchillik asosida mavzudan chetga chiqmagan holda tuzilmog'i darkor. Reja inshoning asosiy tarkibiy qismlaridan biri, agar u yaxshi va puxta tuzilsa inshoning izchilligini ta'minlaydi, o'quvchi reja asosida qayd etilgan fikrdan keyin nima haqida bayon qilishni aniq his qilib turadi. Insho rejasini ikki xil: sodda va murakkab ko'rinishda bo'ladi. Odatda, erkin va ijodiy mavzulardagi insholar yozilayotganda yoki aniq bir yozuvchining ijodiga baho berilayotganda sodda shakldagi insho rejalaridan foydalaniladi. Bunda rejadagi har bir band qisqa va sodda gaplardan iborat bo'ladi. Sodda shakldagi insho rejasini tuzilayotganda mavzuga mos keladigan materiallardan, xalq maqollaridan va ibratli gaplardan, hikmatli so'zlardan foydalanish zarur. O'zida insho mavzusining barcha jihatlarini yaqqol aks ettirib turgan reja insho mazmunining ixchamlashtirilgan shaklidir. Yaxshi tuzilgan rejalar inshoning yo'nalishi, tarkibiy qismlari, mavzuning izchilligi haqida aniq bir tasavvur beradi. Bunday tipdagi insho rejalaridagi tartib arab raqamlari bilan belgilanadi va reja bandlari oxirida nuqta qo'yiladi. Sodda ko'rinishdagi insho rejalarini tuzilayotganda, undagi gaplar tarkibini 1), 2), 3) ... shaklida arabcha raqamlar bilan belgilash va ulardan keyin yarim qavs qo'yish, shuningdek, ularni a), b), d) tarzida belgilash tavsiya etilmaydi. Tartibni belgilashning eng maqbul yo'li arab raqamlarini qo'yib, ulardan so'ng nuqta ishlatishdir. «Izoh ma'nosidagi so'zlardan keyin ikki nuqta qo'yiladi», degan qoidaga asosan rejadan keyin ikki nuqta qo'yiladi. Har qanday reja umumlashtiruvchi so'z, tarkibidagi gaplar esa rejaning izohi, uning maqsadiga yo'naltirilgan mantiqiy davomidir.

Sodda ko'rinishdagi reja namunalari:

Mavzu: «Do'st bilan obod uying...»

Reja:

1. “Do‘st bilan odod uying, gar bo‘lsa u vayrona ham...”.
2. Do‘st boshga kulfat tushganda bilinadi.
3. Do‘stlik rishtalarini mustahkamlovchi omillar.
4. “Do‘st bo‘lsang yonimda tur...”.

Mavzu: Boburnoma – jahon memuarining nodir namunasi

Reja:

1. «Boburnoma»ning qomusiy tabiati.
2. Asardagi tarixiy joylar tasviri.
3. «Boburnoma»da shaxslar surati va siyrati tasviri.
4. Asarda moziyga aloqador faktlarning bayon etilishi.
5. «Boburnoma» matnining uslubiy xususiyatlari.

Mavzu: Muhammad Yusuf lirikasida ona – Vatan madhi

Reja:

1. Muhammad Yusuf lirikasining g‘oyaviy yo‘nalishlari haqida.
2. Muhammad Yusuf she‘rlarida go‘zal tabiat tarannumi.
3. Shoir she‘riyatida vatandoshlarimizga xos bo‘lgan sifatlar ifodasi.
4. Muhammad Yusuf ijodida milliy qadriyatlarning ulug‘lanishi.

Insho yozishda sodda ko‘rinishdagi rejalar bilan bir qatorda, mavzuning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda murakkab ko‘rinishdagi insho rejalarini tuzish mumkin. Murakkab ko‘rinishdagi rejalar sodda rejalar bilan o‘zining «Kirish», «Asosiy qism», «Xulosa» tarzida tarkibiy bo‘limlarga ajratilishi bilan keskin farqlanib turadi. Bundan tashqari, har bir qismning o‘zi alohida bandlarga bo‘linadi. Reja mavzuga mos bo‘lishi va maqsadga muvofiq tuzilishi kerak. Masalan, “Alisher Navoiy she‘riyatining badiiy xususiyatlari” mavzusidagi insho quyidagi murakkab reja asosida yozilishi mumkin:

Reja:

I. Kirish. Alisher Navoiy lirikasining badiiy xususiyatlari.

II. Asosiy qism:

1. Alisher Navoiy g‘azallaridagi badiiy san’atlar.
2. Alisher Navoiy ruboiylarida badiiy tasvir.
3. Alisher Navoiy qit‘alari va tuyuqlarida majoz haqiqati.

III. Xulosa. Alisher Navoiy she‘riyatidan olgan taassurotlarim.

Adabiy mavzudagi insholarni murakkab, erkin mavzularni sodda reja asosida yoritish maqsadga muvofiq.

Mavzu: Boburnoma – jahon memuarining nodir namunasi

I. Kirish. Zahiriddin Muhammad Bobur – mahoratli ijodkor.

II. Asosiy qism:

1. “Boburnoma” – qomusiy asar.
2. “Boburnoma”da shaxs surati va siyratining haqqoniy ifodasi.

3. “Boburnoma”da madaniy munosabatlar tavsifi.

III. Xulosa. “Boburnoma” – voqelik esdaliklar tarzida yoritilgan asar.

Bunday tipdagi reja tuzilayotganda o‘quvchilar insho mavzulariga alohida diqqat-e’tibor bilan yondashmoqlari lozim, chunki adabiy xarakterdagi insholarning aksariyati voqealarga boy, rang-barang timsollar galereyasiga ega bo‘lgan, g‘oyaviy hamda badiiy jihatdan mukammal asarlarning mazmuniga asoslangan bo‘ladi. Bu esa murakkab insho rejasini tuzishda o‘ziga xos yondashuvni talab etadi. Ko‘rinib turibdiki, yuqoridagi insho rejalarida tinish belgilarining ishlatilishi sodda ko‘rinishdagi rejalariga qaraganda qiyinroq. Murakkab rejalarda tinish belgilarining qo‘llanilishiga ham e’tibor qilish kerak. Bunda “Reja”, “Asosiy qism”dan keyin ikki nuqta, “Kirish”, “Xulosa”dan keyin nuqta qo‘yiladi. “Asosiy qism” uch va undan ortiq, “Kirish”, “Xulosa” qismlari bir band asosida yoritiladi.

#### MURAKKAB KO‘RINISHDAGI REJA NAMUNALARI

Mavzu: «Alisher Navoiy lirikasida insonparvarlik va adolatning ulug‘lanishi»

Reja:

I. Kirish. Alisher Navoiy lirikasining umumiy tavsifi.

II. Asosiy qism:

1. Alisher Navoiy lirikasida insoniy fazilatlarning ulug‘lanishi.
2. Alisher Navoiy she’rlaridagi insonparvarlik aks etgan misralar sharhi.
3. Alisher Navoiy lirikasida adolat g‘oyalari tarannumi.

III. Xulosa. Buyuk mutafakkir qarashlarining bugungi kundagi ahamiyati.

Yuqoridagi insho rejalarining sxemasini quyidagicha ko‘rsatish mumkin.

Mavzu: «\_\_\_\_\_»

Reja:

I. Kirish. \_\_\_\_\_ .

II. Asosiy qism:

1. \_\_\_\_\_.
2. \_\_\_\_\_.
3. \_\_\_\_\_.

III. Xulosa. \_\_\_\_\_

«Asosiy qism»dagi bandlarning tartibi 1, 2, 3 singari arab raqamlari bilan belgilanadi, ulardan keyin nuqta qo‘yiladi. Bundan tashqari, insho rejaları matn mohiyatini to‘laroq aks ettirishi uchun «Asosiy qism» dagi arab raqamlari bilan belgilangan har bir band o‘z ichida mayda qismlarga bo‘linishi mumkin. Agar bandlar yana bo‘limlarga ajratilsa, raqamlar:1), 2), 3) yoki a), b), d) kabi harfiy shakllar bilan belgilanib, ulardan keyin yarim qavs, shunga muvofiq ravishda

gaplarning oxiriga nuqtali vergul qo'yiladi. Oxirgi bandeda kelgan gapdan keyin nuqta qo'yiladi.

Mavzu: «Nodira ijodiga tavsif»

Reja:

I. Kirish. Nodiraning adabiy merosi haqida qisqacha ma'lumot.

II. Asosiy qism:

1. Nodira ijodida insoniy fazilatlarining ifodalanishi.

a) shoira ijodida insoniy mehr ifodasi;

b) Nodira she'riyatida adolatning ulug'lanishi;

d) ishq-muhabbat – shoira she'rlarining asosiy mavzusi sifatida.

2. Shoira she'rlarida xalqparvarlik g'oyalarining aks ettirilishi.

3. Nodira - vafodor yor va sevimli ona.

III. Xulosa. Nodira she'riyatining tarbiyaviy ahamiyati.

Sxemasi:

Mavzu: «\_\_\_\_\_»

Reja:

I. Kirish. \_\_\_\_\_.

II. Asosiy qism:

1. \_\_\_\_\_:

a) \_\_\_\_\_;

b) \_\_\_\_\_;

d) \_\_\_\_\_.

2. \_\_\_\_\_:

a) \_\_\_\_\_;

b) \_\_\_\_\_;

d) \_\_\_\_\_.

III. Xulosa. \_\_\_\_\_.

Ba'zan, o'quvchilar she'riy yo'l bilan reja tuzishga harakat qilishadi. Bunday rejalarini tuzish oson emas, albatta. Lekin har bir reja bandining she'riy tarzda berilishi aniqlikka, maqsadning to'g'ri ifodalanishiga mone'lik qiladi. Reja bandlaridan bir-ikkitasinigina mavzuga mos she'riy misralar orqali ifodalash mumkin. Mavzuga mos holda tuzilgan reja insho matnini mantiqiy izchillikda bayon etishga yordam beradi, insho qismlarining mutanosibligini ta'minlaydi. Shuningdek, ortiqcha takrorlar, mavzudan chetga chiqish hollariga yo'l qo'ymaydi. Rejaning har bir bandiga javob yozishda mavzuni yoritish uchun misollar va sitatalar keltirish o'rinli bo'ladi. Sitatalar insho matnida o'rta tashlangan fikrlarni dalillaydi. Xulosa qilib aytganda, insho rejasini tuzishda mavzu mohiyatini anglagan hamda o'zbek tilining imlo qoidalariga rioya qilgan holda ish tutish lozim.

Tezis yunoncha thesis “qoida”, “isbot” ma’nolaridagi soʻz boʻlib, “ilmiy asar, maqola, ma’ruza va sh.k.dagi asosiy gʻoyalarning qisqa va loʻnda bayoni”; “haqiqat ekanligi isbotlanishi lozim boʻlgan hukm, mulohaza, fikr”ni anglatuvchi birlik sifatida qayd etilgan. (OʻTIL, IV, 52) Tezis mavzuning yoki matnning asosiy mohiyatini aks ettiruvchi qisqa ifodalar boʻlib, masalaning keng yoritilishini taʼminlovchi, yoʻnaltiruvchi xarakterga ega boʻlgan umumlashma fikrlardir. Tezis maqsadga koʻra ikki xil boʻladi: 1. Matn mazmunini yorituvchi tezis (bunday tezislarning mohiyati “Qanday masalalar yoritilgan?” savoli mazmun-mohiyati bilan izohlanadi). Masalan, konferensiyadagi ma’ruza matnining qisqacha mazmuni shu tipdagi tezisga misol boʻladi. 2. Matn tuzishga yoʻnaltiruvchi tezis (bunday tezislarning mohiyati “Qanday masalalar yoritiladi?” savoli mazmun-mohiyati bilan izohlanadi). Insho tezisi ikkinchi turga mansub boʻlib, muallif fikrini jamlash, aniq ifodalashga, izchillik maqsadiga xizmat qiladi. Insho tezisi reja bandlari asosida shakllantiriladi. Reja bandlari insho mazmuniga qanchalik mos boʻlsa, tezis ham shu darajada mukammal boʻladi. Tezislar butun insho mazmuniga yoʻnaltiradi, shu bilan bir qatorda yaxshi insho yozishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Fikrlar tezisi – bu inshoda siz isbotlashga urinayotgan munozarali nuqtayi nazarlardir. Tezislarning aniq boʻlishi talab etiladi. Masalan, “Oʻlim ular uchun fojia emas, balki azobli hijrondan qutqarguvchi xaloskor, pirovard maqsadlari boʻlmish Yaratganning vasliga noil qiluvchi vosita edi”. Baʼzan tezisdagi fikrlar borasida maʼlumot berish kerak boʻladi va bu bilan oʻquvchi maqsadga yoʻnaltiriladi: “Navoiy Laylining oʻlimi, otasining qahrini va ikki oila oʻrtasidagi nizolar tasvirini keltirib, yurak va aql doim turlicha harakat qilishini namoyon qiladi”. Demak, inshoning yuzaga kelish jarayonini quyidagicha modellastirish mumkin: mavzu → reja → tezis → matn. Insholardagi oʻxshashliklarning koʻpligi, bir xil quyma fikrlarning takrorlanishi, mustaqil yondashuv kamligi shu omillarga amal qilmaslik natijasi ekanligi taʼkidlangan: “Bu toʻrt omilning birortasi talab darajasida boʻlmasa, oʻqish-oʻqitish jarayonida nomuvofiqlik vujudga keladi. Taʼlim oldiga qoʻyilgan maqsadni amalga oshirish mushkullashadi. Reja har qanday ogʻzaki yoki yozma hikoya qilishning zaruriy pogʻonasi, uning «loyihasi»dir. Kishi oʻz nutqi haqida oʻylab, asosiy gaplarini belgilab oladi. Insho uchun reja tuzish shuning uchun ham zarur.

Eslatma: Reja tuzishda asosiy gʻoyani aks ettirishga eʼtibor bering. Rejalar takrorlanganmi yoki yoʻqmi, ular sizga hikoyani eslab qolishga yordam beradimi - yoʻqligini tekshirib koʻring. Oʻqitishning asosiy usuli - bu reja qanday boʻlishi kerakligini misol bilan koʻrsatish, yaʼni tayyor reja namunalaridir. Ushbu texnikani nazarda tutgan holda, matnni oʻqish va notoʻgʻri tartibdagi rejani toʻgʻri joylashtirish topshirigʻi bajariladi. Oʻqitishning yana bir keng tarqalgan usuli - bu matnni tiklash usuli. Bunday mashgʻulotlarda matn qismlarga boʻlinadi

(paragraflar), ulardan matn tuzish kerak. Topshiriq: “Quyida berilgan matnning semantik qismlari tartibda joylashmagan. “Ularni to‘plang” - reja bu borada yordam beradi "(Matn va reja qismlarini hisobga olgan holda, qismlarni rejaga muvofiq tartibga solishingiz kerak). Mantiqiy savolli rejalarda jumladagi asosiy so‘zlar ajratib ko‘rsatiladi. Asosiy fikr matnning har bir qismida kelishi sababli mantiqiy savollar samarali bo‘ladi. **Xulosa qilish:** Reja asosiy fikrni ajratib ko‘rsatishga, voqealar ketma -ketligini o‘rnatishga, matnning alohida qismlari o‘rtasidagi munosabatni tushunishga yordam bersa, reja ustida ishlash nutq va tafakkurni rivojlantiradi, matnni semantik qismlarga bo‘lishni, har bir qismdan asosiy fikrni topishni, matnning bir qismi sarlavhasi shaklida asosiy fikrni qisqacha va aniq shakllantirishni o‘rgatadi. Shu bilan birga, reja tuzish materialni eslab qolishga yordam beradi. Reja materialning to‘liqligi, tezligi, aniqligi va eslab qolish kuchiga ta’sir qiladi.

### ***Ish rejasini tuzish.***

Ish rejasida epizodlar ketma -ketligi aks ettiriladi yoki taqdimot tartibi ko‘rsatiladi. Bu matn mazmunini ongli va chuqurroq tushunishga yordam beradi, o‘quvchilarga asosiy fikrni ajratib ko‘rsatishga, matnning alohida qismlari o‘rtasidagi munosabatni tushunishga yordam beradi. Reja ustida ishlash nutq va tafakkurni rivojlantiradi; matnni semantik to‘liq qismlarga bo‘lishni, har bir qismdan asosiysini topishni, asosiy rejani sarlavha yoki paragraf shaklida qisqacha va aniq shakllantirishni o‘rgatadi.

Reja bo‘yicha ish ikki bosqichdan iborat:

1. Asarning qismlarga bo‘linishi, mazmunan nisbatan to‘liqligi.
2. Qismlarning nomi.

Bo‘limlarga bo‘lish o‘quvchilar uchun juda qiyin bosqichdir, chunki bu ish qismning asosiy g‘oyasini ta’kidlash bilan bog‘liq. Matnni paragraflarga bo‘lish o‘quvchiga qism chegaralarini topishga yordam beradi. Ba’zida o‘qituvchi markaziy qismni ko‘rsatadi va bolalar epizoddan oldin va keyin nima deyilganini aniqlaydilar. Buni boshqacha qilish ham mumkin: parchaning asosiy g‘oyasini aniqlab, matndan dalil topishga o‘tishadi.

1. Bu kitobdagi rasm bo‘lishi mumkin. Matnda unga tegishli bo‘lgan qismni topish vazifasini berayotganda, o‘qituvchi ushbu qismdan oldingi va keyingi qismlarni aniqlashni so‘rashi mumkin. Shunday qilib, ishni qismlarga bo‘lish mumkin.
2. Ish uchun bir nechta tartibsiz berilgan illyustratsiyalarni taklif qilish mumkin, rasmlarni to‘g‘ri tartibda joylashtirish orqali ketma -ketlikni tiklash taklif etiladi.

Kichik bandlar ikkitadan ortiq ham bo‘lishi mumkin. Kichik bandlarni o‘zi tegishli bo‘lgan katta bandlarga mos; 1.1, 1.2, 2.1, 2.2, 3.1, 3.2, 3.3 tarzida ham raqamlash mumkin.

Ammo bunday sershox reja maktab yoki litsey o'quvchisi yozadigan insho uchun keraksiz. Reja soddaroq bo'lsa ham, fikr va tasvirlar pishiq-puxta bo'lsa bas.

Kurs ishi, monografiya, dissertatsiya ishlari rejasi bob va fasllardan iborat bo'ladi. Har bir bob ikki yoki uch fasldan tashkil topadi. Xulosada fasl berilmaydi. Bob rejalari rim raqamlarida bosh harflarda, fasl rejalari arab raqamlarida ifodalanadi.

Namuna: №1

“Til ta'limida an'anaviy va noan'anaviy yondashuvlar” mavzusida tayyorlangan

## KURS ISHI

|                                                                                                           |       |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| KIRISH .....                                                                                              | 4 - 9 |
| <b>I. BOB. ONA TILI TA'LIMINING NAZARIY ASOSLARI.</b>                                                     |       |
| 1.1. Maktab tizimida ona tili fani, uni o'qitishning maqsad va vazifalari.....                            | 9-26  |
| 1.2. Ona tili o'qitishning umumdidaktik va o'ziga xos tamoyillari.....                                    | 26-35 |
| <b>II. BOB. ONA TILI DARSLARIDA YONDASHUVLARNI QIYOSIY TAHLILI.</b>                                       |       |
| 2.1. Ona tili ta'limida zamonaviy va an'anaviy va texnologiyalar tahlili hamda foydalanish metodlari..... | 39-43 |
| 2.2. Ona tili o'qituvchining ta'lim jarayonidagi mahorati.....                                            | 44-56 |
| XULOSA.....                                                                                               | 56-58 |

### 1.Bitiruv malakaviy ish

## 7-SINF ADABIYOT DARSLIGIDAGI ASARLAR TAHLILIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR mavzusidagi BITIRUV MALAKAVIY ISHI

|                                                                                                                       |       |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| KIRISH.....                                                                                                           | 3-7   |
| <b>I BOB. ADABIYOT DARSLARIDA BADIY ASARLAR TAHLILINING ILMIY-METODIK ASOSLARI</b>                                    |       |
| 1.1. Adabiyot darslarida badiiy asar tahlili metodikasi.....                                                          | 8-14  |
| 1.2. O'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish..... | 14-20 |
| <b>II BOB. 7-SINF ADABIYOT DARSLIGIDAGI BADIY ASARLARNI INTEGRATSION YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH</b>                   |       |
| 2.1. Badiiy asarlar tahlilida integratsion yondashuv.....                                                             | 21-37 |
| 2.2. Mumtoz va zamonaviy lirik asarlarni o'qitishda innovatsion metod va texnologiyalar.....                          | 37-51 |
| XULOSA.....                                                                                                           | 52    |

## 2.Bitiruv malakaviy ish

### **INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA O‘QUVCHILARNING MATNNI IDROK ETISH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH (Odil Yoqubovning «Oq qushlar, oppoq qushlar» romani asosida) MONOGRAFIYA**

#### **KIRISH.....3**

#### **I BOB. ODIL YOQUBOV ASARLARINING BOSH G‘OYASI: TARIXIY VA BADIY QADRIYATLAR INTEGRATSIYASI**

- 1.1. Odil Yoqubov yaratgan obrazlarning o‘ziga xosligi hamda asarlarining badiiy-uslubiy jihatlari .....6
- 1.2. «Oq qushlar, oppoq qushlar» asarining tarixiy va ijtimoiy ahamiyati....14
- 1.3. Odil Yoqubov asarlarining qiyosiy tahlili va tarixiy-badiiy g‘oyalarning o‘zaro integratsiyasi.....25

#### **II BOB. «OQ QUSHLAR, OPPOQ QUSHLAR » ASARINING BADIY TAHLILI VA IJODIY XUSUSIYATLARI**

- 2.1. Tinchlik, milliy va insoniy qadriyatlarimizning aks etishi.....37
- 2.2. «Oq qushlar, oppoq qushlar» asarida muallifning adabiy-estetik qarashlari.....42
- 2.3. «Oq qushlar, oppoq qushlar» asarining tarbiyaviy g‘oyalari va ularning pedagogik jarayonlarga aloqadorligi.....48

#### **XULOSA.....54**

Odatda, birinchisi bob nazariy (u o‘rganilayotgan muammoning imkoniyatlari va nazariy tamoyillarini ochib beradi, maqsad va vazifalarni belgilaydi); ikkinchisi bob amaliy (amaliy tajriba yoki ko‘rib chiqilayotgan nazariyaning natijasini tavsiflaydi). Kirishda tuzilgan narsaning ta’rifi berilgan.

#### **AMALIY**

#### **KO‘NIKMA**

1-topshiriq. Matnni o‘qing, mazmunini tiklang va xatboshilarni aniqlang .

Nihoyat ko‘ngil orom olib, qalb taskin topganday bo‘ladi. Shundagina adabiyotning kuchini, uning zaruratini chuqur his qilamiz. Amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy izchil islohotlar jarayonida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuning uchun har doim kitob o‘qishga ehtiyojimiz bor. Ba’zan odam moddiy manfaatlar, zamon yangiliklari, internet tizimi ichra kuni va tuni qanday o‘tganini ham bilmay qoladi. Bunday yashash tarzidan zerikadi. Nimanidir sog‘inganday, izlab topa olmayotganday bo‘laveradi. Yuragi siqilib, go‘yoki o‘ziga sig‘maydi. Ko‘ngil bir og‘iz shirin so‘z,

bir taskin, malham istaydi. Shunday paytda biz, albatta, kitob varaqlashga tushamiz. Ko'nglimizga yoqqan she'rmi, hikoyami – xoh u qatra bo'lsin yoki salmoqli qissa va romanmi – tuyqus o'qiy boshlaymiz, o'qiyveramiz. So'nggi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan kitob mutolaasi muhimligi, yoshlar, rahbarlar orasida bu fazilatni targ'ib qilish haqida ko'p bora ta'kidlanmoqda. Nafaqat o'qiymiz, balki asardagi voqealar rivojiga kirib ketamiz va o'sha yerda yashaymiz... Zero, yaxshi kitob insonning ko'ngil ko'zgusini poklaydi, shirin xayollar surishga, eng asosiysi, odamlarni tushunishga, kechirishga, ezgulik sari intilib yashashga undaydi. Kitoblar qalbimizni ilitadi, ko'nglimizni yoritadi, baxtli va saodatli, nurli kunlarga boshlaydi. Dunyoni faqatgina ilm bilan zabt etish mumkin ekanligi haqidagi asl haqiqat bugun hech kimga sir emas. Ilmni mustahkam egallashning yo'li esa bitta, ya'ni – kitob o'qish. Aslida ham, kitob va kitobxonlik insonlar ong-tafakkurini teranlashtirib, qalbiga eng go'zal ezgu niyatlarni joylaydigan, ularni yaxshiliklar olamiga yetaklaydigan ma'naviyat sarchashmasidir.

2-topshiriq. Yuqoridagi matnga murakkab reja tuzing.

3-topshiriq. Venn diagrammasidan foydalanib sodda va murakkab rejalarni o'xshash va farqlarini taqqoslang.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. “Reja” so‘zi qaysi tildan olingan va uning ma’nosi nima?

a) lotin tilidan olingan bo‘lib “sayyora”, “plankton” ya’ni “adashgan” (fikrlar) degan ma’noni anglatadi

b) arab tilidan olingan bo‘lib “sayyora”, “fikrlar” degan ma’noni anglatadi

c) tojik tilidan olingan bo‘lib “qism” ya’ni “adashgan” degan ma’noni anglatadi

d) lotin tilidan olingan bo‘lib “holat”, “muammo” degan ma’noni anglatadi

2. .... bu berilgan matnda ko‘rib chiqilayotgan asosiy fikrlar, holatlarni ma’lum bir ketma-ketlikda sanab o‘tish.

a) kirish so‘zlar b) reja

c) annotatsiya d) xulosalovchi so‘zlar

3. Rejaga berilgan ta’riflardan qaysi biri noto‘g‘ri?

a) asar qurilishini ochib beradi

b) muallif fikrining ketma-ketligini kuzatish imkonini beradi

c) reja tuzish jarayonida o‘quvchi asar mazmuniga chuqur kirib borolmaydi

d) reja e’tiborni jamlaydi, xotirada o‘qilganlarni tiklashga yordam beradi

4. Rejaning xususiyatlari noto‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping.

a) javoblarning aniqligi b) aniqlik

c) qisqalik d) maqsadga yo‘naltirilganlik

5. Reja ustida ishlashning ketma-ketligi to‘g‘ri berilgan qatorni toping.

- a) matnning ma'noli qismlariga sarlavhalar berish, o'qilganlarni ma'noli qismlarga ajratish, har bir ma'noli qismlarda kalit so'zlarni ajratish, matnni o'qish
  - b) matnni o'qish, matnning ma'noli qismlariga sarlavhalar berish, har bir ma'noli qismlarda kalit so'zlarni ajratish, o'qilganlarni ma'noli qismlarga ajratish
  - c) bosh, o'rta va xulosa qismlar ketma-ketligida reja tuzish
  - d) matnni o'qish, har bir ma'noli qismlarda kalit so'zlarni ajratish, o'qilganlarni ma'noli qismlarga ajratish
6. Nutq bo'yicha reja turlari to'g'ri berilgan qatorni toping.
- a) savolli, tematik, tezisli b) savolli, atov, tezisli
  - c) matnli, savolli, atov d) erkin, tezisli, matnli
7. Atov rejaga berilgan ta'riflardan qaysi biri noto'g'ri?
- a) atov gaplar shaklida tuziladi
  - b) matnda berilayotgan asosiy muammolar sanab o'tiladi
  - c) har bir axborot markaziga mantiqiy savollar ko'rinishida bo'ladi
  - d) yoritish kerak bo'lgan asosiy masalalarga e'tibor qaratish uchun nutq so'zlashga tayyorgarlikda qo'llaniladi
8. ... reja har bir axborot markaziga mantiqiy savollar ko'rinishida tuziladi.
- a) atov b) savolli c) tezisli d) matnli
9. Qaysi reja turi dinamikligi va axborotga boyligi bilan ajralib turadi.
- a) matnli b) savolli c) tezisli d) atov
10. Tuzilish bo'yicha reja turlari necha turga bo'linadi?
- a) 2 b) 3 c) 5 d) 4

#### **Nazorat savollari:**

1. Reja nima va uning asosiy vazifasi nimadan iborat?
2. Mahmudov (2008) reja haqida qanday ta'rif bergan?
3. Oddiy reja va murakkab reja o'rtasidagi farqlarni tushuntiring.
4. Tezisli reja qanday hollarda qo'llanadi?
5. Savol-javobli rejaning afzalligi nimada?
6. Tasviriy reja qaysi matn turlari uchun ko'proq mos keladi?
7. Nurmonov (2012) rejaning ahamiyati haqida nima degan?
8. Reja tuzishda mantiqiy izchillik nega muhim?

#### **Topshiriqlar:**

1. Berilgan matn asosida **oddiy reja** tuzing.
2. O'zing tanlagan ilmiy maqola asosida **murakkab reja** tuzing.
3. "Konstruktiv yondashuv" mavzusida **tezisli reja** tuzing.
4. Quyidagi matn bo'yicha 4–5 savoldan iborat **savol-javobli reja** tuzing.
5. Bir badiiy hikoyani o'qib, unga **tasviriy reja** tuzing.
6. Uch xil reja turini (oddiy, murakkab, tezisli) bir mavzu asosida tuzib, ularni taqqoslang.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Абдуазизов А. Tilshunoslik asoslari. — Toshkent: Universitet, 2010.
2. А. Рафиев. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi va imlosi. — Toshkent, 2003. — 237 b.
3. Мадаев О. Insho qanday yoziladi? O‘rta maxsus o‘quv yurtlarining o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. — Toshkent: O‘qituvchi, 1991.
4. Махмудхўжа Бехбудий. Kitobatul-atfol (Bolalar maktubi). Tanlangan asarlar. — Toshkent: Ma’naviyat, 1997. — 179–180 b.
5. Mahmudov N. O‘zbek tilining funksional uslublari. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
6. М. Ғуломов. Yozuv daftari. — Toshkent: Ma’naviyat, 2009.
7. Nurmonov A. Nutq madaniyati va uslubiyati. — Toshkent: Fan, 2012.
8. Пленкин Н.А. Izlozhenie s yazykovym razborom teksta: posobie dlya uchiteley / N. A. Plenkin. — 2-e izd., ispr. i dop. — M.: Prosveshchenie, 1978. — 190 s.
9. Русова Н.Ю. Kak pisat sochinenie, izlozhenie i diktant: ucheb. posobie dlya sred. shk., abiturientov, roditeley / N. Yu. Russova. — Nizhniy Novgorod: Dekom, 1994. — 192 s.
10. Сморщок М. Ф. Izlozheniya: dlya abiturientov / M. F. Smorshok. — Minsk: Vyssheyshaya shkola, 2000. — 171 s.
11. Yo‘ldoshev Q. Nutq madaniyati va til estetikasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2015.

## 6- MAVZU: KONSPEKT. KONSPEKT TURLARI

Reja:

- 1.Konspekt haqida tushuncha.
- 2 Konspekt turlari.
- 3.Konspekt yozish qoidalari.
- 4.Rejali konspekt.
- 5.Matnli (matnga oid) konspekt .
- 6.Erkin konspekt.
- 7.Tematik konspekt.

Konspekt (lotincha *conspectus* – umumiy ko‘rinish, qisqacha bayon) — bu matn, ma’ruza yoki o‘qilgan adabiyotning asosiy mazmunini mantiqiy izchillikda, qisqa va tizimli shaklda qayd etish usuli. Yozma ko‘rinishdagi matnning qisqacha mazmuni, xotirada kerakli ma’lumotlarni tiklash imkonini beradi. «Konspekt — bu yozma qaydlar tizimi bo‘lib, unda o‘quv materialining asosiy mazmuni qisqa, aniq va mantiqiy ketma-ketlikda ifodalanadi»<sup>38</sup>.

Konspekt tayyorlash o‘quvchidan:

- Asosiy fikrlarni ajratib olish;
- Muhim tushunchalarni to‘g‘ri qayd etish;
- Matnni qayta ishlash va tizimlashtirish ko‘nikmalarini talab qiladi.

### **Konspekt tayyorlashning ahamiyati**

- O‘quv materialini chuqur anglashga yordam beradi;
- Fikrlarni izchil va mantiqli ifodalashga o‘rgatadi;
- Qayta takrorlash jarayonini yengillashtiradi;
- Mustaqil o‘qish va o‘z-o‘zini o‘qitish malakasini rivojlantiradi.

Q.Yo‘ldoshevning qayd etishicha:

«Konspekt o‘zlashtirish vositasi bo‘lish bilan birga, talabanning intellektual mustaqilligi va ijodiy yondashuvini rivojlantiradi»<sup>39</sup> .

### **Konspekt yozish qoidalari**

□□ daftar hoshiyasining chap tomonida ma’ruza o‘tkazilgan sana, so‘ng ma’ruza mavzusi yoziladi;

□□ avval ma’ruzachining fikrini oxirigacha eshitib, so‘ng yozish kerak, chunki ma’ruzachi ba’zida mavzudan chetga chiqishi mumkin;

□□ ma’ruzachi “e’tibor bering”, “ta’kidlash joizki”, “bu juda muhim” jumllarini aytgan vaqtida qizil ruchka bilan shu qismlarini iloji boricha ko‘proq yozib olishga harakat qilish kerak;

□□ (oddiy siyohrang bilan emas) kalit so‘zlarni boshqa rang bilan belgilab qo‘yish kerak;

<sup>38</sup> Mahmudov N. O‘zbek tilining funksional uslublari. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. 92-b.

<sup>39</sup> Yo‘ldoshev Q. Nutq madaniyati va til estetikasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2015. 77-b.

❑ agar talaba ma'ruzachi bergan axborotlarni yozishga ulgurmasa, ma'ruzadan keyin tinch muhitda to'ldirish uchun joy qoldirishi hamda kalit so'zlarni yozib olishi kerak;

❑ agar o'qituvchi doskada yozsa yoki chizsa, talaba bu axborotni albatta yozib olishi kerak;

❑ konspektlashtirishda ma'ruza mazmunini to'liqroq qamrab olish uchun o'ziga ma'lum bo'lgan qisqartirishlar, abbreviaturalarni qo'llash muhim.

### **Konspekt turlari**

Ilmiy va pedagogik manbalarda konspektlar bir necha turga bo'linadi <sup>40</sup>:

1. **Matnli konspekt** – ma'ruza yoki matnning asosiy qismi deyarli so'zma-so'z yozib olinadi, ammo keraksiz tafsilotlar chiqarib tashlanadi.
2. **Tizimli (strukturali) konspekt** – mazmun qismlarga ajratilib, reja yoki sarlavhalar asosida yoziladi.
3. **Tezisli konspekt** – asosiy g'oyalar faqat qisqa tezislar ko'rinishida yoziladi.
4. **Aralash konspekt** – matnli, tizimli va tezisli elementlarning birgalikda qo'llanishi.
5. **Grafik (sxemali) konspekt** – asosiy fikrlar jadval, diagramma, klaster yoki aqliy xaritalar (mind map) shaklida ifodalanadi.<sup>41</sup>

Shuningdek, **rejali; erkin; tematik, savol-javobli** konspekt turlari ham mavjud bo'lib quyida ba'zilarining yozilishi tushuntirilgan:

### **Rejali konspekt**

**Rejali konspekt**ni oldindan asarga tuzilgan reja yordamida oson yozish mumkin. Bunda reja konspekt yozilishi uchun maxsus tuziladi yoki mustaqil yozuv sifatida oldindan tuzilganidan foydalaniladi. Bunday yozuvda rejaning har bir savoliga konspektning ma'lum bir qismi to'g'ri keladi. Biroq rejaning qismi qo'shimcha va tushuntirishlarni talab qilmasa, u matn bilan berilmaydi. Bu aniq, qisqa, ixcham reja konspektning o'ziga xos xususiyatidan biri. Konspektlashtirish maqsadlarini e'tiborga olib o'qiganlarini qayta bayon qiladigan, reja shaklida qisqa bo'lgan konspekt o'rganish jarayonida materialni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi. Mazmun konspekt yozishda esda qoladi. U o'z fikrini ketma-ket va aniq ifodalay olish, reja tuzishda uning mazmunini umumlashtirib kitob ustida ishlashga o'rgatadi.

Ko'nikma bo'lganda konspekt o'z shaklida tez, qisqa, oddiy va tushunarli tuziladi. Bunday afzalliklar ma'ruza yoki taqdimotlarni tez tayyorlashda ahamiyatli, agar kitob orasiga izohlar yozilgan varoqlar qo'yilsa, ular asosida konspekt tuzish osonroq bo'ladi. Biroq vaqt o'tganda bular bilan ishlash qiyinchilik tug'dirishi mumkin, chunki har doim ham manbaning mazmuni

<sup>40</sup>Смирнов С.Д. Психология и педагогика. — М.: Академия, 2005

<sup>41</sup> Абдуазизов А. Tilshunoslik asoslari. — Toshkent: Universitet, 2010

xotirada saqlanib qolmaydi. Bunda kitobni o‘qish davomida belgilangan varoqlar yordamga keladi. Shu sababli bunday varoqlar saqlab qo‘yiladi.

**Savol-javobli** konspekt eng sodda rejali konspekt sanaladi. Bunda savollar shaklida tuzilgan rejaga konspekt ko‘rinishida aniq javoblar beriladi. Ishlab chiqish, o‘zgarish kiritish jarayonlarida rejali konspekt sxema rejali konspekt bo‘lishi mumkin, ya’ni mantiqiy tuzilish va alohida mazmunlarning o‘zaro aloqasini aks ettiruvchi konspekt. Mantiqan to‘g‘ri ma’noga ega bo‘lishi uchun yozuvda asl nusxadagi ketma-ketlik o‘zgarishi mumkin.

**Matnli (matnga oid) konspekt** — bu konspekt asosan asl nusxadan parchalar — iqtiboslar asosida yaratiladi. Matnli iqtiboslar bir-biri bilan mantiqiy o‘tishlar zanjiri orqali bog‘langan, reja bilan ta’minlangan hamda konspekt qiluvchi yoki muallif bayonida alohida tezislarni o‘z ichiga olishi mumkin. Matnli konspekt — muallifning so‘zma-so‘z bayoni va u keltirgan dalillar manbasi. Ilmiy maqola (kitob)ning bunday konspekti muallif qarashlarining soxtaligini aniqlash yoki munozarali qismlarini aniqlashga yordam beradi, ularni erkin konspektga qayta hikoya qilishda topish qiyinroq. Bunda to‘g‘rilash va aniqlashtirish uchun asl nusxaga murojaat qilish talab etiladi. Bir qator mualliflar fikrlarini qiyosiy o‘rganishda matnli konspektlarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

### **Erkin konspekt**

Matnli konspekt ko‘p hollarda — uzoq vaqt foydalaniladigan qo‘llanma. Ba’zida bunday konspekt asarni tezkor o‘rganish uchun vaqtinchalik qo‘llanma sifatida ishlab chiqiladi. Matnli konspektni tuzishda tez va to‘g‘ri asosiy iqtiboslarni tanlash talab qilinsa ham, bu turdagi konspekt uni yozish uchun qilingan ishlarni e’tiborga olganda murakkab hisoblanmaydi. Ba’zida matnli konspekt qayta ishlash jarayonida yoki yozilayotganda erkin konspektga o‘tib ketadi.

**Tematik konspekt** qo‘yilgan savol-mavzuga mukammalroq bo‘lgan javob beradi (foydalanilgan manbalar va materiallar soniga qarab). Shuning uchun u tematik nomini olgan. Bu konspektning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u bir necha manbalardan ma’lum bir mavzuni o‘rganish davomida foydalanilgan asarlardan har birining to‘liq mazmunini bermasligi mumkin. Tematik konspektni tuzish har tomonlama o‘ylab, bir masalani turli nuqtai nazardan tahlil qilishga o‘rgatadi. Bu konspekt, bir necha manbalar foydalanilganda, mavzu ustida ishlashni osonlashtiradi.

### **Konspektlashtirish usullari**

**Tezislar** — bu o‘rganilayotgan materialdagi asosiy fikrning, mazmunning qisqacha ko‘rinishi. Tezislar o‘qilayotgan asar mohiyatini ifodalab, mazmunini ochib berishga imkon yaratadi. Tezislar ko‘rinishidagi yozuvlarni o‘rganishni boshlaganda muallif isbot qilmoqchi bo‘lgan asosiy fikr berilgan joylarni matnni

o‘zida belgilab borish kerak. Ko‘pincha bunday joylash boshqa shriftlar bilan beriladi.

**Matnni chiziqli ketma-ket yozish.** Chiziqli ketma-ket usul bilan konspekt yozishda plakat bezatish vositalarini qo‘llash maqsadga muvofiq, ularga quyidagilar kiradi:

- konspekt matnini gorizontal va vertikal bo‘yicha surish;
- ahamiyatga ega so‘zlarni to‘q rang bilan ajratish;
- turli ranglarni qo‘llash;
- ta’kidlash;
- asosiy axborotni ramkaga olish.

**“Savol – javob” usuli.** Bunda daftarni vertikal chiziq bilan ikki qismga bo‘lib, konspekt yozuvchi varaqning chap tomoniga mustaqil ravishda savol yoki muammolarni yozadi, o‘ng tomonida esa ularga javob beradi. “Savol-javob” usulining ko‘rinishlaridan biri — savol o‘rniga muallif tomonidan olib chiqilgan muammo ifodalangan, o‘ng tomonida esa javob o‘rniga ushbu muammoning yechimi berilgan jadval. Ba’zida jadvalda qo‘shimcha qatorlar paydo bo‘lishi mumkin: masalan, “mening fikrim” va b.

**Qismli sxema** — matn tuzilmasini yorqinroq aks ettiruvchi konspektlashtirish usulida matn qismlari (tayanch so‘zlar, so‘z birikmalari, turli tushuntirishlar) grafika bilan birgalikda qisqa va aniq konspekt yozishga yordam beradi.

**Oddiy sxema** — qismli sxemaga yaqin bo‘lgan konspektlashtirish usuli, konspekt yozuvchi unga tushuntirish yozishi shart emas, lekin og‘zaki tushuntirishi kerak. Bu usul konspekt yozuvchidan yuqori malakali bo‘lishni talab qiladi. Aks holda bunday konspektidan foydalanish mumkin bo‘lmay qoladi.

**Konspektlashtirishning parallel usuli.** Konspekt parallel ravishda ikki varaqda bajariladi yoki bir varaq vertikal chiziq bilan ikki qismga bo‘linadi hamda yozuvlar ham chap tomonda ham o‘ng tomonda olib boriladi. Bir materialni konspekt qilishda turli usullarni qo‘llash yaxshi natija beradi.

**Kombinatsiyalangan konspekt** — to‘g‘ri konspektlashtirishning yuqori cho‘qqisi. Bunda bir konspektida barcha usullar mohirona qo‘llaniladi. (konspekt matni, konspekt yozuvchining xohishiga ko‘ra bir turdagi konspekt boshqa turiga erkin o‘tadi). Aynan kombinatsiyalangan konspektida talabaning tayyorgarligi va o‘ziga xosligi namoyon bo‘ladi.

**Xotira xaritasi** shaklida konspektlashtirish mashhur bo‘lmoqda. Axborotni qayd qilish usulning muallifi – taniqli psixolog Toni Byuzen. Jarayon shunday tarzda o‘tadi: chuqur emotsional taassurot hosil qiluvchi timsollar xaritasi tuziladi, bu materialni eslab qolish imkoniyatini oshiradi. Bu metod an’anaviy konspektlashtirishga nisbatan kamroq harakat talab qiladi, chunki yozuvlar ijodiy

va erkin tarzda olib boriladi. Xotira xaritalarini tuzishda olingan ma'lumotlarning asosiy g'oyalari qisqa, aniq, tushunarli bo'lib, ular orasida mantiqiy bog'liqlik seziladi. Xaritalar xohishga qarab o'zgarishi mumkin, masalan, qaytarish orqali kengayishi mumkin. To'g'ri yo'lga qo'yilgan qaytarishlar xotirada o'rganilganlarni oson va mustahkam saqlab qolish imkonini beradi.

### **Xotira xaritasini tuzish jarayoni**

1. Turli grafik vositalardan foydalaniladi (rasmlar, simvollar, strelkalar, turli shriftlar). Ular rang-barang bo'ladi.
2. Konspektga chiziqlar qo'shish mumkin.
3. Kalit so'zlarni bosma harflar bilan yozib, shrift kattaligini kalit so'zning ahamiyatiga qarab tanlanadi.
4. Varaq gorizontaal qo'yiladi, shunda rasmga (konspekt) ko'proq joy qoladi.
5. Har bir chiziqqa kalit so'z yoziladi.
6. Xaritada rasm va simvollar ko'p bo'lishi kerak.
7. Varaqning markazida asosiy g'oyani belgilaydi.
8. Rangli ruchkalar bilan asosiy g'oyadan chiziqlar tortiladi, ularning har biri asosiy mavzuning bir qismi bo'ladi.
9. Strelkalar g'oyalar o'rtasidagi aloqani ko'rsatadi.

### **Yaxshi konspekt mezonlari**

qisqalik: materialning ochiq, aniq tuzilishi, bu tez o'qilishini ta'minlaydi;  
mazmunidagi aniqlik;

obrazli yoki simvolli tayanch komponentlarining mavjudligi;

materialni individual qayta ishlashda originallik (savollar, shaxsiy fikrlar, o'z simvollar va belgilarining mavjudligi);

adreslilik (chiqish ma'lumotlari aniq berish, iqtibos keltirilgan betlar, foydalanuvchi vazifalari va xususiyatlariga mosligi).

### **Savollar:**

1. Konspekt nima va uning asosiy vazifasi nimadan iborat?
2. Mahmudov (2008) konspektga qanday ta'rif beradi?
3. Konspekt tayyorlash jarayonida talab qilinadigan uchta asosiy ko'nikmani sanang.
4. Matnli konspektning afzalliklari va kamchiliklarini tushuntiring.
5. Tizimli konspekt va tezisli konspekt o'rtasidagi farq nimada?
6. Grafik (sxemali) konspekt qanday vazifani bajaradi?
7. Nurmonov (2012) tizimli va sxemali konspektlar haqida nima degan?
8. Konspekt tayyorlashning uchta amaliy foydasini ayting.

### **Topshiriqlar:**

1. Quyidagi matndan **tezisli konspekt** tuzing (matnni o'qituvchi beradi yoki ilmiy maqoladan tanlang).

2. “Nutq madaniyati” mavzusida **tizimli konspekt** tuzing: kirish, asosiy qism, xulosa.
3. Berilgan ma’ruza matnidan **grafik (sxemali)** konspekt tayyorlang.
4. Quyidagi iboralarni qaysi konspekt turiga xosligini aniqlang:
  - “Ma’lumotlar ro‘yxati”
  - “Diagramma ko‘rinishida”
  - “Qisqa tezislar”
  - “Reja asosida yozilgan matn”
5. Mahalliy yoki xorijiy olimlarning konspekt haqidagi ta’riflarini topib, kamida 3 tasini qiyoslang.
6. O‘zing o‘qigan bir ilmiy maqoladan aralash konspekt tuz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Абдуазизов А. Tilshunoslik asoslari. — Toshkent: Universitet, 2010.
2. Mahmudov N. O‘zbek tilining funksional uslublari. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
3. Nurmonov A. Nutq madaniyati va uslubiyati. — Toshkent: Fan, 2012.
4. Rasulova R.B. Istiqlool davri o‘zbek adabiyotining yetakchi tamoyillari: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent: “Zebo Prints”, 2024. — 348 bet.
5. Смирнов С.Д. Psikhologiya i pedagogika. — M.: Akademiya, 2005.
6. Yo‘ldoshev Q. Nutq madaniyati va til estetikasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
7. Hyland K. Academic discourse. — London: Continuum, 2009.
8. Swales J.M. Genre analysis: English in academic and research settings. — Cambridge: Cambridge University Press, 1990.

## **7-MAVZU:NUTQ USLUBLARI. ILMIY USLUB VA RASMIY-IDORAVIY USLUBNING LEKSIK GRAMMATIK XUSUSIYATLARI. AKADEMIK NUTQ.**

Reja:

1. Adabiy nutq, ilmiy matn yaratish uning xususiyatlari.
2. Nutq uslublarining xususiyatlari.
3. Ilmiy uslub va uning akademik yozuvda tutgan o'ri.
4. Rasmiy idoraviy nutq uslubi.
5. Fonetik va grammatik vositalarni tanlash.
6. Rasmiy uslub tilining asosiy xususiyatlari.
7. Akademik nutq.

Til birliklari orqali fikrni ifodalash nutqdir. Adabiy nutq qat'iy me'yorlarga ega bo'lgan nutq ko'rinishi bo'lib, uning muayyan sohaga moslashtirilgan xususiyatlari bilan farqlanadigan ko'rinishlari – uslublari mavjud. Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma'lum soha doirasida, ma'lum nutqiy vaziyatga xoslangan ko'rinishi nutq uslubi hisoblanadi. Demak, nutq uslubi tilning vazifasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular vazifaviy uslub deb yuritiladi. Vazifaviy (funktional) uslub tildan farqli alohida tushuncha emas, balki aniq bir adabiy til tarkibi ichidagi, o'ziga xos xususiyatlari, xizmat qilish doirasi bilan o'zaro farq qilib turadigan yordamchi tizimdir. Vazifaviy uslub nutq ko'rinishlarining aloqa, xabar berish, ta'sir etish kabi asosiy vazifalariga ko'ra adabiy tilning so'zlashuv uslubi, rasmiy uslub, ilmiy uslub, publitsistik uslub, badiiy uslublariga bo'linadi. Muloqot vaziyati va sharoitiga muvofiq publitsistik, badiiy, ilmiy, rasmiy uslublar nutqning yozma shaklida, ayniqsa, ish qog'ozlaridagi rasmiy uslub faqat yozma shaklda bo'ladi. Bu uslublarda yozma shakl yetakchilik qilsa-da, o'ri bilan og'zaki shakldan ham voz kechilmaydi. Masalan, ilmiy uslubning asosiy ko'rinishlari bo'lgan dissertatsiya, monografiya, maqola va shu kabilar yozma shaklda yaratilsada, ilmiy ma'ruzalar og'zaki ifodalanadi, badiiy uslubdagi sahna asarlari og'zaki ijro etiladi.

Uslubiyat tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, nutq jarayonida til hodisalarining maqsadga, sharoitga va muhitga mos ravishda foydalanish qonuniyatlarini o'z ichiga oladi. Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma'lum bir sohada qo'llanadigan, bir qancha o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan ko'rinishi adabiy til uslubi deyiladi. O'zbek adabiy tilida so'zlashuv uslubi, badiiy uslub, rasmiy uslub, ommabop uslub, ilmiy uslub kabi asosiy nutq uslublari bor. Ba'zan so'zlashuv uslubidan boshqa uslublar kitobiy uslub degan umumiy nomda beriladi: durust, metro, ko'k, tuzuk (so'zlashuv uslubi); moviy, metropoliten (kitobiy). Har bir uslubni yaratuvchi vositalar bo'lib, ular quyidagi turlarga bo'linadi: 1. Leksik

vositalar: Sinonim, omonim, antonim, paronim, ko‘p ma’nodlilik, tag ma’no (gapning tagida yashiringan ma’no), sifatlash, o‘xshatishlar, frazeologik birlik, sheva, noadabiy so‘zlar (jargon, argo, so‘kish, qarg‘ish kabilar) kasb-hunar so‘zlari, mubolag‘a (giperbola), arxaik va tarixiy so‘zlar, atamalar. 2. Fonetik vositalar: nutq tovushlari, ohang, urg‘u. 3. Grammatik vositalar: a) morfologik vositalar: har bir so‘z turkumi; b) sintaktik vositalar: gap bo‘laklari, ritorik so‘roq gaplar, undalma, kirish so‘z, kirish birikma, sodda va qo‘shma gaplar, ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplar. Ma’lum bir uslubga tegishli bo‘lgan so‘zlar uslubiy xoslangan so‘zlar deb yuritiladi: yanglig‘ so‘zi badiiy uslubga, omonim, sinonim so‘zlari ilmiy uslubga, balli, ketvorgan kabi so‘zlar so‘zlashuv uslubiga, faollar yig‘ilishi, siyosiy maydon kabi so‘z birikmalari ommabop uslubga xosdir. So‘zlashuv uslubida ham, kitobiy uslubda ham ishlatilaveradigan so‘zlar uslubiy betaraf so‘zlar hisoblanadi. Betaraf so‘zlar ko‘chma ma’noda qo‘llansa, ma’lum bir uslubga tegishli bo‘lishi mumkin.

Turli soha va vaziyatlarda leksik, frazeologik, fonetik va grammatik vositalarni tanlab foydalanish har xil bo‘ladi. Nutq nafaqat lingivistik, balki psixologik va estetik hodisa bo‘lib, ma’lum bir fikrni tinglovchiga to‘laqonli yetkazib berish va ta’sir etish bilan belgilanadi. Nutqning kommunikativligi uning to‘g‘riligi, mantiqiyliigi, sofligi, ifodaliligi kabi mezonlarga bevosita bog‘liqdir. Tilning inson faoliyati vazifalariga ko‘ra ajratilishi uslubdir. O‘zbek olimlaridan N.Mahmudov ilmiy uslubning aniqligi va izchilligi haqida shunday deydi:

«Ilmiy uslubda fikr qat’iy aniqlik, mantiqiy izchillik va xolislik asosida bayon qilinadi. Har bir termin ma’nosi bir qiymatli bo‘lishi shart»<sup>42</sup>.

Adabiy tilning rasmiy shakliga xos bo‘lib, muayyan nutqiy qolip, qat’iy odat tusiga kirib qolgan shakllarga ega nutq uslubi rasmiy uslub sanaladi. Rasmiy-idoraviy uslubda jamiyatdagi ijtimoiy-huquqiy munosabatlar, davlat va davlatlararo rasmiy, siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqalar uchun xizmat qiluvchi uslubdir. Hujjatlar qisqa, aniq, barcha uchun tushunarli qilib tuziladi. Shaxslar bilan shaxslar orasidagi, shaxslar bilan idora o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni ifodalash uchun xizmat qiladi: ariza, tilxat, xat, telegramma, ishonch qog‘ozi, ma’lumotnoma, tavsiyanoma, qaror, tarjimai hol, buyruq, farmoyish, guvohnoma, e’lon, hisobot, shartnoma, aloqa xatlari ana shunday nutq uslubining ko‘rinishlaridir.

Rasmiy uslub tilining asosiy xususiyati aniqlik va ixchamlikdir, unda muayyan nutqiy qoliplar, kasb-hunar so‘zlari, atamalar, tayyor sintaktik qurilmalar keng qo‘llanib, nutqning aniq va ravshan ifodalanishini ta’minlaydi. Tayyor nutq qurilmalari (shu asosda: *shunga ko‘ra; ma’lum qilamizki; ...ni e’tiborga olib; ...ga ko‘ra; ...biz, quyida imzo chekuvchilar, ...ga asosan (muvofig); ...uchun, ...dan*

<sup>42</sup>Mahmudov N. O‘zbek tilining funksional uslublari. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. 45-b.

*kelib chiqib; ...sharti bilan; ...berilsin, ...taqdirlansin kabi*) hujjat matnining darak hikoya xarakterida bo'lishini, so'zlarning bir ma'noda ishlatilishini, badiiy-tasviriy vositalarning bo'lmasligi, fe'lning majhullik va buyruq-istak shakllarining, qo'shma gap turlarining keng qo'llanishini talab qiladi. Til materiali hujjatning turi va xarakteriga qarab tanlanadi. A. Nurmonov rasmiy uslubning ijtimoiy ahamiyati haqida shunday degan, «Rasmiy uslub jamiyatning huquqiy asoslarini ifodalovchi vosita sifatida tartib, intizom va aniq reglamentlarni ta'minlaydi»<sup>43</sup>.

Rasmiy uslubga mansub har qaysi turning o'ziga xos leksik, grammatik xususiyatlari mavjud. M., qaror, farmonlarning o'ziga xos tomoni shundaki, bunday matnlardagi gaplarning kesimi III shaxs majhul nisbatdagi fe'llar orqali ifodalanadi (ogohlantirilsin, topshirilsin kabi). Ma'lumotnomada esa birinchi gapning kesimi gap boshida keladi. Rasmiy ish qog'ozlarining sintaktik tuzilishi qat'iy qoliplarga bo'ysunadi

**Yozma nutqning rasmiy uslubida, asosan, quyidagi munosabatlar doirasidagi hujjatlar tuziladi:**

- 1.Huquqiy munosabatlarga oid: qonun fuqarolik va jinoyat aktlari, nizom, shartnoma va boshqalar.
- 2.Idoraviy-ma'muriy shaklga oid: dalolatnoma, buyruq va farmoyishlar, turli ish qog'ozlari (ariza, tavsiyanoma, tilxat, ma'lumotnoma kabi).
- 3.Diplomatik munosabatlarga doir: bayon, bitim, memorandum va boshqalar.

Bu uslubning og'zaki va yozma ko'rinishlari, binobarin, ushbu ko'rinishlarning o'z me'yorlari mavjud. Birinchidan, aniqlik. Ushbu uslubda shakllangan matnda noaniqlikka, izohtalab o'rinlarga yo'l qo'yilmasligi lozim. Fikr va mazmun sodda, aniq va tushunarli tilda bayon qilinishi kerak. Ikkinchidan, qolip. Fikr – mulohaza, bayon asosan bir qolipda ifodalanadi. Solishtiramiz: O'zbek milliy madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan marhum adabiyot va san'at namoyandalari mukofotlash to'g'risida. Shu tarzda ariza, qaror, bildirishnoma, ma'lumotnoma, shartnoma, tabriknoma singari turli xarakterdagi rasmiy hujjatlarning har birining o'ziga xos bayon etish qolipi bo'ladi. Ayni paytda, ularning har birining alohida so'z va turg'un birikmalari ham mavjud bo'ladi. Masalan, huquqiy hujjatlar matniga ko'z yugurtirsak, ularda boshqa vazifaviy uslublarda deyarli uchramaydigan atamalarga duch kelamiz: ma'muriy javobgarlik, fuqarolik holati, fuqarolik javobgarligi, aybdor, gumondor, jabrlanuvchi, sudlanuvchi, guvoh, jamoat kafilligi, surishtiruv, jabrlanuvchi bilan yarashuv va boshqalar. Ish qog'ozlari va hujjatlarning xilma-xilligiga qarab ularga oid atamalarning me'yorlashuvi va chegaralanuvi ham kuzatiladi. Qiyos uchun diplomatik munosabatlar doirasidagi so'z va iboralarga ko'z yugurtiraylik: ahdlashuvchi oliy

<sup>43</sup> Nurmonov A. Nutq madaniyati va uslubiyati. — Toshkent: Fan, 2012. 78-b.

tomonlar, elchi, elchixona, muxtor elchi, muxtor vakil, ishonchli vakil, nota, ratifikasiya, shartnoma, bayonot, qo'shma bayonot, deklaratsiya, tashrif, qarorgoh kabilar. Uchinchidan, jargonlar, oddiy so'zlashuvga xos so'zlar, emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlarning ishlatilishi mazkur uslubda me'yor sanalmaydi va shu jihat bilan boshqa uslublardan keskin farq qiladi. To'rtinchidan, rasmiy uslubning grammatik me'yori ham alohida xususiyatlarga ega. Masalan, ot so'z turkumiga oid so'zlar ko'p ishlatiladi, shuningdek noaniqliklar bo'lmaslik uchun ular olmoshlar bilan almashtirilmaydi: O'zbekiston Respublikasi o'z taraqqiyot yo'lini, o'z nomini aniqlaydi, o'z davlat ramzlarini: gerbi, bayrog'i, madhiyasini ta'sis etadi, o'z davlat tilini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining ramzlari muqaddasdir. ("O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Qonunning 16-moddasidan). Beshinchidan, mazkur uslubda fe'lning harakat nomi shakli faol qo'llaniladi, gapning kesimi ko'pincha hozirgi zamonning majhul nisbatida ifodalanadi, hujjatning xarakteriga qarab shart mayli shakliga tez-tez murojaat etiladi. Masalan, "O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining mutlaq vakolatlari" haqidagi 78 – moddasida o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, qabul qilish, belgilash, tasdiqlash, tartibga solish, o'zgartirish, joriy qilish, komissiyasini tuzish, saylov kunini tayinlash, saylash, ozod etish, ratifikasiya qilish, ta'sis etish, amalga oshirish singari fe'lli birikmalar ishlatilgan. Ushbu hujjatda amalga oshiriladi, asos bo'ladi, tashkil etadi, belgilanadi, asoslanadi, hisoblanadi, himoya qilinadi, amalga oshiradi, tan olinadi, ish ko'radi, ado etadi, kafolatlanadi, taqiqlanadi, tavsiya etiladi singari fe'llarning faol ishlatilishi ham yuqoridagi fikrning tasdig'idir. Matnlarda morfologik vositalar va kategoriyalarning qo'llanilishi turli darajada bo'ladi. Masalan, sonlar va olmoshlar boshqa so'z turkumlariga qaraganda ikkinchi darajada ishlatiladi. Oltinchidan, rasmiy uslubning sintaktik alomatlari ham matnda yaqqol ajralib turadi, darak gaplar, ayniqsa, qo'shma gap shakli ko'p ishlatiladi. Yoyiq va murakkab so'z birikmalari, murakkab nomlar keng qo'llaniladi. Gap tuzilishida o'zbek tilidagi odatdagi me'yorga amal qilinadi va yuqorida sanalgan jihatlari bilan ilmiy uslubga o'xshab ketadi.

Ilmiy uslub ilmiy asarlar uslubidir. Til birliklarining fan sohasida, ilmiy bayon jarayonida ishlatilishi uning shakllanishiga asos bo'ladi. Ilmiy tafakkur fikrlashda o'ziga xos usul ekanligi, obyektiv borliqni idrok etishda faqatgina dalil va faktlarga tayanishi, fikriy izchilik kabi ekstralingvistik omillar ham ushbu turning shakllanishida muhim omil sanaladi. Bu kabi xususiyatlarning mushtarakligi bilan rasmiy uslubga yaqin turadi. Yettinchidan, tayyor sintaktik qurilmalar keng qo'llanib nutqning aniq va ravshan ifodalanishini ta'minlaydi. Tayyor nutq qurilmalari (shu asosda: shunga ko'ra; ma'lum qilamizki;...ni e'tiborga olib;...ga

ko'ra;...biz, quyida imzo chekuvchilar,...ga asosan (muvofiq); ...uchun, ...dan kelib chiqib; ...sharti bilan; ...berilsin, ...taqdirlansin kabi) qoliplashgan so'zlar va so'z birikmalari keng qo'llaniladi. Boshqaruv jarayonining murakkabligi va serqirraligiga muvofiq ravishda idoraviy ish yuritish qog'ozlari, hujjatlar ham xilma-xil va miqdoran juda ko'p. Hujjatlarning maqsadi, yo'nalishi, hajmi, shakli va boshqa bir qator sifatlari ham turlichadir. Shunday ekan, hujjatlar tiliga bo'lgan umumiy talablar bilan bir qatorda har bir turkum hujjatlar tuzish ishiga qo'yiladigan ko'pgina lisoniy talablar ham mavjud. Muayyan turdagi hujjat, albatta, o'ziga xos lisoniy xususiyat va sifatlar bilan belgilanadi. Hujjatshunoslikda hujjatlar bir necha jihatlariga ko'ra tasnif qilinadi. Tasniflashda mutlaqo bir xil guruhlashtirish mavjud bo'lmasa-da, har qalay, ularni bir qadar yagonalashgan holda guruhlashtirish mumkin. Hujjatshunoslikdagi ana shu an'anaga ko'ra ish yuritishdagi hujjatlar eng avvalo tuzilish o'rniga ko'ra tasnif qilinadi. Bu jihatdan ichki va tashqi hujjatlar farqlanadi. Ichki hujjatlar ayni muassasaning o'zida tuziladigan va shu muassasa ichida foydalaniladigan hujjatlar, muayyan muassasaga boshqa tashkilot yoki ayrim shaxslardan keladiganlari esa tashqi hujjatlardir. Hujjatlar o'zining mazmuniga ko'ra esa ikki turli bo'ladi: 1) sodda hujjatlar - muayyan bir masalani o'z ichiga oladi; 2) murakkab hujjatlar - ikki yoki undan ortiq masalani o'z ichiga oladi. Mazmun bayonining shakli jihatidan xususiy, namunaviy va qolipli (yoki trafaretli) hujjatlar farqlanadi. Matnning o'ziga xosligi, betakrorligi, hamisha ham bir andozada bo'lmasligi xususiy hujjatlarning asosiy belgilaridir (masalan, xizmat yozishmalari va shu kabilar). Bunday hujjatlarda ham muayyan doimiy tarkib mavjud bo'lsada, bevosita mazmun bayoni bir qadar erkin bo'ladi. Rasmiy ish qog'ozlari har xil bo'lganligi uchun har birining o'ziga xos tuzilishi, ishlatilish o'rnini va xususiyatlari bor. Rasmiy uslub doirasidagi hujjatlarning barchasi insonlarning, tashkilotlarning asosiy ish quroli hisoblanishi uchun ham ushbu uslubning insonlar hayotida ahamiyati katta. Funktsional uslublar u yoki boshqa elementlar va tuzilmalarni ishlatish mumkinligi yoki mumkin emasligi, shuningdek aloqa tizimlari bilan ajralib turadi. Masalan, fonetik vositalar notiqlik uslubi uchun muhimdir; talaffuz me'yorlariga rioya qilish, intonatsiyadan keng foydalanish; ilmiy uslub uchun; aniq sintaktik tuzilma, so'zlarning to'g'ridan-to'g'ri tartibi, so'zlarning keng qo'llanilishi, har xil aniq va o'ziga xos tizimlardan keng foydalanish, matn darajasida – mantiqiy, aniq taqdimot tuzishi (gazeta yoki jurnal maqolasi). Rasmiy uslubning matni maxsus atamalar (tijorat, yuridik), shtamplar, ixtisoslashtirilgan xorijiy iboralar, qisqartmalar, aralash so'zlarning mavjudligi, leksik darajada obrazli vositalarning yo'qligi bilan tasniflanadi; sintaktik darajada–murakkab tuzilishlar, fe'lning majhul nisbatidagi gaplarning keng qo'llanishi yordamida hosil bo'ladi. Rasmiy uslub turlicha quyi uslublar yoki turlar bilan ifodalanadi–ish

hujjatlari tili, huquqiy hujjatlarning tili, diplomatiya tili va harbiy hujjatlarning tili. Ushbu turdagi aloqa vositalarining asosiy maqsadi ikki tomonni bir-biriga bog'laydigan shartlarni aniqlash va ikki shartnoma tuzuvchi tomonlar o'rtasida o'zaro kelishuvga erishish. Ushbu uslubning yana bir o'ziga xos xususiyati—so'zlarning to'g'ridan-to'g'ri o'z ma'nosida ishlatilishi, ya'ni majoziy ma'no qo'llanilmaydi.

Ilmiy uslubda, odatda, materiallar ma'lum miqdordagi raqamli ma'lumotlar formulalar, diagrammalar va atamalardan foydalangan qiziqarli va qulay tarzda taqdim etiladi. Ilmiy matn ma'lumot beruvchi sarlavha, masalaning tarixini tavsiflovchi yoki mavzuni tanishtiruvchi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ilmiy matnning o'ziga xos xususiyatlari ta'kidlangan mantiq, qo'shimcha dalillar bilan takrorlash, murakkab sintaksis va kasbiy yo'naltirilgan mavzular bilan xarakterlanadi.

Ilmiy uslubda fan-texnika tarmoqlariga doir ilmiy asarlar, darsliklar yoziladi. Mantiqlilik, aniqlik bu uslubga xos xususiyatdir. **Ilmiy uslubning asosiy maqsadi** — ilmiy ma'lumotni aniq, mantiqiy izchillikda, dalillarga asoslanib yetkazish<sup>44</sup>. Aniq ma'lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalar (qoidalar, ta'riflar)ga boy bo'ladi. Har bir fanning o'ziga xos ilmiy atamalaridan foydalaniladi, so'zlar o'z ma'nosida qo'llaniladi, qoida yoki ta'rifning mazmunini ochishga xizmat qiladigan ajratilgan bo'laklar, kirish so'zlar, kirish birikmalar, shuningdek, qo'shma gaplardan faol foydalaniladi. Ilmiy uslubning ilk ildizlari Yunonistonga borib taqaladi. Ular oddiy odamlar tushunishi qiyin bo'lgan maxsus terminlardan foydalanishgan. Asl maxsus terminologiya lotin tilida bo'lgan. Dunyo tilshunoslari terminlarni o'z tillariga o'girishga harakat qila boshlagan bo'lsalar ham, lotin tili ilmiy axborotlarni yetkazib berishning yagona xalqaro usuli hisoblanadi. Uyg'onish davrida ko'plab olimlar badiiy unsurlardan yiroqlashib matn yaratishga uringanlar. Ilmiy uslubdan tabiat va ijtimoiy hayotdagi barcha narsa hamda hodisalar to'g'risida aniq, asoslangan, izchil ma'lumot berishda qo'llanadi. Unda narsa-hodisa mohiyatini ta'riflash, tahlil qilish, sababini aniqlab, dalillar bilan isbotlash va asosli natijalarni bayon qilish muhim hisoblanadi. Maxsus atamalar bu uslubning leksikasini tashkil qiladi. Unda adabiy me'yorga qat'iy rioya etiladi va majhul nisbatdagi fe'llar, murakkab qurilishli gaplar keng qo'llanadi. Undagi ilmiy ma'lumotlar keng ommaga qaratiladi. Ilmiy uslubga doir matnlar turli sohalarga qarab o'zaro farqlanadi. Masalan, ilmiy manbalar ilmiy fanga oid ma'lumotlar berish bilan ma'lum fan mutaxassisigagina mo'ljallangan bo'ladi. Til birliklarining fan sohasida, ilmiy bayon jarayonida ishlatilishi mazkur uslubning shakllanishiga asos bo'ladi. Ilmiy uslub terminologik va mavhum leksikaning, murakkab sintaktik qurilmalarning qo'llanishi, so'zlarning asosan aniq, to'g'ri ma'noda ishlatilishi,

<sup>44</sup> Гальперин И.Р. Стилистика русского языка. — М.: Высшая школа, 1981

maxsus iboralarga egaligi va shu kabilar bilan ajralib turadi. Ilmiy uslubda yana fanning turli sohalariga oid ramz va belgilar, raqamlar ham ishlatiladi va o'z ichida quyidagi mayda uslublarga bo'linadi: ilmiy ish uslubi, ilmiy-texnik uslub, ilmiy-ommabop uslub, ilmiy-publistik uslub. Fanning u yoki bu sohasiga tegishli tushunchalarni ifodalovchi atamalarga boyligi ilmiy uslubning asosiy xususiyatidir. Ilmiy tafakkur fikrlashning o'ziga xos usuli ekanligi, obyektiv borliqni idrok etishda faqatgina dalil va faktlarga tayanish, fikriy izchilik kabi ekstralingvistik omillar ham nutqning ushbu turining shakllanishida, binobarin, nutqiy me'yorning o'ziga xos turining yuzaga kelishida muhim omil sanaladi. Ilmiy uslubning janr xususiyatlari ham keng. Monografiya, risola, darslik, o'quv qo'llanmasi, o'quv-metodik qo'llanma, dastur, ma'ruza matnlari, taqriz va referat singarilar uning ana shu janr ko'rinishlari hisoblanadi. Garchi ularning har birining bayon usuli va uslubi ma'lum darajada bir-birlaridan farq qilsa-da, til birliklaridan foydalanish me'yoriga ko'ra umumiylikni tashkil etadi. Ilmiy uslubga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat: 1. Aniqlik. Har qanday ilmiy bayon, xulosa, shubhasiz, aniqlikni talab qiladi. Shuning uchun bu uslubda so'zlarni aniq, asosan bir ma'noda qo'llash, sinonimik qatordagi variantlardan masalaning mohiyatini birmuncha aniq ifoda etadigan variantini tanlash, hech bo'lmaganda, neytral variantini qo'llash taqozo etiladi. Terminlarni qo'llash bu uslubning asosiy xususiyati sanaladi. 2. Obyektivlik. Ilmiy adabiyotlarda bu uslub doirasida til materiali fikrning haqqoniyligi, obyektivligiga xizmat qilishi lozim. Haqqoniylik, obyektivlik nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, uning reallashuvida faqatgina til birliklariga tayanib ish ko'rish qiyin. Uni vaziyat, suhbatdoshlarning bir-birlarini bilishi va tushunishi kabi ekstralingvistik omillar ham belgilashi mumkin. 3. Mantiqiy izchillik ilmiy bayon uslubining o'ziga xos xususiyatini tashkil etadi. Matnda so'zlar, gaplar, abzaslar o'zaro mantiqiy bog'langan bo'lishi lozim. Shuning uchun ham ilmiy matnlar bu izchillikni yuzaga keltiruvchi *ma'lumki, ma'lum bo'ladiki, ta'kidlash lozimki, ta'kidlash o'rinli, darhaqiqat, binobarin, shunday ekan, birinchidan, ikkinchidan, ko'rinadiki, ta'kidlash joizki, xulosa qilib aytganda, xulosa qilganimizda, birgina misol, faqat bugina emas* singari ko'plab bog'lovchi vazifasini bajaradigan so'z va birikmalar qo'llaniladi. 4. Qisqalik. Ilmiy bayonga xos xususiyatdir, unda tilning tasviriy imkoniyatlaridan deyarli foydalanilmaydi. Gaplar darak mazmunida bo'lib, asosan sodda yoyiq holda Fikr qo'shma gaplar yordamida ifodalansa, bog'lovchilardan unumli foydalaniladi. Ilmiy uslub fonetik jihatdan boshqa uslublardan farqlanib turuvchi belgilarga ega emas. Leksikasida esa farq qiluvchi jihat sohaviy atamalarning ko'pligidadir. Bu uslubda ham, rasmiy uslubdagi kabi, so'zlarni ko'chma ma'nolarda qo'llash, tasviriy vositalardan foydalanish xos xususiyat sanalmaydi. Subyektiv emotsionallik, obrazlilik, og'zaki nutq elementlari, umuman g'ayri adabiy unsurlar kam ishlatiladi. Mumkin qadar

bayon bir xil me'yorda ifoda etiladi. Ilmiy uslubda faqat adabiy tilda me'yor sifatida e'tirof etilgan grammatik ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ot so'z turkumi faol ishlatilib, ko'pincha takror qo'llanadi. Subyektiv baho shakllari xos emas. –lar ko'plikdan boshqa semantik-uslubiy ma'nolarni ifodalamasa-da, atama hosil qilishda ishtirok etadi. Umumiy egalik ustun turadi, I-II shaxs qo'shimchalari ishlatilmaydi, III shaxs shakli faol ishlatiladi. Undov va taqlid so'zlar ham bu uslubga xos emas. Yuklamalarning esa imkoniyati chegaralangan. Ilmiy nutq uchun *deyiladi, aytiladi, yoritiladi, bayon qilinadi, aniqlanadi, tekshiriladi, foydalaniladi, ta'riflanadi* singari xoslangan fe'llar mavjud. Fe'lning majhul daraja shakli ham bu uslub uchun xos. Ammo hozirgi-kelasi zamon shaklidan tashqari xarakterli zamon ko'rsatkichi yo'q. Kishilik olmoshlari kam qo'llaniladi. Bu gap faqat muallif va men ma'nolarida qo'llaniladigan hamda kamtarlik ma'nosini ifodalaydigan biz olmoshiga tegishli emas. Ilmiy uslubda *demak, xullas, darhaqiqat, haqiqatan, shubhasiz, albatta, darvoqye, masalan, jumladan, ayniqsa, xususan, aksincha, afsuski* singari modal so'zlar va modal ma'no anglatuvchi boshqa birliklar keng qo'llaniladi. Shu tarzda ilmiy uslubning *ammo, lekin kabi o'z bog'lovchilari, bilan, uchun, kabi, singari, haqida, to'g'risida, tufayli, sababli, doir, oid, binoan, tashqari, qaraganda, asosan, muvofiq, qadar* singari ko'makchilari borligini ham qayd qilish to'g'ri bo'ladi. Ilmiy uslubda bayon etilayotgan matnning sintaktik qurilishi fikriy tugallikka, mantiqiy izchillikka xizmat qiladi hamda bayonning tabiatidan kelib chiqib, bir tarkibli gaplarning shaxssiz, shaxsi umumlashgan turlari faol. Undov, atov gaplar qo'llanilmaydi, nutq monologik xarakterda bo'ladi.

Yozma nutq so'zlovchi va qabul qiluvchi og'zaki muloqot vositasiz amalga oshganda juda asqotadi. Barcha tashkilotlarda ijrochilar yozma xabarlar orqali bo'limlararo va bo'limlari ichida samarali aloqani rivojlantirishlari mumkin. Yozma nutq bildirishnomalar, eslatmalar, hisobotlar, moliyaviy hisobotlar, biznes xatlar va shu kabilarning barcha turlarini qamrab oladi.

Q. Yo'ldoshev esa akademik nutqning ilmiy nutqdan farqini quyidagicha izohlaydi: «Akademik nutq ilmiy uslubning og'zaki shakli bo'lib, unda tinglovchi auditoriyaning tayyorgarligi darajasiga moslashish, tushuntirish va dalillash madaniyati ustuvor o'rin tutadi»<sup>45</sup>.

Akademik nutqning rasmiy shaklga ega matnlarda buyruqlar, ma'lumotnomalar va boshqa siyosiy masalalar doimo yozma shaklda bo'lishi kerak. Shu bilan birga, akademik nutqning yozma shakli ma'lum bir qoidalarga bo'ysunadi. Xususan, akademik nutq va axborotlar tili mutlaqo ilmiy xarakterda bo'lishi, ya'ni biror sohaga xos ilmiy terminlar asosida ko'rilib shu soha bilan notanish kishi uchun

<sup>45</sup> Yo'ldoshev Q. Nutq madaniyati va til estetikasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2015.112-b.

qisman yoki mutlaqo tushunarsiz bo'lishi ham mumkin. Bunday notiqlikning quyidagi turlari mavjud:

1. O'quv yurtlarida o'qitiladigan ma'ruzalar odatda ma'lum bir fandan mavzular asosida tashkil qilinadigan ma'ruzalardir. Bunday ma'ruzalar ta'sirchan va mazmunli bo'lishi lozim.
2. Ilmiy ma'ruzalar bevosita muayyan soha bo'yicha qilinayotgan ishlar, ilmiy kuzatuvlar, tadqiqotlar haqidagi xulosalar, dastlabki tug'ilgan g'oyalar va taxminlar bayonidan iborat bo'ladi. Olimlar ishtirokida ilmiy anjumanlarda o'qilib, anjuman ishtirokchilari tomonidan muhokama etiladi.
3. Ilmiy sharhlov mavzusidagi ma'ruzalar asosan ilmiy-tadqiqot va o'quv yurtlari doirasida o'tkaziladi. Bunday sharhlov ilmiylik, daliliylik, kuzatuv xulosalari asosida quriladi.

Akademik nutqda har bir so'z yoki termin, har bir gap, jumla mazmunan to'liq, sodda, aniq, izchil va mantiqli ifodalash lozim. Ilmiy uslub asosida shakllantirilgan ilmiy-siyosiy nashrlar matn qurilishidagi o'ziga xoslik, tashviqot va targ'ibot bo'lib, lisoniy-uslubiy vositalarni tanlash va qo'llashga e'tibor beriladi. Siyosiy-mafkuraviy atamalarni qo'llashning o'ziga xosligi – ommaviylik va tushunarliklik, ta'sirchanlikni ta'minlovchi omillarga asoslanadi. Ilmiy-texnikaviy adabiyotlarda milliy atamalardan, ko'chimlardan foydalaniladi, manbalarga havola qilinadi. Ilmiy nashrlar matnida ilmiy uslub ustuvorlik kasb etadi. Ilmiy-texnikaviy nashrlar oldiga qo'yiladigan talablar juda jiddiy bo'lib, nashrning kimga qaratilganligiga bog'liq. Ilmiy ommabop adabiyotlar ijtimoiy-ma'rifiy maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi va ilmiy bilimlarni ommalashtirishga xizmat qiladi. Ilmiy-ommabop bayon oldiga qo'yiladigan asosiy talablar – matnning mantiqiy, lisoniy, uslubiy sifatlarga asoslanishidir. Bunday matnlarda to'g'ri va haqiqiy ma'lumotlar uzatiladi va bunda sof, rasmiy ma'lumotlarga tayaniladi. Bunday matnlarni yozishda yuzaga keladigan asosiy qiyinchilik gipoteza va nazariyalarning asoslash zaruratidir. Ushbu uslubda yaratilgan matnlar potensial o'quvchining oldingi adabiy tajribasini hisobga olishi kerak, aks holda o'quvchida matnlararo xulosa yuzaga kelmaydi va bu ilmiy uslub matnlarining asosiy funksiyasini tashkil etadi. Ilmiy uslub doirasida yaratilgan matnlar sirasiga kiruvchi ilmiy nashrlar – **monografiya, ma'lumotnoma, darsliklar, axborotnomalarni** yaratish ta'lim va ilmiy muassasalar uchun zarur. Bunday matnlar asosiy va ikkilamchi matnlarga ajratiladi. Birinchisi muallif tomonida yaratilgan va boshqa adabiyotlarga murojaat etish talab etilmaydi. Ikkinchi tur matnlar ilgari yaratilgan matnlar asosida yaratiladi. Har bir soha doirasida ilmiy matn yaratishda e'tibor berish lozim bo'lgan xususiyatlar:

1. So'zlarning lug'aviy ma'nosini to'g'ri tanlash;
2. So'z va terminlarning tushunarli bo'lishini hisobga olish;

3. Adabiy tilning leksik me'yoriga muvofiq tarzda baynalminal terminlardan foydalanish;
4. Matnning mazmuni va uslubiy xususiyatidan kelib chiqib so'z va terminlarni tanlash;
5. Fe'ning harakat nomi shakllaridan (o'tish, yuksalish) samarali foydalanish;
6. Qisqartma otlardan keng foydalanish.

#### **Ilmiy matnlar quyidagi asosiy belgilariga ham ega:**

1. Matnning morfologik xususiyatiga ko'ra sof fe'llarga nisbatan harakat nomi, ya'ni otlashgan va sifatdosh fe'l shakllari keng qo'llaniladi.
2. Ilmiy nutq uslubining ta'kidlangan mantig'i matn qismlari o'rtasidagi munosabatlar kirish so'zlar va jumalardan faol foydalanishni talab qiladi. Masalan, *birinchidan, ikkinchidan, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, yuqorida aytilganidek, shunday qilib, xullas kabi.*
3. Sabab, maqsad, shart-sharoit, oqibatlarini bildirgan tobe izohli qo'shma gaplardan keng foydalaniladi.
4. Ilmiy uslubga xos matnlarda bir ma'noli leksemalarning faolligi sababi atamalardan keng foydalanilganligidir.
5. Ilmiy ma'lumotlarning ta'kidlar bilan ifodalanishi. *Masalan, yana bir misol keltiramiz, endi matnning asosiy qismiga e'tibor qaratsak, keling savolni chuqurroq tahlil qilib ko'raylik kabi.*

Ilmiy matnlarda manbalardan foydalanish, manbalarga havola qilish va sarlavha tanlashga ham jiddiy e'tibor beriladi. O'quv qo'llanmalari, darslik turlari va vazifalari bir-biridan farq qiladi. Bu o'qish va o'qitishning turlari bilan bog'liq. Ilmiy uslubning yetakchi vazifasi fakt yoki hodisaning tavsifi bo'lishiga qaramay, qo'shimcha mantiqiy munosabatlarni o'rnatish qobiliyati matnlarni turli jihatlarida tahlil qilish ustunlik qiladi. Ilmiy nutqning o'z qabul qiluvchisi bo'lib, ilmiy va kasbiy, ilmiy va ta'lim sohasidagi, olimlar, muhandis-texnik xodimlar, ma'lum bir sohadagi professional mutaxassislariga mo'ljallanadi. Ilmiy uslubdagi matnlarning adresati muayyan ma'lumotlarni idrok eta oluvchilardir. Bunday matnlarda fikr ko'plik shaklda ifoda etiladi. Masalan, *"Bizning kuzatishlarimiz natijasiga ko'ra; ...ushbu ma'lumotlarni chuquqr tahlil qildik"* kabi. **"Og'zaki nutqning asosiy belgisi — tezkorlik va erkinlikdir. U grammatik me'yordan biroz chetga chiqsa-da, aloqa samaradorligini yo'qotmaydi".**<sup>46</sup> Ilmiy uslub qator umumiy xususiyatlarga ega, bular fan yo'nalishlari (tabiiy, aniq, gumanitar) va janr farqlari(monografiya, ilmiy maqola, maruza, darslik va boshqalar) dan qat'iy nazar, o'zini namoyon qiladigan funksional va lingivistik xususiyatlardir.

Akademik yozuvning xususiyatlari.

<sup>46</sup> Asqarova, M. (2010). *O'zbek tilining uslubiyat asoslari*. Toshkent: Fan.54-b.

Ko'pgina ilmiy fanlar o'zlarining noyob uslubiy konvensiyalarini qo'llashadi, biroq, barcha akademik yozuvlar ma'lum xususiyatlarga ega:

1. **Ochiq va cheklangan e'tibor.** Akademik hujjatning asosiy mavzusi – argument yoki tadqiqot muammosi bayoni bilan beriladi. Har bir xatboshi va jumla shu asosiy yo'nalishga qayta bog'lanadi. Matnda fon yoki kontekstli ma'lumot bo'lishi mumkin, ammo barchasi tezisni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.
2. **Mantiqiy tuzilma.** Barcha akademik yozuv mantiqiy, sodda tuziladi. Oddiy shaklda ilmiy maqola tanqidiy maqola va xulosani tashkil qiladi. Kirish introduksiya ma'lumotlarini ta'minlaydi, ishning ko'lami va yo'nalishini belgilaydi, tezisni qo'yadi. Xulosa tezisiga qaytib, asosiy fikrlarni umumlashtiradi va ishning natijalarini keltirib chiqaradi. Har bir jumla va paragraf mantiqiy ravishda dalillar keltirish uchun navbatdagisi bilan bog'lanadi.
3. **Dalillarga asoslangan argumentlar.** Akademik yozuv ishonchli ma'lumotga asoslangan argument talab qiladi. Ma'ruzalar ilmiy manbalardan yoki asosiy matndan olingan faktlar bilan asoslanishi shart. Faktlardan foydalanish dalillarni asoslaydi.
4. **Ma'lum bir qolipga egalik.** Akademik yozuv doirasida shakllantiriladigan matnlar o'z qolipiga ega, xususan, ilmiy maqola, dissertatsiya, avtoreferat va boshqa hujjat turlarining muayyan qoliplari mavjud.

Akademik yozuvning asosiy shakllariga ilmiy maqola, dissertatsiya, akademik taqriz, monografiya kabilarning matnlari kiradi. Akademik yozish murakkablik darajalari bilan ajralib turadi.

Akademik yozuv malakasini egallash orqali mustaqil tadqiqotchi, talalabalar ilmiy matn yozish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Bu esa ularning ilmiy ish qilish, dissertatsiya yozish malakasini oson o'zlashtirishga asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Har qanday ilmiy faoliyat matnlarda *“yozma” ko'rinishda (qog'ozda yoki elektron) – ilmiy hisobot, ilmiy ma'ruza, referat, maqola, kitob tarzida rasmiylashtirilgan bo'lishining asosida ikki shart-sharoit yotadi.* Birinchidan, olim o'z g'oyalari va natijalarini qat'iy ilmiy tilda faqat yozma tarzda bayon qilishi mumkin. Har qanday ilmiy ishni, hatto kichkina maqolani qog'ozga tushirish, fikr ifodasida ketma-ketlikka erishish muhim ahamiyatga ega. Maqola yoki tezis yozish yosh tadqiqotchi uchun murakkab jarayon, chunki *“ichida”* tafakkurida shakllangan so'zlar va fikrlarning ifodasini o'z vaqtida qog'ozga tushirish uchun olinga mantiqiy izchillik zarur. *Yozma va og'zaki nutqning o'zaro farqlari bo'lib, og'zaki nutqdagi ba'zi nuqsonlar tinglovchi tomonidan e'tiborga olinmasligi mumkin, biroq yozma matnda qat'iy mantiqiy izchillik talab etiladi, chunki undagi ma'lumotlarga qayta-qayta murojaat qilinadi va ishning maqsadi va mohiyatini*

*aniqlashga harakat qilinadi.* Ikkinchidan, olimning salohiyati uning turli jurnallarda nashr qilgan ilmiy maqolalarining soni va salmog'i hamda respublika va xorijda o'tkazilgan konferensiyalaridagi ilmiy ma'ruzalarda aniqlanadi. Shu bois, tadqiqotchi uchun *nashr etilgan ishlari ro'yxatini* doimiy to'ldirib borilishi va ma'ruzalar mazmunining turli tumanligi uning imidji shakllanishiga asos bo'ladi. Ilmiy tadqiqot jarayoni olimning ilhomi, fantaziyasi, umumiy madaniyati, shuningdek uning shaxsiy sifatlari bilan chambarchas bog'liq.

Olim ilmiy ishlarining katta-kichikligidan qat'iy nazar ularni kitob jovonida to'plab borishi zarur, natijada ularni bir joyda jamlash imkoni bo'ladi. Ilmiy ishlar ro'yxatining namunasi:

|   | Ilmiy ishning nomi                                                                               | Bosma yoki qo'lyozma | Jurnal, to'plam (yil, nomer, betlari), nashriyot yoki mualliflik guvohnomasi nomeri                                                                                                                                                                     | Bosma taboq yoki betlar soni, mualliflik ishtiroki |
|---|--------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------|
| 1 | 2                                                                                                | 3                    | 4                                                                                                                                                                                                                                                       | 5                                                  |
| 1 | Importance of enhancement of creation text via cluster integration approach in terms of literacy | Bosma                | ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal ISSN: 2249-7137 Vol. 12, Issue 05, May 2022 SJIF 2022 = 8.252 A peer reviewed journal DOI: 10.5958/2249-7137.2022.00478.5<br><b>718-720 b.</b><br><b>10.5958/2249-7137.2022.00478.5</b> | (3 bet<br>100%)                                    |

Ilmiy tadqiqot natijalari olimning tezis, maqolalar, monografiya, darslik o'quv qo'llanmalari, hamkorikdagi to'plam materiallari, konferensiya materiallarida yoritilishi uning olim sifatida e'tirof qilinishi va ilmiy g'oyalari bilan jamoatchilikni tanishtirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy ishlar tasnifi:

Tezis - muayyan katta maqolaning asl mohiyatini tushuntiruvchi kichik izoh.

Maqola - muayyan muammoning mazmuni yoritilgan yozma matn. Hozirgi davrda impakt faktori yuqori jurnallar ro'yxati amal qilmoqda. (Bu ro'yxatda xususiy va davlat tashkilotlari muassisligida nashr qilingan jurnallar bo'lishi mumkin).

Monografiya- yakka mualliflikdagi yoki hammualliflikdagi fundamental tadqiqot mahsuli. Monografiyada aniq qolip, belgilangan dastur bo'lmaydi, unda ijodkorning erkin fikr mulohazalari va u yoki bu jarayonga munosabati yoritiladi.

Dissertatsiya avtoreferati - risola shaklidagi ilmiy nashr bo'lib, unda olimning ilmiy daraja olish uchun yozgan ilmiy tadqiqot ishining mazmuni referativ tarzda muallif huquqi bilan uchinchi shaxs nomidan tayyorlanadi. (masalan dissertatsiyada ijtimoiy jarayonlar dialektikasi tahlil etilgan. Muallif Abdullayev, Hakimov Siddiqovlarning qarashlarini qiyosiy tahlil etgan va Abdullayev fikrining dualistik jihatlari ochib berilgan).

Dissertatsiya - qo'lyozma huquqi bilan ilmiy daraja olish maqsadida taqdim etilgan ilmiy faoliyat mahsuli.

Ilmiy konferensiya materiallari to'plami - ilmiy tadqiqot instituti xodimlari, tadqiqotchilarning konferensiyadagi ma'ruzalari matni, u an'anaviy ilmiy maqolalar nashri va bir martalik ilmiy to'plam nashri bo'lishi mumkin.

Ilmiy ommabop to'plam- fan, madaniyat va texnika sohasida amaliy ahamiyatga ega bo'lgan nazariy va eksperimental xulosalarning tizimlashtirilgan ilmiy to'plami.

Preprint - asosiy monografiya yoki darslik mazmunining ular matni to'liq tayyor bo'lgunigacha bo'lgan nashri.

O'quv ishlarining nashri:

Darslik - muayyan dastur mazmunining tizimli keng ko'lamdagi nazariy ilmiy asosi.

O'quv qo'llama darslikdan kichik, dastur mazmunini o'zida mujassamlashtirgan yaxlit o'quv adabiyoti.

O'quv metodik qo'llanma- o'qitish metodikasi bo'yicha materiallar to'plami.

Uslubiy ko'rsatma — o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma.

Adabiyotlarni o'rganish amaliyoti. Ilmiy faoliyatni tashkil etishning muhim bosqichi, mavzuga oid adabiyotlarni o'rganishdir. Adabiyotlarni o'rganish me'yoriy- huquqiy hujjatlar, darsliklar, ilmiy qo'llanmalar, monografiyalar, maqolalarni tahlil etishdan boshlanadi. Buning uchun kutubxonaning sistematik, alfavit va predmetli katalogi, dissertatsiya avtoreferatlari katalogi, jurnallar va gazetalar katalogidagi materiallar saralanadi. Alfavit katalogdagi kartochkalarda kitoblarning nomi alfavit tartibida beriladi va u nashrning bibliografik izohidagi birinchi so'z bilan aniqlanadi (muallif familiyasi yoki nashriyot yozilmaydi).

Sistematik katalogda bibliografik ma'lumotlar kartochkalar tarmoqlar va bilim sohalari bo'yicha tasniflanadi. Bunday katalogning o'ziga xos xususiyati, oxirgi uch oyda kutubxona ro'yxatidan o'tgan yangi adabiyotlar katalogidir.

Predmetli katalogda, kitoblar nomi rubrikalar bo'yicha tadqiqot predmetining sohasi bilan belgilanadi. Rubrikalar katalogda alfavit tartibida

joylashtiriladi. Adabiyotlarni to'plash uchun bibliografik va referativ nashr ishlarini o'rganish lozim. Ilmiy izlanishni sohaga tegishli jurnallardagi maqolalarni o'rganish va sharh berish, shuningdek jurnallardagi iqtibos berilgan adabiyotlarni ham ro'yxatga olish va mazmunini o'rganishdan boshlash maqsadga muvofiq.

Akademik yozuvda olimlar asarlariga iqtibos berish muhim jihatlardan biridir. Boshqa olimlar va o'zining faoliyati natijalariga munosabat turli shaklda bo'lishi mumkin. Asarlarga iqtiboslar keltirish, o'z hamkasblari nomlari va asarlari tahlilini keltirish olimning fandagi axloqi va ijtimoiy maqsadini bildiradi. Bunda olimning ular nomini qaysi maqsadda, xususan, tanqidiy mulohazalar, maqto'v, befarqlik bilan qo'llaganligi, fikrlarning o'rinli yoki aksi ekanligini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bunda iqtiboslar keltirilishi shartmi yoki ularsiz ham ilmiy faoliyatni davom ettirish imkoniyati bo'ladimi? Ular faoliyati samaradorligini oshiradimi? Xususan, aynan iqtiboslar orqali katta ilmiy axborot dunyosi haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lish mumkin, makon va vaqt nuqtayi-nazaridan turli davrlarda nashr qilingan asarlarning mazmuni haqida umumiy tasavvurga ega bo'lish imkoniyati, ularni yaxlit bir tizimga soladi. Ilmiy ishlarga iqtibos berishning asosiy maqsadi: 1) u yoki bu olimning ilmiy ishida ilgari surilgan g'oyani tasdiqlash, 2) fikrni inkor etish va uning noto'g'riligini asoslash; 3) o'z fikrining haqiqiylikni isbotlash uchun o'zganing fikriga murojaat etish; 4) o'zganing fikriga oid tanqidiy mulohazalarni bildirish, 5) o'zganing fikrini rivojlantirish kabilardir. Har bir iqtibos, muallifning munosabatini o'zida namoyon etishi tadqiqotchining chuqur bilimga egaligi, muhokama qilinayotgan muammo bo'yicha tegishli ma'lumotga ega ekanligidan dalolat beradi. Ba'zi ilmiy maqolalarda iqtiboslar muzokaralar uchun emas, balki iqtibos berish zarurligi uchun berilayotganligi ilmiy salohiyat yetarli emasligidan dalolatdir. Har qanday iqtibosning aniq manbasi ko'rsatilsagina, u ko'chirmachilik hisoblanmaydi. Iqtibos qo'shtirnoq ichida berib borilsa ilmiy etika qoidalariga rioya qilinadi. Bugungi kunda olimning ilmiy salohiyati uning asarlariga berilgan iqtiboslarning soni bilan belgilanishi va bu "Indeks-xirsh" deb nomlanishini bilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda katta ijtimoiy tarmoqlarda olimlar o'zlarining ilmiy ishlarining taqdimotini o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar. Lekin olimlarning shu imkoniyatlardan foydalanishga befarqligi yoki ularni bilmaslik oqibatida ko'p olimlarning ishlari haqida jamoatchilik tasavvurga ega emas. Shu bois, har bir olim o'zining ilmiy ishlarini internetdagi ijtimoiy tarmoqlar (Google akademiya, Google scholar, RINS) ga joylashtirib borishlari maqsadga muvofiq. Jami indekslarning umumiy soni mamlakatning ilmiy salohiyatini aniqlash imkoniyatlaridan biridir).

Scopus Elsevier nashriyotiga qarashli bibliografik va referativ ma'lumotlar bazasi bo'lib, undan shuningdek ilmiy jumallarda nashr etiluvchi maqolalarning

havola keltirilish darajasini aniqlash uchun ham foydalaniladi. Bu ma'lumotlar bazasida 5 mingga yaqin nashriyotlarning 24 mingdan ziyod nashrlari joylangan. Bazaga 2004 yil 15 martda asos solingan. Bu ma'lumotlar bazasiga ushbu veb-sahifaga yozilish va a'zo bo'lish orqali kirish mumkin. Ushbu ma'lumotlar bazasi o'z ma'lumotlarini izlashda Scirus qidiruv apparatidan foydalanadi.

Web of Science (inglizchadan Web of Science (WoS) - "Fan tarmog'i") internet-qidiruv platformasi bo'lib, u ilmiy nashrlardagi ilmiy ishlar va patentlar, shuningdek o'z bazalaridagi ilmiy ishlarning o'zaro havola qilinishini, hisobga oluvchi ma'lumotlar bazalarini ham o'z ichida oladi va foydalanuvchilarga bu manbalarda qidiruv olib borish imkonini beradi. Web of Science ma'lumotlar bazasi tabiiy, texnik, ijtimoiy, gumanitar fanlar va san'at sohalariga oid ilmiy ishlarni qamrab oladi. Shuningdek, mazkur platformada bibliografik ma'lumotlarni izlash, tahlil etish va boshqarishning o'ziga xos qulayliklari mavjud. Mazkur platforma 2016 yilda ishga tushirilgan bo'lib, uning hozirdagi egasi Clarivate Analytics kompaniyasidir.

Akademiya Google (google scholar) - bu barchatur va sohani o'z ichiga qamrab oluvchi ilmiy nashrlar qidiruv tizimidir. Bu loyiha 2004 yildan buyon uzluksiz ravishda o'z faoliyatini yuritib kelmoqda. Google Scholar o'z indeksini Yevropa va Amerikaning mashhur nashrlariga qarashli jurnallarida nashr etiladigan ilmiy ishlar reytinglariga asosan belgilaydi. Bajaradigan funksiyasiga ko'ra Google Scholar Scirus.. CiteSeerX va GetCITED saytlariga yaqin turadi. Shuningdek, Google Scholar, muayyan to'lov amalga oshirilgandan keyin ma'lumotlar bazasidan foydalanish imkonini beruvchi funksiyaga ham ega va bu xususiyati bilan u Scopus va Web of Science tarmoqlariga yaqin turadi. Google Scholar bazasining shiori "Gigantlar yelkasida turib" bo'lib, bu I. Nyuton tomonidan asrlar davomida fan rivoji uchun hissa qo'shgan, yangi kashfiyotlar va yutuqlar uchun asos bo'lib xizmat qilgan olimlarni nazarda tutib aytgan "Agar men boshqalarga nisbatan uzoqroqni ko'ra olgan bo'lsam, buning sababi mening gigantlar yelkasida turganimdir" iborasidan olingandir.

RINS (rossiyskiy indeks nauchnogo sitirovaniya)- Rossiya olimlari ilmiy ishlarining bibliografik ma'lumotlar bazasi va ilmiy maqolalarining havola keltirilishi indeksidir. Foydalanuvchiga zarur bo'lgan nashrlar va RINS ma'lumotlari asosidagi maqolalarning havola qilinishi indeksini olish uchun ScienceIndex tahliliy qurilmasidan foydalaniladi. RINS loyihasiga 2005 yilda "Elektron ilmiy kutubxona" («Nauchnaya elektronaya biblioteka» (ELIBRARY.ru)) kompaniyasi asos solgan va faoliyat yuritib kelmoqda RINS ma'lumotlar bazasi nafaqat havola keltirilish indeksi asosida olimlarni yoki ilmiy tashkilotlarni baholash funksiyasini, balki Rossiya ilmiy nashrlari doirasida bibliografik axborotlarning ishonchli manbasi funksiyasini ham bajaradi.

Elsevier - dunyodagi eng yirik to'rtta nashriyot uylaridan biri bolib, butun dunyo jurnallarida nashr qilinuvchi ilmiy nashrlarning deyarli V\* qismi aynan shu nashriyotda chiqadi. 1880 yilda Amsterdamda (Niderlandiya) asos solingan va bugungi kunda Buyuk Britaniya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Braziliya va boshqa ko'plab mamlakatlarda o'z shaxobchalariga ega. Nashriyot o'z nomini 1710 yillarda kasodga uchrab, yopilib ketgan qadimiy Elzevirlar nashriyot uyi nomidan olgan.

Ziyonet - jamoat axborot ta'lim tarmog'i 2005 yil 28 sentyabrda PQ - 191 sonli "O'zbekiston respublikasining jamoat ta'lim axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risidagi Qaroriga muvofiq tashkil etilgan". Ziyonet tarmog'ining asosiy maqsadi ta'lim oluvchilar uchun keng ko'lamli axborot kommunikatsiya xizmatlarini joriy etishdan iborat. Ziyonet tarmog'i yoshlar, olimlar, tadqiqotchilar va barcha foydalanuvchilar uchun muhim ilmiy axborotlarni jamlash, ularga axborot texnologiyalari sohasidagi kerakli ma'lumotlarni berish, o'zaro muloqot qilish va tajriba almashishi uchun zarur imkoniyatlar yaratishni ham qamrab oladi

Vikepediya (inglizcha Wikipedia) ko'ptilli universal internet ensiklopediya. Saytning asoschisi Fond vikipediya amerika notijorat tashkiloti. 2001 yilda Djimmi Ueyls va Larri Senger tomonidan ochilgan bu sayt hozirgi kunda katta va mashhur bo'lib, 40 milliondan ortiq maqolalar joylashtirilgan. 301 tilda Vikipediya bo'limlari va 493 tilda inkubatorlar faoliyat olib bormoqda. Vikepediyaning eng muhim xususiyati undagi maqolalarni tahrir etish va yangi maqolalar joylashtirish imkoniyatidir.

2013 yilda Djimmi Ueyls Yunesko tomonidan nils Bor nomidagi oltin medal bilan taqdirlangan h-undeks yoki Xirsh indeksi 2005 yilda San-Diego Kaliforniya Universitetida faoliyat yuritayotgan argentina-amerika fizigi Xorxe Xirsh tomonidan taklif etilgan bo'lib, bu indeksdan dastlab fiziklarning ilmiy mahsuldorligini baholashda foydalanilgan. Xirsh indeksi olimning, olimlar guruhining, ilmiy tashkilotning yoki umuman mamlakat mahsuldorligining miqdoriy ko'rsatkichi bo'lib, bu ko'rsatkich ilmiy ishlar soni va ishlarning havola qilinish miqdoriga asoslanadi. Ilmiy tadqiqotning muhim jihatlari olimning ilhomi, fantaziyasi, umumiy madaniyati, shuningdek uning shaxsiy sifatlari bilan ham chambarchas bog'liq.

Xulosalar. O'zbekistonda ilmiy tadqiqotlarning ko'lamini kengaytirish, ilmiy-ijodiy faoliyat yo'nalishlarini chuqurroq o'rganish, izlanishlarni davom ettirishda nafaqat olimlar, balki amaliyotchilar ham faol qatnashishi zarur. Umuman olganda, ilmiy-ijodiy faoliyatning mazmun-mohiyati uning namoyon bo'lish shakllarida yanada oydinlashadi. Tajribaviy amaliy matnlar erkin, iqtibos; maqola, jurnal, darslik, yozma matn, og'zaki matn, sisternal katalog, elektron katalog, kutubxonalar bilan chambarchas bog'liq.

Akademik yozuv - bu ishonarli ilmiy matn orqali o'z fikrlarini ifodalash va asoslash qobiliyati. U oliy o'quv yurtida muvaffaqiyatli o'qish va keyingi ilmiy-tadqiqot, shu jumladan, xalqaro miqyosda o'sishning muhim jihatlaridan biridir. Akademik yozuv yordamida so'nggi bir necha o'n yillar davomida turli mamlakatlar o'rtasida ilmiy va ta'lim kommunikatsiyalari mavjud. Uning tamoyillari butun dunyo bo'ylab eng vakolatli ilmiy nashrlarning yetakchi muharrirlari tomonidan boshqariladi, shuning uchun ularni har qanday fanda rivojlanish yo'lini osonlashtirish uchun o'zlashtirish kerak. Ilmiy yozma nutqni rivojlantirish jarayoni bilan turli soha mutaxassislari, jumladan, tilshunoslar, filologlar, semiologlar, sotsiopsixologlar va hatto axborot texnologiyalari vakillari shug'ullandilar.<sup>47</sup>

- Akademik maktub janrlari.

Akademik yozuv tizimini ishlab chiquvchilar birlamchi (ilmiy maqola, dissertatsiya, akademik taqriz, monografiya va boshqalar) va ikkilamchi janrlarni (ilmiy loyiha tavsifi, tezis, avtoreferat, ilmiy munozara, ensiklopedik maqola, annotatsiya) farqlaydilar..

- ▶ Ilmiy maqolada muallif o'z tadqiqoti natijalarini keltiradi. Faktlardan tashqari, u mantiqiy mulohazalarni va natija qismini o'z ichiga oladi.
- ▶ Dissertatsiya magistrlik yoki boshqa ilmiy daraja uchun tayyorlanadi.
- ▶ Taqrizda ilmiy matn tahlil qilinadi va ish tanqidiy baholanadi.
- ▶ Monografiya bir mavzuga bag'ishlangan bo'lib, tadqiqot predmeti bo'yicha zarur ma'lumotlar (shu jumladan qarama-qarshi ma'lumotlar) va ilmiy materiallar yetarli miqdorda to'planganidan so'ng tayyorlanadi.
- ▶ Annotatsiya har qanday birinchi manbaning qisqacha mazmuni bayoni (maqola, tezis, referat va boshqalar), uning mohiyatini qisqa yetkazishdir. Mavzu bo'yicha ko'rib chiqilgan masalalarni sanab o'tadi. Ish tuzilishining tavsifi bo'lishi mumkin.
- ▶ Referat qayta ishlangan dastlabki matnning ma'no jihatidan yaqin bayonidir. U birinchi manbadagi ma'lumotni ishonchli tarzda uzatadi. Qo'shimcha va yangi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin.
- ▶ Ilmiy munozara ilmiy muammolarni muhokama qilish va ularning yechimi uchun mo'ljallangan. U munozara mavzusini ilgari surish va qarama-qarshiliklarni (tortishishlarni) ovoz berish bilan boshlanadi, shundan so'ng u mavjud nuqtai nazarlarni tanqidiy ko'rib chiqishga o'tadi. Bundan tashqari, tadqiqotchilar ilmiy-publitsistik (ilmiy-ommabop) janrni ham o'zlashtirishlari kerak, bu keng jamoatchilik maydonida ekspert nuqtai nazarini nashr etishda zarur bo'lladi. Sanab o'tilgan barcha janrlar tilning mazmuni, o'ziga xosliklari, kompozitsiyasi,

---

<sup>47</sup> N.Shermumammedova. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi /darslik/. Ikkinchi nashr Toshkent: "Innovatsiya- Ziya", 2021, 123-129- b

funksional-nutq o'ziga xosligi bo'yicha farqlanadi. Shu bilan birga, ularni bitta asosiy xususiyat - fikrlarni ifodalashning aniqligi birlashtiradi.

- Akademik yozuv uslubining xususiyatlari. Akademik yozuv doirasida har qanday matnni yozishda uning xususiyatlarini hisobga olish kerak, ya'ni ilmiy matn akademik yozuvning asosiy modeli sifatida kirish, asosiy qism va an'anaviy xulosadan iborat.

- ▶ Kirish qismi mavzuni qisqacha ochib beradi.
- ▶ Asosiy qismda muallif mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga murojaat qiladi va o'rganilayotgan muammoni yoritadi.
- ▶ Xulosada xulosalar chiqariladi, o'rganilayotgan masalada kelgusi istiqbollar ko'zda tutiladi, prognozlar amalga oshiriladi. Takliflar kiritishda, maxsus terminologiya va atamalarning professional qisqartmalaridan foydalanishda muallif qaysi auditoriya uchun yozganini aniqlash kerak. Hech qanday savol ochiq qolmasligi, mavzu to'liq va tushunarli tarzda ochib berilishi kerak. Yana bir muhim jihat - bayonning aniqligi va ishonarliligi, shuningdek, o'quvchi uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lmagan fazoviy mulohazalarning yo'qligi. Grammatika, punktuatsiya va imlo qoidalariga qat'iy amal qilish kerak. Bu tushunishni osonlashtiradi, ma'no buzilishi va ikki tomonlama ma'no kelib chiqishini yo'q qiladi. Ishda iqtiboslardan foydalanish va boshqa olimlarning asarlariga murojaat qilish tavsiya etiladi. Bu tadqiqotchining kompetentligini, o'zi olib borgan tadqiqotning kengligini va uning tugallanganligini ko'rsatadi. Boshqa tadqiqotlarga ishora qilib, ularning mohiyatini, nutq nima haqida ekanligi va muallifning qaysi maqsadda aniq misol keltirishi ochib berilishi zarur.

### **Akademik yozuv nima?**

Akademik yozish san'atini o'rganish talabalar, tadqiqotchilar va mutaxassislar uchun qimmatli mahoratdir, chunki u yuqori sifatli ilmiy ishlarni yaratish va akademik hamjamiyat bilan samarali shug'ullanish uchun ko'prik vazifasini o'taydi. Sifatli akademik yozishni belgilaydigan asosiy xususiyatlardan, aniqlik, manba va iqtibos standartlarigacha mukammal o'rganish, ko'nikmalarni oshirish maqsadga muvofiqdir. **“Akademik nutq ham mahsulot, ham jarayondir: u ilmiy bilimni aks ettiradi va shu bilan birga uni muloqot orqali yaratadi.”**. **“Akademik nutq – bu nafaqat ilmiy bilim mahsuli, balki uni muloqot jarayonida shakllantiruvchi vositadir.”**<sup>48</sup>

**Akademik nutq** — bu ilmiy uslubning og'zaki shakli bo'lib, ilmiy bilimni auditoriyaga tushunarli, mantiqan izchil va madaniy tarzda yetkazishga qaratilgan.

- Asosan **ma'ruzalar, seminar chiqishlari, ilmiy konferensiya nutqlarida** qo'llanadi.

---

<sup>48</sup>Hyland K. Academic discourse. — London: Continuum, 2009.p.5.

- Akademik nutqda ilmiy terminologiya ishlatiladi, ammo tinglovchining darajasiga mos izohlar bilan boyitiladi<sup>49</sup>.
- Nutqning **kirish, asosiy qism va xulosa** tuzilishi qat'iy saqlanadi.
- Ko'pincha **vizual materiallar** (slydlar, grafiklar, jadval) bilan boyitiladi.

### **Aniq va ravshan**

“Ehtimol” yoki “bo‘lishi mumkin” kabi taxminiy so‘zlardan saqlanish zarur, chunki bu keltirilgan dalillarning ishonchliligini yo‘qotadi. So‘z tanlovini sinchkovlik bilan ko‘rib chiqishga vaqt ajratish va ular ishning maqsadli ma‘lumotlarini aniq va ravshan yetkazishiga ishonch hosil qilish zarur.

- Ma‘lumotlar shuni ko‘rsatishi mumkinki ...
- Ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, ...

Nimani nazarda tutilayotganini aniq ifodalash uchun aniq va sodda tildan foydalanish muhimdir. Bu imkon qadar aniqlikni va tushunarsiz so‘zlardan qochishni anglatadi:

- Mavzu ancha vaqtdan beri qiziqish uyg‘otdi.
  - Mavzu o‘n yildan ortiq vaqt davomida olimlarning diqqat markazida bo‘lgan.
- Texnik terminologiya ko‘pincha akademik yozuvning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, u odatda mavzuni yaxshi biladigan ixtisoslashgan auditoriyaga mo‘ljallanadi. Bu ixtisoslashgan til matnni murakkablashtirmasdan, ravshanligi va aniqligini oshirishga xizmat qilishi kerak. Texnik atamalarni quyidagi hollarda ishlatish mumkin:
- Fikrni umumiy atamaga nisbatan qisqaroq va aniqroq ifodalash uchun.
  - Muayyan auditoriyani atamalar bilan o‘qitilish uchun.
  - Ushbu atamalar aniq ta‘lim sohasidagi tadqiqotchilar orasida keng qo‘llanilishi uchun.

Soha doirasida qo‘llaniladigan maxsus terminologiya bilan tanishish uchun ilmiy maqolalarni o‘rganish va ekspertlar ishlatadigan tilga e‘tibor berish zarur.

### **Rasmiy va xolis**

Akademik yozishning maqsadi ma‘lumot va argumentlarni xolis va dalillarga asoslangan holda ta‘minlash uchun quyidagi uchta asosiy tamoyilni o‘z ichiga olgan tizimli asosni yaratish zarur:

- **Dalillanish tamoyili.** Argumentlar tadqiqotchining shaxsiy e‘tiqodidan uzoqlashtirib, empirik ma‘lumotlar bilan asoslanishi kerak.
- **Obyektivlik tamoyili.** Tadqiqotchining tadqiqot natijalari ham, boshqa olimlarning ishlari ham adolatli va to‘g‘ri taqdim etilishi kerak.

<sup>49</sup> Swales J.M. Genre analysis: English in academic and research settings. — Cambridge: Cambridge University Press, 1990.

- **Rasmiy izchillik tamoyili.** Rasmiy mazmun va uslub nashrlarda sifatlilikni ta'minlash uchun zarur bo'lib, turli tadqiqotlarini taqqoslash va baholashni osonlashtiradi.

Ushbu tamoyillarni buzmaganda holda, akademik yozuv yaxlitligi va samaradorligini saqlashga erishiladi. Tadqiqot metodologiyasi haqida aniq ma'lumotga ega bo'lish va o'rganish mumkin bo'lgan har qanday taqiqlarni yodda tutish juda muhimdir.

Rasmiy izchillikka bo'lgan e'tibor tufayli tanlangan til muhim rol o'ynaydi. Argo, qisqartmalar va kundalik iboralar kabi norasmiy iboralardan qochish muhimdir.

- Ma'lumotlar qandaydir eskiz va ko'p narsani anglatmaydi.
- Ma'lumotlar noaniq ko'rinadi va cheklangan tushunchalarni beradi.

### **Mukammal va yaxshi tuzilgan**

Ilmiy maqola oddiy g'oyalar to'plami bo'lmay aniq maqsadga ega bo'lishi kerak. Zarur argumentni boshqaradigan tegishli tadqiqot maqsadini yoki tezisni tayyorlash zarur. Keltirilgan ma'lumotlar ushbu maqsadga hissa qo'shishiga erishish zarur.

Asosiy tarkibiy elementlar:

- **Umumiy tuzilish.** [Kirish](#), [asosiy qism](#) va [xulosa](#). Avvalo har biri aniq nomlangan bo'limlar yoki kichik bo'limlarga ajratilgan qat'iy tarkib tuziladi. Ma'lumotlar mantiqiy izchillikda joylashtiriladi.
- **Paragraf tuzilishi.** Har doim yangi konsepsiya yangi paragrafdan boshlanadi. Paragraf esa asosiy g'oyani ifodalovchi mavzu jumlasidan boshlanishi va paragraflar o'rtasi mantiqiy bog'lanishi kerak. Asosiy fikr yoki tadqiqot maqsadiga xizmat qiluvchi paragraflar tuziladi.
- **Gap tuzilishi.** Gaplar ichida va o'rtasidagi fikrlar munosabatini ko'rsatish uchun bog'lovchi vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yaxlit tushunilishi uchun jumla uzunligi va tuzilmalari aralashmasidan foydalanish mumkin.

Ushbu tarkibiy elementlarga e'tibor qaratilsa akademik maqolaning o'qilishi va ta'siri yaxshilanadi. Ushbu ko'rsatmalar samarali ilmiy ish uchun nihoyatda zarur.

### **To'g'ri va izchil**

Grammatik qoidalarga, tinish belgilariga va iqtiboslarga rioya qilishdan tashqari, izchil stilistik me'yorlarga amal qilish juda muhimdir. Ushbu standartlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Raqamlarni yozish
- Qisqartmalardan foydalanish
- Grammatik me'yorlarni to'g'ri tanlash
- So'z va sarlavhalarni bosh harf bilan yozish
- Imlo va tinish belgilari
- Jadvallar va rasmlarni formatlash
- Rasmlar yoki videolarni keltirish

- O‘q nuqtalari yoki raqamlashdan foydalanish  
Biror narsani qilishning bir nechta to‘g‘ri yo‘li bo‘lsa ham, eng muhimi, izchil bo‘lish. Har doim ish topshirilishdan oldin aniq tuzatish yoki grammatika tekshiruvi qilinadi.

Yaxshi manba akademik yozishda tashqi manbalardan foydalanishga yordam beradi va har tomonlama asosli dalillarni taqdim etadi. Ushbu manbalar nafaqat matnlarni, balki fotosuratlar yoki filmlar kabi boshqa ommaviy axborot vositalarini ham o‘z ichiga oladi. Ushbu manbalardan foydalanishda ularning ishonchliligi va ilmiy muhitda e‘tiborga loyiqligi muhim ahamiyatga ega.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Ilmiy tadqiqotning muhim jihati nima?
2. Skopus ma’lumotlari bazasi haqida nimalarni bilasiz?
3. Yozma va og‘zaki matnni bir biridan farqlab bering
4. Ilmiy ishlaringiz ro‘yxatini tayyorlang
5. Xirsh indeksi nima?
6. RINS nima?
7. Ziyonet tarmog‘i faoliyati qachon tashkil etilgan?
8. Akademik nutq nima?
9. Vazifaviy uslublar nechta?
10. Nutq uslublarining umumiy va xususiy belgilarini ayting.
11. Ilmiy faoliyat uchun qaysi uslub ahamiyatli?
12. Nutq uslubi nima va u qanday belgilarga ega?
13. Ilmiy uslubning asosiy kommunikativ vazifasini izohlang.
14. Ilmiy uslubga xos **uchta leksik** va **uchta grammatik** xususiyatni sanang.
15. Rasmiy-idoraviy uslubning vazifasi nimadan iborat?
16. Rasmiy-idoraviy uslubda ishlatiladigan eng ko‘p uchraydigan iboralarga misollar keltiring.
17. Akademik nutq ilmiy uslubdan nimasi bilan farqlanadi?
18. Ilmiy uslubda passiv konstruksiyalar nega keng qo‘llanadi?
19. Rasmiy-idoraviy uslubda shaxsiy olmoshlar nega ishlatilmaydi?

#### Topshiriqlar:

1. Quyidagi jummalarni ilmiy uslubga mos holda qayta yozing:
  - “Bu yerda ancha odam ishlaydi.”
  - “Ko‘p o‘qigan odam ko‘p narsani biladi.”
2. Rasmiy-idoraviy uslubda ishlatiladigan **5 ta standart hujjat iborasi** tuzing.
3. Berilgan so‘zlardan ilmiy uslubdagi gap tuzing: *konstruktiv yondashuv, eksperiment, metodik tizim*.
4. Akademik nutqqa xos 2-3 gapdan iborat **kirish qismi** yozing (masalan, konferensiyada nutq boshlash).

5. Quyidagi soʻzlar qaysi uslubga xosligini belgilang:

- “Shaxsiy maʼlumotlar”
- “Metodik tavsiya”
- “Hurmatli ishtirokchilar”
- “Koʻrgazmali qurol”

6. Bir ilmiy maqola yoki rasmiy hujjatdan 5 ta gap tanlab, ularning leksik va grammatik xususiyatlarini tahlil qiling.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduazizov A. Tilshunoslik asoslari. — Toshkent: Universitet, 2007.

2. Baxtiyorovna, D. (2023, October). EMPOWERING INTELLECTUAL GROWTH: AI INTEGRATION IN ENGLISH LESSONS FOR STUDENTS'DEVELOPMENT. In Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions".

3. Baxtiyorovna, D. (2023, October). UNLEASHING INTELLECTUAL POTENTIAL: TRANSFORMING ENGLISH LESSONS THROUGH SMART EDUCATION TECHNOLOGIES. In Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions".

4. Mahmudov N., Mahkamov N., Madaliyev A. Oʻzbek tilida ish yuritish. — Toshkent: Oʻzbekiston, 2016.

5. Maxkamova, D. (2023). PLANNING THE LESSON PROCESS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES. Solution of social problems in management and economy, 2(11), 55-59.

6. Mahmudov N. Oʻzbek tilining funksional uslublari. — Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.

7. Nurmonov A. Nutq madaniyati va uslubi. — Toshkent: Fan, 2012.

8. N. Shermuxammedova. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi /darslik/. Ikkinchi nashr Toshkent: “Innovatsiya- Ziyo”, 2021, 450 b.

9. M. Qurbonova, M. Yoʻldoshev. Matn tilshunosligi. — Toshkent: [Universitet](#), 2014.

10. Sodiqov Q. Ilmiy nutq va uning lingvistik xususiyatlari. — Samarqand: SamDU nashriyoti, 2011

11. Oʻzbek tili stilistikasi, T. 1993 Qoʻngʻurov R., Begmatov E., Tojiyev Y.

12. Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi. (2000-2005)

13. Xamdamova O.M., Husaynova M.M ILMIY USLUBNING LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI <https://doi.org/10.5281/zenodo.10032767>

14. Qanday qilib akademik uslubda yozish kerak. Demonfort universiteti.

15. Qoʻngʻurov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubi asoslari. — Toshkent: Fan, 1992.

## 8-MAVZU: PUBLITSISTIK USLUB VA OG‘ZAKI USLUBNING LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Publitsistik uslub tarixi
2. Publitsistik uslub haqida ma'lumot.
3. Publitsistik uslub janrlari.
4. Og‘zaki uslub.
5. Leksik-grammatik xususiyatlar.

Ijtimoiy-siyosiy hayot masalalariga bag‘ishlangan asarlar publitsistik asarlardir. O‘rta Osiyo xalqlari tarixida publitsistika ancha qadimiy, uning xususiyatlari “Qobusnoma”da yaqqol ko‘zga tashlansa, Navoiyning “Majolis un-nafois”, “Munshaot”, “Mahbub ul-qulub” kabi asarlarida publitsistikaning tugal xususiyatlari uchraydi. Navoiyning Abdurahmon Jomiy, Pahlavon Mahmud, Sayid Hasan Ardasher va boshqalarga bag‘ishlangan adabiy portretlarini publitsistik ocherklar deb atash mumkin. Navoiy nasriy asarlari chuqur tadqiq etilganda uni o‘zbek badiiy publitsistikasining asoschisi ekanligi ma'lum bo‘ldi. Shuningdek, publitsistik xususiyat o‘zbek mumtoz adabiyoti asarlari tarkibiga ham singib ketgan. O‘zbekistonda ijtimoiy hayotga doir dastlabki publitsistik maqolalar “Turkiston viloyatining gazetasi” sahifalarida chop etilgan. Demak, bu janr o‘zbek adabiy tili sistemasida XX asr boshlarida paydo bo‘ldi. «Turkiston viloyatining gazetasi» chiqa boshlashi, so‘ng matbuot va nashriyot ishlarining kengayishi, Furqat, Hamza, Ayniy, Sattorxon kabi ijodkorlarning ijodida targ‘ibotning o‘rin olishi publitsistikaning shakllanishiga turtki bo‘ldi. Milliy uyg‘onish (jadidchilik harakati)ning kuchayishi natijasida yuzaga kelgan milliy matbuot o‘sha davrdagi jamiyatning kamchilik va illatlarini ochiq-oshkora bayon etgan, hatto xalqaro hayotga oid muammolarni tezkor sharhlaganligi bilan ham ahamiyatlidir. Ayniqsa, bunday maqolalar “Taraqqiy” gazetasidan boshlab keng ko‘lamda ko‘rina boshlaydi. I. Obidiy, M. Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon, U. Xo‘jayev, A. Avloniy, M. Abdurashidxonov va boshqa jadid ziyolilari qalamiga mansub o‘lka va xalqaro maydondagi ijtimoiy-siyosiy, fan va ta’lim, madaniyat va san’at, milliy siyosat va boshqa masalalarga bag‘ishlangan publitsistik maqolalar “Shuhrat”, “Xurshid”, “Osiyo”, “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg‘ona”, “Najot”, “Turon”, “Hurriyat”, “Yurt” kabi gazeta va jurnallar sahifalarida chop etilgan. Xususan, Behbudiyning o‘zi tomonidan nashr etilgan va bosh muharrirlik qilgan “Samarqand” gazetasi hamda “Oyna” jurnalida chop qilingan “Sayohat xotiralari”, “Til masalasi”, “Bizni kemirguvchi illatlar”, “Ehtiyoji millat” va boshqa maqolalari jamoatchilik tomonidan zo‘r qiziqish bilan qarshilangan. 90-yillardan so‘ng o‘zbek milliy jurnalistikasida ham o‘ziga xos o‘zgarishlar kuzatildi. An’anaviy sharhlash jurnalistikasi o‘rniga yangiliklar jurnalistikasi paydo bo‘ldi. Natijada publitsistik

janrlar axborot janrlariga ko‘proq o‘rin bera boshladi. Publitsistika keyingi yillarda yuqori bosqichga ko‘tarildi. Ozod Sharofiddinov, O‘tkir Hoshimov, Ibrohim G‘afurov, Naim Karimov, Xurshid Do‘stmuhammad, Erkin A‘zam, Sultonmurod Olim va boshqalar dolzarb publitsistik maqolalari bilan o‘zbek publitsistikasiga munosib hissa qo‘shib kelmoqdalar. Radio, matbuot, televideniye va boshqalarning xalq hayotiga kirib borishi, ma’ruza, suhbatlarning o‘tkazilishi kabi jarayonlar publitsistika taraqqiyotida muhim omil bo‘ldi, yanada rivojlandi. Ushbu uslubda muallifning voqelikka munosabati aniq sezilib turadi. Muallif hayotiy masalalarni chuqur mulohaza bilan tahlil qiladi, isbotlaydi, asoslab tushuntirishga urinadi, ishontiruchi detal va faktlar keltirish bilan kishida tasvirlanayotgan voqelikka salbiy yoki ijobiy munosabat tug‘diradi, ta’sir etadi. Shuning uchun bu uslubda tilning barcha vositalaridan foydalanish mumkin. “Publitsistik uslub faqat voqelikni aks ettirish bilan cheklanmaydi, balki o‘quvchi yoki tinglovchida muayyan ijtimoiy-siyosiy pozitsiyani shakllantirishga xizmat qiladi”<sup>50</sup>.

Publitsistika davrning eng muhim dolzarb masalalarini gazeta-jurnal, radio, televideniye orqali yetkazish, ommani jonlantirish, kishilarning ongiga atrofda bo‘layotgan voqealarni singdirish, ularning ijtimoiy qarashlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Ommaviy axborot vositalari (radio, televideniye, gazeta-jurnal) uslubi, Oliy Majlis yig‘inlari, turli xil anjumanlar ham o‘z faoliyatini aynan ushbu uslubda olib boradi. Bu uslubning muhim xususiyati axborot berish va ta’sir etish, soddalik, tushunarlilik, adabiy til me’yorlariga qat’iy amal qilishdir. Og‘zaki va yozma shakllari mavjud:

1. Radio-televideniya chiqayotgan siyosiy sharhlovchilar, notiqning nutqlari publitsistik uslubning og‘zaki shakliga mansubdir.

2. Ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag‘ishlangan maqolalar, felyeton, pamflet, murojaatnomalar, chaqiriqlar, deklaratsiyalar bu uslubning yozma shakliga xosdir. Publitsistik uslubning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u muayyan ijtimoiy masalalarga faol munosabatda bo‘lishlik, hozirjavoblik, ta’sirchanlik belgilariga ega. Publitsistika ijtimoiy masalalarga faolligi tufayli ijtimoiy-siyosiy so‘zlar ko‘proq qo‘llaniladi. Masalan; bitim, reja, qurultoy, anjuman, kengash, hukumat, davlat. Publitsistik nutqda ta’sirchan so‘z va birikmalardan, maqol va hikmatli so‘zlardan ham foydalaniladi, gap bo‘laklari odatdagi tartibda bo‘ladi. Kesimlar buyruq va xabar maylidagi fe‘llar bilan ifodalanadi, his-hayajon, ritorik so‘roq gaplardan, yoyiq undalmalardan, takroriy so‘z va birikmalardan foydalaniladi. Publitsistik uslub siyosat va ba’zi ijtimoiy sohalarda qo‘llanuvchi uslub bo‘lib, ikki asosiy vazifa, axborot beruvchi va ta’sir ko‘rsatuvchi funksiyalarni bajaradi [2,265]. Uslub tushunchasi haqida turlicha fikrlar mavjud bo‘lgani singari vazifaviy uslublar va ularning tasnifi masalasida ham har xil qarashlar mavjud.

<sup>50</sup> Mahmudov, N. (2005). *Hozirgi o‘zbek adabiy tili*. Toshkent: O‘qituvchi. 78-b.

Ayrim tilshunoslar tilning vazifaviy uslublarga bo'linishini uning aloqa, xabar, ta'sir etish, ijtimoiy xizmat vazifalaridan kelib chiqib tasnif qilishadi. Birinchi guruh olimlar uslublarning bo'linishini tillar vazifasidan kelib chiqib hal etgan bo'lsa, ikkinchi guruh ekstralingvistik faktorlarni hisobga olishdi [1, 34]. 1970-yillardayoq B.Kostomarov kitobiy va og'zaki til uslublari qatorida funksional uslubiy differentsiatsiyaning o'ziga xos darajasini - ommaviy kommunikativ uslublarning turini ajratishni taklif qildi [2, 256]. B.Kostomarov qayd etganidek, adabiy til to'liq publitsistik uslub tilida namoyon bo'ladi va shu uslubda milliy tilning hozirgi rivojlanishida eng muhim jihatlari aks etadi [1, 34]. Publitsistika bir qancha janrlarga ega. Har qaysi janrning o'zi, masalan, gazeta, radio, televideniya da beriladigan reportaj, pamflet, felyeton kabi nutqiy vositalari jihatidan farqlanadi. Shunga qaramay, ularning hammasi bir umumiy belgi asosida publitsistik nutqning turli ko'rinishlari hisoblanadi, ya'ni nutq jamiyatga qaratiladi. Publitsistik asarlarning turli janrlari sifatida xabar, hisobot, intervyu, reportaj kabi asarlar guruhiga bo'lingan tadqiqotlar mavjud. Matbuot materialining asosini, u qaysi janrda yozilgan bo'lmasin, axborot ya'ni informatsiya tashkil etadi. Turli faktlar, voqea-hodisalar haqida yangi bilimlarni gazetxonga yetkazish axborot janrlarining asosiy vazifasidir. Axborot materiallarining asosiy qismini bajarishda quyidagi talablarga amal qilish talab etiladi:

- 1.Konkretlik va aniqlik
- 2.Operativlik, ya'ni tezkorlik
- 3.Umumlashtirish
- 4.Ixchamlik
- 5.Ta'sirchanlik.

Ayrim ishlarda gazeta, radio va televideniya materiallari tahlil qilinib, informatsion janrlarga xabar, hisobot, radio, televideniya va gazeta matbuot obzori kiritilgan [3, 6].

Xabar. Xronika-xabar, axborot-xabar, tanqidiy yoki satirik xabar, maxsus sarlavhalar ostidagi qisqa xabarlar, kengaytirilgan xabar.

Reportaj. Shu kungi voqealar haqidagi reportaj, tematik reportaj, muammoli reportaj, mavzuli reportaj.

Hisobot. Oddiy hisobot, tahliliy hisobot, mavzuli hisobot, muammoli hisobot, ilmiy hisobot, sud hisoboti, rasmiy voqealar haqidagi hisobot.

Intervyu -monolog, intervyu-diaolog, intervyu-lavha, davra-suhbat, matbuot konferensiyasi, portret- intervyu, satirik va yumoristik intervyu.

Tahliliy janrlar - ayrim gazeta janrlari asosini tahlil tashkil etadi. Tahliliy janrlar muhim va asosiy o'rinni egallaydi, chunki voqea-hodisalar jurnalist nuqtai nazaridan tahlil qilinadi va tegishli baho beriladi. Bu nuqtai nazar hamisha ham barcha gazetxonlar qarashlariga mos kelavermasligi mumkin. Tahliliy janrlar

jamiyatdagi turli muammolarni yoritish, uni jonli, faktlarga boy tarzda ifodalash, tahlil asosida umumlashtirish va xulosalar chiqarishda eng qulay usullardandir. Tahliliy janrlarda ham axborot janrlari singari konkretlik, haqqoniylik, tezkorlik, ixchamlik, ta'sirchanlik, umumlashtirish kabi mezonlarga amal qilinadi. Ularga qo'shimcha quyidagi talablar qo'yilgan:

- 1.Tahliliylik
- 2.Umumlashtirish
- 3.Xulosalash.

Tahliliy janr turlari:

**Korrespondensiya.** Tahliliy korrespondensiya, axborot korrespondensiya, muammoli korrespondensiya, portret korrespondensiya, ijobiy korrespondensiya, tanqidiy korrespondensiya, mulohaza- korrespondensiya.

**Maqola.** Bosh maqola, nazariy maqola, tashviqot xarakteridagi maqola, muammoli maqola, tanqidiy maqola, ilmiy-ma'rifiy maqola, jurnalist tekshiruvi.

**Taqriz** - Sharx Umumiy sharx, mavzuli sharx, axborot sharxi, matbuot sharxi.

**Obzor.** Mavzuli obzor, umumiy obzor, axborot obzori.

**Xat.** Gazetxon xati, ochiq xat, murojaat, tabrik, yozuvchi xati.

**Kuzatish.** Umumiy kuzatish, mavzuli kuzatish.

## **BADIIY-PUBLITSISTIK JANRLAR**

Gazetada belletristika va publitsistika bir-biri bilan uzviy bog'langan va uyg'unlashgan materiallar ham bosiladi. Ularda publitsistik ruh bilan badiiy adabiyot, ya'ni badiiylik qonuniyatlariga mos ravishda til vositalaridan foydalangan holda ma'lum shaxs, voqea-hodisa haqida hikoya qilinadi [4.52].

**Lavha** - Ocherk Portret ocherk, safarnoma(yo'l ocherki), muammoli ocherk, ocherk-lavha.

**Felyeton** -Hujjatli felyeton, adabiy felyeton.

M.Mukarramov publitsistik uslub o'zida yozma va og'zaki nutq elementlarini jamlanishini ta'kidlasa [4, 58], R.Qo'ng'unov publitsistik uslub til birliklarining obrazlilikni, emotsional-ekspressivlikni yuzaga keltirishga xizmat qilishiga ko'ra badiiy nutq uslubiga, ifodalanishidagi lo'nda va aniqligi hamda atamalarining faol qo'llanishi bilan esa ilmiy uslubga yaqin turishini ta'kidlaydi [5,85]. Publitsistik uslubda boshqa funksional uslublarga xos xususiyatlar namoyon bo'lishiga qaramasdan, ulardan tubdan farq qilib, o'ziga xos terminologiya, mifologik kategoriyalari va leksik qatlamiga ega uslubdir. "Publitsistika emotsional, ta'sirchan, ifodali uslubdir, biroq bu ta'sirchanlik tabiati badiiy adabiyotdan farq qiladi, chunki u obrazli emas. Badiiy adabiyotning estetik ideali – voqelikni obrazli tarzda aks ettirish, publitsistikning estetik ideali esa – fikr va nutqning chuqurligi, mazmunan boyligi, ehtirosli va emotsional bo'lishidir.

Publitsistik va badiiy adabiyotda voqelikning o'ziga turlicha yondashiladi" [7, 109]. Uslub tomonidan muayyan vazifaning bajarilishi o'ziga xosligidir, bu vazifalar bayon etishning ma'lum usuliga ko'rsatma bo'lib, o'sha ko'rsatma asosida har bir funksional uslub adabiy tildan ichki vazifasini yuqori darajada bajara oladigan so'z va iboralar, shakl va konstruksiyalarni tanlab oladi. Ammo uslub nafaqat bayon etish usuli, balki har bir uslub o'ziga xos mavzu, o'ziga xos mazmunga egadir. Publitsistik uslubning yana bir o'ziga xosligi shundaki, u qisqalikni asosiy o'rinlardan biriga qo'yadi va ushbu uslubda lo'nda va tushunarli tilda yozish asosiy talab hisoblanadi. Ushbu uslub badiiy, ilmiy va rasmiy ish qog'ozlari uslubiga yaqinlashtirilgan holatlarni kuzatish mumkin. Bunda publitsistik va badiiy uslubning o'xshash tomonlari quyidagicha izohlanadi: "Har ikkala uslubda ham emotsionallik, ekspressivlik, obrazli ifodalar, tasviriy vositalar, badiiy til priyomlaridan foydalanish o'z aksini topgandir" [6, 32]. Publitsistik uslub matnlarida ta'sir etish funksiyasi undash, ekspressivlik, ifodalashning yangicha usuli, baholash, munozara kabi xususiyatlarni namoyon qilsa, axborot funksiyasi esa mantiqiylik, rasmiylik, aniqlik va standartlashuv kabi xususiyatlarni namoyon etadi. Ularni amalga oshirish uchun ko'pincha bir tipdagi til standartlari qo'llaniladi. Bu esa, xabar tayyorlovchilarga axborotni operativ ravishda yetkazishga, o'quvchiga esa ularni tez qabul qilishiga yordam beradi. Demak, publitsistik uslub ijtimoiy-siyosiy bilimlarni targ'ib qiluvchi vosita sifatida uslub tilining rang-barangligi orqali keng ommaga ta'sir etadi.

Shuningdek, publitsistika tilning imkoniyatlaridan keng foydalanadi. Uslub imkoniyatlarining kengligi lingvistik va ekstralingvistik (paralingvistik) – tildan tashqaridagi omillar bilan mustahkam aloqadaligida. Publitsistik janrda yozilgan asarlarning mohiyatan hozirjavoblighi, ularning axborot hamda targ'ibot-tashviqot xarakterda bo'lishi va ommani dunyo yoki mamlakat miqyosida sodir bo'layotgan voqea-hodisalardan tezlikda xabardor qilishidan yuzaga keladigan novatorlik tabiiy ravishda yangi ijtimoiy-siyosiy terminologiyaning boyishi va tilda me'yorlashishiga sabab bo'ladi, ya'ni tilni yangi so'z va iboralar hisobiga rivojlantiradi. Ommabop uslub ma'lum ma'noda oraliq uslub sanaladi. Bu uslubda shakllangan matnlar obrazliligi, ta'sirchanligi, tasviriy vositalarning mahsuldor qo'llanilishi bilan badiiy uslubga yaqinlashsa, dialektizmlar, istorizmlar, argo va jargonlar qo'llanilmasligi bilan undan uzoqlashadi. Ifodaning aniqligi va publitsistik janrlarga xoslangan hamda ijtimoiy-siyosiy terminologiyaning qo'llanilishi bilan ilmiy uslubga o'xshaydi. Shuningdek, ifodadagi qisqalik, lo'ndalik, ixchamlik, yorqinlik kabi xislatlar ham uni ilmiy uslub bilan yonma-yon qo'yadi. Radio va televideniya'dagi ayrim chiqishlar bu uslubdagi matnda so'zlashuv uslubi elementlari ham ba'zan aralashib ketishi mumkinligini ko'rsatadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, publitsistika badiiy, siyosiy, ilmiy

jabhalarni qamrab oluvchi yirik soha hisoblanib, ommaviy axborot vositalari sanaladigan radio va televideniya, gazeta va jurnallar sahifalarida aks etadigan yangilik, xabar, reportaj, tahlilnoma, bosh maqola, maqola, ocherk, felyeton, pamflet, e'lon, reklama singari qator janrlarni qamrab oladi. Ana shu qamrov doirasining kengligi o'z navbatida til birliklarining har bir janrda alohida tarzda me'yorlashuvini taqozo etadi. T.Qurbonovning kuzatishicha, sifat-dosh oborotlar, fe'llarning shart mayli shakllarining almashinib ishlatilishi, ritorik so'roq, ritorik murojaat, undov, bir bosh bo'lakli gaplarning faolligi bu uslubga xos xususiyatlar sanaladi, ijtimoiy-siyosiy atamalar ko'p qo'llaniladi. Umumiste'moldagi so'zlar ham ommabop uslubda yozilgan matnda; ovoz, ochiq ovoz, yopiq ovoz, hal qiluvchi ovoz, maslahat ovozi, qarshi ovoz, ovozga qo'ymoq, ovoz bermoq, Osiyo ovozi singari atamaga aylanishi mumkin. Ijtimoiy-siyosiy atamalar asosan -chi, -parast, -parvar, -xona,- noma qo'shimchalari yordamida yasaladi. Misollar: terrorchi, qo'poruvchi, aqidaparast, millatparvar, devonxona, bojxona, hissador, tadbirkor kabi. Ushbu uslubda so'z yasash imkoniyati boshqa vazifaviy uslublarga nisbatan ancha kengdir. So'roq gaplarning faolligi, ularning murojaat va dialog shaklda bo'lishi, bunda savol beruvchi ham, javob beruvchi ham muallifning o'zi hisoblanishi, uyushiq bo'lakli gaplarga ko'proq murojaat qilinishi, undovlarning, kirish bo'laklar va kirish gaplarning, shaxsi umumlashgan gaplarning keng qo'llanishi bilan ajralib turadi. Yangilikni yoritishga bo'lgan intilish ommabop uslubning asosiy xususiyati sanalib, bu xususiyat tilning yangi so'z va iboralar bilan boyib borishiga sabab bo'ladi. T.Qurbonov bu uslubda so'z yasashning ikki ko'rinishi – morfologik va kompozitsion usulining yetakchiligini ta'kidlaydi hamda bunda -chi, -shunos, -parast, -xona, -dosh, -lik, -cha kabi qo'shimchalarning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Publitsistik uslub boshqa nutq uslublaridan qator lingvistik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Jurnalistikaga oid matnlar siyosiy lug'at, frazeologik birliklar, qisqartmalar, voqeliklar, gazeta bosmalari, iboralar va turli mavzular qamrab olinganligi bilan ajralib turadi. Gazeta va jurnal nashrlari turli xil, jumladan, reklama va hissiy jihatdan jozibali sarlavhalarga ega. Bu uslub o'z imkoniyatlarining kengligidan kelib chiqqan holda, adabiy tilning barcha imkoniyatlaridan foydalana olishi, boshqa barcha nutq ko'rinishlarini o'zida mujassam etganligi, tezkorligi va adabiy til taraqqiytiga jiddiy ta'sir ko'rsata olishi bilan ajralib turadi. Publitsistik uslubning asosiy maqsadi — jamoatchilik fikriga ta'sir qilish, o'quvchi yoki tinglovchilarni muallif tomonidan berilgan sharhning yagona haqiqiy ekanligiga ishontirish va bayon qilingan fikrni qabul qilishga undashdir. Ommabop uslub aniq va mantiqiy sintaktik tuzilishi bilan biriktiruvchi so'zlardan keng foydalanish va matnni qismlarga ajratilishi bilan tasniflanadi. Ommabop uslubda maxsus atamalar kam ishlatiladi (ishlatilganda esa izohi beriladi), fikrlar qiziqarli tilda tushuntiriladi,

bayonda obrazlilikni ta'minlovchi badiiy tasvir usullaridan foydalaniladi. Shevaga xos so'zlar gazeta va jurnallarda yoritilayotgan matnni jonli va real tasvirlashda qo'llaniladi. Shevaga xos so'zlar matnga stilistik kolorit berish bilan birga, lokallikni ham ifodalashi mumkin. Qolaversa, matnning xalqchil va tushunarlilik ifodasiga xizmat qiladi.

Ushbu uslub yangiliklar haqida xabar berish uchun ishlatiladigan proza uslubi hisoblanadi. Publitsistik uslubda inversiya holati uchramaydi. Vaqt va makon davomida [jurnalistika axloqiy me'yorlari](#) va standartlari o'z ichiga olgan [xolislik](#) yoki sensatsionalizm darajasida farq qiladi. Yangiliklar yozuvi eng yaxshi shaklda ko'pchilik o'quvchilarga tushunarli, qiziqarli va qisqacha bo'lishiga harakat qiladi. Ushbu chegaralar doirasida yangiliklar keng qamrovli bo'lishni maqsad qiladi. Biroq, boshqa omillar ham bor, ba'zilar statistik va ba'zilar ommaviy axborot vositalaridan kelib chiqadi.

Jurnalist prozasini aniq va mantiqli qilib, jargonga tayanish kerak emas.

Funksional uslub xabar yo'llovchi tomonidan tashkil etilgan mutloq topshiriq mahsuli sifatida xizmat qiladi. Funksional uslublar ko'pincha tilning adabiy qismida uchraydi. Har bir vazifaviy uslub adabiy tilning rivojlanish bosqichida turg'un tizimga bog'liq bo'ladi, ammo u bir davrdan keyingisiga o'tayotganda, ba'zan tez-tez o'zgaradi. Shuning uchun tilning funksional uslublari tarixiy turkum kategoriya hisoblanadi. Binobarin, vazifaviy uslubning she'riyat badiiy uslubi XVI asrning ikkinchi yarmida mustaqil uslub vazifasini bajarishni boshlagan; gazeta uslubi publitsistik uslubdan ajralib chiqqan; boshqa vazifaviy uslublar kabi notiqlik uslubi ham sezilarli darajada muhim o'zgarishlarga uchragan. Har bir uslubning rivojlanishi standart til normalarining o'zgarishi bilan belgilanadi. Bunga ijtimoiy sharoitlarning o'zgarishi, ilmiy taraqqiyot va madaniy hayotning rivojlanishi ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. An'anaviy ajralib turuvchi funksional uslublar–ilmiy (ommabop fan), rasmiy, publitsistik (ommabop), so'zlashuv, badiiy–tilning quyi tizimlari bo'lib, ularning har biri besh asosiy darajadagi o'ziga xos–fonetik, morfologik, leksik, sintaktik va matn tarkibi bo'yicha xususiyatlarga ega. So'zlashuv uslubi qisqa jumlar, ikki bo'g'inli so'zlar, fonetik va sintaktik qisqartmalarining mavjudligi bilan tavsifalanadi. Badiiy uslub uchta quyi uslubni birlashtiradi. Tilning she'riyat uslubi, hissiy (badiiy) nasr uslubi va drama uslubi. Ushbu uslublarning har biri va alohida quyi uslublar uchun ham umumiy xususiyatlar mavjud. Chunki ular mantiqiy-intellektual ma'lumotlarni majoziy-hissiy ma'lumotlar bilan birlashtiradi. Ommabop uslubdagi matnlarni o'qish biroz qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu uslubning o'ziga xos xususiyati-matnlarning bir qismi ilmiy, ikkinchi qismi–boshqa uslubdagi matnlarga yaqin turadi. Jurnalistikaga oid matnlar siyosiy lug'at, frazeologik birliklar, qisqartmalar, voqeliklar, gazeta bosmalari, iboralar va turli

mavzularni qamrab olgani bilan ajralib turadi. Gazeta va jurnal nashrlari turli xil, jumladan, reklama va hissiy jihatdan jozibali sarlavhalarga ega.

Notiqlik publitsistik uslubning ogʻzaki shakli boʻlib, tinglovchilar bilan toʻgʻridan-toʻgʻri aloqa oʻrnatadi, yozma va ogʻzaki nutqning sintaktik, leksik va fonetik xususiyatlaridan foydalanadi. Ushbu uslubning oʻziga xos xususiyatlari—bu xalqqa toʻgʻridan-toʻgʻri murojaat qilish; baʼzida soʻzlashuv uslubiga xos soʻzlardan foydalanishi bilan xarakterlanadi. Notiqlik uslubiga jalb qilingan stilistik vositalar kommunikativ vazifa bilan belgilanadi. Notiq tez-tez analogiya va metaforalarni ishlatadi, lekin odatda, anʼanaviy usullarni qoʻllaydi, chunki individual stilistik qurilmalarni idrok qilish qiyinchilik tugʻdirishi mumkin. Turli xil funksional uslublardagi matnlarni oʻrganish, ularning parametrlarini aniqlash, ularning har birida til vositalarini tanlash va ulardan foydalanish normalari, shuningdek lingvistik va statistik tadqiqotlar til va uni oʻrganishning dolzarb vazifalardan biridir.

Badiiy uslub voqelikni badiiy obrazlar (timsollar) vositasida aks ettirib, tinglovchi yoki oʻquvchiga estetik jihatdan taʼsir qiluvchi uslubdir. Badiiy asarlar (nazm, nasr va dramatik asarlar) badiiy uslubda boʻladi. Badiiy asar kishiga maʼlumot berish bilan birga, timsollar (obrazlar) vositasida estetik taʼsir qilib, badiiylilik, ifodaviylilik, taʼsirchanlik kuchli boʻladi. Inson hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi va tilning barcha imkoniyatlaridan foydalaniladi. Hatto yozuvchi oʻzi ham turli ifodaviy vositalar yarata olishi mumkin. Tilning kommunikativ va estetik vazifalari birligi bilan boshqa uslubga xos unsurlardan keng foydalanilishi, ekspressiv va tasviriy vositalarning koʻp ishlatilishi, soʻzlarning obrazli, koʻchma-metaforik qoʻllanilishi va shu kabi belgilari bilan ajralib turadi. Til materialini qamrab olish imkoniyatining kengligi, umumxalq tilda mavjud boʻlgan barcha lugʻaviy birliklarning ishtirok etaverishi va ularning muhim bir vazifaga (estetik vazifani bajarishga) xizmat qilishi bu uslubning oʻziga xos xususiyatidir, chunki bu imkoniyat boshqa vazifaviy uslubda chegaralangan. Adabiy tilda dialektizmlar, jargonlar, varvarizmlardan, dagʻal soʻzlardan foydalanish maqsadga muvofiq boʻlmagani holda ularni badiiy uslubda oʻrni bilan qoʻllash mumkin. Uslublarning hech birida til oʻzining tuzilish jihatlari, lugʻat tarkibi, yaʼni soʻzning maʼno boyligi va rang-barangligini, toʻgʻri va koʻchma maʼnolarni badiiy nutq uslubidagichalik namoyish qila olmaydi, grammatik qurilishi yaʼni gaplarning barcha tiplari bilan ishtirok eta olmaydi. Badiiy adabiyotning barcha janrlarida soʻz ishlatish va soʻz tanlash imkoniyatlariga bir mezon bilan yondashib boʻlmaydi. Har qaysi adabiy janrning tasvir usuli, soʻz tanlash yoʻsini va janrdagi asarning umumiy turiga va mavzusiga bogʻliq boʻladi. Masalan, bayon shaklida yozilgan roman, satirik yoki yumoristik asarning til vositalari bir xil emas. Sinonim soʻzlarning u yoki bunisidan foydalanish ham

badiiy asar janriga bog'liq. Masalan, bashar, samo, oraz, mujda so'zlari, asosan, nazmda qo'llanadi. Nasrda, yoki so'zlashuv nutqida odam, osmon, yuz, shamol so'zlari keng qo'llaniladi. Badiiy nutq uslubida yozilgan asarlarni tasviriy vositalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Uslubiy figuralar deb ataluvchi tasvir vositalari; inversiya, takror, o'xshatish, sifatlash, metafora, jonlantirish, antiteza, gravitatsiya, ellipsis, ritorik so'roqlarning badiiy uslubda qo'llanishi uning o'ziga xos tarkibi mavjudligini ko'rsatadi.

## MORFOLOGIK STILISTIKA

Ma'lum bir fikrni ifodalash uchun morfologik shakllarning va stilistik qurilmalarning stilistik variantidan foydalanish va tilda ana shunday sintaktik va morfologik sinonimiyaning mavjudligi grammatik stilistika haqida ham so'z yuritishga asos bo'ladi. Masalan: 1. Men kecha qishlog'imizga kelgan Ahmedov bilan tanishman. 2. Men qishlog'imizga kecha kelgan Ahmedov bilan tanishman. 3. Kecha qishlog'imizga kelgan Ahmedov bilan men tanishman. Gaplarining uchalasi ham grammatik jihatdan sodda, yoyiq, darak gaplar. Stilistik jihatdan esa ular fikr nozikliklariga ega. Shunga ko'ra stilistikada ularga bir xil gap sifatida befarq qarash mumkin emas. Stilistika har bir gapning ma'lum maqsadda ishlatilishiga alohida ahamiyat beradi va ularni tanlash imkoniyatini yaratadi. Hozirgi o'zbek tilida kelishik affikslarining, zamon, mayl shakllarining, ayrim yasovchi affikslarning bir-biriga nisbatan sinonimik munosabatda bo'lishi, ulardan birining o'rnida ikkinchisini ishlatish imkoniyatining masalasi ham grammatik stilistikaning o'rganish obyektidir. Ming yillik aloqalar natijasida o'zbek tiliga arab, fors-tojik tillaridan turli-tuman grammatik shakllar kirib keldi. Ularning ba'zilari sof o'zbek affikslariga sinonim bo'lib, ayrimlari hozir ham qo'llanilmoqda. Jumladan fors-tojik tilidan qabul qilingan -no, be-, ser-, ba- kabi prefikslardan -no, -be prefikslari o'zbek tilidagi sifat yasovchi -li affiksi bilan sinonimdir. Lekin, ularning qaysi negizlarga qo'shilish-qo'shilmaslik xususiyatini, qaysi vaqtda birining o'rniga ikkinchisini qo'llash mumkin yoki mumkin emasligini, sinonim bo'lish va bo'la olmasligini bilish lozim. Masalan, noo'rin, nobop, nomahram so'zlaridagi -no prefiksi o'rnida -siz affiksini ishlatish mumkin bo'lmagani kabi o'zbekcha tuzsiz so'zidagi -siz o'rnida -no prefiksini qo'llash mumkin emas. Solishtiramiz; noto'g'ri-to'g'riso'z, nobop-bopsiz, nomahram-mahramsiz, tuzsiz-notuz. Stilist, adabiy kuzatuv ishi bilan shug'ullanuvchi kishi normativ grammatika talablarini hisobga olish bilan birga morfologik va sintaktik vositalardan stilistik maqsadda foydalana olish imkoniyatlariga ham ahamiyat berishi kerak. Tilning u yoki bu grammatik shakli ma'lum davr uchun eskirgan bo'lishi yoki faqat ayrim uslublar uchungina xarakterli bo'lib qolishi mumkin. Shuning uchun zarur grammatik shaklni tanlayotganda, uning to'g'ri yoki noto'g'ri tanlanganini tekshirayotganda, matn mazmuni, uning qanday janrga tegishli

ekanligi, qaysi davr voqea-hodisasiga bag'ishlanganligi yoki umumiy stilistik yo'nalishini hisobga olish lozim. Morfologik vositalar leksik vositalardan farqli o'laroq nutqning barcha uslublari, janrlari va shakllarida barobar qo'llanadi. Leksikaning funksional-stilistik qatlamlanishi haqida gapirish mumkin bo'lgani holda u fikrni umumiy xarakter kasb etadigan grammatika, uning kategoriyalari, shakllari va qurilishlari haqida aytib bo'lmaydi. Ammo, baribir funksional-stilistik ixtisoslashish grammanikani ham zabt etadi. Bu ikki holatda ifodalanadi – birinchidan, turli funksional uslublarda u yoki bu shakllarning qo'llanish chastotasining turli darajadaligi; ikkinchidan, ayrim shakllar ma'nolarining ayrim funksional uslublar bilan bog'liqligi (mana shu ma'nolarni funksional-stilistik deb atash mumkin). Ikkinchi holat asosan muhim. Chunki, morfologik sathdagi til birliklarining semantik-grammatik xususiyatlarida u yoki bu uslubning o'ziga xosligi namoyon bo'ladi. Morfologiyani stilistik resurslariga morfologik shakllarning shunday funksional imkoniyatlari daxldorki, ular bir xil shakllarga turli xil stilistik vazifalarni ado etish uchun imkoniyat beradi. Bu bilan ko'pincha semantika tomon siljish ro'y beradi. Nihoyat, an'anaviy stilistika o'z o'rganish orbitasiga morfologik vositalar beradigan barcha ma'no ottenkalarini qamrab oladi. Shunday qilib, morfologik uslubshunoslik doirasida ham uslubiy tahlil uchun material yetarli, deb aytish mumkin. Bu bir tomondan grammatik shakllarning sinonimiyasi va variantlarining mavjudligida namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan ulardagi uslubiy bo'yoqdorlik ko'rinadi. Grammatik shakllarning sinonim va variantlariga ega bo'lishi ifodada nozik jihatlarni ham bera olishga imkon tug'diradi, ularning vazifaviy tarmoqlanishi, chegaralanishi va ma'lum uslub doirasida mustahkamlanishi va qo'llanishining odat tusiga kirishiga ham imkoniyat yaratadi. Morfologik ko'rsatkichlar o'zi qo'shilayotgan so'zlar ma'nosining kengayishi, uslubiy bo'yoqdorlikning orta borishida faol ishtirok etadi. Bu uslublarda ham xuddi so'zlashuv yoki badiiy uslubdagi singari qo'llash nutqda g'alizlikni keltirib chiqaradi. So'zlashuv, ommabop va badiiy uslublarda konnotativ ma'nolar keng ko'lamda namoyon bo'ladi. Masalan, so'zlashuv uslubida, Dadamlar keldi. Dadamlar qaytibdur. Shunday fikr miyasida chaqmoqday chaqnadi-yu, uy to'la erkak ekani ham esidan chiqib, mehmonxonaga qarab yugurdi, (Odil Yoqubov. Ulug'bek xazinasi). Ushbu qo'shimchaning fe'lga ham qo'shilishi uning konnotativ ottenkasi bilan bog'liq. Qiyos uchun; dadamlar keldi – dadam keldilar ammo, har ikkala komponentga ham qo'shib, dadamlar keldilar deyish stilistik farqlanishni keltirib chiqaradi, ya'ni birinchi so'zdagi -lar ko'plikni anglatadi va ikkita dadaning masalan, o'z otasining va qaynotasining kelganligini anglatadi. Mana bu o'rinda uning ot tarkibida qo'llanishi stilistik g'alizlikni keltirib chiqaradi; Adalaringizning tuzalganini aytib, meni xursand qildingiz'' (Mirmuhsin. "Umid"). So'zlashuv uslubida bu ko'rsatkich yana kinoya,

piching va erkalanish ma'nolarini ham anglatishi mumkin. "E mulla Eshmat, kelsinlar, qanday shamol uchirdi; E mulla Eshmat, kelsinlar-kelsinlar singari. So'zlashuv nutqida o'ziga xos bayon uslubning shakllanishiga olib keladi. Bu holat badiiy va ommabop uslubga ham o'tadi. "Katta tanaffuslarda maktab kutubxonasiga kirib, kitoblarga ko'milgan holda, darsga kechikkanlarim, muallimlardan dakki yeganlarim hamon yodimda; 90- yillarning oxirlarida shu hududga borib qolsangiz, ayanchli manzarani—temir betondan tiklangan qator-qator bir va ko'p qavatli binolar qabristonini ko'rar edingiz. Badiiy uslubda ta'kid, kuchaytirish, mubolag'a singari ottenkalar ko'proq anglashiladi. "Shu ko'zlar abadiy kulsin. Bahor yo'llaringga to'shasin chechak" (Zulfiya). U nihoyatda kuchli emotsionallikni ifoda etishi, poetik mahorat namunasiga aylanishi ham mumkin. "Umringga achinmagan ketmaydimi chiriblar" (U. Azim). Quyidagi misolda u iltifotsiz muomalani madaniy shaklda ifodalovchi kuchli stilistik vositaga aylangan. "Ichkari tarafdin keksa bir xosima —eshikochar xola ko'rinib, Gulshanga salom berdi va xush keldilar dedi, Gulshanni ichkariga kiritib, eshikni bekladi. (A. Qodiriy. Mehrobdan chayon). Ko'plik qo'shimchasining so'zlashuv va badiiy nutqda qo'llanishida yana boshqa o'ziga xosliklar ham ko'zga tashlanadi. Masalan, so'zlashuv uslubida, aniqrog'i, o'zbek tilining ayrim shevalarida u qisqargan holda -la shaklida qo'llanadi. Dadamla, ayamla, pochchamla kabi. Bunday qo'llanish adabiy til me'yorlari nuqtayi nazaridan ijobiy hodisa sanalmaydi va nutqning buzilishi deb ataladi. Boshqa turli shevalarda esa -lar qo'shimchasi semantik-stilistik ma'nolar ifoda etish uchun qo'llanilmaydi. Badiiy uslubda mavzu talabi bilan bu qo'shimchaning dialektal va tarixiy variantlari ishlatilishiga yo'l qo'yiladi. "Ipak eding arqog'ingni bo'z qildilo, gavhar eding narxing qaro tuz qildilo" (O. Hojiyev. "Dardlashuv"). Ko'plik o'rnida birlikni qo'llash; professor-o'qituvchilar talaba nigohida, hurmatli tomoshabin kabi. Bu ham nutqiy ekspressivlikning bir ko'rinishi hisoblanadi. —lar matnda anglatadigan semantik-stilistik ma'nolar ko'lami uning tilimizda qo'llanishi nihoyatda faolligi bilan izohlanadi.

**EGALIK.** Egalik qo'shimchalarining morfologik variantlari o'zbek adabiy tilida ozchilikni tashkil qilganligi sababli ularning uslubiy chegaralanishlari yaqqol sezilib turmaydi. Ular quyidagilar; II shaxs ko'pligi -imiz, -inglar, -laring va III shaxsning -i, -si variantlari. Lekin shunga qaramasdan tajribali ko'z bularni payqashi mumkin. II shaxs ko'pligi sifatida qaraladigan —ingiz da ko'plikni ko'rsatishdan ko'ra hurmat ottenkasi kuchli. "Faqir huzuringizga maslahat so'rab keldim. (O. Yoqubov. "Ulug'bek xazinasi"). Boshqa bir holatda tegishlilikni, egalikni bildiradi. — Mana shu qizaloqni olib keting, katta bo'lsa, eshigingizni supuradi. (T. Murod. "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi"). Rasmiyatchilik yuzasidan sizlash ma'nosini beradi. "Eringiz ikkinchi kursda bo'lgan, Shomatov bir vaqtlar

sudda ishlaganidan xabaringiz bordir. (O‘. Hoshimov. Tushda kechgan umrlar). Umumlashtirish ottenkasi seziladi. “Hadislarda qabr ustida o‘tirgandan, cho‘g‘ ustida o‘tirib kuyganingiz afzal deyiladi. (T. Murod. “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi”). Ba‘zan poetik nutqda she‘r texnkasi talabi bilan bo‘lishi mumkin bo‘lgan egalik qo‘shimchalari tushirib qoldiriladi va fikrning qaysi shaxsga tegishliligini qaratqich kelishigida kelgan olmoshlardan anglashiladi. Eski o‘zbek tilida ham abstrakt egalik ma‘nosi qaratqich kelishigi shakli bilan ifodalangan va ba‘zan zamonaviy poeziyada ham ko‘zga tashlanib turadi. Badiiy va so‘zlashuv uslubida egalik qo‘shimchalarning almashib qo‘llanish imkoniyatlari ham mavjud. Ayniqsa, I shaxs birligi o‘rnida I shaxs ko‘pligini ishlatish faolligini ko‘rish mumkin. – Unda bizga ruxsat, pochchamizni so‘rab qo‘yasiz dedi takabburona. (O‘. Usmonov. “Girdob”).

**KELISHIKLAR.** Kelishik qo‘shimchalari gapda so‘zlarning o‘zaro grammatik munosabatga kirishishi uchun xizmat qiladi va bu holat morfologik vositalarining sintaktik aloqalarni vujudga keltirishdagi o‘rinni egallaydi. Shu bilan birgalikda, kelishik shakllarining bir necha xil ko‘rinishlarga ega bo‘lishi, ularning o‘zaro yoki ko‘makchilar bilan sinonimik munosabatga kirishi ularga stilistik resurslar sifatida qarashga ham imkon beradi. Qaratqich kelishigi shakllariga funksional-uslubiy nuqtayi nazardan qaraganda, ularda ba‘zan badiiy uslubga xos bo‘lgan variantlarni kuzatish mumkin. Masalan; -(i)m qo‘llaniladi; Axir hayajonlar o‘zligim manim, Mayli qalbingga ham ko‘chsin hayajon. (K. Bahromova. “Jo‘shqin bolalik”), -n qo‘llaniladi; Inisin qo‘lida goh pichoq ko‘rib dong qotgan. (H. Xudoyberdiyeva). Me‘yoriy grammatika qoidasiga muvofiq aniqllovchi-aniqlanmish qurilmali birikmada aniqllovchi qaratqich kelishigi shaklini olganda aniqlanmish ham unga mos ravishda turlanishi lozim, ammo badiiy uslubda misralardagi bo‘g‘inlar sonining qat‘iy bo‘lishi haqidagi qoidadan kelib chiqib, bunday bo‘lmasligi ham mumkin; G‘ururing sig‘maydi po‘lat teringga, Sharaflar yuki bor sening bunkerda. (G‘. G‘ulom “G‘alabamizning zarrin sahifasi”). Og‘zaki nutqda qaratqich va tushum kelishigini farqlamaslik til madaniyatiga ziddir. Dostonlar matnida uning “Kimniki suluv qizi bo‘lsa, Pahlavon Qaysarga buyuradi (Oysuluv)” tarzida uchrashi ham mumkin. R. Qo‘ng‘urov A. Navoiy asarlarida qaratqich kelishigi vazifasida boshqa kelishik qo‘shimchalari, masalan, chiqish va jo‘nalish kelishiklari ishlatilganini ko‘rsatib o‘tgan; Ishq bog‘in holatin so‘r oshiq-u ogohdin, Kim fazosinda tafovut yo‘q gadog‘a shohdin (Chor devon),

La‘ligun har mayki ichdim, ul mayilab hajridin,

Ko‘zdan ashik, la‘ligun yanglig‘ ravona aylaram (Chor devon).

Olim shoir asarlari matnida epizodik holatlarda -u ning ham qaratqich vazifasida kelganligini payqagan. “Soyil menu maqsadim erur, naqdi visoling buxl aylama jona ... (Chor devon). Tushum kelishigi ko‘rsatkichi -ni barcha funksional uslublar

uchun me'yor hisoblanadi. Uning -di, -ti shakllari qo'lanishda buzilgan sheva ko'rinishlaridi; kitopti ber, tog'amdi ko'rdim kabi. -(i)n shakli va belgisiz qo'llanishi esa badiiyat bilan bog'liq va adabiy asarlarda faol uchraydi; Erka malak, achchiqlanmam senga, Uchirsangda ko'kka yurak kulin, Achchiqlanmam senga nozil quyosh, Yondirsangda umidimning gulin (Fitrat "Achchiqlanma degan eding". Belgisiz qo'llanish boshqa funksional uslublarda, ayniqsa, so'zlashuv uslubida tez-tez uchraydi. Kitob o'qimoq, olma yemoq kabi. Ammo, hamma vaqtda ham tushum kelishigining belgili-belgisiz holatlarini matnda teng qo'yib bo'lmaydi. Ularning noo'rin almashtirilishi stilistik g'alizlik va noaniqlikni keltirib chiqarishi mumkin. R. Qo'ng'urov bu holatni ko'ra bildi – tug'di, qo'l qo'ydi – imzo chekdi, qo'lni qo'ydi –qo'lini qayergadir qo'ydi kabi misollar yordamida tahlil qiladi va bu farqlanishlarning sababini tushum kelishigidagi so'zning o'zi bog'langan fe'lga nihoyatda zich bog'lab, qo'shma so'z tahlil etgani bilan ifodalaydi. R. Qo'ng'urov mumtoz adabiyotda, shevalarda ushbu kelishikning I shakli yordamida ifodalanishini qayd etgan. "Xonim suyukli soching vor, na sud shonasi yo'q, Ochib desam so'zimi ma'rifat nishonasi yo'q" (So'fizoda). Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi -ga o'zining -ka, -qa, -g'a ko'rinishlarga ega va bu variantlarning yu zaga kelishi ular qo'shiladigan so'zlarning oxiri qanday tovush bilan tugashiga bog'liq. Masalan: maktab+ga, yurak+ka, qishloq+qa. Ammo, -g'a ning qo'llanishi biroz farqlanadi. Bu shakl hozirgi adabiy til me'yorlariga mos kelmaydi va shuning uchun eski o'zbek tilining namunasi sifatida badiiy matnlarda va xalq og'zaki ijodida uchraydi; -Haq taologa shukurkim, o'z pushti kamarimdan bo'lgan farzandlarimdan yolchitmasada, senday shogird ato qildi... -Mirzo Ulug'bek qaltiragan qo'llari bilan Ali Qushchini quchoqlab, peshonasidan o'pdi (O. Yoqubov "Ulug'bek xazinasi"). Jo'nalish kelishigining -a, -na ko'rinishlari badiiy nutqqa xoslangan bo'lib, bu qisqargan shakl poetik talab natijasi bilan yuzaga keladi; "Bazm aro yozum bila tufroqqa goh may to'kung, Kim erur ul yaqinkim, to'kkasiz tufrog'ima. (A. Navoiy "Baski qon bordi"). Buz variantning shevalarda, masalan, Xorazm shevalarida hozirda ham qo'llanib kelinayotganligi adabiy til nuqtayi nazaridan me'yorning buzilishidir. Jo'nalish kelishigi ma'nosi belgisiz holatda ham anglashilaveradi va jihat so'zlashuv hamda badiiy uslublarga xoslangan; Kunlarimiz jilg'aday o'tdilar oqib, Maktab bordik og'ir bo'lib qoldik daf'atan. (A. Oripov "O'ylarim"). Ushbu kelishikning ko'makchilar bilan sinonimik munosabatga kirishishi uning ko'zga ko'rinarli stilistik alomatlaridan biridir. Ammo, bu sinonimiyada stilistik farqlar ko'zga tashlanadi. -ga -li konstruksiya ko'proq ilmiy uslub va yozma nutq uchun xarakterlidir. -sari ko'makchili forma esa, asosan, poetik nutq uchun xos. Misol uchun, "Xorazm Jaloliddin xayolidek qiziq tush, Ta'birga par bermasana pari, na bir qush, Sodda Gurlan sari bor, Kellar bir bosiq tovush, ko'ngilni ko'targuvchi saboni ko'rmoq

bo'lsang, Bor Amu bo'ylariga borgin, do'stginam. (O. Matjon "Chorlov"). Jo'nalish kelishigi tabiatida ko'makchilar bilan sinonimik xususiyat mavjud. Masalan: u, uchun ko'makchisi bilan shunday munosabatga kirishadi; - U bu yerga dam olishga kelgan - U bu yerga dam olish uchun kelgan. Chiqish kelishigining grammatik ko'rsatkichi –dan bo'lib, uning mumtoz adabiyotda va shevalarda –din-don, -tan-ton, -nan-non kabi ko'rinishlari mavjudligi haqida ilmiy manbalarda ma'lumot mavjud. – dan barcha uslublar uchun barobar, ammo uning -din variantida badiiy uslub uchun xoslanganlik kuzatiladi; "Topmadi hargiz bu Mashrab o'z vujudidin xabar, Bir nazar qilsangki, rohat topqusi jon-u tanim" (Mashrab). Bu an'ana hozirgi zamon poeziyasida ham davom etmoqda; "Vatan sevmakdin ortiq menga olamda shoir bo'lmas, Vatan ishqida yongan qalb, Bilingki, asti xor bo'lmas (Vatandin ortiq yaxshi yor bo'lmas). Og'zaki nutqda uning -ton-tan, -nan-non shakllarining qo'llanishi rad etib bo'lmagani holda, uni yozma nutqqa olib kirishga ijobiy hodisa sifatida qarab bo'lmaydi. Chiqish kelishigining ko'makchilar bilan sinonimiyasi sezilarli uslubiy xarakterga ega. U ayrim ko'makchilar bilan ham sinonimlik hosil qilish xususiyatiga ega. Masalan: Uyga paxtazor orqali, paxtazor bilan, paxtazordan keldim. -dan qo'shimchasining nutqda tushirib qoldirilishi adabiy til uchun me'yoriy holat emas. Ammo, so'zlashuv uslubida bu kamchilik ko'zga tashlanib turadi. Masalan, "Oysuluv" dostonida -dan tushib qolgan holat ko'p uchraydi va bu doston aytuvchi lahjasining doston tiliga ta'siri natijasida yuzga kelgan. Borgan so'ng, otgan so'ng, ketgan so'ng kabi. O'rin-payt kelishigi ko'rsatkichi -da barcha uslublar uchun umumiy hisoblanadi va so'zlashuv uslubidagi ko'rinishi –ta, -ni istisno qilganda, asosan, shu shaklda qo'llanadi. Ushbu kelishik qo'shimchasidan foydalanish ayrim o'ziga xosliklarga ega. Masalan, so'z o'zagi va qo'shimcha orasida bitta -n tovushi orttiriladi. Bu holat qadimiy turkiy tilda ham mavjud bo'lgan. "Surxoningda anor guli qahrabodir, Yoboningda bodomlaring talx g'izodir, Qovun-tarvuz qursog'inda selitrodur, Kimlar seni bemor etdi, tabiatingni xor etdi (O. Hojiyev. "Dardlashuv"). O'rin-payt kelishigi qo'shimchasi ayrim ko'makchilar bilan sinonimik munosabatga kirishadi. U vosita, holat, birgalik singari ma'nolarni anglatish barobarida bilan ko'makchisiga sinonimik munosabatda bo'ladi. "Qishloqdan mashina bilan keldim - Qishloqdan mashinada keldim va bunda vosita ottenkasini ifodalaydi. U poetik uslubga xos bo'lgan uzra ko'makchisi bilan ham sinonim bo'la oladi. So'rasalar, bu hol sirin inson umridan, Ul dedi "ikkisining ham axir so'rog'i boshim uzra-ku. A. G'ulomov va R. Qo'ng'urovlar unga bog'lovchi sifatida qarashadi. Bunda u va ham bog'lovchilari bilan sinonimlik qiladi va ma'no ottenkasida farq bor. Keldi-da-ketdi, keldi va ketdi; kelsa-da ishlamadi, kelsa ham ishlamadi. Ot so'z turkumi doirasida qaraladigan sub'ektiv baho shakllarida ham modallik munosabatlari mavjud. Ular-kichraytirish

ma'nosini ifodalovchi -cha-choq-loq, -chik-chak; erkalash ottenkasini beradigan – gina-kina-qina, -xon-jon-boy, -be-pari-bonu-niso kabilar; kuchaytiruv, kattalashtirish, ulug'lash, tantanavorlikni ifodalovchi -on-kor-vor-g'on-don kabi qo'shimcha va affiksoidlar. Ular haqida gap ketganda, shu shakllarning hammasi ham, ko'rinishi ham, asosan og'zaki nutq uchun xos bo'lgan hodisalar ekanligi, badiiy asar tilida tez-tez uchrab turuvchi bu kabi shakllarning aslida og'zaki nutq uchun xos bo'lganligini va sub'ektiv baho formalarining stilistik qiymati ularning turli xil ma'no nozikliklari hosil qilishi, baholash vaqtiga ega ekanliklari bilangina chegaralanmasligi, bu formalarining stilistik xususiyati haqida gapirganda ham ularning o'zi uchun notipik kontekstda ishlatilishi, ularning funksional usullar nuqtayi nazaridan xarakteristikasi, o'rni bilan subyektiv baho formalarining sinonimiyasi masalalari haqida ham so'zlash lozimligini aytish barobarida masalaning aynan shu jihatlarini ham aytib o'tish darkor. Ot so'z turkumiga oid stilistik resurslar haqida so'z yuritar ekanmiz, o'zbek tilshunosligida grammatik shakllar o'rtasidagi sinonimik munosabatlarning yirik tadqiqotchisi Y. To'xtayev faqat shaxs oti yasovchi –chi qo'shimchasining –gar (sehrchi-sehrgar, holvachi-holvagar), -kor (xizmatchi-xizmatkor, paxtachi-paxtakor), –kash (mehnatchi-mehnatkash, aravachi-aravaksh), -shunos (tilchi-tilshunos, tarixchi-tarixshunos), -furush (do'ppichi-do'ppifurush), -soz [mashinachi-mashinasoz], -paz(somsachi-somsapaz), -go'y (maslahatchi-maslahatgo'y), -do'z (etikchi-etikdo'z), -boz (kaptarchikaptarboz), -xo'r (qasamchi-qasamxo'r), -xon (mushtumchi-mushtumxon), -navis (g'azalchig'azalnavis) hamda rus tili orqali kirib kelgan -ist (traktorchi-traktorist), -er-yor (grimchi-grimyor), -(i)oner (pensiyachi-pensioner), -ant (muzikachi-muzikant), -graf (fotochi-fotograf), -ator (ekspluatatsiyachi-eksplutator), -shik (svarkachi-svarshik), -on(pochtachi-pochtalyon), -smen(sportchi-sportsmen), -log(rentgenchi-rentgenolog) kabi variantlari borligini va yana bu qo'shimchalarning o'zaro sinonimik munosabatda bo'lishini, munosabatlarda vujudga kelgan uslubiy nozikliklarni tahlil qilish bilan o'zbek tilidagi morfologik ko'rsatkichlarning uslubiy imkoniyatlari naqadar keng ekanligini amalda isbot qilib berdi. "Bizningcha, - deb yozadi olim, - har qanday affiksning ma'no doirasini belgilashda ikki narsaga e'tibor qilish kerak. Birinchidan, affiksning qanday o'zakka qo'shilayotganiga qarab, uning ma'nolarini belgilash kerak bo'lsa, ikkinchidan, shu affiksning sinonimlarini keltirish orqali belgilash kerak. Bu ikkala jihatni hisobga olmasdan turib, affikslarning ma'no xususiyatlarini to'la belgilash mumkin emas. Agar shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo'lsak, -chi affiksining ma'nosini unga sinonim bo'lib kela olishi mumkin bo'lgan affikslarning va uni ma'no jihatdan qoplaydigan boshqa vositalarning miqdori bilan belgilash mumkin. Hozirgi o'zbek tiliida -chi affiksi 20 dan ortiq shaxs otlari yasovchi affikslar bilan sinonim bo'lib kela oladi.

So‘zlashuv uslubi oddiy va adabiy so‘zlashuv uslublarini o‘z ichiga oladi. Bu uslubning adabiy til me‘yorlariga rioya qiladigan ko‘rinishi adabiy so‘zlashuv uslubi, bunday me‘yorlarga rioya qilinmaydigan ko‘rinishi oddiy so‘zlashuv uslubi deb ataladi. So‘zlashuv uslubidagi nutq ko‘pincha dialogik shaklda bo‘ladi. Kishilarning kundalik norasmiy, erkin muomalalarida til birliklarining o‘ziga xos amal qilish sharoiti, ya‘ni fikr almashinuv bevositaligi, til vositalarini saylab ishlatilmasligi, shuningdek, ohang, mimika, imo- ishora kabilardan keng foydalanish, oddiy leksik va frazeologik birikmalarning ekspressiv-emotsional vositalari keng ishlatilishi bilan ajralib turadi. Masalan, farzand-bolajon, dunyodan o‘tmoq-jon bermoq, imtihondan o‘ta olmaslik-imtihondan yiqilmoq kabi juftliklarning ikkinchisi asosan so‘zlashuv uslubiga xos. So‘zlashuv uslubida gapdagi so‘zlar tartibi ancha erkin bo‘ladi, piching, qochiriqlar, kinoyalar ko‘plab ishlatiladi. Ko‘proq sodda gaplar, to‘liqsiz gaplar, undalmali gaplardan foydalaniladi.

So‘zlashuv uslubi kishilarning kundalik rasmiy-norasmiy, erkin muomalalari doirasida til birliklarining o‘ziga xos tarzda amal qilinishi tufayli uni ma‘lum ma’noda tildagi boshqa uslublarga qarama-qarshi qo‘yish mumkin. Bu uslubning o‘ziga xos xususiyati nutq jarayonida til va tildan tashqari omillarning uyg‘un bo‘lishida ko‘rinadi. Ayni paytda bu holat so‘zlashuv uslubidagi me‘yoriy holatlarni belgilashni qiyinlashtiradi. Chunki, tildan foydalanuvchining shaxsi, buning ustiga, nutqiy vaziyat yagona bir me‘yorni tayin etishga imkon bermaydi. Shunday bo‘lsa-da, so‘zlashuv uslubining o‘ziga xos me‘yorlari haqida mulohaza yuritish uchun ham tilimizda dalillar yetarli. Ularni sanab o‘tsak. Birinchidan, nutq elliptik xarakterda bo‘ladi. Lekin bunday holatda ham tinglovchiga fikr tushunarli bo‘ladi. Chunki u oldin aytilgan fikrning mantiqiy davomi bo‘ladi. Masalan, qorami? ko‘kmi? shaklida beriladigan savolni ikki xil vazifada olib ko‘raylik. Agar biz uni uy bekasi tilidan eshitsak, qora choy damlaymi yoki ko‘k choy damlaymi? degan ma’noda tushunishimiz mumkin. Xuddi shu savolni do‘kon sotuvchisi tilidan eshitsak, qora choy olasizmi yoki ko‘k choy sotib olmoqchimisiz? ma’nosida tushunishimiz ham mumkin. Ikkinchidan, so‘zlashuv nutqida til birliklari o‘zining ekspressivlik imkoniyatlari keng namoyon bo‘ladi. Masalan, ulguramizmi? degan savolga yo‘q, ulgurmaymiz deyishdan ko‘ra vaziyatdan kelib chiqib, ulgurib bo‘pmiz, ulgurish qayoqda, ulgurib ham bo‘ldik singari javoblar birmuncha tabiiy va ekspressivroq bo‘lib chiqadi. Uchinchidan, bu uslubda ohang - intonasiyaning ahamiyati nihoyatda kattadir. Ohang og‘zaki nutqning reallashuvida til birliklaridan keyingi muhim, hal qiluvchi vosita bo‘lib, uning nutq tempi, pauza, ton, melodiya, tovush tembri, so‘z va gap urg‘usi kabi ko‘rinishlari ma’noni farqlashda, ottenkalarni ajratib ko‘rsatishda, hayajonni kuchaytirishda xizmat qiladi. So‘zlashuv uslubi ham boshqa vazifaviy uslublar kabi fonetik, leksik,

grammatik o'ziga xosliklarga ega. Nutqda tovushlarning uyg'unlashuvi (ketti, ottan, yigichcha), bir tovush o'rnida ikkinchisining talaffuz qilinishi (traktir, zaril, bironta), tovushlarning o'rin almashishi (turpoq, aynalmoq), tovushlarning orttirilishi (o'ramol, fikir, banka), tushirib qoldirilishi (gazet, burni, egni) kabi fonetik hodisalar avvalo so'zlashuv uslubida namoyon bo'ladi. Bu uslubning ishlash normalari va qoidalari turli lug'atlar va grammatikalarda belgilanmagan. Shu nuqtai nazardan, so'zlashuv nutqi kodlangan kitob nutqiga ziddir, ammo kitob nutqi kabi og'zaki va yozma shakllarga ega bo'lib, leksikasida ikki qatlam alohida ajralib turadi. Birinchi qatlam – bu kundalik turmush muomalasida faol qo'llaniladigan ijtimoiy hayot va uy-ro'zg'or yumushlari bilan bog'liq so'zlar. Bundan tashqari bu uslubda "...siyosat, san'at, madaniyat, sport va so'zlovchining kasb-hunarga mansub xilma-xil narsa va hodisalarni ifodalovchi umumadabiy leksika ko'plab ishlatiladi" Ikkinchi qatlam - og'zaki nutqdagi ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlar, ya'ni neytral qiymatdagi so'zlar bilan sinonimik munosabatga kirisha oladigan kichkina (bolagina), yiqildi (quladi), buzoq (ish bilmas, galvars), og'zi ochiq (yig'loqi) kabi so'zlar. Burnini ko'tarmoq, ko'zini shira bosmoq, qo'li kaltalik qilmoq singari o'z frazeologizmlari ham mavjud. Kishi nomlarini ham qisqartirib ishlatish mumkin. Metonimik ko'lam juda keng qo'llaniladi. Masalan: auditoriya kuldi, kengash bo'ldi, dasturxonga o'tirdi, samovarga chiqdi kabi. Salom, assalomu alaykum, vaalaykum assalom, xayr, ha, yo'q, albatta, aha, xo'p singari nutqiy vaziyatga ko'ra farqlanuvchi so'zlar ham ko'p ishlatiladi. So'zlashuv nutqi o'zbek tilshunosligida prof. B.O'rinboyev tomonidan ishlangan. Kitobiy nutq uchun bog'lovchisiz qo'shma gaplar odatda xos emas, og'zaki so'zlashuv nutqi uchun esa, aksincha, xarakterlidir. So'zlashuv nutqidagi sodda gaplar ko'pincha fe'l bilan ifodalangan kesimning yo'qligi bilan xarakterlanadi, ba'zan shunday holatlar ham bo'ladiki, bunday gaplarga fe'l-kesimni qo'yib ham bo'lmaydi. Masalan, Biz siznikiga. Biz magazinga; Men, odatda ishga avtobusda, ishdan piyoda kabi. "So'zlashuv stilining asosini tashkil etuvchi umumadabiy leksika "maxsuslik" xususiyatiga ega bo'lmay, balki har qanday nutq uslubida ham, turli xil faoliyat doirasida va ijtimoiy muhitda ishlatilishi jihatidan stilistik neytral hisoblanadi", o'ziga xos so'zlar mavjud bo'lmay, ularda neytrallik xususiyati mavjud.

Sheva elementlari, passiv lug'atga xos so'z va iboralar, ya'ni adabiy til normalariga mos kelmaydigan fonetik, leksik, morfologik va sintaktik hodisalar erkin ishlatila beradi. So'zlashuv uslubining o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, u fonetik, leksik-frazeologik, morfologik va sintaktik jihatdan boshqa nutq uslublaridan ajralib turadi: fonetik jihatdan tovush o'rni almashadi: yog'mir (yomg'ir), turpoq (tuproq); tovush tushadi: tasha (tashla), ke (kel), yudi (yuvdi); tovush ortadi: chechmoq (yechmoq), yilon (ilon), istakan (stakan); tovush

almashadi: minan (bilan), sammi (senmi), mo'nchoq (munchoq); o'zak-affiks o'zgarishi ro'y beradi: opke (olib kel), qo'yvor (qo'yib yubor) kabi. Leksik-frazeologik jihatdan kundalik hayot bilan bog'liq bo'lgan osh, non, tuz, yer, osmon, quyosh, bola, xotin, o'rtoq, ko'z, qo'l, oyoq, men, sen, bir, besh, olti, ishladi, o'qidi, yetdi, keldi, ketdi, tez, sekin, kabi, shuningdek, san'at, adabiyot, siyosatga doir so'zlardan tashqari, so'zlashuv uslubida farzand, jujuq, churvaqa, zormanda, arzanda, pismiqlik, shalparpishiqlik: xomkalla, akillamoq, bobillamoq, to'ng'illamoq, po'ng'illamoq kabi uslubiy bo'yoqli so'zlar ko'proq ishlatiladi. Masalan, kilo (kilogramm), foto (fotografiya), metro (metropolitan), avtomat (avtomat telefon), tushlik (tushlik ovqat), futbolga bormoq (futbol o'yinini ko'rishga bormoq), ovqatga o'tiring (ovqat yegani o'tiring), paxtani ajardik (paxta rejasini bajardik) kabi. Iskovich, tosh, (odam), chayon (gap bilan kishini xafa qiladigan), beliga tepmoq (xalaqit bermoq), loyini chiqarmoq (sirini fosh qilmoq, ishni chigallashtirmoq) kabilar ham, asosan, so'zlashuv uslubiga xosdir. Ayrim eskirgan patta, chipta, chek, pattachi, po'rim, shayton arava, miri (bir pul, ikki pul) kabi so'zlar ham so'zlashuv uslubining leksik xususiyatlaridandir. So'zlashuv uslubida nisbatan ko'proq ishlatiladigan morfologik formalar asosan, kichraytirish-erkalash oti, sifatning intensive forma hosil qiluvchi affikslari va affiksoidlardir. Fe'llarning ayrim shakllarini «buzib» ishlatish - borib edi (boruvdi), boringizlar, kelingizlar kabi qo'llanishlar ham so'zlashuv uslubiga xosdir. So'zlashuv uslubi, asosan, dialogik xarakterda bo'lganidan, imo-ishoralar, qo'shimcha izohlar, takrorlar (so'zda), qaytariqlardan; (gapda), qo'l, bosh va gavda harakatlaridan fikr ifodalashda qo'shimcha vosita sifatida foydalaniladi. Bu nutqning dialog xarakterda bo'lishi nutq vaziyatiga ko'ra ko'proq to'liqsiz gaplardan foydalanishni taqazo etadi. Bundan tashqari, so'zlashuv uslubida inversiya, sodda gaplar ko'chirma gapning avtor gapi o'rtasida kelgan formalari, qo'shma gapning «u aytdiki, bunday dedi» tipi ham ko'proq kuzatiladi.

Publitsistik va og'zaki uslubning leksik-grammatik xususiyatlari taqqoslanishi:

| <b>Belgilar / Xususiyatlar</b> | <b>Og'zaki uslub</b>                                 | <b>Publitsistik uslub</b>                               |
|--------------------------------|------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------|
| <b>Asosiy maqsad</b>           | Kundalik muloqot, fikr almashish                     | Axborot berish va auditoriyaga ta'sir o'tkazish         |
| <b>Qo'llanadigan soha</b>      | Suhbat, intervyu, muloqot, ma'ruza                   | Gazeta, jurnal, televideniye, radio, internet nashrlari |
| <b>Leksik xususiyatlari</b>    | - Oddiy, so'zlashuvga xos so'zlar (yaxshi, chiroyli) | - Ijtimoiy-siyosiy terminlar (islohot,                  |

|                                |                                                                                                                                                                                                                       |                                                                                                                                                                                                                            |
|--------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                                | <ul style="list-style-type: none"> <li>- Suhbat iborolari (to‘g‘risi, rostini aytsam)</li> <li>- Mahalliy so‘zlar yoki dialektlar ishtiroki</li> </ul>                                                                | <ul style="list-style-type: none"> <li>parlament, globalizatsiya)</li> <li>- Emotsional-ekspressiv so‘zlar (shiddatli, qizg‘in)</li> <li>- Ko‘chma ma’noli iboralar va metaforalar (“kelajak sari dadil qadam”)</li> </ul> |
| <b>Grammatik xususiyatlari</b> | <ul style="list-style-type: none"> <li>- Qisqa va ba’zan grammatik to‘liq bo‘lmagan gaplar (“Bormayman”, “Kecha bo‘ldi”)</li> <li>- So‘z tartibining erkinligi</li> <li>- Takror so‘zlar (“Yaxshi-yaxshi”)</li> </ul> | <ul style="list-style-type: none"> <li>- Murakkab gaplarning ko‘pligi</li> <li>- Modal so‘zlar (albatta, demak, shubhasiz)</li> <li>- Parallel qurilishlar va takror orqali ta’sirchanlik</li> </ul>                       |
| <b>Uslubiy vositalar</b>       | <ul style="list-style-type: none"> <li>- Oddiy so‘z birikmalari, so‘zlashuvdagi kinoya yoki hazil</li> </ul>                                                                                                          | <ul style="list-style-type: none"> <li>- Ritorik savollar (“Bu yo‘lda kim javobgar?”)</li> <li>- Antiteza, metafora, epitetlar</li> </ul>                                                                                  |

### 1. Nazariy savollar:

1. Publitsistik uslubning asosiy vazifasi nimadan iborat?
2. Og‘zaki uslubning asosiy belgilarini sanab bering.
3. Publitsistik uslubda qo‘llaniladigan leksik vositalarga misol keltiring.
4. Og‘zaki uslub grammatikasining yozma nutqdan farqlari nimada?
5. Qaysi uslubda murakkab gaplar ko‘proq ishlatiladi va nima uchun?

### 2. Amaliy topshiriqlar:

1. Quyidagi matnni o‘qing va undagi uslubni aniqlang. Tanlovingizni asoslang.  
Yurtimiz kelajagi, farzandlarimiz ertangi kuni bugungi ishlarimizga bog‘liq. Biz har bir qarorimizda kelajak avlod manfaatlarini hisobga olishimiz zarur.
2. Og‘zaki uslubdagi ikki gapni publitsistik uslubga moslab qayta yozing.
3. Publitsistik uslubga xos 5 ta ijtimoiy-siyosiy termin va og‘zaki uslubga xos 5 ta oddiy so‘z yozing.
4. Berilgan 5 gapdan qaysilari og‘zaki uslubga, qaysilari publitsistik uslubga tegishli ekanini belgilang.

### 3. Ijodiy topshiriqlar:

1. Bir mavzu bo‘yicha (masalan, “Atrof-muhit muammolari”) 3–4 gaplik publitsistik uslubda matn yozing, so‘ng uni og‘zaki uslubga moslab qayta yozing.

2. Radio yoki televideniya yangiliklari uchun publitsistik uslubda 5–6 gapdan iborat xabar tuzing.
3. Ikki kishining kundalik suhbatini og‘zaki uslubda yozing, so‘ng suhbat asosida publitsistik uslubdagi kichik maqola yarating.
4. O‘zingiz o‘qigan bir gazeta maqolasi yoki tinglagan ma‘ruzaning leksik-grammatik xususiyatlarini tahlil qiling.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdusaidov A. Gazeta janrlarining til xususiyatlari. Samarqand, 2005. - P.34.
2. Asqarova, M. (2010). *O‘zbek tilining uslubiyat asoslari*. Toshkent: Fan.
3. Abdusaidov A. Gazeta janrlarining til xususiyatlari. DDA, -Toshkent, 2005, 11-b.
- Abduazizov A. Tilshunoslik asoslari. — Toshkent: Universitet, 2007.
4. Jo‘raqulov, A. (2017). *O‘zbek tili uslublari va ularning xususiyatlari*. Samarqand: SamDU nashriyoti.
5. Kovalchuk N. Sintakticheskaya struktura predlozheniya v informatsionnix tekstax. Dnepropetrovsk, 1980. – P. 6.
6. Mahmudov, N. (2005). *Hozirgi o‘zbek adabiy tili*. Toshkent: O‘qituvchi.
7. Mukarramov M. Funktsional stillarning klassifikatsiyasi. - T, 1977. – P. 58.
8. Qo‘ng‘urov R. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. - T, 1992. – P. 85.
9. Qo‘ng‘urov R., Karimov S, Qurbonov T. O‘zbek tilining funksional stillari. – T., 1977. – B. 32.
10. Teshaboyeva D.M. Ommaviy axborot vositalari tilining nutq madaniyati aspektida tadqiqi. - T., 2012. – 109 b.
11. Mahmudov N. O‘zbek tilining funksional uslublari. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
12. Nurmonov A. Nutq madaniyati va uslubiyati. — Toshkent: Fan, 2012.
13. Sodiqov Q. Ilmiy nutq va uning lingvistik xususiyatlari. — Samarqand: SamDU nashriyoti, 2011
14. Suyunov, D. (2018). *Nutq madaniyati va uslubiyat*. Toshkent: Universitet nashriyoti.
15. Yo‘ldoshev Q. Nutq madaniyati va til estetikasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
16. Yo‘ldoshev, M. (2012). *Til va nutqning ijtimoiy funksiyalari*. Toshkent: Mumtoz so‘z.

## **9- MAVZU: ANNOTATSIYA YOZISH. IMLO SAVODXONLIK**

### **Reja:**

1. Annotatsiya haqida ma'lumot.
2. Annotatsiya yozishdan maqsad.
3. Annotatsiya turlari.
4. Mazmunni to'liq qamrab olishi bo'yicha - umumiy
5. Annotatsiyani tuzishga qo'yiladigan asosiy talablar.
6. Annotatsiyaga namuna.
7. Imlo xatolarining asosiy turlari

**Annotatsiya** (lotincha: *annotatio* – qayd) – qisqacha ta'rif kitob, maqola, qo'lyozma mundarijasini, g'oyaviy-siyosiy yo'nalishini va boshqa jihatlarini ochib beradi, kitobning o'zida, bibliografik ko'rsatkichlarda va kutubxona kataloglarida yoziladi. Muayyan kitob, maqola, qo'lyozma to'g'risida umumiy tasavvur tug'dirib, adabiyotlar tanlashda ko'maklashadi va qandaydir nashr haqidagi qisqa axborot; hujjat, uning bir qismi yoki hujjatlar guruhining maqsadi, mazmuni, shakli va boshqa o'ziga xos xususiyatlari nuqtai nazaridan tavsif beradi.

Annotatsiya – bu badiiy, ilmiy, metodik asarlarning muallifi, mavzusi, manbasi, unda ko'tarilgan asosiy masalani ko'rsatishga qaratilgan qisqa xabar bo'lib, kam so'zligi, hajm jihatidan nihoyatda kichikligi bilan bayonning boshqa turlaridan ajralib turadi.

Annotatsiyani tuzishga qo'yiladigan asosiy talablar:

1. Kompozitsiyasi mazmunan mantiqiy va dastlabki matn kompozitsiyasidan farqlanishi
2. Ma'lumotlarning tanlanishi, ularning ifodalanishi va joylashuvi annotatsiya turiga bog'liq bo'lishi
3. Tili lo'ndaligi, soddaligi, aniqligi bilan ajralib turishi
4. Dissertatsiya, maqolaga annotatsiya bibliografiyada rasmiylashtirilishi va xatboshilarsiz berilishi
5. O'rtacha hajmi - 500 bosma belgidan iborat bo'lishi kerak.

### **Annotatsiya yozishdan maqsad:**

#### **1. Axborot berish**

Annotatsiya yozishdan maqsad axborot berish, o'quvchiga asosiy hujjatning mavzusi, mazmuni va asosiy xulosalari haqida ma'lumot beradi.

#### **2. Diqqatni jalb qilish uchun**

Annotatsiya o'quvchini qiziqtirishi va to'liq matnni o'qishga undashi lozim.

#### **3. Qidiruvni osonlashtiradi**

Izohlar o'quvchiga katta ma'lumotlar to'plamlarida kerakli ma'lumotlarni tezda topishga yordam beradi

### **Annotatsiya tuzilishi**

## **Kirish qismi**

Birlamchi hujjatning nomi, muallifi, nashr etilgan yili ko'rsatiladi.

## **Asosiy qism**

Birlamchi hujjatning amaliy ahamiyati yoki ilmiy ahamiyatini aks ettiradi.

Maqsad, mavzu, tadqiqot usullari va asosiy xulosalarini qisqacha bayon qiladi

## **Xulosa**

- Abstrakt Tadqiqotning asosiy faktlari, usullari, natijalari va xulosalarini qisqacha taqdim etadi. Tavsiya
- Strukturaviy tuzilish Asosiy tarkibni izchil taqdim etadi.
- Umumiy xatolar ortiqcha elementlarning uchrashi.

Annotatsiya matni standartlashtirilmaydi.

Annotatsiyani tuzishdagi asosiy xato – axborotning ko'pligi, fikrlarni ifodalashda jumalarning uzunligi, davrlarning ishlatilishi!

Ortiqcha narsalar: kirish so'zlar va gaplar, murakkab gaplardan qoching!

## **Annotatsiya uslubining xususiyatlari**

**1.Qisqalik-** qisqa, lo'nda va ma'lumotli bo'lishi kerak.

**2.Obyektivlik-**taqdimot neytral bo'lishi va subyektiv baholarni o'z ichiga olmaydi.

**3.Aniqlik-**har bir so'z birlamchi hujjatning mohiyatini aks ettirishi kerak.

**4.Mantiq-**izoh matni tuzilgan va mantiqiy izchil bo'lishi kerak.

## **Annotatsiya turlari:**

### **1.Ta'riflovchi**

Birlamchi hujjatning mavzusi, mohiyati va asosiy mazmunini qisqacha tavsiflaydi.

### **2.Abstrakt**

Tadqiqotning asosiy faktlari, usullari, natijalari va xulosalarini qisqacha taqdim etadi.

**3.Tavsiya** Birlamchi hujjatning amaliy ahamiyati va qiymatini baholaydi.

## **Maqsadni aniqlash:**

Annotatsiyani nima uchun yozilayotganini aniqlash.

**Matnni tahlil qilish** Diqqat bilan o'qib, asosiy fikrlarni ta'kidlash.

**Strukturaviy tuzilish** Asosiy tarkibni izchil taqdim etish.

## **Umumiy xatolar**

### **Ortiqchalik**

Tushunishni qiyinlashtiradigan fon ma'lumotlarini o'z ichiga oladi.

### **Noaniqlik**

Asosiy faktlar va xulosalarni noto'g'ri yoki to'liq taqdim etmaslik.

### **Strukturaning buzilishi**

Taqdimotda aniq mantiqiy izchillikning yo'qligi.

### **Stilistik xatolar**

Murakkab, noaniq yoki so'zlashuv iboralaridan foydalanish.

## KOMPOZITSION QURILISH:

### Kitoblar

Annotatsiya: "Monografiya innovatsion loyihalarni boshqarishning nazariy asoslarini ochib beradi. O'quvchilarni baholash, loyihani amalga oshirishni rejalashtirish va nazorat qilish usullari ko'rib chiqiladi".

### Maqolalar

Annotatsiya: "Maqolada raqamli texnologiyalarning dars samaradorligiga ta'siri tahlil qilinadi. Muvaffaqiyatli raqamlashtirish uchun asosiy tendensiyalar, tamoyillar va zarur metodlar tasvirlangan.

### Dissertatsiyalar

Annotatsiya: "Dissertatsiya umumta'lim maktab o'quvchilarining xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik samaradorligini oshirish usullarini o'rganishga bag'ishlangan. Ishda innovatsion texnologik yechimlar va ularni amalga oshirishga pedagogik baho berilgan".

Annotatsiya turlari:

1) ma'lumotli (konspektlar) - umumlashtirilgan shaklda birlamchi hujjatning barcha asosiy qoidalarini, illyustratsion materialni, eng muhim dalillarni, tadqiqot metodologiyasi haqidagi ma'lumot va boshqalarni o'z ichiga oladi;

2) indikativ (indikativ yoki qisqacha tezislar) - hammasini emas, balki faqat havola qilinayotgan hujjat mavzusi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan asosiy qoidalarini o'z ichiga oladi; ikkinchi darajali nomuhimlar. Birlamchi hakamlik qilingan hujjatlar soniga ko'ra tezislar monografik (bitta hujjat bo'yicha tuzilgan) va taqrizga (bir mavzu bo'yicha bir nechta hujjatlar bo'yicha tuzilgan) bo'linadi.

Akademik yozuv ilmiy til me'yorlariga asosan shakllantiriladi. Har bir so'zni o'z o'rnida qo'llash, ilmiy til me'yorlariga rioya qilish, imlo savodxonlikka amal qilish akademik yozuvning qimmatini oshiradi.

Imlo savodxonlik — bu yozma nutqda so'z va gaplarni imlo qoidalariga muvofiq to'g'ri yozish ko'nikmasi bo'lib, u til madaniyati darajasining muhim ko'rsatkichlaridan biridir. O'zbek tilida imlo savodxonlik tushunchasi faqat qoidalarga yodlab amal qilish emas, balki **fonetika, morfologiya, leksika va sintaksis** bo'yicha bilimlarni yozma nutqda amaliy qo'llash malakasini ham o'z ichiga oladi.<sup>51</sup> Tilshunos olim G'. Rahmatullayeva ta'kidlaganidek:

"Imlo qoidalari tilning yozma shakli uchun me'yor o'rnini bajaradi. Yozuvdagi har bir xatolik nafaqat matn mazmunini buzadi, balki o'quvchi ongida so'zning to'g'ri shakli haqida noto'g'ri tasavvur uyg'otadi".<sup>52</sup>

<sup>51</sup>Qo'shjonov, M. (2002). *Til madaniyati asoslari*. Toshkent: Fan.

<sup>52</sup>Rahmatullayeva, G'. (2018). *O'zbek tili imlo qoidalari va yozuv madaniyati*. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi 45-b.

Psixolingvist nuqtayi nazaridan, imlo savodxonlik avtomatlashtirilgan yozma harakatlar tizimi bo'lib, u muntazam o'qish, yozish va tahrir qilish jarayonida rivojlanadi. Shu sababli o'quvchilarda imlo ko'nikmalarini shakllantirish uchun:

- muntazam diktantlar,
- ijodiy yozma ishlar,
- matn tahriri mashqlari qo'llash samarali hisoblanadi.<sup>53</sup>

Yangi o'zbek imlo qoidalari (2019)da ayrim so'zlarning yozilishi, qo'shma so'zlar, chet tillaridan kirgan terminlarning imlosi bo'yicha yangiliklar kiritilgan. Bu esa yangilangan imlo lug'atidan foydalanish zaruratini kuchaytirdi. Xatolarning quyidagi turlari bor: imlo xatolari, punktuatsion xatolar, uslubiy xatolar, mantiqiy xatolar. Imlo xatolari – kirill va lotin alifbosi asosidagi yozuv qoidalarini farqlamaslik, so'zlarni yozma tarzda ifodalashda, qo'shib, ajratib, chiziqcha bilan yozishda, tutuq belgisini qo'llashda yo'l qo'yiladigan xatolar. Albatta, alifbodan va alifbo asosidagi imlo qoidalaridan foydalanish tartibiga rioya qilish lozim. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n uchinchi sessiyasi (1993- yil 2-sentabr) "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy qilish to'g'risida" Qonun qabul qildi. "Ushbu qonun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslanib va o'zbek yozuvining lotin alifbosiga o'tilgan 1929-1940- yillardagi ijobiy tajribasidan kelib chiqib, keng jamoatchilik vakillari bildirgan istak-xohishlarni inobatga olgan holda respublikaning har taraflama kamol topishi va jahon kommunikatsiya tizimiga kirishini jadallashtiruvchi qulay sharoit yaratishga xizmat qiladi".<sup>54</sup> Mazkur qonunga muvofiq lotin alifbosi o'ttiz bitta harf va bitta tutuq belgisi (apostrof)dan iborat, deb belgilandi.

1995- yilning 6- mayida «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi Qonunga o'zgartirishlar kiritish qarori qabul qilindi. Unga ko'ra: 1) 1-moddadagi «31 harf va 1 tutuq belgisi (apostrof) dan» so'zlari «26 harf va uchta harflar birikmasidan» so'zlari bilan almashtirildi; 2) Ss, Jj harflari mustaqil harf belgisi sifatida alifbodan chiqarildi; 3) Ő õ harfi O'o' shaklida, Ğ ğ harfi G'g' shaklida, Ş ş harfi Shsh shaklida, Ç ç harfi Chch shaklida, Ñ ñ harfi Ngng shaklida, Q harf belgisi q shaklida ifodalandi; 4) Aa, Ii, Gg, G'g', Qq, O'o', Zz harflari va Ch ch harflar birikmasining yozma shakli tegishli tarzda ifodalandi. Kirill alifbosidagi yo-lashgan unlilar (е, ё, ю, я) quyidagicha ifodalanadi: kirill alifbosidagi yo-lashgan unlilar tovush ifodalashiga ko'ra ikkita harf bilan ifodalanadi: е → ye: ел –yel, елкан –yelkan; е → e (bu unli bir harf bilan ham ifoda etilishi ham mumkin): келин –kelin, теп –ter; ё → yo: ёрқин –yorqin, ёш –yosh ю → yu: юлдуз –yulduz, ютуқ –yutuq; я → ya: яшил –yashil, яхши –yaxshi; yo-lashgan unlilarning bosh shakli imlosidagi xatolar ko'p kuzatiladi. Ё. Раҳимов Ю.

<sup>53</sup> Karimov, A. (2016). *O'quvchilarda imlo savodxonligini shakllantirish metodikasi*. Toshkent: O'qituvchi.

<sup>54</sup> 12 Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litsey o'quvchilari uchun darslik.-T.,2013 44

Ҳакимова кabi ism-shariflar lotin yozuvida Yo. Rahimov, Yu. Hakimova tarzida xato yozilmoqda (aslida: Y. Rahimov, Y. Hakimova tarzida yozilishi to'g'ri). Kirill alifbosidagi «ц» harfi quyidagicha ifodalanadi: so'z boshi, oxirida, so'z o'rtasida (undoshdan keyin) s harfi bilan aks ettiriladi: цирк–sirk, центнер–sentner, концерт–konsert, акцент –aksent, абзац–abzas, шприц–shpris, кварц–kvars. So'z o'rtasida unli tovushdan keyin ts yoziladi: лицей–litsey, милиция–militsiya, конституция – konstitutsiya. Rus-baynalmilal so'zlaridagi ъ (ayirish), ь (yumshatish) belgilari tovush ifodalamaydi. Yumshoqlik (ь) belgisi yangi o'zbek alifbosi asosidagi yozuvda tushirib qoldiriladi: альбом–albom, июнь –iyun, рельс–rels. Faqat ayrim so'zlar imlosida ь yumshatish belgisi y ga almashtiriladi: почтальон – pochalyon, батальон – batalyon. ъ (belgisi) tushiriladi va undan keyingi yo-lashgan unlining so'z boshidagi shakli yoziladi: субъект–subyeht, объект–obyekt. Kirill alifbosi asosidagi yozuvda arabcha so'zlarda uchraydigan ь belgisi o'rnida tutuq belgisi yoziladi. Tutuq belgisi rus-baynalmilal so'zlaridagi ъ belgisi o'rnida yozilmaydi. Demak, obyekt tarzida yozish xatodir. Tutuq belgisi tovush ifodalamaydi, arab tilidan o'zlashgan so'zlarda ayn ځ o'rnida qo'llanib, quyidagi vazifalarni bajaradi: ' (tutuq belgisi) unli tovushdan keyin kelsa, unlini cho'ziqroq talaffuz etish uchun xizmat qiladi: ma'no, ma'rifat, ta'limot, a'lo, ta'lim,e'lon, fe'l; ' (tutuq belgisi) undoshdan keyin kelsa, keyingi bo'g'inni yoki unlini ajratish uchun xizmat qiladi: mas'ud, jur'at, sun'iy, in'om, mas'ul. ' (tutuq belgisi) ma'no farqlash uchun ham xizmat qiladi: sher (hayvon) – she'r (ijod mahsuli), qala (ish harakat) -qal'a (qarorgoh), tana (vujud) – ta'na (minnat), nasha (o'simlik) – nash'a (zavq), sanat (fe'l) – san'at (ot), surat (tasvir) – sur'at (tezlik), tarif (toifa) – ta'rif (sifatlash), ayon (sifat) – a'yon (ot). ' (tutuq belgisi) s va h ni sh harf birikmasidan farqlash uchun ham ishlatiladi: as'hob, Is'hoq. Yangi alifbodan bir tovushni harfga belgi qo'shib, ikki harfni qo'shib ifodalash usuliga asoslangan harflar (o', g', sh, ch, ng) o'rin oldi. Natijada yangi o'zbek alifbosi 29 harf va bir belgidan iborat bo'lib, 31 tovushni ko'rsatishga xizmat qiladi. J j harfi har ikki alifboda ikki vazifani bajaradi: til oldi, portlovchi qorishiq j undoshini ifodalaydi: juma, janub, jo'ja, jiyan; arab va rus tillaridan o'zlashgan so'zlardagi til oldi, sirg'aluvchi tovush ifodasi uchun ishlatiladi: jurnal, ajdar, jyuri. Har ikki alifboda ham o'zbek tiliga xos bo'lgan jarangli, til orqa ځ burun tovushini ifodalash uchun n va g harfiy birikmasidan foydalaniladi: n+g: sen+ga, tun+gi; ng→ ځ: : de-ngiz, ko'-ngil, singil, to-ngi. 1995-yil 24-avgustda «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari (lotin yozuvi asosida)» qabul qilindi. Qoidalar 82 band, 7 bo'limdan iborat.

Imlo xatolarining aksariyati quyidagi qoidalarga amal qilmaslik natijasida yuzaga keladi.

**Unlilar imlosi.** Urg‘usiz bo‘g‘inlarda o tovushi a tarzida aytiladi: kanstitutsiya, arfografiya, fanetika. Lekin konstitutsiya, orfografiya, fonetika yoziladi. Rus va yevropa tillaridan kirgan so‘zlarning oxirgi urg‘usiz bo‘g‘inida kelgan o unlisi qisqa i tarzida eshitaladi, lekin har doim direktor, traktor, rektor, konduktor, irrigator, dktor (va b.) tarzida yoziladi. Yonma-yon keladigan unlilar orasida talaffuzda y tovushi aytilsa ham yozilmaydi: shoir, shariat, maishat, doim, oila, teatr, diagnoz, material, filial, million, aerodrom, aloe kabi. Mo‘jiza, mo‘tadil, mo‘tabar kabi so‘zlarda tutuq belgisi qo‘yilmaydi.

**Undoshlar imlosi.** Insholarda ko‘zga tashlanadigan imlo xatolari orasida eng ko‘p kuzatiladigan nuqson x va h imlosi bilan bog‘liq xatolardir. Ko‘p hollarda xulq, axloq, ruxsat, rohat, hayot, narx, soha, tuhmat kabi so‘zlarning yozilishi bilan bog‘liq xatolar uchraydi. Xx va Hh undoshlari alohida fonemalardir. Xx va Hh tovushlari paydo bo‘lish o‘rniga ko‘ra ham, aytilishiga ko‘ra ham bir-biridan farq qiladi. Xx – chuqur til orqa jarangsiz sirg‘aluvchi undosh: xabar, paxta, sho‘x, taxt, baxt, xulq, axloq, xalq. Hh – jarangsiz sirg‘aluvchi bo‘g‘iz undoshi: behi, holva. x va h ayrim so‘zlarda ma‘no farqlashga xizmat qiladi: xol (dog‘) - hol (ahvol) ; xam (egik) - ham (yuklama); shox (daraxt shoxi) - shoh (podshoh); rux (modda) - ruh (arvoh); xush (yoqimli) - hush ( aql). i bilan boshlanuvchi so‘zlarning birinchi bo‘g‘inida x yoziladi: ix-tiyor, ix-cham, ix-los, ix-tisoslik; qolgan bo‘g‘inlarida h yoziladi: ilhom, i-ho-ta, is-loh; e bilan boshlanuvchi arabcha so‘zlar tarkibida h yoziladi: ehson, ehtirom, ehrom, ehtiyot, ehtiyot. Bu harflar imlosida arabcha o‘zakdosh so‘zlardagi undoshlarga asoslanish mumkin: hukm-hokim-hakam-hokimiyat-mahkama-mahkum; rahm-rahmat-rahim; hurmat-marhamat-rahmat; xalq-xaloyiq-xoliq-maxluq; muhsin-tahsin; hibs-mahbus, muxlis-ixlos. Birlikdagi ot va ularning siniq ko‘plik shaklini bilish ham bu harflarni to‘g‘ri ifodalashga yordam beradi: xabar-axborot, saxiysaxovat, hol-ahvol, ruh-arvoh. Bulardan tashqari, x va h ishtirok etgan so‘zlar imlosini yodda saqlash lozim bo‘ladi. Xush va hush X va h tovushlari og‘zaki tilda ko‘pincha farqlanmaydi va bu yozma nutqda ham o‘z aksini topadi: shu tovushlar qatnashgan so‘zlarni yozishda ko‘p xato qilamiz. Jumladan, xush va hush so‘zlarida. Aslida ikkala so‘z ham xato emas. Lekin ularning, ular qatnashgan iboralarning ma‘nosini bilmaslik almashlab ishlatishga sabab bo‘lishi mumkin. Xushforschadan olingan, o‘zbekchada yaxshi, yoqimli ma‘nolarini anglatadi: *xush kayfiyat, xushovoz xonanda, xush kelibsiz, xush ko‘rdik, xush qoling.* Hush so‘zi ham forskadan kirgan, o‘zbek tilida kishining biror narsa-hodisani sezish, idrok etish, anglash qobiliyati, shunday sezgi, idrokka ega holat kabi ma‘nolarni bildiradi: *es-hushi joyida, hushi uchdi, hushidan ketdi, hushiga keldi, hushyor, hushli, behush.* Ba‘zi chalkashtiradigan holatlar bor. Masalan: Xushi yo‘q iborasi xohlamaslik, yoqtirmaslik; xohishi yo‘q ma‘nolarini ifodalaydi: *Dasturxonda holva, novvot, murabbo... Zargarovning*

bularga xushi yo'q... A. Muxtor, Bo'ronlarda bordek halovat. Agar bu iborani *h* bilan yozadigan bo'lsak, hushdan ketish ma'nosi paydo bo'ladi: *bemorning hushi yo'q*. Xushi kelmoq iborasi *kayfiyati yaxshi bo'lmoq*, xushiga kelsa borasi esa *xohlasa*, *yoqtirsa* ma'nolariga ega: *Xushiga kelsa*, *ishlaydi*, *bo'lmasa*, *ochiq havoga direktor bo'lib o'tiraveradi*. Agar *xushiga kelsa* iborasi o'rniga *hushiga kelsa* iborasini ishlatdik, behush holatdan chiqish, o'ziga kelish ma'nosi anglashiladi: *Bemor hushiga kelsa*, *aslida nima bo'lganini o'zi aytib beradi*. Demak, xush va hush so'zlarini qo'llashda xato qilmaslik uchun ular jumla yoki birikmada qanday ma'noda ishlatilayotganini aniqlab olishimiz kerak bo'ladi.

**O'zak va qo'shimchalar imlosi.** Parvo, obro', mavqe, mavzu, mavzu kabi so'zlarga I, II shaxs egalik qo'shimchalari qo'shilganda, o'zakdan so'ng y qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: parvoyim, obro'yim, mavqeyim, mavzuyim, avzoyim. Shu so'zlarga III shaxs egalik qo'shimchasi -si shaklida qo'shiladi: parvosi, avzosi kabi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, unli bilan tugagan so'zlarga III shaxs egalik shakli qo'shilishida ikki xil imlo kuzatiladi: manbai (kirill yozuvida: манбай) – manbasi, mavzuyi (kirill yozuvida: мавзуй) – mavzusi. Bu holat o'zlashgan so'zlar imlosida uchraydi. Imloda bir xillikni ta'minlash uchun mazkur o'zlashma so'zlarning asl shakliga asoslanish kerak: agar so'z ayn *ё* bilan tugasa, -yi (kirill alifbosida: и) yoziladi: manbai (kirill yozuvida: манбай); agar so'z *у* vov, hoyi havvas *о* bilan tugasa, -si shaklida qo'shish to'g'ri bo'ladi: mavzusi, orzusi. *k* va *q* undoshlari bilan tugagan so'zlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qo'shilganda *g* undoshi *k* va *q* tarzida aytiladi va shunday yoziladi: tokka, yurakka, qishloqqa, toshloqqa kabi. Xuddi shunday o'zaklarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda o'zak oxiridagi *k* undoshi *g* ga, *q* undoshi *g'* ga aylanadi va shunday yoziladi: tilagi, yuragi, bulog'i, qishlog'i. Bir qator so'zlarda tovush o'zgarishi sodir bo'lmaydi: ittifoqi, idroki, toki, ocherki, tasdiqi, tatbiqi. -ta, tacha lug'aviy shakl hosil qiluvchi qo'shimchasi bilan kelgan so'zlarni ba'zan qo'shib (5ta), ba'zan ajratib (5 ta) yozish hollari kuzatiladi.

Egalik qo'shimchasi ikki bor qo'shilmaydi So'zga bitta vazifadagi qo'shimcha ikki marta qo'shilmaydi. Oldin majhul nisbat qo'shimchasini bir so'zga ikki marta tirkash xato. Shu xildagi yanglishlik uchinchi shaxs egalik qo'shimchalarini qo'llashda ham uchrab turadi: tili – tilisi, iloji – ilojisi. Bunday holatlarda ikkinchi egalik qo'shimchasi –si ortiqcha. Bu qo'shimcha unli tovushlar bilan tugagan so'zlarga qo'shiladi: *onasi*, *inisi*, *mavzusi*. *Y* undoshi bilan tugagan va ba'zi so'zlarga ham –si qo'shiladi. Buni qanday aniqlash mumkin? Juda oddiy: *y* undoshidan oldin *i* unlisi kelgan bo'lishi kerak: *vodiyasi*, *homiysi*, *voliysi*. –i qo'shimchasi esa asosan undosh bilan tugagan so'zlarga, ba'zan unli bilan tugagan so'zlarga qo'shiladi: *tili*, *iloji*, *kitobi*, *qarori*, *qishlog'i*, *giyohi*, *manbai*, *tole*. Tili va iloji so'zlariga –I egalik qo'shimchasi qo'shib bo'lgan, unga yana –si tirkash

ortiqcha va xato. Lekin tilda qoidaga bo'ysunmaydigan holatlar ham uchrab turadi. Egalik qo'shimchalarida ham shunday vaziyat bor. III shaxs birlikda singil so'ziga ham-i, ham-si qo'shiladi va bu to'g'ri: singlisi. Son bilan yozganda imkon qadar hisob so'zlaridan foydalangan ma'qul: 77 dona, 5 nafar kabi (qiyos: 1-sentyabr 1chi sentyabr tarzida yozilsa, xato bo'lar edi). -ta, tacha qo'shimchalarini raqam emas, so'z ko'rinishidagi sonlarga qo'shish to'g'ri bo'ladi: o'nta, beshtacha. Lekin shunday hollar bo'ladi, narsa-hodisa, voqelik miqdorini ta'kidlab ko'rsatish kerak bo'ladi. Shunday hollarda qo'shimchani, garchi mantiqqa zid bo'lsa-da, ko'rinish talabiga muvofiq raqamdan ajratib yozish kerak: 5 ta, 7 ta. Qoshma va juft so'zlar imlosi. Har, hech, bir, u, shu, o'sha, hamma kabi so'zlar o'zi birikib kelgan birlikdan ajratib yoziladi: har kim, hech narsa, bir zum, bu yerda, osha joyda, hamma vaqt kabi Hamma, har, hech, u, bu so'zlari bilan yasalgan olmosh va ravishlar: hamma vaqt, har kim, hech qanday, u yerda, bu vaqt; birinchi so'zi bir, har, hech olmoshlaridan iborat bo'lgan qo'shma so'zlar ajratib yoziladi (birpas, biryo'la, birvarakay so'zlari bundan mustasno). Sifatlar oldidan to'q, jiqqa, tim, liq kabi so'zlar kelsa, ajratib yoziladi: to'q sariq, jiqqa ho'l, tim qora, liq to'la va b; Belgining ortiqlik hamda uzviylik darajasini ko'rsatuvchi: ko'pdan ko'p, yangidan yangi, ochiqdan ochiq, uzundan uzun, yildan yilga, kundan kunga kabi birliklar ajratib yoziladi. Bilan va uchun ko'makchilarining qisqargan -la va -chun shakli chiziqcha bilan yoziladi: onam-la, sen-chun singari. Dardi bedavo, bodi sabo kabi izofali birikmalar ham ajratib yoziladi. Izofali birikmalarni qo'shish uchun unlidan so'ng kirill yozuvidagi i o'rniga (ойнаи жаҳон, таржимаи ҳол, нуқтаи назар, рӯйи замин) yi yoziladi: oynayi jahon, tarjimai hol, nuqtayi nazar, ro'yi zamin. Juft so'zlar chiziqcha bilan yoziladi: yaxshi-yomon, erta-kech, qishin-yozin. Juft so'zlar orasida -u, -yu yuklamalari qo'llansa, yuklamalar birinchi so'zga chiziqcha bilan birikadi; ikkinchi so'z ajratib yozilaveradi: yer -u osmon, yor-u do'st, kecha-yu kunduz, past-u baland (kirill yozuvida chiziqcha qo'yilmaydi, yuklama birinchi so'zga qo'shib yoziladi: яхшию ёмон, еру осмон, дўсту ёр). So'zlarga chiziqcha bilan yoziladigan yuklamalar qo'shilganda morfologik yozuv qoidasiga amal qilish maqsadga muvofiq: "Kim edik-u, kim bo'ldik?", Ko'p o'qidik-u, lekin hali ko'p uqmabmiz. Qisqartma so'zlar imlosi. So'zlarning birinchi harflarini birlashtirish yo'li bilan yasalgan qisqartma so'zlar bosh harf bilan yoziladi: BMT, MDH. Qisqartmalardagi harflar o'rtasiga nuqta qo'yilmaydi. Insholar matnida B.M.T., A.Q.Sh. tarzida xato yozishlar ko'p uchraydi. Shaxs ismi va otasining ismi, familiyalari yoki ularning bir qismi qisqartirilishi mumkin: H.O., A.O.; N.Jumayev, G.Jahonova. Mumtoz ijodkorlarimiz ismi-sharifi, taxallusini qisqartirmay yozgan ma'qul: Mahmud Koshg'ariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur. Negaki hozirgi ism-shariflar qisqartmasi shaxs ismi va otasining ismini bildiradi: F.X.Arziqulov. Mumtoz ijodkorlarimiz ismi-sharifi,

taxallusi har doim ham bu mezonga mos kelavermaydi. Odatda, taxalluslar ham qisqartirilmaydi: Cho'lpon, Sakkokiy, Julqunboy, Hijron, Nihoniy. Bosh harflar imlosiga doir qoidalarni ham yaxshi o'zlashtirish lozim. Hurmat ma'nosida qo'llangan olmoshlar, ta'kidlab aytilgan so'zlar bosh harf bilan yozilishi mumkin: Siz va O'zingiz, Birinchi Prezident, Prezident, Vatan, Respublika. Bayramlar va tarixiy kunni ifodalagan birikmalarning birinchi so'zi: Navro'z bayrami, Mustaqillik kuni, Xotira va qadrlash kuni; oliy tashkilotlar va faxriy unvonlar, mamlakat nomlarining har bir so'zi bosh harf bilan yoziladi: Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Qahramoni. Orden va medallarning nomi bosh harf bilan orden va medall so'zlari kichik harf bilan yoziladi: «Mustaqillik» ordeni, «Do'stlik» medali. Universitet, institut, fakultet, kafedra nomlarining birinchi so'zi bosh harf bilan, qolganlari kichik harf bilan yoziladi: Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent moliya instituti, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, O'zbek filologiyasi fakulteti, Til nazariyasi va amaliyoti kafedrası. Bu tipdagi nomlanishlarda "atab qo'yish"ga nisbatan "umumning bir qismi" semasi ko'proq aks etgani bois qo'shtirnoqqa olinmaydi. Nomlar tarkibidagi Milliy sifatlovchisi bosh harf bilan yoziladi: O'zbekiston Milliy universiteti. Mashhur shaxslar ismi bilan yuritiladigan muassasalar nomidagi (nomli emas) izohlovchisi bilan qo'llanadi: Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti. SH, CH, NG harfiy birikmalarining bosh shakllari qisqartma so'zlarda standart shaklni ta'minlashda qo'llanadi: masalan, "TONG" ishlab chiqarish birlashmasi. Oddiy hollarda harfiy birikmalarning ikkinchisi kichik shaklda yoziladi: Shohruh, Charos. Bo'g'in ko'chirish qoidalari. So'z bo'g'inlarga bo'linadi. Eng kichik bo'g'in bir unidan iborat bo'ladi: u (olmosh), o-ta, o-na, e-kin va h. k. Har bir bo'g'inda bir unli tovush ishtirok etadi. Bir unidan hosil bo'lgan bo'g'in birinchi yo'lda qoldirilmaydi, yonidagi bo'g'in bilan birga ko'chiriladi: o-na emas, ona. Mudofaa, mutolaa kabi so'zlardagi oxirgi bo'g'in – bir a ning o'zi ko'chirilmaydi. Bir tovushni ifodalagan ikki harf (sh, ch, ng) birgalikda ko'chiriladi: mash-hur, pi-choq, si-ngil, pe-shana, so-chiq, ko'-ngil; yoki oldingi qatorda qoldiriladi: tong-da, sing-li-si. Ng harfi ishtirokidagi so'zlarda bo'g'in ko'chirish muammosini bartaraf etish uchun ng bir tovushni ifodalaydigan so'zlarni eslab qolish kerak: ing+ramoq, so'ng-gi, o-ta-ngiz, mung-li, sing-moq, teng-dosh, tengla-ma. Ism-shariflar qisqartirilsa, familiyadan ajratilib ko'chirilmaydi: S.V.Rahimov, A.G.'ulomov. "Navro'z – 2016", "E'tirof – 2017" kabi tanlov nomlari ham ajratilmaydi. Juft so'zlar bo'g'in asosida ko'chirilganda keying satrga ham chiziqcha qo'yish ma'qul. Birinchi chiziqcha bo'g'in ko'chirish belgisi bo'lsa, ikkinchi chiziqcha juft so'zlar imlosiga tegishlidir: asta- -sekin. Fonetik o'zgarishlarni farqlamaslik, ayrim

tovush o'zgarishlarining faqat talaffuzda yuz berishi, yozuvda aks etmasligi haqida muayyan bilimga ega bo'lmaslik ham imlo xatolariga sabab bo'ladi. Orfoepiya me'yorlari asosidagi tovush o'zgarishlari yozuvda aks etmaydi: – nutq tovushlarining o'zaro ta'siri, birining ikkinchisini o'ziga moslashtirishi: ket-di – ketti, ayt - di –aytti, uch so'm – usso'm, tuz-sin – tussin, yigit-cha – yigichcha; – ikkita bir xil (o'xshash) tovushdan birining boshqa (noo'xshash) tovushga aylanishi: zarar – zaral; zarur –zaril, kissa – kista; koridor – kolidor; – undosh tovushlarning o'rin almashish hodisasi: daryo-dayro; tebratmoq-terbatmoq; yamlamoq – yalmamoq; tuproq – turpoq; o'rganmoq – o'granmoq; to'g'ramoq – to'rg'amoq; – ikki undosh yonma-yon kelganda, ular orasida talaffuzda i yoki u orttirilishi: fikr – fikir; hukm – hokum; – o'zak oxiridagi tovushning tushishi: do'st – do's; xursand – xursan, rost – ros, g'isht – g'ish; – til oldi n ning lab-lab m ga o'tishi: manba – mamba, shanba – shamba, yonbosh – yombosh, sunbula – sumbula, tanbur – tambur. Ayrim so'zlar talaffuzidagi o'zgarishlar yozma me'yorga aylangan: bir, biror so'zlariga -ta qo'shimchasi qo'shilganda r tovushi t ga aylanadi va shunday yoziladi: birta-bitta, birorta-bironta. Unli bilan tugagan va unli bilan boshlangan ikki so'zning qo'shilishi natijasida tovushlardan biri tushadi va o'zgarish yozuvda aks etadi: bora oladi – boroladi; borar ekan – borarkan. Tinish belgilari xatosi – tinish belgilarini qo'llash bilan bog'liq xatolar. Maqsad, fikr og'zaki nutqda ma'lum ohang bilan, yozuvda esa gapning grammatik qurilishi va tinish belgilari orqali aks ettiriladi. Tinish belgilari fikrni, maqsadni yozuvda aks ettiruvchi zaruriy vositadir. So'zlovchining maqsadini tinish belgilari orqali bilib olish mumkin: Mehmon keldi. Mehmon keldi! Mehmon keldi? Bu uch gapdagi xabar, his-hayajon, so'roq mazmuni gaplardan so'ng qo'yilgan tinish belgilari orqali ifodalanadi. Tinish belgilari mazmun, ohang va gapning grammatik qurilishiga ko'ra qo'llanadi. Tinish belgilarining qo'llanishi gap tuzilishi va mazmuniga ta'sir qiladi: O'qi, o'qi bobong kabi, nodon bo'lma - O'qi, o'qi, bobong kabi nodon bo'lma. Birinchi holatda bobo o'qimishli ekanligi, ikkinchi gapda esa o'qimaganligi ifodalangan. O'zbek tilida o'nta tinish belgisi mavjud bo'lib, insholarda ko'p kuzatiladigan punktuatsion xatolar quyidagi tinish belgilariga oiddir. Qavs misol yoki ko'chirmaning manbaini ko'rsatadi: Oh, Hirot, Hirot!(0.) «Turkona uslub» (Navoiy) turkiy tillarga xos uslubdir. Ajratilgan bo'laklar, kiritmalarda qavsdan oldingi tinish belgilari (vergul, tire, ikki nuqta, nuqtali vergul) qavsdan keyinga ko'chiriladi: Erkaklarning biri – markaziy gazetaning muxbiri, ikkinchisi – injener (Mavlonbek uni Fyodor Mahkamovich der edi. U qiz esa Moskvada institutni bitirib, hozir shu injenerning qo'lida tajriba ko'rib yurgan ekan). (A.Q.) Ko'p nuqta fikr tugallanmagan yoki qisqartirilgan o'rinlarda, aytish noo'rin bo'lgan vaziyatlar ifodasida qo'yiladi. Tire quyidagi o'rinlarda ishlatiladi: 1) ot, son, olmosh va harakat nomi bilan ifodalangan ega

bilan bog‘lamasiz kesim orasida: Yurgan – daryo, o‘tirgan – bo‘yra; 2) ega bilan kesim bu, u, mana bu so‘zlari bilan ajratilganda ham ega va kesim orasida tire ishlatiladi, tire so‘zlardan oldin qo‘yiladi. Masalan: Tinchlik – bu sevinchdir, hayotda lazzat, Tinchlik – bu totuvlik, har ishda orom; 3) gapning egasi yoki kesimi harakat nomi bilan ifodalanib, kesim tarkibida kesimlik qo‘shimchasi yoki bog‘lama bo‘lmaganda: Har narsaga qiziqish – biz uchun eski odat. Maqsadim – o‘qimoq; 4) ega ko‘rsatish olmoshi bilan ifodalanganda: Bu – siz uchun katta sinovdir; 5) eganing ma‘nosi ta‘kidlab ko‘rsatilganda: Men – mana shu minglarning biriman. Eslatma: agar ega bilan ot kesim orasida ham yordamchisi bo‘lsa, tire qo‘llanmaydi: Bular ham a‘lochi. Mening opam ham talaba. Nazokat ham to‘quvchi. Kesim sifat va tartib son bilan ifodalanganda ot kesim va ega orasida tire qo‘yilmaydi: Vatanimiz go‘zal. Bino katta. Qizilqum sahrosi bepoyon. Bu qovun shirin. Ko‘ylakning rangi sariq. Bizning guruhimiz birinchi; 6) uyushiq bo‘laklardan so‘ng kelgan umumlashtiruvchi so‘zdan oldin: Suv, yer, elektr – bular hayot bahoriga yangi go‘zallik va yangi nash’a bag‘ishlovchi kuchlar edi. (O.) 7) muallif gapi bilan ko‘chirma gap orasida: «Nega buncha kech qolding, Manzura!» – dedi Aziz mehribon tovush bilan. (Asq. M.) 9) dialog tipidagi ko‘chirma gaplarda ishlatiladi. Tireni juft va takror so‘zlar o‘rtasida, yuklamalardan oldin qo‘yiladigan chiziqcha (defies)dan farqlab yozish kerak. Ikki nuqta quyidagi o‘rinlarda qo‘llanadi: 1) shaklan tugallangan, lekin mazmunan keyingisi birinchisining uzviy davomi sanalgan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplardan so‘ng: Oltmishga kirib bildim: umrim bekorga o‘tmabdi, odamlarga kerakli ekanman, hayotda iz qoldiribman; 2) uyushiq bo‘laklardan oldin kelgan umumlashtiruvchi so‘zdan keyin: O‘zbekiston Respublikasining Davlat ramzlari: Davlat bayrog‘i, Davlat Gerbi va Davlat madhiyasi milliy iftixorimiz, sharaf va shonimiz sanaladi (P. T.); 3) ko‘chirma gapdan oldin kelgan muallif gapidan so‘ng: Otam birdan samovarchiga buyruq beradi: – Musavoyga joy solib ber, ozdaroq yostiq qo‘y (O.); Quyidagi ma‘nolarni ifodalagan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda: 1) bir gap ikkinchi bir gapdan anglashilgan ish-harakatning sababini ko‘rsatsa: «Men u yil dehqonchilikdan hech narsa ololmadim: kuzgi bug‘doyning boshhoqlari shira olayotgan vaqtda havoda ola bulut paydo bo‘lib, boshhoqlar kuyib, qovjirab ketdi». (S. A.); 2) bir gap ikkinchi bir gapdan anglashilgan ish-harakatning natijasini ko‘rsatsa: Xo‘ja G‘iyosiddin Hirotdagi ba‘zi mashhur zotlarni go‘zal taqlid qildi: o‘tirganlar o‘rinlaridan qo‘zg‘ololmay qoldilar. (O.); 3) agar biror gap boshqa bir gapning mazmunini to‘ldirsa yoki izohlasa: Qosimmurod aytardi: agar qo‘rqmasang, eng odamxo‘r daryo ham hech nima qilolmaydi – suvning o‘zi qirg‘oqqa chiqarib qo‘yadi. (O.); Nuqtali vergul bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar tugal fikrni anglatib, bir-biriga mazmunan bog‘lanmagan hollarda qo‘yiladi: Mehnat, ijod, odam sharafi; Dil yorug‘i, hayot

quvonchi – Hammasining asli, manbai – Sen, Vatanim – tinchlik tayanchi. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar mazmuni voqealar bir-biriga qiyoslanganda ishlatiladi: Yaxshini yomon dema, olising bo‘lsa ham; Yomonni yaxshi dema, yaqining bo‘lsa ham. Uyushiq bo‘laklar guruhlanib, o‘zaro vergullar yordamida birbiridan ajratilganda, har bir guruhni anglatuvchi so‘zdan keyin nuqtali vergul qo‘yiladi: Gerb rangli tasvirda bo‘lib, humo qushi kumush rangda; quyosh, boshloqlar, paxta chanog‘i va «O‘zbekiston» degan yozuv tilla rangda; g‘o‘za shoxlari va barglari, vodiylar yashil rangda; tog‘lar havo rangda; chanoqdagi paxta, daryolar, yarimoy va yulduz oq rangda; O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i tasvirlangan lenta to‘rt xil rangda beriladi. Reja, qaror, farmon, buyruq, qonun va shu kabilarning oxirgi bandidan tashqari har bir bandi oxirida nuqtali vergul qo‘yiladi. Qo‘shirnoq quyidagi o‘rinlarda qo‘llanadi: ko‘chirma gaplarni ajratib ko‘rsatish uchun qo‘yiladi; kinoya bilan aytilgan so‘z yoki so‘z birikmalari qo‘shirnoqqa olinadi: - Rahmat, “juda xursand qildingiz...” . Badiiy asarlar, ayrim uyushma, korxonalar nomi, orden va medall nomlari qo‘shirnoqqa olinadi: «Layli va Majnun» dostoni, «Mustaqillik ordeni», «Yulduz» ishlab chiqarish birlashmasi. Qo‘shirnoqqa olingan so‘z turlovchi qo‘shimcha bilan kelsa, bu qo‘shimcha qo‘shirnoqdan keyin qo‘yiladi:... erining «kirdikori»dan xabardor bo‘lganday o‘smoqchiladi Shakarxon. (H.N) Gaplar qo‘shirnoqqa olinganda so‘roq, undov belgilari qo‘shirnoq ichida, nuqta, vergul qo‘shirnoqdan tashqarida qo‘yiladi. So‘roq va undov belgilari, so‘roq belgisi va ko‘p nuqta, undov belgisi va ko‘p nuqta birikkan holda qo‘llanadi: Ayb kimda?... Uyatni bilasizmi!...<sup>13</sup> Ikki nuqta bilan tire ayrim hollarda bir xil vaziyat hosil qiladi. Masalan, bir o‘rinda ham ikki nuqta, ham tire qo‘yish mumkin bo‘ladi: To‘rt mashina sement yubordik: guruhlarga teng taqsimlansin. To‘rt mashina sement yubordik – guruhlarga teng taqsimlansin. Bunday holda mazmun o‘zgarmasa ham, uslubiyatda farq seziladi: ikki nuqta qo‘yilganda izoh, tire qo‘yilganda ta’kid ifodalanadi.<sup>55</sup>

Bunday holat boshqa tinish belgilari bilan bo‘lgan munosabatda ham namoyon bo‘ladi. Ya’ni bir gap mazmunidagi qaysi uslubiy jihat ustunligiga qarab, vergul, ikki nuqta, tire qo‘yiladi: Suv keldi, qaqragan cho‘llar obod bo‘ldi. Suv keldi: qaqragan cho‘llar obod bo‘ldi. Suv keldi – qaqragan cho‘llar obod bo‘ldi. Vergul qo‘yilganda ketma-ketlik, ikki nuqta qo‘yilganda natija, tire qo‘yilganda ta’kid ma’nolari ifodalanadi. Shu bois bunday o‘rinlarda qaysi tinish belgisi qo‘yilishini qat’iy tarzda qoidalashtirib bo‘lmaydi.

-b, -ib: vergul kerakmi yoki yo‘q? Gapda -(i)b qo‘shimchasi bilan yasalgan ravishdoshlardan so‘ng ko‘pincha vergul qo‘yiladi. Lekin har doim ham emas.

<sup>55</sup>Tinish belgilari mazmuni akademik litsey darsliklari materiallari asosida yoritildi.

Amaliyotda ravishdoshlardan so'ng o'rni bo'lsa-bo'lmasa vergul qo'yaverish ko'p uchraydi. Xo'sh, qachon vergul qo'yish kerak? Ravishdosh va undan keyin kelayotgan fe'l alohida-alohida, ketma-ket yoki birdan ortiq harakat-holatni ifodalasa, vergul ishlatiladi: *Sigirlarni kim sug'orib, qo'ylarga kim yem beradi?* Bu jumlada ikki xil, alohida-alohida harakat ifodalanyapti va ular vergul bilan ajratilyapti. *Siroj egma ko'prikdan o'tib, ko'l o'rtasidagi choyxonaga kirdi.* S. Zunnunova, Odamlar orasida. Bu gapda ketma-ket harakat ifodalangan. *Siroj oldin ko'prikdan o'tgan, keyin choyxonaga kirgan.* *Bozorqul bunday paytlarda bosh egib, xomush o'tirardi.* A. Muxtor, Chinor Bu gapda birdan ortiq harakat-holat bor, xuddi uyushiq bo'laklardagi kabi bu o'rinda ham vergul qo'yish o'rinli. Xo'sh, qachon vergul qo'yilmaydi? Agar bittagina harakat ifodalansa, ravishdosh shu harakatni sifatlasa, vergul kerak emas: *Tayyor fotosuratdan foydalanib rasm chizamiz.* Bu gapda ish-harakat bitta: rasm chizish. Foydalanib so'zi qanday holatda?, qay shaklda? so'rog'iga javob bo'lyapti. Bu yerda birdan ortiq harakat ifodalanmagani uchun vergul kerak emas. *U kulib gapirdi.* Bu gapda *kulib* so'zi gapirish holatini aks ettiryapti, unga mazmunan bog'liq. Shu sababli vergul kerak emas. *Arzimas gapdan fig'oni falakka chiqib ketganini qarang!* Bu jumlada fig'oni falakka chiqib birikmasi ibora bo'lgani uchun vergul talab qilmaydi. Turg'un birikmalar yaxlit shaklda ma'no kasb etgani uchun ular xuddi bir so'z kabi qabul qilinadi. Ravishdosh shaklida bo'lsa-da, vergul talab qilmaydigan ba'zi so'z va iboralar bor. Lekin ularning vazifasi va mazmuniga e'tibor bermaslik oqibatida xatolarga yo'l qo'yiladi. Tinish belgilarini ko'p va o'rinsiz qo'llash matnning tushunarliklik darajasini tushiradi. Mazmuni yaxshi anglashilmagan matnning qiymati kamayadi. Tinish belgilarini qo'llashdan maqsad favqulodda bilimdonlikni namoyish etish emas, fikrni tushunarli ifodalash. Mazmun talab qilsa, o'ta zarur bo'lsagina, tinish belgisini ishlatish kerak. Tinish belgisi maqsad va nutqiy vaziyatdan kelib chiqqan holda qo'yiladi. Uslubiy xatolar – so'z tanlash, sinonim, paronimlarni, qo'shimchalarni noto'g'ri qo'llash bilan bog'liq xatolar.

Adabiy nutq – muayyan tarixiy bosqichlarda ishlangan, qat'iy me'yorlarga ega bo'lgan nutq ko'rinishidir. Adabiy nutqning muayyan sohadagi muloqot uchun moslashtirilgan, bir qator o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanib turadigan ko'rinishlari – uslublari mavjud. Nutqning ijtimoiy vazifasiga qarab uslub turlari har xil bo'ladi: har bir ijtimoiy qatlam, toifaning o'z nutq uslubi bo'ladi. Shunga ko'ra, uslub, avvalo, so'zlashuv va yozma nutq uslublari bo'linadi. Jamiyat vakillarining o'zaro og'zaki muloqot jarayoni, sheva ko'rinishlari so'zlashuv uslubini tashkil etadi. Og'zaki nutq keng imkoniyatlarga ega. Og'zaki muloqot jarayonida fonetik, paralingvistik vositalardan unumli foydalanish mumkin. Og'zaki nutq so'zlovchining maqsadi, ruhiyati, suhbatdoshga munosabatini ifodalash xususiyatiga ega. Og'zaki nutqqa o'zgaruvchanlik, yozma nutqqa esa

turg'unlik xos. Yozma nutq ma'lum bir fonetik, leksik, grammatik qonuniyatlarga asoslanadi. Yozma nutq fikrning adabiy til me'yorlari asosidagi ifodasidir. O'z navbatida, yozma nutq ruhiyatni, hissiyotlarni, orzu-umidlarni to'laroq aks ettirish imkoniyatiga ega. Ba'zan so'zlovchi og'zaki muloqotda ayta olmagan fikrlarini, orzu-o'ylarini yozma nutq orqali ta'sirchan, obrazli tarzda ifoda etadi. Yozish uchun nutq uslublari yaxshi o'zlashtirilishi kerak. Undan badiiy uslubning o'ziga xos jihatlarini, boshqa uslublardan, jumladan, ilmiy uslubdan farqini yaxshi anglash talab etiladi. Uslub xususiyatlari yaxshi o'zlashtirilganda tushunchalarni ilmiy uslubda ta'riflash oson kechadi. Masalan, lola so'zini ilmiy uslubda ta'riflaydi: Piyozguldoshlar oilasiga mansub bir yillik o'simlik. Qir-adirlarda, tog'larda o'sadi. Qizil, sariq ranglarda bo'ladi. Bunda ilmiy uslubda terminlar, shartli belgilarning qo'llanishi, so'zlarning o'z ma'nosida kelishi, ko'chma ma'nodagi so'zlarning qo'llanmasligi haqidagi bilimlarni yanada boyitadi. Akademik yozuv malakasini egallashda leksikologiya sohasida muayyan darajada bilimga ega bo'lishi zarur. So'z ma'nosini, metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi semantik ko'chishlar mohiyatini yaxshi anglashi kerak. Metaforani o'rganish jarayonida o'xshashlik haqida, metonimiyani o'rganish jarayonida aloqadorlik, sinekdoxani o'rganish jarayonida butun-qism munosabati haqida fikrlash zarurdir. Semantik ko'chish asoslari haqidagi ma'lumotlar yodda saqlansa, keltirilgan misollarga analogiya tarzida yangi misollar topiladi, bu esa o'ziga xos ko'chimlarni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, ijodiy matn yaratishda, fikrni ta'sirchan, obrazli ifodalashda muhimdir. Ilmiy matn talab darajasida bo'lishi uchun nutq uslublari mukammal o'zlashtirish talab etiladi. Uslub turlari yaxshi o'zlashtirilmasa, matnda xatolarga yo'l qo'yiladi. Uslubiy xatolar leksik, morfologik me'yorlarning buzilishi natijasida yuzaga keladi. Uslubiy xatolar sinonimlarni qo'llashda kuzatiladi: bashara afti-angor. Uslubiy xatolarning ma'lum qismi so'z tanlash bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, insonga nisbatan qulamoq, narsa-buyumga nisbatan yiqilmoq, ashulaga nisbatan chiroyli so'zlarini qo'llash noto'g'ri. Paxta gulladi birikuvi ham uslubiy jihatdan xatodir. Paronimlarni noto'g'ri qo'llash uslubiy xatolarni yuzaga keltiradi. Paronimlar orfoepiya me'yoring buzilishi natijasida yuzaga keladi. Aytilishi (talaffuzi) jihatidan o'xshash, ammo yozilishi va ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar paronimlardir: yuvindi-yuvundi, kuyindi-kuyundi, fakt-pakt, abzal-afzal, yoriq-yorug', quyulmoq quyilmoq, arch-art, otalik-otaliq, borlik-borliq, yonilg'i-yoqilg'i, matal-ma'tal (mahtal), jodi-jodu, yondosh-yondash, bob-bop, bod-bot, tub-tup, tanbur-tambur, daha-daho, sira-sara, xiyol-xayol, sada-sado, juda-judo, qism-qisim, adl-adil, ahl-ahil, asr-asir, azm-azim, tuyilmoq-tuyulmoq, kift-kaft, yod-yot, darz-dars, ramz-razm, qarzqars, qayd-qayt, naq-naqd, o'tkazmoq-o'tqazmoq. Talaffuzi yaqin bo'lganligi uchun bunday so'zlarni bir-biri bilan almashtirib qo'yish ehtimoli bor.

Paronimlar birining o'rnida ikkinchisi qo'llanib, borabora bir so'z shakliga aylanib ketgan holatlar ham uchraydi. Masalan, tunamoq-to'namoq paronimlarining har ikki o'rinda ham, aksariyat hollarda, tunamoq shakli qo'llanadi. Bir so'zning ikki xil yozilishi paronim hisoblanmaydi: podsho-podshoh, gado-gadoy, kaptar-kabutar, nabira-nevara. Bunday so'zlar dubletlar bo'lib, har ikki shakl ham xato hisoblanmaydi. Dubletlarning yuzaga kelishiga o'zlashgan so'zlarning asl holatidagi imlosi va o'zbek tili talaffuz me'yorlariga moslashgan ko'rinishi sabab bo'lgan. Keyingi paytda bunday so'zlar ko'paydi: darvesh-darvish, fojea-fojia. Bu imlo qoidalarini takomillashtirishga to'sqinlik qiluvchi salbiy holatdir. Paronimlar og'zaki talaffuz me'yorlari bilan bo'g'liq bo'lib, bir qator uslubiy xatolarga sabab bo'ladi: Yaxshiga yondosh – yomondan qoch. Bu o'rinda yondosh paronimi yondash o'rnida qo'llangan. Buning ikki sababi bor: birinchidan, yondosh (sifat) – yondash (fe'l) so'zlarining talaffuzda o'xshashligi, ikkinchidan, qoch so'ziga qofiyadoshlik talabi. Onangni boshda tutsang, singlingni kaftingda tut maqolida kift so'zining paronimi noto'g'ri qo'llangan. Shahrimiz ko'chalaridagi poyafzal, yoqilg'i quyish shahobchasi mazmunidagi birikmalar, Hush kelibsiz undovi ham paronim bilan bog'liq xatolarga misol bo'ladi (aslida: poyabzal, yonilg'i quyish shahobchasi, Xush kelibsiz shaklida bo'lishi kerak). Uslubiy xatolar grammatik me'yorlarning buzilishi natijasida ham yuzaga keladi. Uslubiy xatolarning ma'lum qismi –li /-lik; -ni/- ning qo'shimchalarini qo'llash bilan bog'liq. -li mavjudlikni bildiruvchi sifat yasovchi qo'shimcha. –li qo'shimchasi shaxsning mavjudligini (bolali), shaxslararo munosabat mavjudligini (oilali), belgi-xususiyatning kam darajada mavjudligini (yog'li qo'l), belgi-xususiyatning me'yordan ortiq darajada mavjudligini (yog'li palov) bildiradi. -lik qo'shimchasi mansublikni (o'zbekistonlik), xoslikni (bolalik) bildiradi, mavhum ot yasaydi (shodlik). Bolalik uy – bozor, bolasiz uy– mozor maqolida -lik qo'shimchasi -li o'rnida noto'g'ri qo'llangan. -ning qo'shimchasi ot+ot tipidagi birikmalarni shakllantiradi: uzumning sharbat, do'stimning suhbat. Hokim so'zdagi egalik shakli –ning qo'shimchasi qo'shilishini ko'rsatuvchi asos bo'ladi. -ni ot+fe'l tipidagi birikuvlarni yuzaga keltiradi: kinoni ko'rmoq, suvni ichmoq. So'zlashuv jarayonida ko'p hollarda -ning o'rnida -ni noto'g'ri qo'llanadi: cho'lni qovuni, hayotini mazmuni, so'zni qudrati kabi. Mantiqiy xatolar – jumla mazmuni, mantiq bilan bog'liq xatolar. Shunday mantiqiy xatolar borki, ularni har doim ham ilg'ash qiyin. Masalan, Momaqaldiroq guldurab, chaqmoq chaqdi va sharros yomg'ir quya boshladi; Chaqmoq chaqib, momaqaldiroq gumburladi jumlasida omaqaldiroqning gumburlashi va chaqmoqning chaqishi ketma-ket ro'y beradigan hodisa sifatida ifoda etilmoqda. Aslida bu ikki jarayon bir vaqtda sodir bo'lib, yorug'lik tezligi tovush tezligidan katta bo'lgani sababli dastlab chaqmoq chaqib, keyin momaqaldiroq gumburlagandek tuyuladi. Quyosh chiqdi, kun tikkaga keldi kabi

birikuvlar ham mantiqiy jihatdan xatodir. Ilmiy ish mavzusini yoritishda faktik materiallardan foydalanish talab etiladi. Faktik materiallar matnning aniqlik, ishonarlilik darajasini orttiradi. Faktik materiallardan noto‘g‘ri foydalanish, asar mualliflarini xato ko‘rsatish baholash natijasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Xullas, faktik materiallardan foydalanish me‘yor darajasida bo‘lishi kerak. Me‘yordan ortiq faktik materiallarning berilishi quruq bayonchilikka olib keladi. O‘quvchi muayyan mavzu asosida yozar ekan, dastavval, o‘zi o‘qigan materiallarga, ma‘lumotlarga asoslanadi. O‘qigan manbalari asosidagi mulohazalarini bayon etadi. Shuning barobarida yozma ish o‘quvchining qo‘yilgan masalaga bevosita munosabati, mustaqil yondashuvi asosida shakllantirilmog‘i kerak.

### **1. Nazariy savollar:**

1. Annotatsiya nima va uning asosiy vazifasi nimadan iborat?
2. Annotatsiyaning referatdan farqi nimada?
3. Ilmiy annotatsiya va badiiy asar annotatsiyasi o‘rtasidagi farqlarni tushuntiring.
4. Annotatsiya yozishda qaysi elementlar albatta bo‘lishi kerak?
5. Annotatsiya hajmi nechog‘li bo‘lishi maqsadga muvofiq?
6. Imlo savodxonlik tushunchasiga ta‘rif bering.
7. Imlo savodxonlikning til madaniyati bilan bog‘liqligi nimada namoyon bo‘ladi?
8. Yangi o‘zbek imlo qoidalarida (2019) qaysi asosiy o‘zgarishlar kiritilgan?
9. Imlo savodxonlikni shakllantirishda psixolingvistik yondashuv qanday ahamiyatga ega?
10. Imlo xatolarining asosiy turlari va ularning sabablari nimalardan iborat?

### **2. Amaliy topshiriqlar:**

1. Quyidagi matn uchun 3–4 gapdan iborat annotatsiya yozing (matnni o‘qituvchi beradi).
2. Berilgan annotatsiyada kamchiliklarni toping va tuzating.
3. Annotatsiyada ishlatilgan 3 ta asosiy so‘zni ajrating va ular bilan yangi gaplar tuzing.
4. Annotatsiya matnida bo‘lishi mumkin bo‘lmagan ortiqcha ma‘lumotlarni belgilang.
5. Quyidagi so‘zlarni imlo qoidalariga muvofiq to‘g‘ri yozing:
  - o ...kitob, ...xalqaro, ...e‘tibor, ...qiyos, ...muammo
6. Matndan uchta imlo xatosini toping va to‘g‘rilang.
7. Berilgan gaplarni tinish belgilariga rioya qilgan holda yozing:
8. Bugun ertalab darsga kech qoldim chunki avtobus kechikdi
9. Bahorda tabiat uyg‘onadi hamma joy yashillikka burkanadi
10. So‘zlarni to‘g‘ri yozilishiga qarab ikki guruhga ajrating: “to‘g‘ri” va “xato” (masalan: qog‘oz – qogo‘z).

### **3. Ijodiy topshiriqlar:**

1. O‘zingiz o‘qigan bir kitobga qisqa annotatsiya yozing.
  2. Bir maqola uchun ikki xil annotatsiya tuzing: biri **ilmiy uslubda**, biri **badiiy uslubda**.
  3. Annotatsiya yozishda asar nomi, mavzu va maqsadini o‘z ichiga olgan, ammo xulosa bermaydigan matn tuzing.
  4. “Imlo savodxonlik — yozma nutq madaniyatining poydevori” mavzusida 5–6 gapdan iborat kichik matn tuzing.
  5. O‘zingiz tanlagan 10 so‘z bo‘yicha imlo lug‘atini tuzing (so‘z, izoh, misol bilan).
  6. Berilgan rasm asosida kichik hikoya yozing, lekin hikoyada kamida 3 ta murakkab so‘z va 2 ta tinish belgisi qoidasi qo‘llansin.
  7. O‘zingiz yaratgan 5 ta gapda bir xil imlo xatosini ataylab qoldiring va sinfdoshingizdan uni topishni so‘rang (o‘zaro tahrir).
- “Klishelashtirilgan” iboralardan foydalanib, maqolalarga annotasiyalar tuzing:
- Annotasiya matnidagi klishelashtirilgan iboralar va so‘z birikmalari: Maqolada...lar ko‘rib chiqilgan....ko‘rsatilgan....ning tavsifnomasi katta o‘rin egallaydi. ...keng material keltirilgan.
- Tadqiqot ...kabi muhim muammolarni ko‘rib chiqish orqali yuritiladi.... ning mohiyatini ochishda Muallif ...ning ilmiy ta’rifini birinchi marta beradi va hokazo.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullayeva N. A., Muhiddinova X. S. Rasmiy uslubning diplomatik turlari. Toshkent, 1997.
2. Ахмедова М. Нутқ маданияти ва профессионал нотиқлик. ТАТУ, 2017, 114 б.
3. Аминов М., Мадвалиев А., Махкамов Н., Махмудов Н. Иш юритиш (амалий қўлланма). Тошкент, 2017. – 440 б.
4. Karimov, A. (2016). O‘quvchilarda imlo savodxonligini shakllantirish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi.
5. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Toshkent: Fan, 1992. – 254 b.
6. Qo‘shjonov, M. (2002). Til madaniyati asoslari. Toshkent: Fan.
7. N. Jiyanova, O. Mo‘ydinova. Nutq madaniyati. Toshkent: Ilm ziyo zakovat, 2019. – 221 b.
8. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. (2020). O‘zbek tilining imlo lug‘ati. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti instituti.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2019). O‘zbek tilining imlo qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida qaror. Toshkent.
10. Rahmatullayeva, G‘. (2018). O‘zbek tili imlo qoidalari va yozuv madaniyati. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.

11. Husanov N., Rasulov, Mo'ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2006.
12. Xolmonova Z. Adabiy tildan ma'ruzalar umumlashmasi. Toshkent: O'zbekiston, 2013. – 250 b.
13. M. Abdurahmanova. O'zbek tili fanidan uslubiy qo'llanma

**Foydalanilgan [internet saytlari](#)**

- Arxiv.uz
- Fayllar.org
- Izoh.uz

## 10- Mavzu: ESSE HAQIDA TUSHUNCHA. ESSE TURLARI.

Reja:

1. Esse haqida nazariy ma'lumot
2. Esse turlari va ularning o'ziga xos jihatlari
3. Esse yozish uchun ko'nikma va malakalarni shakllantirish yo'llari

Esse – fransuz tilida “essai” – “tajriba”, ingliz tilida “essay”, “assay” – intilish, ijodiy sinov, ocherk; lotincha “exagium” – “o'ylash” degan ma'noni bildiradi. Esse kreativ fikrlash, mavzuga munosabat bildish, shuningdek, sabab-oqibat-yechim uchligi asosida mavzuga mantiqiy yondasha olish, to'g'ri mushohada yuritish, sarhisob qilish, muammoga obyektiv yondashish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.<sup>56</sup> Esse yozish o'quvchilarga o'z fikrini erkin bildirishga, mavzuga aloqador ma'lumotni ongli qabul qilishga va tushunishga, muammoning yechimini topishga aloqador dalillardan foydalanib, o'z xulosasini aniq va savodli bayon etishga imkon yaratadi. Muhimi, keltirilgan fakt va dalillarning o'rinli qo'llanishidir. Bunda faqatgina umumiy tushunchalar bilan tanish bo'lish yetarli emas. Esse haqida ilmiy ma'lumot

### Esse yozish bosqichlari

1. **Mavzuni tanlash** – qiziqarli va muallif uchun dolzarb bo'lishi kerak.
2. **Reja tuzish** – kirish, asosiy qism, xulosa.
3. **Material yig'ish** – dalillar, faktlar, iqtiboslar.
4. **Matn yozish** – erkin, lekin mantiqiy izchillikda.
5. **Tahrir qilish** – imlo, uslub va mazmunni tekshirish.

### Kirish qismi uchun klishealar:

- “Mening fikrimcha...”
- “Bu mavzu menga shuning uchun qiziqki...”
- “Mavzu dolzarbligi shundaki...”

### Xulosa qismi uchun klishealar:

- “Yuqoridagi fikrlarga asoslanib...”
- “Natijada quyidagi xulosaga kelish mumkin...”
- “Shunday qilib...”

Talabalar har qanday mavzudagi qarama-qarshi fikrlar va qarashlarni o'zlashtirishlari, ya'ni ularni tahlil va kerak bo'lsa tanqid qilib ham o'rganishlari talab qilinadi. Muhokama va bahs olib borish usullari va ilmiy tarzda o'z xulosalarini taqdim etish yo'llari muhim ahamiyatga ega. “Esse yozish — bu nafaqat adabiy ko'nikma, balki tahliliy va mantiqiy fikrlash malakasini rivojlantiruvchi ijodiy jarayondir”<sup>57</sup>

### Essening turlari:

<sup>56</sup> Xolmatov, Sh. (2018). *Nutq madaniyati va yozma uslublar*. Toshkent: Fan. 112-b.

<sup>57</sup> Karimova, N. (2021). *Ijodiy yozuv va esse janri*. Samarqand: SamDU nashriyoti. 78-b.

- Argumentli
- Qiyosiy
- Analitik
- Interpretatsion
- Muammo va yechim

Esse qanday yozilish kerak?

### **Essening tuzilishi.**

#### **Kirish**


Kirish – mavzuni mantiqiy va uslubiy jihatdan bog‘lab oydinlashtirish. Bu bosqichda qalamga olingan mavzuni yoritish uchun savolni to‘g‘ri qo‘yish muhim. Chunonchi, bu o‘rinda esse yozuvchi “Kirish qismida ushbu mavzuga ma’lumot berishkerakmi?”, “Men tanlagan mavzuning dolzarbligi qay darajada?”, “Men esse yozish davomida o‘z fikrimni dalillash uchun qanday manbalarga tayanaman?”, “Men kalit so‘zdan kelib chiqqan holda tezis qo‘ya olamanmi?” kabi savollarni o‘z oldiga qo‘yishi va shuning tevaragida fikr yuritgani ma’qul.

Essening kirish qismi kamida, ikki xatboshidan iborat bo‘lishi va har bir xatboshida ikki-uch gap ifodalanishi mumkin. O‘quvchini qiziqtirish, uning e’tiborini jalb etish maqsadida essening kirish qismi jonli va aniq yozilishi kerak. Bunda xitob, undov, shaxsiy tajribaga ishora, ritorik so‘roq kabilardan foydalanish o‘rinlidir. Kirish qismida esse mavzusiga tushuncha beriladi, shu orqali esse mavzusi qanday tushunilganlik aniqlanadi va bu mavzu nima uchun dolzarb ekanligi yoritiladi. Mavzu va uning dolzarbligi yoritilgandan keyin tezis qo‘yiladi.

Tezisdan keyin asosiy qismga bog‘lovchi gap yoziladi. Agar tezis aniq va yaqqol berilsa, gap yozilmasligi ham mumkin. Tezis qo‘yish essening eng muhim shartlaridan biridir. Tezis – essening kaliti. Kaliti topilmasa, essening asosiy maqsadiga yetish qiyin.

Tezis – muallifning shaxsiy nuqtayi nazarini bildirib, asosiy qismda isbotlanadigan fikrni yo‘naltiruvchi g‘oya hisoblanadi. Tezis essening kirish qismida yoziladi.

#### **1.**



**Parafraza**- bu bir xil fikrni ifodalash uchun turli soʻzlar va iboralardan foydalanish usuli. Bunda esse yozish uchun berilgan mavzuning umumiy maʼnosi saqlanib qolinadi. Parafraza uchun quyidagi jihatlar zarur:

- soʻzma-soʻz qilinmasligi kerak.
- turli xil grammatikadan foydalanish tavsiya etiladi.
- mavzudan chetga chiqmaslik kerak.

**Muallif fikri**- esseda muallifning pozitsiyasi. Esse turlariga qarab ushbu qism turli koʻrinishlarga ega boʻlishi mumkin.

*Mening fikrimcha, Men oʻylaymanki* va boshqa birikmalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

**Argumentlar** – esse tarkibiy qismlarining qisqacha ifodasi.

## 2. 1-qism (Asosiy fikrning +/- tomoni)

Asosiy boʻlim – mavzuning nazariy asosi va savolning mazmunini bayon etuvchi boʻlim. Bunda mavzuga mos barcha bilimlar, asosiy fikr va muammoga bogʻliq dalil va faktlar jamlangan boʻlib, unda dalillar, xabarlar, turli statistik maʼlumotlardan foydalanib, mavzu yoritiladi, koʻtarilgan muammoning kelib chiqish sabablari oydinlashtiriladi. Bu jarayon birmuncha murakkabroq kechadi. Shu sababli, asosiy boʻlimni bir necha kichik qismlarga boʻlish mumkin. Har bir qismni dalillar asosida yoritish asosiy savolga javob topishga koʻmaklashadi. Oʻquvchining keltirilgan fakt va dalillarni taqqoslab, oʻz qarashlarini tahlil orqali koʻrsatib borishi asosiy boʻlimning toʻliq yoritilishiga imkon beradi. Qismlarga toʻgʻri ajratish va izchillik bilan bayon etish mavzuning yoritilishidagi mantiqiylikni taʼminlaydi.

Dalillar – o‘quvchi tomonidan aytilgan fikrni isbotlash uchun keltiriladigan ko‘chirma (maqol, sitata, hikmatli so‘z, rivoyat, she’riy parchalar va h.k.). Qo‘yilgan tezisga kamida ikkitadan dalillar keltirilishi kerak.

Asosiy qismni yoritish uchun kerakli ma’lumotlarni keltirish jarayonida qo‘yilayotgan masalaga o‘quvchining shaxsiy munosabatini bildiruvchi, shuning bilan birga, *menimcha, mening fikrimcha, birinchidan, ikkinchidan, shu kabi, demak, biroq, unday bo‘lsa* kabi kirish so‘zlardan foydalanish o‘rinli bo‘ladi.


1. Mavzu haqidagi birikma va gap. Men shuni aytmoqchimanki...

2. Fikrni boshlash uchun bog‘lovchilar. Birinchidan...

3. Asosiy fikr.

4. Asosiy fikr dalillar asosida tushuntirilishi.

5. Kuchli misol berilishi.



### 3. 2-qism (Asosiy fikrning +/- tomoni)


1. Keying fikrni boshlash uchun birikma. Shuningdek, Bundan tashqari...

2. Fikrni boshlash uchun bog‘lovchilar. Ikkinchidan...

3. Asosiy fikr.

4. Asosiy fikr dalillar asosida tushuntirilishi.

5. Kuchli misol berilishi.



### 3. Xulosa.


Xulosa – mavzu bo‘yicha chiqariladigan yakuniy jumlar bo‘lib, unda yangi fikr-mulohazalar bildirilmaydi, balki dalillarga suyanan holda yakun chiqarilib, uni yechish yo‘llari ko‘rsatiladi.

Essening yakuniy qismida asosiy qismda berilgan muammoning yechimi tasdiqlanadi va mazmunning mohiyati ochiladi, ya’ni “Esse boshida ko‘tarilgan

masala bo'yicha nima deyish mumkin?" degan savolga aniq va tushunarli javob tarzida yozilishi kerak.

Xulosa qismida quyidagi kirish so'zlardan foydalaniladi: **men shunday xulosaga keldimki.., qisqasi, asosiy fikrim shuki.., xulosa qilib aytganda...** va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, Xulosa qiladigan bo'lsak .. kabi birikmalardan foydalanib, birinchi va ikkinchi qismlardagi fikrlar qaytadan parafraza qilinib, aniq yechim beriladi.



### 3-qism. “Men bilaman” Esse matni tarkibidagi qismlarga oid, imloviy, ishoraviy va grammatik xatoliklarni tuzating.

*Bugungi kunda barcha insonlar texnik qurilmalardan, ayniqsa, telefondan muntazam foydalanmoqda. Kishilarda telefondan foydalanishning afzalligi hamda zararli jihatlari haqida ijobiy va salbiy fikrlar mavjud. Fikrlaringizni hayotiy misollar bilan asoslagan holda mavzuni yozing.*

Men shuni aytmoqchimanki, zamonaviy telefonlar insonlar uchun o‘z o‘rnida manfaatli bo‘ladi. Birinchidan, zarur elektron shakldagi kitoblardan telefonimizda doimiy ravishda foydalanish mumkin. Ikkinchidan, telegram yoki facebook kabi dasturiy ta’minot bugungi iqtisodiy ish jarayonini ancha yengillashtirdi. Uchinchidan, olisdagi yaqinlarimiz yoki aniq hamkorlarimiz bilan muntazam aloqa qilishimiz, axborotlarni tezkor tarzda ishlab chiqarish yoki qabul qilishimiz mumkin bo‘ladi.

Bugungi globallashuv davrida mamlakatimizdagi har bir inson telefondan foydalanadi. Ayniqsa, yosh avlod o‘z hayotini, ya’ni turmush tarzini telefonsiz tasavvur eta olmaydi. Nahotki, telefon yoxud shunday muqobil qurilmalar biz uchun juda zarur bo‘lsa?

Menimcha, jamiyatimiz a’zolari orasida zamonaviy telefonlardan unumli foydalanmasdan, balki vaqtini behuda o‘tkazayotganlar ham uchrab turibdi. Ular har xil zararli o‘yinlar orqali o‘zlariga ziyon keltirmoqdalar. Bir qo‘shnimizning "1 Xbet" o‘yini orqali ancha moddiy zarar ko'rgani fikrimizning isboti bo‘la oladi, deb o‘ylayman. Ayniqsa, hozirgi yoshlar orasida telefondagi suhbatlarga ko‘p. vaqtini sarflayotganlar ham topiladi. ..., hamma narsadan ham o‘rinli va unumli foydalanishni bilish kerak. Dono xalqimiz: “Tanganing ikki tarafi bor”, - deb bejiz aytmagan. xulosam, men hozirgi kunda o‘z telefonimga “Astron” ilovasini yuklab oldim hamda oliy ta’lim uchun tayyorgarlik ko‘rmoqdaman.

Xulosa qilib aytganda, ayrim insonlar zamonaviy telefonlarga salbiy munosabat bildirishadilar, lekin men ushbu esse orqali telefonning foydalari haqida ham to'xtalib o'tdim. Telefon bizning ko'p vaqtimizni o'g'irlamaydi, balki biz ko'p vaqtimizni telefonga sovg'a qilib qo'yayotgandirmiz. Zamonaviy telefonlardan ongli ravishda foydalanishga harakat qilishimiz masalaning yechimi bo'la oladi, deb o'ylaydi.



Esse turlari bilan tanishamiz!

|                                                                                                                                                                                          |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Argumentli esse- ushbu turdagi esselarda ma'lum bir mavzuda ikki xil qarash mavjud va o'quvchidan o'z pozitsiyasini egallashi so'raladi. Bunda fikrlar dalillar bilan isbotlanish lozim. |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

### Namuna

*Mavzu: Ba'zi odamlar kutubxonalar jamiyatda ma'lumot olish va kitoblardan foydalanish joyi sifatida muhim ahamiyatga ega, deydi. Boshqalarning aytishicha, kompyuterlar rivojlangani sari kutubxonalarga pul va resurslarni behuda sarflashdir. Ikkala fikrni muhokama qiling va o'z fikringizni bildiring.*

Bugungi dunyoda kitobxonlik har bir inson hayotida muhim o'rin tutadi. Kutubxonalar jamiyatda ma'lumot olish va kitob o'qish uchun zarur, deb ta'kidlaydiganlar soni ko'paydi, boshqalari esa kompyuter va telefon kabi texnologiyalarning rivojlanishi tufayli kutubxonalar shunchaki pul va resurslarni behuda sarflash deb hisoblashadi. Ushbu inshoda ikkala tomon ham muhokama qilinadi va men oxirida o'z nuqtai nazarimni bayon qilaman.

Tan olish kerakki, texnologiyaning yaxshilanishi dunyoni yaxshi tomonga o'zgartirdi. Hozirgi kunda odamlar kutubxonalarga borish o'rniga kitob va yangiliklar o'qish uchun kompyuter va telefonlardan foydalanadilar. Har kuni yangi maqolalar va tadqiqot nashrlari chiqadi va ularni Internetga yuklash imkoniyati so'nggi yangiliklarni bir zumda ko'rish imkonini beradi. Ular haqiqatan ham qulay va vaqtni tejaydi; shuning uchun odamlar ularni ko'proq ishlatishga moyil. Bundan tashqari, ular qog'oz va bosma ehtiyojni yo'q qiladi. Bu ekologik toza yechim topish imkonini beradi va qog'oz ishlab chiqarish uchun daraxtlarni kesish zaruriyatini tejaydi.

Boshqa tomondan, men kutubxonalar hali ham jamiyatda hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlagan bo'lardim. Birinchidan, ular nafaqat odamlar o'qish uchun boradigan joylar, balki o'xshash fikrli odamlar uchrashishi va fikr almashishi mumkin bo'lgan markazlardir. Ikkinchidan, odamlar u yerdan xohlagan kitoblarini topishlari mumkin va agar kerak bo'lsa, eslatma qilishlari mumkin. Shuningdek, odamlar mualliflar va o'qish materiallari mavzulari haqida o'z fikrlarini bir-birlari bilan baham ko'rishlari mumkin. o'zim misol tariqasida shuni aytishim mumkinki, men kutubxonaga tashrif buyurganimda o'z g'oyalarim va fikrlarimni boshqalar bilan baham ko'rishim mumkin va bu haqiqatan ham bilimimni boyitishimga yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kitoblar va yangiliklarni o'qish uchun kompyuter va mobil telefonlar yaxshiroq manba bo'lsa-da, men kutubxonalar jamiyatda hali ham muhim rol o'ynashiga va odamlar uchun ko'plab imtiyozlarga ega ekanligiga ishonaman.

Qiyosiy esse-uslub turdagi esselarda tushunchalarni taqqoslash va qiyoslash talab etiladigan savollar taqdim etiladi. Unda ikki narsa qiyoslanadi.

#### Namuna

*Mavzu: Ba'zi mamlakatlarda hukumat jamoat transportini asosiy transport vositasi sifatida targ'ib qiladi va shaxsiy transport vositalariga egalik qilishni rad etadi. Ushbu holatning afzalliklari va kamchiliklari qanday?*

Bugungi dunyoda texnologiya taraqqiyoti dunyoni, jumladan, transport tizimini ham yaxshi tomonga o'zgartirdi. Shu kunlarda hokimiyat shaxsiy sayohat usullaridan ko'ra tranzit yoki temir yo'llardan foydalanishni rag'batlantiradigan mamlakatlar sonining ko'payishi kuzatildi. Mening nuqtai nazarimdan, bu kamchiliklardan ko'ra ko'proq foyda keltiradi. Keyingi paragraflarda ushbu hodisaning ikkala tomoni ham muhokama qilinadi va men oxirida o'z nuqtai nazarimni bayon qilaman.


To'g'ri, bu sayohatga sarflangan vaqtga yomon ta'sir qiladi. Boshqacha qilib aytganda, uzoq kutish soatlari va muntazam to'xtashlar sayohatchilarning sabr-toqat darajasini sinovdan o'tkazmoqda. Misol uchun, hozirgi zamonda har bir kishi qizg'in turmush tarzini olib boradi va ular o'z vaqtlarini tejash uchun turli xil usullardan foydalanadilar va bu ular uchun jiddiy muammo bo'ladi. Bundan tashqari, bu avtomobil sanoati va mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir qiladi. Oddiy qilib aytganda, yuqori tariflar aholi va kompaniyalar tomonidan avtomobil, velosiped yoki boshqa transport vositalarini sotish yoki sotib olishda to'lanadi.

Boshqa tomondan, men bu tendensiya ko‘proq afzalliklarni keltirishi haqida bahslashaman. Birinchidan, agar hukumat odamlarni faqat jamoat transportidan foydalanishga undasa, atrof-muhit sezilarli darajada tozalanadi, chunki barcha transport vositalari va avtomobillar atrof-muhit uchun juda yomon bo‘lgan turli xil zaharli hidlarni ishlab chiqaradi. Eng katta afzalliklardan biri bu sayohat xavfsizligini oshirishdir. Poyezdlar va metro kabi jamoat transportining ko‘p turlari yuqori darajada avtomatlashtirilgan va belgilangan marshrutlarga amal qilganligi sababli ularda yo‘l-transport hodisalari kamroq uchraydi. Bundan tashqari, agar hukumat shaxsiy avtomashinalarga egalik qilishni to‘xtatsa, yo‘lda tirbandlik darajasi asta-sekin kamayadi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, tirbandlik tufayli bir milliarddan ortiq odam vafot etgan. Buning ustiga, mamlakatlarda havo ifloslanishi va shovqin sezilarli darajada pasaydi; hozir, shovqin butun dunyo bo‘ylab katta muammo bo‘lib, ko‘pchilik odamlar bundan aziyat chekmoqda. Hukumat avtobus va metrolardan foydalanishni boshlasa, bu ko‘rsatkich tabiiy ravishda pasayadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, shaxsiy avtomashinalarni cheklash odamlar uchun bir qancha kamchiliklarga ega bo‘lsa-da, menimcha, uning ijobiy tomonlari ko‘proq foyda keltiradi.

Interpretatsion esse-ushbu turdagi esselarda diagramma, chizma, grafik yoki rasm kabilar beriladi, ular asosida topshiriqqa javob berish talab qilinadi.

### Namuna



Berilgan diagramma davlatlarning 2006- va 2007-yillar oralig‘ida sarflangan pul xarajatlarini ko‘rsatmoqda. Jadvalda 2006-yildan 2010-yilgacha AQSh,

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari va boshqa noaniq davlatlar tomonidan xayriya qilingan pullar to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan.

Umuman olganda, AQShning ulushi o'sdi, Yevropa Ittifoqi va boshqa mamlakatlarda o'sish kuzatildi. Shunisi e'tiborga loyiqki, ushbu davrda umumiy pul miqdori oshgan.

Tafsilotlarga to'xtaladigan bo'lsak, 2006-yilda AQSH tomonidan xayriya qilingan bo'lib, bu mablag' Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga nisbatan 3,1 million dollarga nisbatan 9,8 million dollarni tashkil etgan bo'lsa, AQShning ulushi 2008-yilga kelib 17 million dollargacha ko'tarilib, 16 dollargacha kamaygan. 2009-yilda 19,7 million dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2010-yilda 20,3 million dollar cho'qqisiga chiqdi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari haqida gap ketganda, ular 2008-yilda 3,9 million dollarni tashkil etgan bo'lsa-da, 2009-yilda 3,6 million dollarga kamaygan bo'lsa-da, 2010-yilga kelib 4,1 million dollar bilan yakunlandi.

Bundan tashqari, avvaliga boshqa mamlakatlarning kursi 2,8 million dollarni tashkil etgan bo'lib, 2009-yilgacha har yili 4 va 3 million dollarga oshgan; Ular 2009-yilda 3,2 million dollarga kamaygan va 2010-yilga kelib 3,7 million dollar bilan yakunlangan. Shu bilan birga, ushbu davrda umumiy pul miqdori 15,7 milliondan 28,2 millionga oshgan.

MUAMMO VA YECHIM ESSESI. USHBU ESSELARDA MUAMMO VA UNING YECHIMLARI KO'RSATILADI

### Namuna

Mavzu- Ko'p odamlar yoshligida sport bilan shug'ullanadilar, lekin katta bo'lganda to'xtashadi. Nega kattalar jismoniy mashqlarni to'xtatadilar? Bu muammoni hal qilish uchun nima qilish mumkin?

Sport bilan shug'ullanish inson hayotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Odamlarning aksariyati yoshliklarida sport bilan shug'ullanish tendensiyalari mavjud, ammo ular ulg'aygach, buni to'xtatadilar. Ushbu hodisaning ko'plab aniq sabablari va uni hal qilishning mumkin bo'lgan yechimlari mavjud. Ushbu esseda ikkala tomon ham chuqur muhokama qilinadi. Bir tomondan, odamlarning katta bo'lganida sport bilan shug'ullanmasligining ba'zi sabablari bo'lishi mumkin.

Tabiiyki, yoshlarda mashq qilish uchun ko'p vaqt bor; ularda hech qanday mas'uliyat yo'q, lekin ular katta bo'lgach, o'qish, ishlash, martaba qilish va boshqa shu kabi ko'plab vazifalarni bajaradilar. Boshqacha aytganda, ular vaqt bilan bog'liq muammoga duch kelishadi. Yana bir muhim omil - bu oilaviy mas'uliyat. Aksariyat, ota-onalar o'z farzandlariga g'amxo'rlik qilish uchun ko'p vaqt

ajratishlari kerak, bu esa ularning sport bilan shug‘ullanish imkoniyatini kamaytiradi, chunki ular bolalarning sport mashg‘ulotlarini ta’minlashga ustuvor ahamiyat berishadi.

Boshqa tomondan, unga qarshi kurashish uchun ba’zi yondashuvlar mavjud. Birinchidan, hukumat aralashuvi, ya’ni haddan tashqari uzoq ish soatlarini qisqartiruvchi qoidalarni joriy qilish orqali ish va hayot muvozanatini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega va ular ba’zi mukofotlar uchun odamlar o‘rtasida musobaqalar o‘tkazishlari kerak. Bundan tashqari, ish beruvchilar o‘z xodimlarini jismoniy faoliyat bilan shug‘ullanishga undash orqali hal qiluvchi rol o‘ynashi mumkin. Eng yaxshi usullardan biri shundaki, jamiyat odamlar uchun qulay bo‘lgan dam olish markazlarini tashkil etishga harakat qilishi kerak. Agar ushbu sport inshooti ko‘pgina maskanlarda mavjud bo‘lsa, bu odamlarning qatnashishi uchun dalda bo‘ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, vaqt yetishmasligi tufayli katta yoshli insonlar sport bilan shug‘ullanmaydilar. Menimcha, hukumat va jamiyat ularni bu ishga ruhlantirishda katta rol o‘ynaydi.



Esse mavzularini taqdim etamiz.

| Esse mavzusi                                                                                                                                                 | Esse turi     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------|
| 1. “Men kashfiyotchiman”                                                                                                                                     | Argument esse |
| 2. “Har bir inson o‘z sog‘ligini asrashga o‘zi mas’uldir”.                                                                                                   |               |
| 3. “Hamma o‘zi istagan kasbni tanlashi kerak”.                                                                                                               |               |
| 4. “Men tabiatni himoya qilaman”                                                                                                                             |               |
| 1. “Ba’zi kishilar ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish zararli ekanligini ta’kidlaydi. Boshqalar esa buni rad etadi”.                                          | Analitik esse |
| 2. “Ba’zi insonlar vitaminlar-sog‘lom bo‘lishning eng yaxshi yo‘li ekanligini ta’kidlashadi, biroq boshqalar sport bilan shug‘ullanishni ma’qul ko‘rishadi”. |               |
| 3. “Ba’zi olimlar maktablarda aniq fanlarga ko‘proq e’tibor                                                                                                  |               |

berish kerakligini ta'kidlaydi. Biroq hukumat tarix va adabiyot muhimroq deb hisoblaydi".

4. "Elektromobillar inson va tabiat uchun mutlaqo zararsiz ekanligi ta'kilanadi. Lekin ba'zilar uning zararli tomonlarini ta'kidlashadi".

1. "Elektron kitoblarning ko'payishi natijasida, ko'pchilik qog'oz-kitoblardan ko'ra ularni afzal ko'rishmoqda"

2. "Texnologiyalar rivojlanganligi sababli, insonlar masofadan turib turli xil oziq-ovqat mahsulotlarini osonlik bilan olishmoqda".

3. "Mahsulotlarni, masalan, kitob yoki chiptalarni internet orqali sotib olish judayam ommalashib bormoqda".

4. "Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish yuzma-yuz muloqot o'rnini bosmoqda".

1. "O'qituvchilik kasbini egallashga bo'lgan qiziqish ba'zi mamlakatlarda deyarli yo'qolib bormoqda".

2. "Judayam ko'p miqdordagi plastik chiqindilar shahar va dengizlarni ifloslantirmoqda"

3. "Qishloq xo'jaligidagi rivojlanishlarga qaramay, ba'zi odamlar haliy ochlikdan qiynalmoqda".

4. "Hozirgi kunda ko'plab yoshlar gazeta o'qishga va televizorda yangilik ko'rishga qiziqishmaydi".

1. "Televideniya dorilar reklamasi berilishini kamaytirish kerak".

2. "Ba'zilar kishilar o'rtasidagi muhabbat muloqotdagi asosiy jihat deyishadi, biroq boshqalar undan-da muhimroq narsalar bor ekanligini ta'kidlaydilar"

3. "O'quvchilar kitoblardan ko'ra ko'proq film tomosha qilishni afzal ko'rishmoqda".


4. "Ko'pchilik insonlar boshqa xorijiy tillarni o'rganishni asosiy maqsad qilib qo'moqda".

Qiyosiy esse

Muammo va yechim esse

## Inertpretatsion esse mavzulari

1. Diagramma insoniyatning revolutsion rivojlanishini ko'rsatadi.




2. Quyidagi diagrammada O'zbekiston aholisining uch xil ijtimoiy tarmoqdan foydalanganlik foizi ko'rsatilgan.

Instagram


Telegram

Facebook



3. Quyidagi rasmlarda yer sharining paydo bo'lgandagi dastlabki ko'rinishi va ayni paytdagi holati tasvirlangan.

Diqqat! Geografik bilimlaringizni ishga solib, avvalgi va hozirgi yer shari qiyofasini tasvirlang.



## ESSE: BAHOLASH METODI VA MEZONI

### Umumiy qoidalar!

**Diqqat, ushbu qoidalar 5 – 11-sinf o‘quvchilari orasida yoziladigan esselarni baholovchi ustozlar uchun. Milliy sertifikat baholash tizimi bundan mustasno.**

**1. Tuzilish:** Esse tuzilishi va bir-biriga mosligini baholash. Aniq masala, dalillarni qo‘llab-quvvatlovchi paragraflari va xulosa bormi? Fikrlar oqimi silliq va mantiqiy mi?

**2. Mavzu doirasidagi bilim:** O‘quvchining mavzuni tushunishi va tadqiqot ishlarining chuqurligini baholash. Esse mavzusini yaxshi tushunganini ko‘rsata oldimi? Da‘volar dalillar va aniq ma’lumotlar bilan qo‘llab-quvvatlangan mi?

**3. Tanqidiy fikrlash.** O‘quvchining tanqidiy fikrlash qobiliyatini tahlil qilish va turli nuqtayi nazarlarni baholash. Ular muvozanatli bahsni keltirib, qarshi dalillarni ko‘rib chiqadilarmi? Ularning da‘volari mulohaza va mantiq bilan qo‘llab-quvvatlanadimi?

**4. Til va uslub.** Qo'llaniladigan tilning ravshanligi, aniqligi va mosligini baholash. Esse munosib voqea bilan yaxshi yozilganmi? O'quvchi o'z g'oyalarini to'g'ri grammatika, tinish belgilari va jumla tuzilishi yordamida samarali yetkazganmi?

**5. Ijodkorlik va originallik.** O'quvchining kreativ fikrlash qobiliyatini baholash va esse mavzusiga o'ziga xos nuqtayi nazarni bildirish. Ular yangi tushunchalar yoki innovatsion g'oyalarni taklif qilganmi? Ular o'z mulohazalarini ishonchli va qiziqarli tarzda taqdim eta olganmi?

**6. Dalillar va ularni qo'llab-quvvatlash:** O'quvchining dalillardan va ularning da'volarini qo'llab-quvvatlash uchun misollardan foydalanishini tahlil qilish. Ular o'z bahslarini qo'llab-quvvatlash uchun yetarli va tegishli dalillarni taqdim etganmi? Manbalar ishonchli va to'g'ri keltirilganmi?

**7. Tezis bayonnomasi.** Tezis bayonining aniqligi va kuchini baholash. Essening asosiy argumenti yoki pozitsiyasi aniq ko'rsatilganmi? Fikrlar shunga ko'ra aniq yo'naltirilganmi?

**8. Bir-biriga moslik va izchillik:** O'quvchi o'z g'oyalarini qanchalik yaxshi tashkil qilishini va esse davomida ularni bog'lanishini baholash. Ular paragraf va jumlarlar o'rtasida samarali o'tishlar va mantiqiy bog'lanishlardan foydalanganmi?

**9. Ifoda uslubi.** O'quvchining o'z fikr va g'oyalarini izchil va mos ovoz bilan yetkazish qobiliyatini tahlil qilish. Inshoda o'quvchi shaxsi va o'ziga xos nuqtayi nazari aks etganmi? Ifoda uslubi maqsadga muvofiq, mosmi?

**10. Umumiy ta'sir.** Essening umumiy ta'sirini baholash. Yozma ish o'qituvchini jalb qiladimi, qoniqtiradimi? O'quvchi asosiy xabarini yoki maqsadini samarali ravishda bildirganmi?

## Esse uchun asosiy talablar!

- Esse **3 qismdan** iborat bo'lishi lozim.

Esse qanday turda va mavzuda bo'lishidan qat'i nazar yaxshi **kirish qism** kamida quyidagi uch qismdan iborat bo'ladi:

1. Kalit so'z (Qayta nomlash)
2. Umumiy hukm
3. Asosiy fikr

- **Asosiy qismning** samaradorligini va muvaffaqiyatini ta'minlash uchun u kamida quyidagi to'rtta elementdan tarkib topishi lozim:

1. Bosh jumla
  2. Izoh
  3. Dalil
  4. Qisqa xulosa
- Yaxshi **xulosa**, odatda, quyidagi elementlardan tarkib topgan bo'lishi kerak.
1. Kirish qismdagi mavzuni yoki tezisni ifodalovchi jumla
  2. Asosiy qismda mulohazaga tortilgan argumentlarni ifodalovchi jumla
  3. Berilgan argumentlarning ahamiyatli ekanini ifodalovchi jumla

## Baholash mezonlari

| MEZON                                                                                                                                | BALL      |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| <b>Essening qismlari</b>                                                                                                             | <b>30</b> |
| esseda barcha qismlar (kirish, asosiy qism, xulosa) mavjud va ular talab darajasida, mavzuga aloqador tarzda shakllantirilgan bo'lsa | 4         |
| essening kirish va xulosa qismlari mavzuga aloqador bo'lmasa                                                                         | 3         |
| esseda kirish yoki xulosa mavjud bo'lmasa                                                                                            | 2         |
| esseda kirish va xulosa qisman ochiqqlangan bo'lsa                                                                                   | 1         |
| Esseda kirish ham, xulosa ham bo'lmasa                                                                                               | 0         |
| <b>Dalillash, asoslash, misollar</b>                                                                                                 |           |
| fikrlar dalillar bilan asoslangan, misollar keltirilgan                                                                              | 3         |
| fikrlarning asosi uchun keltirilgan misol va dalillar yaxshi yoqlanmagan                                                             | 2         |
| fikrlarning asosi uchun keltirilgan misol va dalillar kuchsiz                                                                        | 1         |
| fikrlar asoslanmagan, misollar keltirilmagan                                                                                         | 0         |
| <b>Matn uslubi</b>                                                                                                                   |           |
| esse to'liq publitsistik uslubda yozilgan (ba'zi o'rinlarda badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mumkin)                          | 4         |
| esseda publitsistik uslub saqlangan, lekin so'zlashuv va badiiy uslub unsurlari yaqqol ko'zga tashlanib turadi                       | 3         |
| esseda publitsistik uslubdan ko'ra badiiy uslub ustunlik qiladi                                                                      | 2         |
| esseda publitsistik uslubdan ko'ra so'zlashuv uslubi ustunlik qiladi                                                                 | 1         |
| <b>Imlo</b>                                                                                                                          |           |
| Imlo xatolar soni 0 – 2 tagacha                                                                                                      | 4         |
| Imlo xatolar soni 3 – 5 tagacha                                                                                                      | 3         |
| Imlo xatolar soni 6 – 9 tagacha                                                                                                      | 2         |

|                                   |   |
|-----------------------------------|---|
| Imlo xatolar soni 10 – 12 tagacha | 1 |
| Imlo xatolar soni 12 tadan ko‘p   | 0 |

### **Punktuatsiya**

|                                        |   |
|----------------------------------------|---|
| Ishoraviy xatolar soni 0 – 3 tagacha   | 4 |
| Ishoraviy xatolar soni 4 – 6 tagacha   | 3 |
| Ishoraviy xatolar soni 7 – 10 tagacha  | 2 |
| Ishoraviy xatolar soni 11 – 13 tagacha | 1 |
| Ishoraviy xatolar soni 13 tadan ko‘p   | 0 |

### **Til birliklarini qo‘llash (g‘alizlik)**

|                                                                           |   |
|---------------------------------------------------------------------------|---|
| So‘z va qo‘shimchalarni qo‘llash bilan bog‘liq xatolar soni 1 ta          | 4 |
| So‘z va qo‘shimchalarni qo‘llash bilan bog‘liq xatolar soni 2 – 3 tagacha | 3 |
| So‘z va qo‘shimchalarni qo‘llash bilan bog‘liq xatolar soni 4 – 5 tagacha | 2 |
| So‘z va qo‘shimchalarni qo‘llash bilan bog‘liq xatolar soni 6 – 8 tagacha | 1 |
| So‘z va qo‘shimchalarni qo‘llash bilan bog‘liq xatolar soni 8 tadan ko‘p  | 0 |

### **Mantiqiy izchillik va tushunarlik**

|                                                                                |   |
|--------------------------------------------------------------------------------|---|
| fikrlarning mantiqiy izchilligi va bir-birini taqazo etishi yuqori darajada    | 4 |
| fikrlarning mantiqiy izchilligi va bir-birini taqazo etishi o‘rta darajada     | 3 |
| gap tuzilishi me‘yoriy darajada, qismlarni to‘g‘ri bog‘lash va tizimlilik yo‘q | 2 |
| fikrlarning o‘ta yoyiq tarzda ifoda etilishi                                   | 1 |

### **Lug‘at boyligi**

|                                                                                                              |   |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---|
| esseda o‘quvchining lug‘at zaxirasini namoyon qilishi, tayyor birliklardan o‘rinli foydalanish               | 3 |
| uslubiy jihatdan so‘zlarni noto‘g‘ri qo‘llash, lug‘at zaxirasining qisman aks etishi                         | 3 |
| bir ifodaning bir necha marotaba qo‘llanilishi, mavzuga mos bo‘lmagan, qolip so‘zlardan o‘rinsiz foydalanish | 1 |

#### **BALL**

#### **BAHO**

26 – 30

5

19 – 25

4

18 – 14

3

### **Esse yozish jarayonida quyidagilarga e'tibor berish kerak:**

1. Kirish va yakuniy qismdagi fikr asosiy masalaga uzviy bog'liq bo'ladi. Masalan, kirish qismida **“Men... haqida shuni aytmoqchiman” deb** boshlansa, yakuniy qismda **“Men ...xulosaga keldim”** kabi tugallanadi.

2. Esse yozishda his-hayajonli/ta'sirchan va badiiy bo'yoqdor so'zlardan foydalaniladi.

3. Esse ko'lamiga e'tibor berish. (200-250 so'zdan iborat bo'ladi. Kirish – 60-70 so'z, asosiy qism –100-130 so'z, xulosa – 30-40 so'z)

4. Esseda birgina mavzu atrofida fikr yuritiladi. Unda birgina fikr o'rta tashlanadi va rivojlantiriladi. Uning bir necha mavzu va bir qancha g'oyasi bo'lishi maqsadga muvofiq emas.

5. Esse erkin kompozitsiya asosida yoziladi. Yaxshi essenini mavzuni yaxshi tushungan, uni har tomonlama idrok eta olgan, o'z g'oyalari bilan o'quvchini o'ylanishga majbur eta oladigan odamgina yoza oladi.

6. Esse yozishda bir qolipdagi so'zlardan foydalanish, so'zlarni qisqartirish, yuzaki xulosa chiqarishdan xoli bo'lish kerak. Esse tili salmoqlilikni talab qiladi. Bunda esse mavzusini oydinlashtirish, hajmini va maqsadni aniq belgilab olish muhimdir.

7. Esseda badiiy to'qima va fantaziya bo'lmaydi. Unda adabiy til uslublaridan to'g'ri o'rinli foydalaniladi.

8. Esse ixcham hajmli bo'lgani bois, fikr-mulohaza bildirishda batafsil hikoyalashdan cheklanish, keltirilgan ma'lumotni ipidan ignasigacha bayon etishdan saqlanish, bir aytilgan fikrni yana qayta takrorlashga yo'l qo'ymaslik kerak. Uzundan uzoq, aralash turdagi qo'shma gaplar o'rniga qisqa va ixcham ifoda usulini qo'llagan ma'qul.

9. Esse xatboshilarga to'g'ri ajratilishi kerak. Essenini yozib bo'lgach, uni qayta-qayta o'qib chiqish tavsiya etiladi.

10. Ensiklopediya va turli manbalardan olingan ma'lumotlar o'z o'rnida qo'llanilishi kerak. Aks holda, essening badiiyligi va ta'sirchanligiga putur yetadi.

### **Esse yozishda quyidagi talablarga qat'iy rioya qilinadi:**

- shaxsiy munosabatning bildirilishi;
- tezis – kalit so'zni to'g'ri aniqlash;
- faktli dalillar (argumentlar);
- nazariyaga asoslanish;
- atamalarni o'z o'rnida qo'llash;
- sitatalar keltirish;
- mantiqiy qonuniyatning saqlanishi;
- taqqoslash va xulosalash usullaridan foydalanish;
- savodlilik (uslubiy, imlo, tinish belgilari);

- yumor, o‘tkir hajv;
- foydalanilgan ilmiy manbalarga havolalar.

### **Mulohazali esse namunasi**

#### **Mavzu: Erkka intiluvchi insonni yengib bo‘lmaydi.**

Men esse yozish uchun ushbu mavzuni tanladim. Chunki Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasini o‘qiganimda, nihoyatda ta’sirlanganman. Asarga qo‘yilgan nom kishini o‘ziga jalb etadi. Nega hikoya “Dahshat” deb nomlangan? Erk o‘zi nima? Erksizlik-chi? Erkparvar inson qanday bo‘ladi? Nega odamzod erkka talpinib yashaydi?

Erk – kishining o‘z xohishi bilan ish-harakat qilish huquqi. Erksizlik – tobelikdagi hayot, haq-huquqsizlik.

Mening fikrimcha, hikoya qahramoni Unsin erk yo‘lida qurbon bo‘ldi. Nima uchun? Unsin – o‘n oltiga to‘lib-to‘lmagan qiz – Olimbek dodxohning sakkizinchixotini edi. U insofsizlik va shafqatsizlik hukm surgan bu xonadonga ko‘nikolmas, berahm dodxohning xotinlariga ko‘rsatayotgan sitamlarini ko‘ngilga sig‘dirolmas edi.

Oilada go‘riston haqidagi vahimali hangomalar aytilgan kuzning quruq sovuqli bir kechasida Nodirmohbegimning hikoyasiga javoban:

1. O‘lsin, nokas odam ekan, bitta qo‘yni deb...Koshki arziydigan narsa bo‘lsa!.. –dedi.

Nafsoniyati qo‘zg‘agan dodho Unsinning gapiga g‘ashi kelib, uni masxaraladi: – Obbo, tegirmonchining qizi! Bitta qo‘yni nazarlariga ilmaydi!..Yuzta qo‘y,davlatimning yarmini bersam borasanmi?

Unsin unga javoban:Menga davlat kerak emas...Men butkul ketsam deyman, javobimni bersangiz...Bir emas, o‘nta go‘rga o‘nta pichoq sanchib kelardim, – dedi va kundoshlari va Olimbek dodxohni lol qoldirib, jasorat ko‘rsatdi: go‘ristonga borib qumg‘on qaynatib kelishga otlandi.

Hammayoq zim-ziyo qorong‘u. Uvillagan shamol kishining ko‘ngliga qo‘rqinch soladi. O‘z qishlog‘iga, ota-onasi yoniga borish, ozod bo‘lish ilinjida bo‘lgan Unsin qorong‘ilikdan ham, go‘ristondan ham qo‘rqmay qumg‘on qaynatish uchun qabristonga yo‘l oladi. Mushtday qizning erk uchun intilishini o‘ziga qarshi ko‘tarilgan isyon deb bilgan dodxo qizni qattiq qo‘rqitish maqsadida Unsinning ketidan maymunini yubordi.

Rangi bo‘zdek oqargan Unsin bazo‘r uyga kirdi.Tong saharda qishlog‘iga, ota- onasi diydoriga yetolmay, Unsinning joni uzildi.

Shunday qilib, Unsin tobelikdan qutulish yo‘lida berilgan birgina imkoniyatdan foydalandi, ammo qurbon bo‘ldi. Unsinning o‘limi aslo yengilish emas, balki zulm vano haqlikka qarshi isyon edi. Men shunday xulosaga keldimki, erkka intilgan insonni yengish mumkin emas. Inson o‘z erki va mustaqilligi uchun

doimo kurashishi, uni himoya qilishi kerak.

**Muhokamada ishlatiladigan soʻzlar** Esse shartlarida talabalardan koʻpincha mavzuni muhokama qilish soʻraladi, masalan: Bu holatda aytilgan fikrning afzalliklari va zararlarini baholash talab etilmoqda. Unda quyidagi soʻzlardan foydalanish mumkin: Yuqoridagi soʻzlardan foydalanib gaplarni toʻldirish mumkin. Har yili millionlab talabalar chet mamlakatlarda oʻqishni tanlashadi. Buning sezilarli (a) boʻlishi mumkin, qaysiki boshqa bir madaniyat bilan tanish boʻlish imkoniyatidek, ammo vatanni qoʻmsash, yakkalanib qolish kabi muayyan (b) ham qamrab oladi. Boshqa bir (c) tomoni yashash xarajatlari va u yerdagi narxlarining balandligi boʻlishi mumkin.

**Tashkil etish** Muhokama ikki xil yoʻlda tashkil etilishi mumkin.

**Quyidagi mavzuda esse yozishingiz talab etiladi:** Jadvalga fikrlaringizni yozib qoʻying (ijobiy va salbiy xususiyatlarini ajratgan holda). Soʻng esa vertikal yoki gorizontal strukturalardan birini belgilab oling. **Muhokama tili** Mavzuni yoritayotganingizda *menimcha, mening fikrimcha, oʻylaymanki* kabi subyektiv iboralardan foydalanmang, uning oʻrniga obyektiv birikmalardan foydalaning. *Umuman olganda, uyda ishlash yoʻlga ketadigan vaqtni tejaydi. Koʻpchilik biladiki, e-mail va Internet xizmati ofis ishlarini ham bajaradi. Koʻpchilikda hamkasblar bilan yuzma-yuz muloqotga zarurat tugʻiladi. Boʻlishi mumkin, koʻproq korxonalar uyda turib ishlashni qoʻllab-quvvatlashadi. Vaziyat shuni taqozo etadiki, muayyan kishilar oʻzlari mustaqil ish olib borishni yoqlashadi.* **Qarshi fikrlar.** Qarshi fikrlar qarashlarga teskari boʻlishi mumkin. Mavzuni ilmiy muhokama qilayotganda masalaning ikkala tomoni haqida ham qarashlarni bildirib, oʻz fikrlaringizni dalillar bilan qoʻllab-quvvatlashingiz lozim. Odatda, oʻz gʻoyangizni taqdim etishdan avval unga teskari boʻlgan qarashlarni keltirish maʼqulroq. Esselar ham, hisobotlar ham oʻz ichiga batafsil ravishda koʻrib chiqilgan aniq vaziyatlarni misol tariqasida olishi mumkin. Bir aniq vaziyat essening asosiy mavzusi boʻlishi yoki esse har xil vaziyatlarni koʻrsatish uchun bir necha misollarga ega boʻlishi mumkin.

#### **Savollar:**

- 1.Esselar mazmun-mohiyatiga koʻra necha xil boʻladi?
- 2.Esse yozishda qanday talablarga rioya qilinadi?
- 3.Esse qismlarini tuzish va tezisni yoritishda nimalarga ahamiyat berish kerak?
- 4.Esseni mavzusini tanlash va shakllantirish uchun beriladigan tavsiyalar?
- 5Oddiy soʻzlar bilan maʼnosi kuchaytirilgan boʻyoqdor soʻzlarni farqlab tuzing.
- 6.Muayyan mavzu boʻyicha esselar qanday tuziladi?
- 7.Esse janrining asosiy belgilari nimalardan iborat?
- 8.Esse va ilmiy maqola oʻrtasidagi asosiy farqlarni tushuntiring.
- 9.Esse yozishda subyektivlik qanday namoyon boʻladi?

10. Esse yozishda kirish qismida ishlatiladigan kamida 3 ta klishe jumlanı yozing.
11. “Ilmiy esse” va “Badiiy esse” orasidagi farqlarnı tahlil qiling.
12. Esse yozish jarayonida qaysi bosqichda tahrir ishlari amalga oshiriladi?
13. Esselarnı tayyorlash va yozishning qanday uslubiy shakllari va metodlarini bilasiz?

### Topshiriqlar

**1-topshiriq.** Quyidagi mavzulardan birida esse yozing (150–200 so‘z):

- “Men uchun muvaffaqiyat nima?”
- “Texnologiya va inson munosabatlari”
- “Tabiatni asrash – kelajakni asrash”

**2-topshiriq.** Jadvalni to‘ldiring:

| Esse turi     | Asosiy mazmuni | Misol mavzu |
|---------------|----------------|-------------|
| Ilmiy esse    |                |             |
| Badiiy esse   |                |             |
| Falsafiy esse |                |             |

**3-topshiriq.** Quyidagi klişe jumalardan foydalanib, 3–4 gapdan iborat kirish qismi tuzing

:

- “Mening fikrimcha...”
- “Bu mavzu menga shuning uchun qiziqki...”
- “Mavzu dolzarbligi shundaki...”

**4-topshiriq.** Berilgan esse matnidan muallifning subyektiv fikrlarini ajratib ko‘rsating (o‘qituvchi matn beradi).

**5-topshiriq.** Biror ilmiy yoki badiiy asarnı tanlab, uning asosida **tanqidiy esse** yozing (100–150 so‘z).

#### Topshiriq. “O‘zimiz yaratamiz” 1-qism.

Bunda esse qismlari qog‘ozga alohida alohida ravishda chiqarilib o‘quvchilarga beriladi. Har bir o‘quvchi daftariga esse strukturasini to‘g‘ri joylashtirib chiqishi kerak.

Xulosa

2-qism

1-qism

Kirish

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva, D. (2020). “Esse yozish jarayonida o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish.” *O‘zMU Ilmiy axboroti*, №3, 110–116.

2. Abdullayev A. O'zbek tilida supersintaktik butunliklar.-Toshkent, NDA.,1997
3. Karimova, N. (2021). *Ijodiy yozuv va esse janri*. Samarqand: SamDU nashriyoti.
4. Xolmatov, Sh. (2018). *Nutq madaniyati va yozma uslublar*. Toshkent: Fan.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – М: Русский язык, 1981. – 452 б.
6. Qodirova, M. (2019). *Yozma nutqni rivojlantirish metodikasi*. Toshkent: O'qituvchi.
7. Ёлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари./<https://uz.denemetr.com/docs/769/index-315719-1.html>
8. UNESCO. (2015). *Teaching Writing in the 21st Century*. Paris: UNESCO Publishing.

## 11-MAVZU: REFERAT. REFERAT TURLARI. REFERAT TARKIBIDAGI KLISHELANGAN JUMLALAR.

- 1.Referat haqida umumiy ma'lumot.
- 2.Referatning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Referat va uning turlari.
4. Referatga qo'yiladigan talablar.
5. Referat tarkibidagi klisheangan jumlar.
6. Referatning baholanishi.

Referat (lot. refero — axborot beryapman) — biror ilmiy asar, maqola, o'qilgan kitob va hokazo mazmunining qisqacha yozma yoki og'zaki bayoni, o'rganilgan ilmiy masalaning natijasi haqida axborot berilgan adabiyot va boshqa manbalarning qisqartirilgan sharhli tahlilini o'z ichiga olgan ma'lum mavzudagi akademik ish. Ma'lum bir mavzu, kitob, maqola yoki tadqiqot ishining qisqacha mazmuni, asosiy g'oyalari va xulosalarini o'zida jamlagan matndir. Referat odatda, ilmiy axborot vazifasini o'taydi. Unda muayyan mavzu yoritilishi bilan birga, tegishli ilmiy nazariyalar, ilmiy xulosalar tahlil etilishi va tanqid qilinishi mumkin. "Referat yozishda muhim jihat — asarning mazmunini aniq va qisqacha ifodalashdir, bu esa o'quvchiga tez va samarali axborot olish imkonini beradi."<sup>58</sup> O'zbekistonda referat ilmiy tadqiqot muassasalari, oliy o'quv yurtlari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, umumiy ta'lim maktablarida ko'p qo'llaniladigan didaktik vositadir. Umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litsey o'quvchilari hamda oliy o'quv yurtlari talabalarining fakultativ mashg'ulotlardagi maxsus axborotlari ham referat deyiladi. Dissertatsiya yuzasidan tayyorlanadigan referat (avtoreferat)da dissertatsiyaning asosiy mazmuni va xulosalari ifodalanadi.

**Referat maqsadi** — o'quvchiga yoki tinglovchiga asarning mohiyatini tez va samarali yetkazish.

Referatning asosiy xususiyatlari:

- Qisqa va aniq yoziladi;
- Obyektiv bo'lishi kerak;
- Asarning muhim jihatlarini yoritadi;
- Muallifning shaxsiy fikridan ko'ra, asar mazmuni haqida ma'lumot beradi.

### **Referatning o'ziga xos xususiyatlari:**

1. [Keng miqyosli dalillar](#), qiyoslashlar, mushohadalar, baholarga ega bo'lmaydi,
2. [Matnda qanday yangi](#), muhim jihat bor, degan savolga javob beradi.

<sup>58</sup> Islomov, B. *Ilmiy ishlar yozish texnologiyasi*. — Toshkent: Fan, 2018. — 134 b.

Referatda asosan yangi ma'lumotlar beriladi va boshlang'ich matnga murojaat etishning maqsadga muvofiqligini belgilaydi. O'quv fani bo'yicha referatlarning tayyorlanishi o'qishda quyidagi natijalarga erishishni nazarda tutadi:

- fanning dolzarb nazariy masalalari bo'yicha bilimning chuqurlashuvi, ushbu bilimlarni tanlangan mavzuda ijodiy qo'llanilishi.
- tanlangan mavzu bo'yicha turli adabiy manbalarni (monografiyalar, davriy matbuotdagi maqolalar va shu kabilar) o'rganish mahoratini takomillashtirish va ularni tanqidiy tahlil etish asosida materialni mustaqil va savodli bayon qilish, dalillangan xulosalar chiqarish va takliflar berish.
- ilmiy yozma ishni rasmiylashtirish malakalarini takomillashtirish.

Referat ustida ishlash bo'yicha yo'riqnoma:

#### 1. Mavzuning tanlanishi.

Kafedra taklif qiladigan referat mavzulari namunaviy bo'ladi. Talaba o'z qiziqishlari va mayllariga mos keladigan mavzu tanlashga mustaqil yondashish maqsadga muvofiq. Talaba o'z qiziqishlari doirasida tanlagan mavzuga amal qilib va uni asoslash bilan kafedra tavsiya qilgan mavzular ro'yxatiga kirmagan referat mavzusini taklif qilishi ham mumkin. Bunday vaziyatda talaba taklif qilgan referat mavzusini ilmiy rahbari bilan kelishib olishi kerak bo'ladi.

#### 2. Tayyorgarlik ishlari.

Asosiy manbalarni o'rganish uchun referat mavzusi tanlangach:

-tanlagan mavzuga oid masalalar doirasi bilan tanishib chiqish; ma'ruza materiallarini ko'zdan kechirib, fan bo'yicha o'quv darslariga tegishli mavzu uchun tavsiya etilgan adabiyotlar tahlil qilinadi. Bu ish mavzu mohiyati, uning o'rganiladigan kursdagi o'rni va ahamiyatini aniq tasavvur qilish imkonini beradi.

3. OTMning axborot resurs markazi hamda kutubxona majmuida, shuningdek shahar kutubxonalarida mavjud kataloglardan foydalanib, mavzu ko'lamini bo'yicha adabiyot manbalari doirasida kengaytirish talab etiladi. Ilmiy va monografiyalik adabiyotlar bilan bir qatorda ilmiy maqolalardan foydalanish ham zarur. Tadqiqot mavzusiga aloqador hukumatning qonunchilik hujjatlari va qarorlarini bilish ishning salohiyatini oshirishga yordam beradi. Ishning dastlabki bosqichi yakuni bibliografiyadan iborat bo'ladi.

#### 4. Zarur materiallarning konspekt qilinishi.

Konspekt qilish konspektning rejali, matnli, tematik, xronologik, tahliliy yoki erkin turiga muvofiq amalga oshiriladi.

5. Muammoni tadqiq qilish, mantiqni ishlab chiqish, referat rejasini tuzish. Referat rejasi kirish, asosiy qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalar (referatning shart bo'lmagan qismi)ni o'z ichiga olishi kerak. Reja ko'rilishi lozim bo'lgan masalalar doirasi va referatning asosiy mazmunini belgilaydi. U referatning mavzusi yoritilishida umumiy yo'nalishni belgilab beradi, uning to'g'ri

tanlanishi va bayon qilish mantig'ini ta'minlaydi. Puxta o'ylangan reja referatning muvaffaqiyatli yozilishini ta'minlaydi.

6. To'plangan materialning bir tizimga solinishi va referatning yozilishi. Kirishda tanlangan mavzuning nazariy va amaliy jihatdan dolzarbligi asoslanadi, referat maqsadi va vazifalari ifodalanadi.

7. Agar referat monografik bo'lsa (bir manba yoki muallif referat qilayotgan bo'lsa), unda kirishda quyidagilar ko'rsatiladi: 1) muallif haqidagi qisqacha ma'lumotlar (ilmiy darajasi, uning ixtisosligi, boshqa ishlari); 2) manba mavzuining qisqacha bayoni; 3) ishning maqsadi; 4) ishning ruknlari; 5) muallifning ustuvor yo'nalishi va boshqa. Asosiy qismda barcha muhim qoidalar aks ettirilishi kerak, referat asosiy qismi matni to'plangan materialning tegishli taqsimlanishi bilan masalalarga va kichik masalalarga (bandlarga) bo'linishi zarur. Har qanday masala, kichik masala (band)ning ajratilishi, umuman referatning tuzilmaga solinishi quyidagi algoritm bo'yicha bajarilishi lozim.

8. Referatning rasmiylashtirishi. Matn va dizayn; Sarlavhadan keyin nuqta qo'yilmaydi. Sarlavhalar har doim qalin shrift bilan yoziladi. Odatda: 1 sarlavha - 16 nuqta shrift, 2 sarlavha - 14 nuqta shrift, 3 sarlavha - 14 nuqta shrift, kursiv.

A4 varaq, shrift hajmi 12-14; shrift rangi qora; Times New Roman shrifti, oddiy; qator oralig'i: 1,5-2; chetlari: chap - 30 mm, o'ng - 10 mm, yuqori - 20 mm, pastki - 20 mm.

9. Ilovalar mazmunini ko'rsatadigan sarlavhalarga muvofiq tarzda izchillik bilan tikib qo'yiladi. Referatni baholash bo'yicha kafedra belgilagan ko'rsatkichlar va mezonlar asosida ilmiy rahbar tomonidan baholanadi.

- Referatlashda muayyan masala bir yoki bir necha manbalarning tasniflanishi, umumlantirilishi, tahlili va sintezi asosida amalga oshiriladi. Referat asosiy matn yoki bir necha manbalarni talqin qilish shaklidir. Shuning uchun referat konspektidan farqli ravishda, yangi, muallifning matni hisoblanadi. Bunday holdagi yangilik yangicha bayonni, materialning bir tizimga solinishi, turli nuqtai nazarlarni qiyoslashda muallifning o'z pozitsiyasini talab qiladi.

Munozarali masalalar bo'yicha turli nuqtai nazarlarning qiyosiy tahlili, qo'shiladigan yoki o'z pozitsiyasining dalillanishi ham referatning afzalligi hisoblanadi.

Referatning xulosasi: referent mavzuni o'rganish jarayonida qilgan aniq ifodalangan xulosalarni, shuningdek hal etilmay qolgan va keyinchalik o'rganishni talab qiladigan masalalarni o'z ichiga oladi.

### **Referatlar va uning turlari.**

Referatlarning ilmiy, tahliliy, amaliy, tanqidiy, ma'lumotnoma kabi turlari mavjud.

1. Ilmiy ishlar, maqolalar bo'yicha yozilib, ilmiy nuqtai nazar asosida baholashni o'z ichiga oladi. Ilmiy referatlar tadqiqot bilan bog'liq ma'lumotlarni yoritadi.
2. Amaliy referatlar amaliy mashg'ulotlarga oid ma'lumotlarni taqdim etishga mo'ljallangan bo'ladi.
3. Ma'lumotnoma referat asarning faqat faktlari va asosiy ma'lumotlari qisqacha bayon qilinadi.
4. Tanqidiy referatlar asarni tanqidiy tahlil qilgan holda, uning kuchli va zaif tomonlari, muallifning yondashuvi haqida fikr bildiriladi.
5. Analitik referatda asardagi ma'lumotlar chuqur tahlil qilinadi, ular orasidagi bog'liqlik va muammolar ko'rsatiladi.

Bayonning to'liqligi va referatlanadigan manbalar soni bo'yicha referat turlari mavjud.

Bayonning to'liqligi bo'yicha:

1. Axborotli (referat-konspektlar)
2. Indikativ (referat – rezyumelar)

Referatlanadigan manbalar soni bo'yicha:

1. Monografik
2. Tahliliy

### **Referatga qo'yiladigan talablar**

1. Bibliografik bayon - Referat matni
2. F.I.O. Asar nomi. Nashr qilingan joyi. Nashriyot. Yil. Sahifalar soni.

Referatda asosan yangi ma'lumotlar yoritiladi va boshlang'ich matnga murojaat etishning maqsadga muvofiqligini belgilaydi, shuningdek quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- mavzu, muammo;
- referat qilinadigan ishning predmeti, maqsad va tuzilishi.
- qisqacha mazmuni.
- aniq natijalari.
- muallif xulosalari.
- ish natijalari qo'llaniladigan soha.

Bayon qilish shakli – konspektli, qismli tahliliy bo'ladi. Material quruq bayon qilib berilmasligi kerak. Tegishli xulosalarga, shu jumladan matn bilan chambarchas bog'lanadigan statistik materialga ega tahlil zarur. Keng hajmdagi statistik ma'lumotlarni jadvallarga yig'ish maqsadga muvofiq bo'ladi. Statistik ma'lumotlar asosida ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar va jarayonlarni ancha yaqqol tasavvur etish va rivojlanish dinamikasida aks ettirishga imkon beradigan diagrammalar, grafiklarni qurish mumkin.

Referatda keltiriladigan barcha jadvallar, diagrammalar, grafiklar, sxemalar sarlavhalanishi va raqamlanishi kerak. Statistik ma'lumotlar olingan manbalarning

sarlavhalari ko'rsatilgani holda qayd qilinishi shart. Matnda beriladigan barcha raqamli materialning tegishli manbalari ko'rsatilishi zarur. Shuningdek, boshqa mualliflar asarlaridan olingan matndan ko'chirmalar, fikrlar, qoidalar, xulosalar so'zma-so'z ko'chirib olinganida ham, albatta, satr ostida qaydlar berilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati qat'iy belgilangan tartibda tuziladi:

1. O'zR qonunlari.
2. O'zR Prezidenti farmonlari.
3. O'zR Hukumati qarorlari.
4. Me'yoriy hujjatlar, yo'riqnomalar.
5. Kitoblar, davriy nashrlarda e'lon qilingan maqolalar.
6. Statistik materiallar;
7. Internetdan olingan axborot manbalari.

Manbalarning bibliografik bayonida quyidagilar ko'rsatiladi: muallifning familiyasi va ismi-sharifi, kitob nomi, nashr qilingan joyi, nashriyot nomi va nashr yili. Agar maqola jurnalda (gazetada) bosilgan bo'lsa, unda jurnal (gazeta) nomi, chiqqan yili, jurnal (gazeta) sahifasi raqami.

Referat matni kirish (kirish qismi), asosiy qism (tavsif) va xulosadan iborat bo'ladi. Matn modeli quyidagicha bo'lishi mumkin:

#### 1. Referatning kirish qismi:

Kirish - ishning maqsadi va vazifalari, mavzuni tanlashning mantiqiy asoslari va uning dolzarbligini belgilaydi. Hajmi: 1-2 bet.

Bu yerda nashriyot, uning nashr etilgan vaqti va joyi ko'rsatilgan asosiy ma'lumot manbai hisoblanadi. Muallif ko'rsatiladi (familiyasi, ismi, otasining ismi va ilmiy darajalari). O'rganilayotgan matn va materiallarning sarlavhalari. Referat mavzusi asoslab berilgach, muammo qo'yiladi va asoslanadi. Umumiy ishning mohiyati ko'rsatiladi (abstrakt), nima muhokama qilinishi qisqacha tavsiflanadi.

#### 2. Asosiy qism:

Asosiy qismda muammo bo'yicha adabiyotlarni tahlil qilish asosida muallifning nuqtai nafari beriladi. Hajmi: 12-15 bet. Bir necha bob va paragraflarga bo'linadi. Odatda ikki bob: birinchisi nazariy (u o'rganilayotgan muammoning imkoniyatlari va nazariy tamoyillarini ochib beradi, maqsad va vazifalarni belgilaydi); ikkinchisi amaliy (amaliy tajriba yoki ko'rib chiqilayotgan nazariyaning natijasini tavsiflaydi). Kirishda berilgan muammoning ta'rifi ifodalanadi. Tadqiqot muammosi, mavzuning umumiy tavsifi keltiriladi. Asoslar bayon qilinadi, dalillar (oldinga qo'yilgan nazariyani yoqlab yoki qarshi), umumlashtirish, tadqiqot mavzusining ilmiy tavsifi, ushbu tadqiqotga bag'ishlangan masalalar yoki materiallar keltiriladi. Muallif o'z qarashlarini tasdiqlovchi va ko'rsatadigan ma'lumotnomalarni (misollar, faktlar, raqamlar, ma'lumotlar) taqdim etadi.

3. Xulosa: xulosa va takliflar shakllantiriladi. Xulosa qisqa, aniq bo'lishi kerak, xulosalar asosiy qism mazmunidan kelib chiqishi kerak. Hajmi: 1-3 bet. Muallif-tuzuvchi qandaydir xulosaga keladi, tadqiqotini yakunlaydi. Referat oxirida natijalar umumlashtiriladi, bu muammoni o'rganishning mohiyatini, butun ishning natijasini belgilaydi.

4. Adabiyotlar ro'yxati: Adabiyotlar ro'yxati yangi, manbalar 5-7 yillik bo'lishi kerak, ko'p o'rganilmagan mavzu bo'lsa, dastlabki asarlardan kamdan-kam foydalanish mumkin. Ilmiy va adabiy manbalar muallif familiyasining birinchi harfi bo'yicha alifbo tartibida joylashtiriladi.

Referat tayyorlash:

Bob yoki paragraf sarlavhalari va keyingi matn orasidagi masofa uchta bo'sh joy bo'lishi kerak. Matn varaqning kengligi bo'yicha tekislanadi. Matn sahifaning bir tomonida chop etiladi; izohlar va iqtiboslar matnning o'zida yoki sahifaning pastki qismida ko'rsatiladi. Bu yerda muallifning to'liq ismi-sharifi, manbaning nomi, adabiy manba chop etilgan shahar, nashriyotning nomi, nashr etilgan yili va tekshirilayotgan yoki keltirilayotgan matn joylashgan sahifalar ko'rsatilgan. Izohlar va eslatmalarni loyihalash uchun standart Microsoft Word vositalari ishlatiladi, masalan: 1.Abdullayev A.M. Tilshunoslik masalalarini hal qilishga qaratilgan masalalar. - T.: G'. G'ulom, 2000. - b. 55-56.

Alohida varaqlarda joylashgan shakllar va jadvallar varaqlarning umumiy raqamlanishiga kiritiladi va iloji bo'lsa, ushbu jadvallar yoki rasmlarga havolalar berilgan varaqlardan keyin joylashtiriladi. Jadvallar va rasmlar arab raqamlari bilan ketma-ket raqamlanadi. Raqamlar va jadvallarni bo'limlarda raqamlashga ruxsat beriladi. Bunda jadval (rasm) raqami bo'lim raqamidan va nuqta bilan ajratilgan jadvalning tartib raqamidan iborat bo'ladi. Barcha sahifalar sarlavha sahifasidan boshlab raqamlangan; sahifa raqamining raqami sahifaning yuqori markaziga joylashtiriladi; Sarlavha sahifasida sahifa raqami qo'yilmaydi. Har bir yangi bo'lim yangi sahifadan boshlanadi. Ilovalar ish oxirida joylashtiriladi. Matnda barcha qo'shimchalarga havola ko'rsatilishi kerak. Har bir ilova yangi sahifadan boshlanib, "Ilova" so'zi va sahifaning o'rtasida yuqori qismida uning raqami ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Ilovada alohida satrda bosh harflar bilan yozilgan matnga nisbatan nosimmetrik tarzda yozilgan sarlavha bo'lishi kerak. Ta'lim muassasasining to'liq nomi sarlavha sahifasining yuqori qismida ko'rsatiladi. O'rtada referat mavzusining nomi "mavzu" so'zi va tirnoqsiz ko'rsatiladi. Sarlavha markazida ish turi va mavzusi ko'rsatiladi (masalan, adabiyot bo'yicha insho). Bundan ham pastroqda, sarlavha sahifasining o'ng chetiga yaqinroqda talabaning ismi, kursi ko'rsatiladi. Pastroqda – qabul qiluvchining nomi va lavozimi va agar mavjud bo'lsa, maslahatchilar ko'rsatiladi. Pastki maydonda shahar va ish yili ko'rsatiladi ("yil" so'zisiz). Mundarija sarlavha sahifasidan keyin joylashtiriladi,

unda asarning barcha sarlavhalari mavjud va ular qaysi sahifalardan boshlanganligi ko'rsatiladi.

### **Referat tarkibidagi klishe'langan jumlar**

Klishe' — bu referatda tez-tez uchraydigan, an'anaviy shaklda ishlatiladigan ifodalar, jumladir. "Klishe' jumlar referat matnini rasmiylashtirishda yordam beradi, biroq ularni ortiqcha ishlatish matnни quruq va qiziqarsiz qiladi."<sup>59</sup> Ular matnga rasmiylik va izchillik beradi, yozishni osonlashtiradi.

Eng ko'p ishlatiladigan klishe'langan jumlagar misollar:

#### **Referat tarkibidagi klishe'langan so'zlar haqida**

«Ishda .... Tizim ko'rib chiqiladi...»

(Muallifning F.I.O.) «.....» asarida ... berilgan.

«Kirishda ko'rsatilishicha, ...»

«Muallifning hisoblashicha, ...»

Muallif shunga asoslanadiki, .... Shu bilan birga u ... shunday deb hisoblaydi.

«1-bobda ... masalasi yoritiladi»

«2-bobda ... tadqiq qilinadi»

«... haqida gapirganda, muallif ... deb ta'kidlaydi»

«Ishda, shuningdek ... ga e'tibor qaratiladi»

«Shunday qilib, muallif... degan xulosaga keladi»

«3-bobda... tadqiq qilinadi, ... ko'rib chiqiladi»

«... zarurligi belgilanadi»

«Xulosada muallif: «...» deb yozadi.

- "Mazkur mavzuda ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan."
- "Asarning asosiy g'oyasi shundan iboratki..."
- "Muallif o'z ishida quyidagi masalalarni ko'rib chiqqan."
- "Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki..."
- "Shu bilan birga, ba'zi kamchiliklar ham mavjud."
- "Ushbu muammoning dolzarbligi quyidagilarda namoyon bo'ladi."
- "Natijada, quyidagi xulosalarga kelindi."

Mundarija sarlavhalari matn sarlavhalarini aks ettirishi zarur. Sahifa raqamlari varaqlning pastki qismi markazida nuqtasiz joylashtiriladi. Adabiyotlar (manbalar) va iloalar ro'yxati varaqlarning umumiy raqamlanishiga kiritiladi. Maqsad: Abstrakt oraliq (yakuniy) attestatsiya shakli sifatida talabani (bitiruvchini) ilmiy salohiyatini, ijodiy izlanish, hamkorlik qilish, o'zini o'zi ochish va imkoniyatlarni namoyon etish qobiliyatini ochib berishni rag'batlantiradi. Abstrakt talablar: Referat muallifi o'zining g'oyaviy, umumiy madaniy kompetensiya darajasiga erishganligini ko'rsatishi kerak, ya'ni real olam, undagi mavjud bog'lanish va bog'liqliklar, muammolar, yetakchi dunyoqarash

<sup>59</sup>Karimova, L. *Ilmiy matnlar yozish va tahrirlash*. — Toshkent: Ta'lim, 2021. — 110 b.

nazariyalari haqidagi bilimlarni namoyish etish, baholovchi bilimlarni ko'rsatish, nazariy ishlarni o'rganish, turli tadqiqot usullaridan foydalanish, ijodiy faoliyatning turli usullarini qo'llash qobiliyati.

1. Mavzuni to'g'ri shakllantirish va kerakli materialni tanlash kerak.
2. Faqat mavzuning mohiyatini aks ettiruvchi materialdan foydalanish lozim.
3. Referatga kirishda mavzu mohiyatini asoslab berish kerak.
4. Iqtibosdan keyin muallifga havola qilish kerak.
5. Taqdimot izchil bo'lishi kerak. Noaniq so'zlar, nutq va imlo xatolariga yo'l qo'yib bo'lmaydi.
6. Referatni tayyorlashda 5 yildan oshmagan zamonaviy nashrlar materiallaridan foydalanish kerak.
7. Abstrakt dizayni (shu jumladan sarlavha sahifasi, adabiyot) malakali bo'lishi va DTSga mos kelishi kerak.
8. Adabiyotlar ro'yxati muallif, manbaning nomi, nashr etilgan joyi, nashr yili, nashriyot nomi, foydalanilgan sahifalar ko'rsatilgan holda tuziladi.
9. Referatning hajmi birlamchi hujjatning mazmuniga qarab belgilanadi; o'rtacha hajm: eslatmalar va qisqa maqolalar uchun 500 belgi, aksariyat maqolalar, patentlar uchun 1000 belgi, katta hujjatlar uchun 2500–12 000 belgi.

#### **Referatni baholash mezonlari:**

- mavzuning dolzarbligi
  - mazmunning mavzuga mosligi
  - materialni chuqur o'rganish
  - manbalardan foydalanishning to'g'riligi va to'liqligi
  - abstrakt dizaynning standartga muvofiqligi.
1. Referat qilingan matnning yangiligi Maks.- 20 ball
    - muammo va mavzuning dolzarbligi;
    - muammoning qo'yilishi, tahlil uchun tanlangan
    - muammoning yangi jihatini ifodalashdagi yangilik va mustaqillik;
    - muallif pozitsiyasining mavjudligi,
    - fikrlarning mustaqilligi.
  2. Muammo mohiyatini ochib berish darajasi Maks.- 30 ball
    - rejaning referat mavzuga muvofiqligi;
    - mazmunning referat mavzui va rejasiga mosligi; muammoning asosiy tushunchalarini ochib berishning to'liqligi va chuqurligi;
    - material bilan ishlash usullari va uslublarining asoslanganligi;
    - adabiyotlar bilan ishlash, materialni bir tizimga solish va tarkiblashtirish mahorati;
    - ko'rib chiqilayotgan masala bo'yicha har xil nuqtai nazarlarni umumlashtirish, qiyoslash;

- asosiy qoidalar va xulosalarni dalillash mahorati.

### 3. Manbalarni tanlashning asosiligi

Maks.- 20 ball - muammoga doir adabiy manbalardan foydalanish doirasi, to'liqligi;

-muammo bo'yicha eng yangi asarlardan foydalanish (jurnal maqolalari, ilmiy asarlar to'plamlari materiallari va hokazo).

### 4. Rasmiylashtirish talablariga rioya qilinishi Maks. - 15 ball

- foydalanilgan adabiyotlarga qaydlarning to'g'ri rasmiylashtirilishi;

- bayonning savodliligi va madaniyati;

- muammo atamalari va tushunchalar apparatini egallaganlik;

- referat hajmiga talablarga rioya qilinishi;

- rasmiylashtirish madaniyati: xatboshilarning ajratilishi.

### 5. Savodlilik Maks.- 15 ball

- orfografik va sintaktik xatolar, uslubiy nuqsonlarning yo'qligi;

-xatolar, umumiy qabul qilingan so'zlardan tashqari so'zlarni qisqartirishlarning yo'qligi;

- adabiy uslubi.

Natijada referat quyidagi tarzda bilimlarni baholashning 100 ballik va 5 ballik tizimida baholanadi: -86 – 100 ball – «a'lo»; - 70 – 75 ball – «yaxshi»; - 51 – 69 ball – «qoniqarli»; - 51 balldan kam – «qoniqarsiz». Ballar dasturiy materialni bilishni joriy baholash jarayonida hisobga olinadi.

“A'lo”-5

1) yuqoridagi barcha talablarning mavjudligi;

2) o'quvchilarning konspektida keltirilgan material bo'yicha bilimlari, masalaning mohiyatini to'g'ri va asosli bayon eta olishi;

3) ochilayotgan mavzuga shaxsiy qiziqishning mavjudligi, o'z nuqtai nazari, dalillari va mulohazalari, [xulosalari](#);

4) rejaning istalgan bandi bo'yicha erkin gaplasha olish, mavzu bo'yicha komissiya a'zolari tomonidan berilgan savollarga javob bera olish;

5) referat yozishda foydalanilgan faktik materiallar va statistik ma'lumotlarni tahlil qilish qobiliyati;

6) himoya so'zining asosiy matnini takrorlamaydigan, lekin uning tasviriy foni bo'lgan yuqori sifatli taqdimot materiali va yoki tarqatma materialning mavjudligi. Bular referatni himoya qilishda nafaqat “bilim - ko'paytirish”, balki “bilim – tushunish”, “bilim – mahorat” ni ham ko'rsatadi.

“Yaxshi” -4:

1) referat dizayni bo'yicha kichik izohlar;

2) yuqorida sanab o'tilgan talablardan birida kichik qiyinchiliklar.

“Qoniqarli”-3 bo'yicha:

- 1) referat mavzusi to‘liq ochilmagan;
- 2) foydalanilgan adabiyotlar va manbalarning to‘liq bo‘lmagan ro‘yxati;
- 3) taqdim etish, bahslashishdagi qiyinchiliklar.

Referatning yozish talabalar uchun ma’lumotlarni topish va taqdim etishning muhim bir qismidir. Referatning umumiy tuzilishi mavzuga asoslangan, muqobil ravishda qo‘llaniladigan va ma’lumotlarni tuzish, taqdim etish va natijalarni ko‘rsatishni o‘z ichiga oladi. Referatlarning turini belgilash mavzularni, shakllarni va maqsadlarini aniqlaydi. Bunday turlar talabalar uchun referatlarini tuzish va ma’lumotlarni to‘plashda yordam beradi.

Mustaqil ish.

1. O‘qituvchi bilan maslahatlashing va referat mavzusini tanlang.
2. Tanlangan mavzu bo‘yicha bibliografiyani tuzing.
3. Tanlab olingan adabiyotlar bilan ishlang. Ular bo‘yicha reja yoki konspekt shaklida yozuvlar tuzing – ishchi yozuvlarining o‘zingizga eng ma’qul variantini tanlang.
4. Tanlangan materiallardan foydalanib, hamma talablarni hisobga olib referat yozing.

Nazorat savollari:

- 1.Referat nima va uning asosiy maqsadi nimadan iborat?
2. Referatning qanday turlari bor?
3. Referatga qo‘yiladigan talablar qaysilar?
4. Referat yozish tartibini sanab bering.
5. Referatning konspektidan qanday farqli jihatlari bor?
- 6.Referatning kamida uch turini sanab bering va izohlang.
- 7.Ma’lumotnoma referat bilan tanqidiy referat o‘rtasidagi farq nimada?
- 8.Klishelangan jumla nima va u referatda qanday rol o‘ynaydi?
- 9.Referat yozishda obyektivlik nima uchun muhim?
- 10.Analitik referat qanday yoziladi? Misol keltiring.
- 11.“Ilmiy referat” tushunchasini izohlang.

### **Topshiriqlar**

Ta’rif yozing

Quyidagi tushunchalarga qisqa ta’rif bering:

- Klishelangan jumla
- Tanqidiy referat
- Ilmiy referat

Farqlarni aniqlang

Quyidagi ikki jumlani tahlil qiling va qaysi biri klishe, qaysi biri muallifning individual fikri ekanini yozing:

1. “Asarning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, ta’lim jarayoni innovatsion texnologiyalarsiz rivojlana olmaydi.”
2. “Muallifning fikricha, innovatsion texnologiyalar ta’lim sifati oshishiga hissa qo‘shadi, lekin ularni joriy etishda ayrim qiyinchiliklar mavjud.”

Yozing

**Mavzu:** “Axborot texnologiyalarining ta’limdagi roli” bo‘yicha 5–6 jumladan iborat qisqa ma’lumotnoma referat yozing.

Klishelarni qo‘llang

Quyidagi klishe jummalardan foydalanib, kichik tanqidiy referat yozing:

- “Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki...”
- “Shu bilan birga, ba’zi kamchiliklar ham mavjud.”
- “Natijada, quyidagi xulosalarga kelindi.”

Ajrating

Berilgan jummalarni mos referat turiga ajrating:

1. “Asarda mavzuga oid faktlar va statistik ma’lumotlar keltirilgan.”
2. “Muallif ishida kuchli va zaif tomonlarni ko‘rsatib o‘tgan.”
3. “Ma’lumotlar o‘zaro tahlil qilinib, muammo ildizlari ochib berilgan.”

2-topshiriq: Uyga vazifa: Referat tarkibida ishtirok etadigan klishelangan jummalardan foydalangan holda ixtiyoriy mavzudagi referat matnini tayyorlang.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. GOST 7.1-2003 “Bibliografik yozuv. Bibliografik tavsif. Loyihani tuzish uchun umumiy talablar va qoidalar.” Minusinsk pedagogika kolleji. A.S. Pushkin, Krasnoyarsk o‘lkasi. 2003 yil.
2. GOST 7.32-2001 “Tadqiqot hisoboti. Ro‘yxatga olishning tuzilishi va qoidalari.” SIBID. Novosibirsk. 2001 yil.
3. GOST 7.80-2000 “Bibliografik yozuv. Sarlavha. Loyihani tuzish uchun umumiy talablar va qoidalar.” Minusinsk pedagogika kolleji. A.S. Pushkin, Krasnoyarsk o‘lkasi. 2000 yil.
4. GOST 7.82-2001 “Bibliografik yozuv. Elektron resurslarning bibliografik tavsifi.” Minusinsk pedagogika kolleji. A.S. Pushkin, Krasnoyarsk o‘lkasi. 2001 yil.
5. Islomov, B. Ilmiy ishlar yozish texnologiyasi. — Toshkent: Fan, 2018. — 134 b.
6. Jorayev, D. Ilmiy uslub va janrlar. — Toshkent: Universitet nashriyoti, 2019. — 98 b.
7. Karimova, L. Ilmiy matnlar yozish va tahrirlash. -T.: Ta’lim, 2021. 110 b.
8. Nazarov, X. Ilmiy matnlarni tayyorlash qo‘llanmasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2020. — 120 b.
9. Sobirov, A. Ilmiy ishlar va referatlar. — Toshkent: Ilm-fan, 2017. — 76 b.

## 12-MAVZU. ILMIY USLUB JANRLARI. ILMIY SHARH. KURS ISHI.

### Reja:

1. Ilmiy uslub janrlari haqida umumiy tushuncha.
2. Ilmiy sharh
3. Kurs ishi haqida umumiy ma'lumot.
4. Kurs ishi yozishda qo'yiladigan talablar.

### Ilmiy uslub janrlari

Ilmiy uslub — **bu ilmiy faoliyatda qo'llaniladigan til va ifoda uslubidir. Ilmiy uslubning asosiy maqsadi — bilimni aniq, ravshan, mantiqiy va rasmiy tarzda yetkazishdir.**

Ilmiy uslubning asosiy janrlari:

1. **Ilmiy maqola** — ilmiy tadqiqot natijalarini yorituvchi qisqa yozma ish.
2. **Dissertatsiya** — mustaqil ilmiy izlanish natijasida yozilgan katta hajmdagi ilmiy ish.
3. **Kurs ishi** — o'quv jarayonida talabalar tomonidan bajariladigan kichik ilmiy tadqiqot.
4. **Ilmiy sharh** — mavzuga oid adabiyotlar va tadqiqotlarni tahlil qilib yozilgan matn.
5. **Monografiya** — bitta mavzu yoki muammo bo'yicha chuqur ilmiy izlanish.
6. **Hisobot** — ilmiy ish yoki tajriba natijalari haqida qisqa va aniq ma'lumot.

“Ilmiy uslub aniq va ravshan fikrlashni ta'minlaydi, shu bilan birga ilmiy ma'lumotlarni tizimli va mantiqiy shaklda yetkazadi.”<sup>60</sup>

**Ilmiy uslub-** adabiy tilning fan sohasiga xizmat qiladigan funksional uslublaridan biri. Ilmiy nutqda axborot funksiyasi ustunlik qiladi, olib borilayotgan tadqiqot faoliyati natijasi haqida xabar beriladi. Ushbu uslubning odatiy shakli monologdir. Ilmiy nutqda lingvistik vositalarning dastlabki tanlovi mavjud. Ilmiy muloqot sohasida fikrlarni aniq, mantiqiy ifodalash maqsadlari amalga oshiriladi. Ilm-fan sohasidagi nutqning yetakchi shakli yoziladi va odatda fikrlash qat'iy mantiqiy ketma-ketlikdagi hukm va xulosalarda ifodalanadi. Ilmiy asarlarda nutqning asosi fikrlash va isbotdir. Ilmiy pozitsiyalarning yakuniy ko'rinishi tashqi tildagi ifoda orqali amalga oshiriladi. Ilmiy uslub tabiat va ijtimoiy hayotdagi barcha narsa hamda hodisalar to'g'risida aniq, asoslangan, izchil ma'lumot berib, narsa-hodisa mohiyatini ta'riflash, tahlil qilish, sababini aniqlab, dalillar bilan isbotlab asosli natijalarni bayon etadi. Ushbu uslub ilmiy va ilmiy-ommabop turlarga bo'linadi. Ilmiy uslub ilm-fanga oid ma'lumotlar berish bilan mutaxassislargagina mo'ljallanishi yoki bunday ilmiy ma'lumotlar keng ommaga qaratilgan bo'lishi mumkin. Ilmiy uslub bilimning turli sohalariga qarab, shuningdek, kimga mo'ljallanganligiga nisbatan o'zaro farqlanadi. Masalan, fan

<sup>60</sup> Islomov, B. *Ilmiy uslub asoslari*. — Toshkent: Fan, 2019. — 128 b.

sohalari muayyan shartli belgilar, formulalar, bayon qilish materiali bilan ajralib turadi.

**Ilmiy-ommabop uslub.** Keng jamoatchilikka mo'ljallangan, tasvir bayonida emotsionallik, obrazlilikdan foydalangan uslub ilmiy-ommabop uslub sanaladi. Ko'pchilik uchun yaratilgan ma'ruzalar, risola va darsliklar shu uslubning namunalaridir. Ilmiy-ommabop uslubda maxsus atamalar kam ishlatiladi (ishlatilganda izohi beriladi), fikrlar qiziqarli qilib tushuntiriladi, obrazlilikni ta'minlovchi badiiy tasvir usullaridan foydalaniladi.

**Ilmiy uslub.** Bu jamoat faoliyatining ilmiy sohasiga xizmat qiladigan uslub. U o'qitilgan va muayyan fanga qiziqqan auditoriyaga ilmiy ma'lumotlarni yetkazish uchun mo'ljallangan. Ilmiy uslub fanlarning tabiati (tabiiy, aniq, gumanitar) va janr farqlari (monografiya, ilmiy maqola, ma'ruza, darslik va boshqalar) dan qat'iy nazar o'zini namoyon qiladigan bir qator umumiy xususiyatlarga, umumiy ishlash shartlariga va lingvistik xususiyatlarga ega. Bu uslubning umumiy o'ziga xos xususiyatlariga arizani oldindan ko'rib chiqish; bayonning monologik xususiyati; til vositalarini qat'iy tanlash; me'yorlashgan nutqqa tortish kabilar kiradi. Ushbu xususiyatlar ilmiy matnlarning tabiat, inson va jamiyat haqidagi obyektiv ma'lumotlarni yetkazish maqsadiga bog'liq. Fanda fikrlashning asosiy shakli - bu konsepsiya, shuning uchun ilmiy nutq uslubi mavhumlik va obyektivlik bilan ajralib turadi, ya'ni matnda mavhum semantik so'zlar va mavhum jinsdagi so'zlardan foydalaniladi. Terminologiya ilmiy nutqning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, aniqligi bilan ilmiy uslubning sifatini oshiradi. Ilmiy uslubning eng muhim xususiyatlari - aniqlik, ravshanlik, izchillik, qat'iy bahs-munozara, fikrni birma-bir ifoda etishdir. Bu uslubning asosiy vazifasiga tadqiqot mavzusi haqidagi obyektiv ma'lumotlarni uzatish kiradi. Ilmiy nutqda izchil, mantiqiy matn yaratishga xizmat qiladigan, gap qismlari o'rtasidagi munosabatni ta'minlovchi so'zlar keng qo'llaniladi: qo'shimchalar ko'pincha bog'lovchi vazifasida ishlatiladi; fe'llar va shaxs olmoshlari III shaxs shakllarida keladi, bu uslubning mavhumligi va obyektivligini ta'kidlashga yordam beradi. Ilmiy uslubda murakkab jumlalarning sodda gaplardan ustuvorligini, umumiy jumlalarning ishlatilishini, atamalarning keng qo'llanilishini qayd etish mumkin. Ilmiy asarlar uslubi ularning mazmuni va ilmiy muloqot maqsadlari bilan belgilanadi: faktlarni aniq va to'liq tushuntirish, hodisalar orasidagi sabab-oqibat munosabatlarini ko'rsatish, tarixiy rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash va boshqalar. Ilmiy uslub mantiqiy ketma-ketlikda, so'z qismlari orasidagi bog'lanishlarning tartibli tizimi keltirilgan, muallif nuqtai nazarini boyitgan holda aniq, ixcham tavsiflanadi. Demak, bu uslubning adresati - olim, mutaxassislar bo'ladi. Uslubning maqsadini yangi faktlar, ixtirolar, kashfiyotlarni aniqlash va tavsiflash deb atash mumkin. Tegishli ilmiy nutq uslubida, fanda ma'lum bo'lgan faktlar izohlanmaydi va faqat yangi atamalar

tushuntiriladi. Bu uslub katta hajmli jumlar va tez-tez tirnoqlardan foydalanish bilan ajralib turadi. Ushbu uslubdagi matnlarning nomi, qoida tariqasida, asar bag'ishlangan mavzu yoki muammoni aks ettiradi. ("Badiiy adabiyot tili to'g'risida"). Nutq uslubining yetakchi turi - fikrlash.

**Ilmiy va biznes (ilmiy va axborot)** ilmiy va rasmiy-ishbilarmonlik uslublari elementlarining sintezi bo'lgan va bunday janrlarda amalga oshiriladigan nutq uslubi; **dissertatsiya referati sifatida, tadqiqot hisoboti misol bo'la oladi.** Bu turdagi adabiyotlarning asosiy maqsadi - ilmiy ma'lumotlarni mavjud faktlarning eng aniq obyektiv tavsifi bilan yetkazish, shuningdek, bu ma'lumotlarni ilmiy himoya qilishdir. Ilmiy va ishbiarmon nashrlar tiliga stereotipli kompozitsiya, lingvistik vositalarni maksimal standartlashtirish va birlashtirish kabi juda qattiq talablar qo'yiladi.

**Mavzu:** "Sog'lom turmush tarzi" bo'yicha qisqa prezentatsiya uchun 5 ta tezis tuzing.

### **Uyga vazifa:**

1. Tezis nima va uning ilmiy ishdagi ahamiyati?
2. Tezis yozishda mavzuni to'g'ri tanlash qanday rol o'ynaydi?
3. Tezisga qo'yiladigan rasmiy talablar qanday (hajmi, formati, yozish uslubi)?
4. Tezisda muammoli masalani qanday belgilash kerak?
5. Yaxshi tuzilgan tezislar qanday mezolarga javob berishi kerak?

### **Mustaqil ta'lim:**

1. "Xalq sayli" mavzusida matn tuzing.
2. O'zbek xalq maqollaridan namuna keltiring va izohlang.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abduazizov A. Ilmiy tadqiqot asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
2. G'ofurov K. Ilmiy ishlar tayyorlash va yozish asoslari. – Toshkent: Fan, 2017.
3. Karimov, A. A. Ilmiy ishlar uchun tezislarni tayyorlash metodikasi. — Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti, 2021. — 56 b.
4. Karimov F. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. – Samarqand, 2020.
5. Mavlonov, R. M. Ilmiy matnlar uslubiyati. — Toshkent: Fan, 2019. — 112 b.

- 6.Назаров, Х. Х. Илмий нутқ ва унинг жанрлари. -Т.: Ўқитувчи, 2020. -88 б.
- 7.Quronboyeva G. Ilmiy stilistika va nutq madaniyati. – Т.: Universitet, 2020.
- 8.Umidov, S. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. — Toshkent: Turon zamin ziyo, 2022. — 98 b.
- 9.Хайдаров, Б. Риторика ва нутқ маданияти. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. — 134 б.
- 10.Yo‘ldoshev A. Ilmiy ish yozish metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.

## 15-Mavzu: TAQRIZ MATNI. TAQRIZ TURLARI.

### Reja:

1. Taqriz tushunchasi va uning mazmuni.
2. Taqriz matnining tuzilishi.
3. Taqrizga qo'yilgan talablar.
4. Taqriz turlari haqida.

Arabcha «**taqriz**» so'zi – resenziya yozish; biror kitob (asar)ni maqtab yozish, degan ma'noni anglatadi. Ilmiy, badiiy va boshqa turdagi asarga tanqidiy nuqtai nazardan berilgan yozma baho, tahlil. **Taqriz** — bu yozilgan ilmiy, badiiy yoki o'quv-metodik ishga berilgan yozma baho va tahlil. Taqriz matnida asarning mazmuni, ahamiyati, kuchli va zaif tomonlari, ilmiy yangiligi hamda amaliy ahamiyati yoritiladi. “Yaxshi taqriz muallifni qo'llab-quvvatlaydi, lekin ayni paytda uning ishidagi kamchiliklarni ham ko'rsatadi.”<sup>70</sup>

### Asosiy xususiyatlari:

- Tanqidiy-tahliliy ruhda yoziladi.
- Obyektiv bo'lishi kerak.
- Dalillar va misollar bilan asoslanadi.
- Xulosa va tavsiyalar bilan yakunlanadi.

### 2. Taqrizning maqsadi

- Asarning ilmiy yoki badiiy qiymatini aniqlash.
- Muallif g'oyalarini tahlil qilish va baholash.
- O'quvchi yoki keng jamoatchilikka asar haqida aniq tasavvur berish.
- Asarning nashrga yoki qo'llanishga tavsiya etilishini asoslash.

### 3. Taqriz turlari:

| Turi                          | Tavsifi                                                                  |
|-------------------------------|--------------------------------------------------------------------------|
| <b>Ilmiy taqriz</b>           | Ilmiy maqola, dissertatsiya, monografiyaga berilgan tahliliy baho.       |
| <b>Badiiy taqriz</b>          | Badiiy asar- roman, hikoya, she'r va h.k.ga yozilgan tahliliy fikrlar.   |
| <b>Metodik taqriz</b>         | O'quv qo'llanma, darslik yoki metodik materiallarga berilgan baho.       |
| <b>Ishchi (xizmat) taqriz</b> | Ichki tashkilot doirasida beriladigan, xizmat maqsadida yozilgan taqriz. |
| <b>Qisqa annotativ taqriz</b> | Juda ixcham, asar haqida qisqa ma'lumot va umumiy baho.                  |

<sup>70</sup> Karimov, A. A. *Ilmiy ishlarni tahlil qilish va taqriz yozish asoslari*. — Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti, 2020. — 64 b.

#### 4. Taqriz matni tuzilishi

1. **Kirish qismi** — asar nomi, muallif, mavzu bo'yicha qisqa ma'lumot.
2. **Asosiy qism** — mazmun tahlili, ilmiy/badiiy yangilik, kuchli va zaif tomonlar.
3. **Xulosa va tavsiya** — umumiy baho va nashrga/foydalanishga tavsiyanoma.

**Yozish uslubi:** rasmiy-ilmiy, izchil, xolis va dalillarga asoslangan bo'lishi kerak.

#### 5. Taqriz matniga qisqa misol

##### Taqriz

Muallif: Abdurahmonova M.

Asar: "O'quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish" o'quv qo'llanmasi.

Ushbu qo'llanmada ijodiy tafakkurni rivojlantirishning zamonaviy metodlari yoritilgan. Asar o'z dolzarbligi va ilmiy asoslanganligi bilan ahamiyatli. Muallif interfaol metodlarga keng o'rin bergan, nazariya va amaliyot uyg'unlashgan. Kamchiligi shundaki, ayrim misollar cheklangan doirada olingan. Xulosa qilib aytganda, qo'llanma metodistlar va o'qituvchilar uchun foydali bo'lib, foydalanishga tavsiya etiladi.

Taqrizni yozish jarayonidagi asosiy fokus kitobdagi faktlar, aniq ma'lumotlarni keltirishga emas, asarni o'qigandan so'ng taqrizchi qanday xulosa kelib chiqqanligini izohlashidir. "Yaxshi taqriz muallifni qo'llab-quvvatlaydi, lekin ayni paytda uning ishidagi kamchiliklarni ham ko'rsatadi."<sup>71</sup>

Yozilgan taqriz quyidagi talablarga javob berishi kerak:

Asarning mavzusi nima?

Asardan qanday g'oyalar kelib chiqadi?

Asarning bugungi kundagi ahamiyati qanday?

Asar nima uchun o'qilishi kerak? (Sabablari keltirib o'tiladi)

Qaysi yosh toifasiga mo'ljallangan?

Taqrizchi muhim deb hisoblagan, o'ziga kuchli ta'sir qilgan jummalarni ham kiritib o'tishi kerak.

Asar voqealarini hayotga bog'lashga harakat qilinadi.

---

<sup>71</sup> Usmonova, M. M. *Ilmiy matnlar tahlili va taqriz metodikasi*. — Toshkent: Fan, 2018. — 98 b.

Taqriz soʻnggida taqrizchi oʻzining asar haqidagi asosiy xulosasini keltirib oʻtishi va asardan iqtibos yoki asar matnidan parcha keltirib, tahlil qilish kerak.

Taqriz matni 400 ta soʻzdan oshmasligi kerak. Kam soʻz qoʻllab, qisqa va loʻnda ifodalashga harakat qilinadi. (400 ta soʻzdan oshgan taqrizlar avtomatik ravishda chetlatiladi).

Taqrizda kitobni shundayligicha koʻchirib qoʻymasdan, shaxsiy fikr bildirishga harakat qilinadi.

Turli kanallar, Google, Chrome va boshqa ijtimoiy tarmoqlar orqali boshqa shaxslar tomonidan yozilgan matnlarni koʻchirganlarning taqrizi ham tekshirilmaydi.

Imlo qoidalariga amal qilish shart (s, o, c, w...kabi belgilardan foydalanmasdan, asl harfda ifodalanadi).

Taqrizni shunday darajada yozish kerakki, taqrizni oʻqigan kishi bu asarni oʻqishga qiziqib qolishi, taqriz asarni topib oʻqishga majbur qila olishi kerak.

Taqrizni telegramda elektron shaklda yoki sayt, bot orqali rasmiy qilib yaratish ham mumkin.

Taqrizning turlari; adabiy - badiiy taqriz, teatr taqrizi, kinossenariy taqrizlar shuningdek, janrlar orasida ham turlari mavjud. Masalan, taqriz-maqola, taqriz-ocherk, taqriz-reportaj va h. k .

Taqriz – adabiy tanqid sohasidagi eng kichik janr hisoblanib, badiiyat olamidagi “razvedka” vositasidir. Uning vazifasi ixcham ommabop tahlil orqali asarning adabiy jarayon va yozuvchi ijodiyotidagi oʻrnini aniqlash, yutuq va kamchiliklarini koʻrsatish, isbotlash va baholash, unga kitobxonning eʼtiborini qaratishdan iborat. Bu janr shunisi bilan xarakterliki, keng jamoatchilikning asarni qanday qabul qilishi maʼlum jihatdan uni baholagan, tahlil qilgan dastlabki taqrizlarga bogʻliq. Haqqoniy taqriz asar haqida jamoatchilik fikrining shakllanishiga taʼsir koʻrsatadi. Taqrizchi asar mohiyatini ilmiy-estetik tahlil qilish orqali u haqida kitobxonning tasavvur koʻzini ochadi. Shu oʻrinda taqrizchi masʼuliyati degan muhim masala kelib chiqadi. Agar taqrizchi ilmiy-estetik jihatdan kuchli boʻlsa, mulohazalari asosli va teran boʻlsa, ilmiy jamoatchilikka ham, kitobxonlarga ham, adabiyotga ham naf keltiradi. Aksincha boʻlsa: qimmatli asarni didsizligi tufayli inkor etsa yoxud boʻsh asarni madh etsa, adabiy jamoatchilikni ham, kitobxonni ham chalgʻitadi. Shu maʼnoda taqrizchini tibbiyotdagi tashxis qoʻyuvchiga qiyoslasa boʻladi. Taqrizda vijdonan, bilimdonlik va masʼuliyat bilan amalga oshirilgan tahlil zarur. Taqriz yozuvchi shaxs asarga oʻz shaxsiyat-u hissiyoti nuqtayi nazaridan emas, balki umumxalq fikridan kelib chiqib hukm chiqarishi kerak. “Menga

yoqadi, menga yoqmaydi” qabilidagi iboralar mutlaqo mumkin emas. Taqriz - saylanma bayonning bir turi. U badiiy, ilmiy, metodik va boshqa asarlarga berilgan bahodir. Taqrizda asar tanqidiy tahlil etiladi, shu nuqtai nazardan baholanadi, yutuqlari ham, nuqsonlari ham ko‘rsatiladi. Taqrizchi o‘zining da‘volarini turli dalillar asosida isbotlay boradi, asarga ilmiy izohlar beradi. Taqriz yozish odobi xolislikni, haqiqatdan chetlashmaslikni talab etadi. Taqriz qilinayotgan asarning yutuq va kamchiliklari, nazariy va amaliy ahamiyati haqqoniy ko‘rsatilishi lozim. Asarga baho berishda muallifning shaxsiyati, obro‘si emas, balki asarning xususiyatlari, ahamiyati ko‘zda tutiladi.

Taqriz yozishda quyidagi sxemaga amal qilinadi:

1. Ishning umumiy holati va uni ochib berish.
2. Ishning baholanishi.

Taqrizning boshlang‘ich qismida quyidagi konstruksiyalardan foydalaniladi: ishda hikoya qilinadi, muammolar ko‘tariladi.

Taqrizni baholash qismida quyidagi konstruksiyalardan foydalaniladi:

Men ... hisoblayman ...

Mening fikrimcha...

Mening nazarimda..... menga yoqdi.

... menda katta taassurot uyg‘otdi. Kitob (film, teatr, maqola) ... o‘rgatadi.

TAQRIZGA NAMUNA:

**Dotsent R.B. Rasulovning “Integrativ yondashuv asosida o‘quvchilarning matnni talqin qilish kompetensiyalarini shakllantirish (Odil Yoqubovning «Oq qushlar, oppoq qushlar» romani asosida)” nomli monografiyasiga**

### **TAQRIZ**

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida adabiyot fanining o‘qitilishi yoshlarni vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalashning muhim manbalaridan biri ekanligi barchamizga ma’lum. Adabiyotni o‘qitish orqali o‘quvchilarning zarur kompetensiyasini rivojlantirish har bir o‘quvchida taqozo etiladigan malaka va ko‘nikmalar me’yorini rivojlantirish, bunda o‘qishda, mehnat jarayonida va oilada, jamoat joylarida yuzaga keladigan turli vaziyatlarda umuminsoniy qadriyatlarga amal qilish, adekvat muloqotga kirishish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi. Badiiy adabiyotni sevish va hurmat qilish – bu o‘quvchining adabiy ta’lim jarayonida o‘zlashtirgan insoniyat umumiy madaniyatining bir qismidir.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, mualliflarning “Yangi O‘zbekiiston taraqqiyoti strategiyasi” ning ijtimoiy yo‘nalishiga doir adabiy ta’lim modernizatsiyasi bilan bog‘liq badiiy asar syujeti, kompozitsionlan tuzilishi, yozuvchining badiiy mahorati, matn ustida ishlashga daxldor ta’limiy metodlar, yuzasidan adabiyot o‘qitish metodikasining badiiy-estetik tahlil va talqin

uyg'unligi muammosiga bag'ishlangan ushbu monografiya ta'lim-tarbiyaning sifat va samaradorligini oshirish yo'llarini bir tizim sifatida o'rganish va o'rgatish ni maqsad qilganligi va uni mauvaffaqiyatli amalga oshirganligi bilan e'tiborga molikdir.

Monografiyada badiiy asarni o'qitishga tayyorgarlik ta'lim mutolaasidan boshlanishi, boshlang'ich o'quv jarayonini didaktik talablar asosida tashkil etish yo'llari, badiiy ijodda individuallik motivatsiyasi, o'quvchilarni matn ustida ishlashga o'rgatish usullari, sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida o'quvchilarni mustaqil mutolaaga o'rgatish usullari, o'quvchi ma'naviy kamolotida kitobxonlik muammosi, ta'lim taraqqiyoti omillari va mutolaa madaniyati muammolari uzviylik va uzluksizlik asosida yoritilgan.

Monografiya badiiy asarlar mutolaasiga tizimli yondashuvni talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi va intellektual salohiyati rivojida yetakchi omillardan bo'lishi chuqur yoritilganligi bilan qimmatlidir.

Adabiyotini o'qitish tizimini yangilashning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish zarurati o'quvchilarga bilim berish, tarbiyalash va rivojlantirishning zamonaviy vazifalariga mos keladi.

Yuqorida tilga olingan omillarni nazarda tutadigan bo'lsak, R.B. Rasulova tomonidan tayyorlangan "Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarning matnni talqin qilish kompetensiyalarini shakllantirish (Odil Yoqubovning «Oq qushlar, oppoq qushlar» romani asosida)"nomli monografiyasiga o'zining dolzarbligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu monografiya adabiyot o'qitish metodikasi rivoji, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, ta'lim tizimining barcha bo'nlari, jumladan, OTM larning Gumanitar fanlar, Pedagogika fakultetlari talabalari, magistrarlari va ilmiy tadqiqotchillari uchun nazariy va amaliy jihatdan xizmat qilishi bilan muhim ilmiy va metodik ahamiyatga egaligini e'tiborga olib, ushbu monografiya qo'lyozmasini nashrga tavsiya etaman.

Taqrizchi

F. Ibadova, ChDPU dotsenti.

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi Ismonova Yorqinoy Abdumutalib qizining 10.00.02- o‘zbek adabiyoti (XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon) ixtisosligidan “Hozirgi o‘zbek romanlarida bola obrazining poetik funksiyasi” mavzusida filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasiga**

## **TAQRIZ**

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, millatning ijtimoiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotida yangi davr boshlandi. Bu esa milliy tariximizga qaytadan nazar tashlash, unutilayotgan qadriyatlarni yana xalqimizga qaytarish imkonini paydo qildi. Dastlab chor hukumati, keyin sho‘rolar tomonidan olib borilgan mustamlakachilik siyosati nafaqat millat taqdiri balki e’tiqod erkinligi, milliy tafakkur hamda ruhiyatga ham chuqur salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq tarix, siyosat, sotsiologiya, adabiyot sohasi vakillari milliy mustaqillikni mustahkamlash, O‘zbekistonning yangi tarixini xolisona talqin qilish vazifasini zarurat sifatida qabul qildilar. Uzoq yillar davom etgan sho‘ro mafkurasining g‘ayriinsoniy jihatlarini ochib berish orqali milliy mustaqillikni asrab-avaylashni, ilm-ma’rifatli barkamol avlodni tarbiyalash masalasi dolzarb vazifaga aylandi. Ana shu masalalardan kelib chiqib hozirgi davr romanchiligimiz uchun xarakterli va ma’lum ma’noda yangilik tendensiyalari ham ko‘rinmoqda: adabiyotimizning dastlabki o‘n yilliklaridagi ayrim qahramonlar tasviridagi ijtimoiy faoliyatga o‘zini butunlay bag‘ishlab, shaxsiy hayotga yetarli ahamiyat bermaslik ular faoliyatida iz qoldirmay o‘tib ketishi mumkin bo‘lmagan hollar edi. Biroq endi inson shaxsiga keng e’tibor, uning turmushda yo‘l qo‘ygan nuqsonlari oqibatiga befarq qaramaslik talablari shaxs hayotini o‘z murakkabligida ko‘rsatishni taqozo qilmoqda. Bunday hol axloqiy tarbiyaga va milliy qadriyatlarga alohida e’tibor berilayotgan insondagi odamiylikning butun murakkabliklarini haqqoniy ko‘rsatib, asarning ta’lim-tarbiyaviy, ijtimoiy ahamiyatini oshirishga intilishning kuchayishi bilan bog‘liq hodisadir. Bunda esa bola obrazi yetakchi planga chiqdi. Adabiyotda bola obrazi alohida bir mavzu sifatida muhim o‘rin egallaydi. Bola obrazining romanlar obrazlar tizimidagi o‘rni ko‘p qirrali bo‘lib, u asarda dinamikani, emotsional intensivlikni va mushohadani oshirishda ko‘makchilik qiladi. Bu obraz badiiy asarda muallifning estetik va falsafiy qarashlarini ifodalash, jamiyatning ma’naviy-axloqiy muammolarini ochib berish, insonning ichki dunyosini yoritish, uning eng pokiza his-tuyg‘ularini poetik aks ettirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan ham tadqiqotchi **Ismonova Yorqinoy Abdumutalib qizining “Hozirgi o‘zbek romanlarida bola obrazining poetik funksiyasi”** mavzusidagi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa

doktori (Phd) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi yangiligi bilan ahamiyatga molikdir. Dissertant o'z ilmiy obyektlarini tadqiq etishga kirishishdan oldin ayni muammo bo'yicha qilingan ishlarni atroflicha o'rgangan, ularda qayd etilgan nazariy umumlashmalarni sistemali talqin qilishga harakat qilgan. Mavzuga oid yirik tadqiqotlardan metodologik asos sifatida foydalangan. **Ismonova Yorqinoy Abdumutalib qizining “Hozirgi o'zbek romanlarida bola obrazining poetik funksiyasi”** mavzuidagi dissertatsiyasi romanlardagi bola obrazi ifodasini kompleks tadqiq etishga qaratilgan. Bu obrazning ham o'ziga yuklangan muhim vazifasi borki, u adabiyot shakllangandan to hozirga qadar bor bo'lgan va takomillashib borayotgan muhim obraz sanaladi. U hatto ko'plab badiiy asarlarda bosh qahramon darajasiga chiqadi.

Dissertatsiyaning umumiy mazmuni Kirish va Xulosa qismidan tashqari uch asosiy bobda o'z ifodasini topgan. Dissertatsiyaning dastlabki bobi **“Roman janri tarixida bola obrazi va uning ilmiy-nazariy talqinlari”** deb nomlanib, 1-paragrafda *“Roman obrazlari tizimida bola obrazining o'rni”* masalasi tadqiq qilingan. Unda ishning asosiy ilmiy-nazariy jihatlarini ochib berilgan. Ushbu bobda dissertant badiiy adabiyotda bola obrazi va bolalik tasvirini o'rganishga hamda bu obrazning adabiyotga kirib kelishi, kattalar adabiyotidagi vazifasi, xususan, jahon romanchiligida tutgan o'rni va ahamiyatini aniqlash hamda tasniflashga harakat qiladi. Bobning ikkinchi paragrafida *“O'zbek romanida bola obrazi: tavsif, tasnif, talqin”* mavzusiga bag'ishlangan bo'lib o'zbek romanlarida bola obrazining shakllanish bosqichlari, mualliflarning ifoda usullari, badiiy talqinlari, shuningdek, ayni obrazning xarakteri va badiiy vazifalariga ko'ra tadqiq etilgan. O'zbek romanlarida bola obrazining shakllanish bosqichlari va yozuvchi tasvir usuli, badiiy talqiniga ko'ra turlari qiyosiy tahlil qilinadiki, natijada o'quvchi ko'z o'ngida yaqqol tasavvur uyg'otadi. Bular quyidagicha aks ettirilgan:

- a) *sho'ro tuzumigacha bo'lgan davr voqealarida tasvirlangan bola obrazi;*
- b) *urush fojialari ichida tasvirlangan bola obrazi;*
- c) *front orti mashaqqatlari, ruhiy qiyinchiliklar girdobidagi bola obrazi;*
- d) *urushdan keyingi tinch hayot va mustaqillik davri fonidagi bola obrazi.*

Ishning ikkinchi bobi, **“XX asr o'zbek romanida bola obrazining ijtimoiy, psixobiografik omillari va funksiyalari”** deb nomlangan bo'lib, 1- § da *“Abdulla Qodiriy romanlarida qahramonning bolaligiga doir epizodlar”* masalasi tadqiq qilingan hamda qahramonning bolaligiga doir syujetlar tahlil markaziga olingan. Badiiy asarda ijodkor ruhiy kechinmalari, ko'rgan-kechirganlari, hayotiy tajribalari yoki turli iztirobli hodisalar aks etishini, bunda biografik voqelikning izi asarlarda qolishi, yozuvchi psixobiografiyasi qaysidir ma'noda uning badiiy asarlaridagi voqea-hodisalar bayoni, yaratgan obrazlari tizimida o'z ifodasini topishi va bunday individuallik san'at asarining orginalligini, o'ziga xos xususiyatlarini namoyon

qilishi asoslab berilgan. Asarlar garchi mazmun-mohiyatan bir bo'lsa-da, ijodkor ifoda yo'sinidagi o'ziga xoslik, falsafiy yondashuv, ijodiy tamoyil va tafakkur tarzi natijasida mutlaqo farqlanishini kuzatishda biografik metodga tayanilishi mavzu doirasida chuqur o'rganilgan. Bobning ikkinchi faslida *“Oybekning “Quyosh qoraymas”, Rahmat Fayziyning “Hazrati inson” romanlarida urush bolasi obrazi va uning biografik omillari”* masalasi o'rganilgan. Unda dissertant urushdan keyingi yillarda shiddat bilan adabiyotga kirib kelgan, mualliflarga urushning dahshatli qiyofasini bola nigohi bilan tasvirlab berish imkonini bergan, urush haqidagi asarning yanada ishonchli va ta'sirli chiqishida bola obrazining ahamiyatini tadqiq qilgan va guruhlarga bo'lib tahlil qiladi. Dastlab, an'anaviy ravishda urush bolalarining butun avlodini frontdagi bolalar, qamaldagi Leningrad bolalari, ishg'ol va fashistik konslagerdagi bolalar, front ortidagi bolalar kabi guruhlarga bo'lib, keyingi guruhda esa sanab o'tilganlarni hisobga olib, bolalarning jasorati va vatanparvarligini ko'rsatuvchi adabiy asarlarni frontdagi bolalar haqida she'r va nasr, qamaldagi Leningrad bolalari haqida she'r va nasr, konslager va ishg'oldagi bolalar haqida she'r va nasr, front ortidagi bolalar haqida she'r va nasrlarni tasniflab mavzu doirasida o'rganan va tahlil qilgan.

Tadqiqot ishining 3-bobi *“Bola obrazi badiiy funksiyasining maishiy muhit va milliy ruhiyat bilan uyg'unligi”* deb nomlangan bo'lib, ushbu bobning *“Ikki eshik orasi”* romanida bola obrazining badiiy psixologik tasviri masalasi deb nomlangan faslida asardagi milliy ruhni berish uchun marosimlar tasviri zarur o'rin tutishi maxsus o'rganilgan hamda *“Ikki eshik orasi”* romanida adib to'y marosimi va shu kabi milliy an'analarimizga alohida ahamiyat qaratgani tadqiq qilingan. Uchinchi bobning keyingi faslida *“Jaziramadagi odamlar”* romanida *“roviy bola”* obrazi tadqiq qilingan. Luqmon Bo'rixonning *“Jaziramadagi odamlar”* romanida qahramon bola tilidan gapirishi, asar tilida yozuvchi uslubi va qahramon salohiyati tahlillar yordamida aniqlangan. Ammo mana shunday original struktura va fikrlar tizimiga ega bo'lgan dissertatsiyada ham ba'zi mulohazali o'rinlar ko'zga tashlanadi.

Quyida ishning ilmiy qimmatini oshirishga qaratilgan ayrim takliflarni bildirishni joiz topdik:

Birinchidan, tadqiqotning nazariy qismida bugungi o'zbek adabiyotida yaratilayotgan yangi romanlar tasnifiga, masalan *“mini romanlar”*ga doir ma'lumotlar keltirilsa mavzuning ilmiy-amaliy ahamiyati yanada yaqqolroq ko'rinar edi.

Ikkinchidan, dissertatsiyada tadqiqot obyekti qilib olingan adiblarning mavzuga aloqador asarlari *“mustaqillik bola”*si obrazi asosida ham o'rganilib, tanlangan mavzuga oid ayrim misollar keltirilsa va tahlil qilinsa, ish oldiga qo'yilgan maqsadga to'liqroq erishilgan bo'lar edi.

Uchunchidan, bola obrazining shakllanish bosqichlari tahlilida dissertant tomonidan xalq og‘zaki ijodi namunalarida bola obrazi yuqori planda bo‘lmasa-da, mavjud edi degan fikr berilgan va faqat o‘zbek xalq dostoni “Alpomish”dagi bola obrazining tadqiqi keltiriladi. Vaholanki, o‘zbek xalq dostonlari, eposlari, ertaklaridan ham bola obrazini yetarlicha keltirib tahlil qilinsa, milliy asarlarimizda bola obrazining tarixiga oid ma’lumotlarni keltirish imkoni paydo bo‘lardi.

To‘rtinchidan, hozirgi adabiy jarayonda faol bo‘lgan yoshlar ijodidan ham tanlangan mavzuga oid ayrim misollar keltirilsa va tahlil qilinsa, ish oldiga qo‘yilgan maqsadga to‘liqroq erishilgan bo‘lar edi.

Beshinchidan, *ishda mustaqillik davri fonidagi bola obrazini tahlil qilishga keng maydon ajratish kerak deb o‘ylayman*. Negaki, ishda ushbu mavzuga mos tahlil deyarli uchramaydi.

Oltinchidan, dissertatsiya ishida ayrim imloviy va punktuatsion xatolar uchraydi. Masalan, 29, 30, 31, 32, 42, 62, 68, 69 va boshqa sahifalarda. Shuningdek, ba’zi so‘zlarning rus tilida berilishi ham g‘alizlikni keltirib chiqargan. Masalan “travma” so‘zini jarohat so‘zi tarzida berish mumkin va hokazo.

Ish to‘g‘risida bayon etilgan yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytish mumkinki, Ismonova Yorqinoy Abdumutalib qizining “Hozirgi o‘zbek romanlarida bola obrazining poetik funksiyasi” mavzuidagi dissertatsiyasi muammoning qo‘yilishi, ichki strukturasi, manbalarning tizimli tahlili, nazariy xulosalari, ilmiy adabiyotlarning istifoda etilishi, ilmiy apparatining to‘g‘ri shakllantirilganligi jihatidan O‘zbekiston Respublikasi OAKining 10.00.02 – o‘zbek adabiyoti ixtisosiligi bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyalar oldiga qo‘ygan talablariga to‘la javob beradi. Dissertatsiya avtoreferati va ish yuzasidan e’lon qilingan ilmiy maqolalar dissertatsiya mazmuniga mos keladi. Ismonova Yorqinoy Abdumutalib qizi 10.00.02 – o‘zbek adabiyoti ixtisosligi bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olishga loyiq.

**Taqrizchi**

**R.B.Rasulova**

**Chirchiq davlat pedagogika  
universiteti dotsent v/b, pedagogika  
fanlari bo‘yicha falsafa  
doktori(PhD)**

Nazorat uchun savollar:

1. Taqriz nima va uning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. Ilmiy taqriz va badiiy taqriz o‘rtasidagi farqni tushuntiring.
3. Taqriz matni odatda nechta asosiy qismdan iborat bo‘ladi?
4. Metodik taqriz qaysi turdagi asarlarga yoziladi? Misol keltiring.
5. Taqriz yozishda qaysi uslubdan foydalaniladi?

6. Qisqa annotativ taqrizning asosiy xususiyatlarini sanang.

7. “Obyektivlik” taqriz matnida nimani anglatadi?

### **Topshiriqlar:**

Quyidagi atamalarga ta’rif yozing:

- a) Ilmiy taqriz
- b) Metodik taqriz
- c) Annotativ taqriz

Tahlil qiling

Quyidagi matn bo‘lagidan taqrizning qaysi qismiga tegishli ekanligini aniqlang (kirish, asosiy qism yoki xulosa):

“Asarda mavzuga oid nazariy ma’lumotlar keng yoritilgan, lekin amaliy misollar yetarlicha berilmagan. Muallif ilmiy adabiyotlardan samarali foydalangan.”

Taqriz yozing

Siz o‘qigan biror maqola, badiiy asar yoki metodik qo‘llanma bo‘yicha 5–6 jumladan iborat qisqa taqriz yozing.

Kamchiliklarni toping

Quyidagi jumlalarda taqriz yozish qoidalariga zid elementlarni belgilang va to‘g‘rilang:

- 1. “Asar juda yaxshi, menga yoqdi.”
- 2. “Muallif umuman o‘z ishini tushunmaydi.”

Turlarga ajrating

Quyidagi misollarni tegishli taqriz turiga moslashtiring:

- a) Dissertatsiya bo‘yicha yozilgan tahliliy baho
- b) Yangi darslik uchun berilgan metodik fikrlar
- c) She’r to‘plamiga berilgan estetik tahlil

**UYGA VAZIFA:**

•Taqriz turlari haqidagi ma’lumotlarni

o‘rganib konspektlashtirib kelish.

•IT sohasiga oid ixtiyoriy bir maqolani tanlab o‘qish va taqriz yozib kelish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1. Axmedov, Sh. Metodik ishlar va ularga taqriz yozish tartibi. — Toshkent: Turon-Iqbol, 2021. — 72 b.
- 2. Irisqulov, I.T. Tilshunoslikka kirish. — Toshkent, 2009.
- 3. Karimov, A. A. Ilmiy ishlarni tahlil qilish va taqriz yozish asoslari. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti, 2020. — 64 b.
- 4. Nazarov, X. X. Ilmiy matnlar uslubi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2019. — 112 b.
- 5. Nurmonov, A. Tanlangan asarlar. III jild. — Toshkent: Akademnashr, 2012.
- 6. Rasulov, R. Umumiy tilshunoslik. — Toshkent, 2013.

7. Usmonova, M. M. Ilmiy matnlar tahlili va taqriz metodikasi. — Toshkent: Fan, 2018. — 98 b.
8. Yuldasheva, G. Taqriz va annotatsiya yozish bo'yicha qo'llanma. — Toshkent: TDPU, 2022. — 56 b.

## GLOSSARIY

**Aksiomatik metod**–ilmiy nazariya tuzish usuli. Bunda uning asosiga ayrim dastlabki qoidalar–aksiomalar qo‘yiladi va nazariyaning qolgan barcha g‘oyalari mana shu aksiomalardan sof mantiqiy yo‘l bilan isbotlash orqali keltirib chiqariladi.

**Amaliy tadqiqotlar.** Amaliy tadqiqotlarning xususiyati shu bilan belgilanadiki, ular amaliy vazifalarni yechish uchun kerakli bo‘lgan bilimni olishga qarab to‘g‘ridan-to‘g‘ri mo‘ljallanadi.

**Analiz**–obyektni amalda yoki fikran tarkibiy qismlarga ajratish; sintez – qismlardan butunni, xuddi shunday tarzda, qayta birlashtirish.

**Analitik bilim** - tafsilotlarni, xususan, asosiy negizda mavjud mazmunning butun salohiyatini aniqlash imkonini beradi.

**Analogiya (moslik, o‘xshashlik)**–o‘xshash bo‘lmagan ob’ektlarning ayrim jihatlari, xossalari va munosabatlaridagi o‘xshashliklarni aniqlash.

**Aniq maqsadga qaratilgan fundamental tadqiqot** - ilmiy izlanish yo‘nalishi aniq belgilangan va tadqiqotchilardan qo‘yilgan maqsadlarga erishish yo‘lidan o‘g‘maslik

**Axborot** – ob’ektiv reallikning muhim qismini ifodalovchi tushuncha bo‘lib, o‘zini saqlash, qayta ishlash va ta’sir natijalari (izlari)dan foydalanish uchun mo‘ljallangan moddiy tizimlarda namoyon bo‘ladi.

**Axborot texnologiyasi** – bu axborotni tanlash, jamg‘arish, tahlil qilish va foydalanuvchiga yetkazib berishga yo‘naltirilgan hisoblash texnikasi, elektr aloqa, informatika imkoniyatlarining uyg‘unligidir.

**Bilimning ilmiylik mezoni** – verifikatsiya qilish imkoniyati emas, balki aksincha, falsifikatsiya qilish (uni rad etish) imkoniyatidir.

**Verifikatsiya tamoyili** – mohiyat-e’tibori bilan formal mantiqni yetarli asoslash tamoyilining o‘xshashi.

**Germenevtik doira** – «olmaxon g‘ildiragi» emas, zero, unda tafakkur qismlardan avvalgi butunga emas, balki o‘z qismlarining bilimi bilan boyigan butunga, ya’ni boshqa butunga qaytadi.

**Dalil (yoki dalillar)ni aniqlash** - ilmiy tadqiqotning zaruriy sharti.

**Deduksiya** –bilish jarayonining umumiydan ayrimlikka yuksalishi.

**Dialog** - murakkab, rang-barang mazmunga boy va tushunish bilan uzviy bog‘liq o‘zaro aloqa shaklidir. Dialogda insonning ikki tabiiy intilishi: aytish va o‘zini eshitishlariga erishish, shuningdek tushunish va tushunilishga intilish ro‘yobga chiqadi.

**Ideografik metod** - (yunoncha idios – «alohida», grapho – «yozaman») u madaniyat haqidagi tarixiy fanlar metodi, alohida tarixiy dalillar va hodisalarning o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflash.

**Ijodiy qobiliyat** - insonlarga kerakli bo‘lgan qandaydir yangilikni ochish yoki yaratish

**Ijtimoiy axborot** – bilimning shunday bir qismiki, u muayyan moddiy jismlarda qayd etilgan va belgilar tizimida ifodalangan holda ijtimoiy-kommunikativ, sub’ektlararo jarayonga qo‘shilib idrok etiladi va insonning bilim darajasini o‘zgartiradi, shuningdek uning o‘zi ham o‘zgartirilib, undan faoliyatning turli jabhalarida foydalaniladi.

**Ilmiy axborot** – ilmiy bilish jarayonida olingan, tushunchalar, mulohazalar, xulosalar, nazariyalar va gipotezalar tizimida qayd etilgan, tabiiy yoki sun’iy belgilar tizimi yordamida ifodalangan, ob’ektiv borliqni olimning ma’naviy faoliyati natijalari orqali aniq aks ettiradigan va ijtimoiy-tarixiy amaliyotda foydalaniladigan ijtimoiy ahamiyatga molik va mantiqiy jihatdan (shaklan) umumiyashtirilgan axborot.

**Ilmiy dalilning ikki muhim xossasi** - ishonchlilik va bir variantlilik.

**Ilmiy elita va intellektuallar** – intellektual mulk bunyodkorlari.

**Induksiya**–ayrimlik (tajriba, dalil)dan umumiyga (ularni umumlashtirib xulosa chiqarishga) fikran harakat qilish;

**Inson bilimi** – hissiy va ratsional faoliyatning birligi.

**Intellektual elita** – ziyolilarning tug‘ma emas, balki funksional tipi. U o‘z zimmasiga yuklangan jamiyatning ma’naviy va intellektual rivojlanishini ta’minlash funksiyasi bilan bog‘liq. Intellektual elitaga mansublikning eng diqqatga sazovor ko‘rsatkichi kashfiyot yoki ta’limotga stixiyali tarzda uning muallifi nomi berilishidir.

**Interiorizatsiya** - insonning ijtimoiy-kommunikativ jarayonlarda moddiylashgan ijtimoiy (shu jumladan ilmiy) axborotni anglab yetishi.

**Informatika (fransuzcha information – axborot va automatique – avtomatika)** – axborot olish, unga ishlov berish, uni saqlash va taqdim etish jarayonlarini tadqiq qilish, jamiyat hayotining barcha sohalarida axborot texnikasi va texnologiyasini yaratish, amaliyotga joriy etish va ulardan foydalanish masalalarini hal qilish bilan shug‘ullanuvchi fan-texnika faoliyati.

**Irratsionallik** – aql bilan bilish mumkin bo‘lmagan, mantiqiy fikrlash bilan muvofiq kelmaydigan narsalar va hodisalar.

**Iste’dod-** shaxsning individual-psixologik xususiyatlaridan biri bo‘lib, asosan ilmiy izlanish jarayonida eng katta kuch sifatida faol ishtirok etadi.

**Metod (yunon. methods — usul)** - keng ma’noda yo‘l, ijodiy faoliyatning har qanday shakli kabi ma’nolarni anglatadi. Metod u yoki bu shaklda ma’lum qoida, tartib, usul, harakat va bilim mezonlarining yig‘indisi hamdir.

**Metodologiya tushunchasi** — faoliyatda qo‘llaniladigan ma’lum usullar tizimi (fanda, siyosatda, san’atda va h.k) va tizim haqidagi ta’limot yoki metod nazariyasi. Metodologiya faqat metodlarni emas, balki tadqiqotni ta’minlovchi boshqa vositalarni ham o‘rganadi.

**Modellashtirish tamoyili va o‘xshatish metodi** – obyektlarning ba’zi bir xossalarni ularga o‘xshagan moddiy yoki nomoddiy (konseptual tushunchaga asoslangan, mantiqiy-matematik) konstruksiyalarni tadqiq qilish orqali bilish mumkinligi. Mohiyat-e’tibori bilan bu qiyosiy bilish yo‘lidir.

**Modellashtirish**–borliqni bilvosita o‘rganish usuli. Biron obyektning xususiyatlarini ularni o‘rganish uchun maxsus tuzilgan boshqa ob’ektda qayta hosil qilish.

**Muammo** – bilishning rivojlanish jarayonida obyektiv tarzda yuzaga keladigan, yechimini topish muhim amaliy yoki nazariy ahamiyatga ega bo‘lgan masala yoki masalalar majmui. Shuningdek muammo, hal qilishni talab etuvchi nazariy yoki amaliy masala; fanda – biron-bir hodisalar, obyektlar, jarayonlarni tushuntirishda qarama-qarshi yondashuvlar ko‘rinishida amal qiluvchi va uni yechish uchun muvofiq nazariyani talab etuvchi ziddiyatli holatdir. Muammo – bu yechilishi lozim bo‘lgan masala yoki vazifa.

**Muammoni qo‘yish** – ilmiy bilish jarayonining dastlabki bosqichi. Muammoni qo‘yishda, avvalo, ayrim holatni masala sifatida anglab yetish, qolaversa, muammoning mazmunini aniq tushunish, ma’lum va noma’lum narsalarni ajratgan holda uni ta’riflash lozim.

**Nazariya** – bu tabiat va jamiyat qonunlarining tushunishgagina emas, balki unga faol ta'sir etib aqliy asosda o'zgartirishlar kiritish haqidagi ilmiy g'oyalar to'plami.

**Reduksiya tamoyili**–ma'lum yaxlitlik, tizim, «murakkablik»ni uning nisbatan sodda tarkibiy qismlari, unsurlari orqali bilish.

**Simvol** – moddiy narsalar va jarayonlarning belgi yoki obraz tarzida ifodalangan ideal mazmuni.

**Sintetik bilim**- nafaqat umumlashtirish, balki mutlaqo yangi mazmunning yaratilishiga olib keladi.

**Sistemali yondashuv** – umumilmiy bilimning tarmoqlangan sohasi bo'lib, uning predmetiga reduksiya, yaxlitlik va kontrreduksiyaning metodologik muammolari ham kiradi.

**Strukturaviy-funksional (strukturaviy) metod** - yaxlit tizimlarda ularning strukturasini, strukturaning tarkibiy qismlari o'rtasidagi barqaror munosabatlar va o'zaro aloqalarni hamda ularning bir-biriga nisbatan rollari (funktsiyalari)ni ajratish.

**Superintellektual elita** - superintellektual elitaga Nobel mukofoti sohiblari kiritiladi.

**Talqin qilish** - dalilning muhim unsuri bo'lib, u har xil shakllarda amalga oshiriladi.

**Tarixiylik tamoyili** – ob'ektni kelib chiqishi va rivojlanishiga bog'lab, uni mufassal o'rganish. Mazkur tamoyilning shakllanishi va mohiyati to'g'risida maxsus bo'limda so'z yuritiladi.

**Tushuntirishning bosh maqsadi** – o'rganilayotgan predmetning mohiyatini, rivojlanish sabablari, shartlari va manbalarini, harakat mexanizmlarini aniqlashdan iborat.

**To'ldiruvchanlik tamoyili**.- tadqiqotning ko'pgina ob'ektlari (mikrodunyoning elementar zarralarga o'xshash eng oddiy ob'ektlaridan tortib to inson va jamiyat singari murakkab ob'ektlargacha) har xil, hatto qarama-qarshi bilimlar (nazariyalar, konsepsiyalar, yondashuvlar)ni birlashtirish asosida nisbatan to'la tavsiflanadi.

**Umumlashtirish**–predmetning umumiy xossa va belgilarini aniqlash jarayoni bo'lib, mavhumlashtirish bilan chambarchas bog'liq. Bunda har qanday umumiy (abstrakt-umumiy) yoki muhim (muayyan umumiy, qonun) belgilar ajratilishi mumkin.

**Falsifikatsiya tamoyili**—mazkur tamoyilga binoan, faqat inkor etish

## Адабиётлар:

1. Abduazizov A. Ilmiy tadqiqot asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
2. Ахметова, Ш. (2016). Педагогика назарияси ва тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи.
3. Axmedov, Sh. Metodik ishlar va ularga taqriz yozish tartibi. — Toshkent: Turon-Iqbol, 2021. — 72 b.
4. Аристотель. Сочинения: В 4 т. Т. 4. - М.: Мысль, 1983. С. 376-644.
5. Ал-Хоразми Муҳаммад ибн Муса. Математические трактаты. – Тошкент: Фан, 1983. – 225с.
6. Абу Али Ибн Сина Избранное В 2-х томах. Восточная философия (ал-Хикма ал - машрикийя) Руководство по философии ( Китаб ал - хидая) Трактат об определениях (ар-Рисала фи-л-худуд ) Трактат об этике ( ар-Рисала фи-лахлак ). Душанбе – Ашгабат.: Культурный центр Посольства ИРИ в Туркменистане - 2003.,185.с. С-17.
7. Абдуллаева М., Покачалов Г. Философские проблемы методологии науки: Отдел Институт Философии и права им. И.М.Муминова АН Руз.. – Т.: 2006. – 5 с.
8. Арипов М. Информатика ва ҳисоблаш техникаси асослари -Т.: Университет, 2001. -306 б. 6. Азизкулов А.А. Илмий ижодиётида рационализм ва нораціонализм: концептуал таҳлилий ёндашувлар: Дис. ... Фал. фан. ном.; ЎЗР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Алишер Навоий номидаги Самарқанд Давлат ун-ти. - Самарқанд, 2007. - 146 б.
9. Антонов А.Н. Преемственность и возникновение нового знания в науке. М., Изд-во МГУ. 1985. -С 171.
10. Бурдые П. Практический смысл. – М., 2001. – 106-б.
11. Бутлеров А.М. Сочинения. М., 1953. Т.1.-С 640.
12. Бахтин М.М. Автор и герой. К философским основам гуманитарных наук. – СПб.: Питер, 2000. – С.306.
13. Басин Е.Я. Творчество и эмпатия. // 1987, 2, 54-66.
14. Бердяев Н.А. Самопознание. - М., Книга, 1991. С. 56.
15. Бескова И.А., Герасимова И.А., Меркулов И.П. Феномен сознания. М. Прогресс–Традиция 2010. - 368 с.
16. Барулин В.С. Социальная философия. Учебник, Изд.2-е, -М. ФАИР, Пресс, 1999, С-560
17. Бескова И.А. [Как возможно творческое мышление](#) /РАН. Ин-т философии. – М.: ИФРАН, 1993. –197 с.
18. Блаженный Августин. О граде Божием. Харвест, АСТ, 2000. - 129 с.
19. Бургардт Ф. Новые горизонты в исследовании поэтического стиля. -Киев.: Науково Думка, 1995.

20. Бурбо Л. Эмоции, чувства и прощение. – М.: ИД «София», 2006. - 144с.
21. Djuraev, R.X. Ta'lim menejmenti. T.: 2006 y. O'quv qo'llanma.
22. Dewey, J. (1938). Experience and Education. – New York: Macmillan.
23. Фейерабенд П. Избранные произведения по методологии науки. – М., 1986. – 333-334-б.
24. Форобий Абу Наср Фозил одамлар шаҳри. - Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993.-105 б.
- 25.Файзуллаев О. XX аср зиёлилари: устозларим ва сафдошларим / О.Файзуллаев. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2008. – Б.278.
26. GOST 7.1-2003 “Bibliografik yozuv. Bibliografik tavsif. Loyihani tuzish uchun umumiy talablar va qoidalar.” Minusinsk pedagogika kolleji. A.S. Pushkin, Krasnoyarsk o'lkasi. 2003 yil.
27. GOST 7.32-2001 “Tadqiqot hisoboti. Ro'yxatga olishning tuzilishi va qoidalari.” SIBID. Novosibirsk. 2001 yil.
- 28.GOST 7.80-2000 “Bibliografik yozuv. Sarlavha. Loyihani tuzish uchun umumiy talablar va qoidalar.” Minusinsk pedagogika kolleji. A.S. Pushkin, Krasnoyarsk o'lkasi. 2000.
29. GOST 7.82-2001 “Bibliografik yozuv. Elektron resurslarning bibliografik tavsifi.” Minusinsk pedagogika kolleji. A.S. Pushkin, Krasnoyarsk o'lkasi. 2001 yil.
30. G'ofurov, K. Ilmiy ishlar tayyorlash va yozish asoslari. – Toshkent: Fan, 2017.
31. Ibadova, M. Pedagogik faoliyat va metodologiya. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
32. Ibadova, M. Ta'lim nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2021.
- 33.Irisqulov, I.T. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 2009.
34. Karimov, A. A. Ilmiy ishlarni tahlil qilish va taqriz yozish asoslari. — Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti, 2020. — 64 b.
35. Karimov, A. A. Ilmiy ishlar uchun tezislar tayyorlash metodikasi. — Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti, 2021. — 56 b.
36. Karimov, F. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. – Samarqand, 2020.
37. Kilpatrick, W.H. (1918). The Project Method. – Teachers College Record, 19(4).
38. Kodirova, F., Toshpulatova, Sh.K., Kayumova, N.M., Agzamova, M.N. “Maktabgacha pedagogika” T.: Tafakkur, G- 2019. Darslik.
39. Mavlonov, R. M. Ilmiy matnlar uslubiyati. — Toshkent: Fan, 2019. — 112 b.
40. Мавлонова, Р., Тўйчиева, С. (2019). Педагогика. – Тошкент: Fan va texnologiya.
41. М. Ахмедова. Нутқ маданияти ва профессионал нотиклик. ТАТУ, 2017, 114 б.

42. M.Abdurahmanova. O‘zbek tili fanidan uslubiy qo‘llanma.
43. N.M. Egamberdiyeva. Ijtimoiy pedagogika.- T.:2014 Darslik
44. Nazarov, X. X. Ilmiy matnlar uslubiyati. — Toshkent: O‘qituvchi, 2019. — 112 b.
45. Назаров, Х. Х. Илмий нутқ ва унинг жанрлари. — Тошкент: Ўқитувчи, 2020. — 88 б.
46. Nurmonov, A. Nutq madaniyati va uslubiyati. — Toshkent: Fan, 2012.
47. Polat, E.S. (2000). Метод проектов на уроках иностранного языка. — Москва: Просвещение.
48. Qo‘ng‘urov, R., Begmatov, E., Tojiyev, Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari, - T.: “Fan”, 1992, 254 b.
49. Qo‘shjonov, M. (2002). Til madaniyati asoslari. Toshkent: Fan.
50. Quronboyeva, G. Ilmiy stilistika va nutq madaniyati. — Toshkent: Universitet, 2020.
51. Rahmatullayeva, G‘. (2018). O‘zbek tili imlo qoidalari va yozuv madaniyati. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
52. Rasulov, R. Umumiy tilshunoslik. - Toshkent, 2013.
53. Rasulova, R.B. /Istiqlol davri o‘zbek adabiyotining yetakchi tamoyillari/ o‘quv qo‘llanma. — Toshkent: “Zebo Prints”, 2024. — 348 bet.
54. Sobirov, A. Ilmiy ishlar va referatlar. — Toshkent: Ilm-fan, 2017. — 76 b.
55. Sodikova, Sh.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo‘stoni. 2013 y. Darslik.
56. Смирнов, С.Д. Психология и педагогика. — М.: Академия, 2005.
57. Сморщок, М. Ф. Изложения: для абитуриентов / М. Ф. Сморщок. - Минск: Высшая школа, 2000. -171 с.
58. Shermuxamedova N.A. Falsafa va fan metodologiyasi. — Toshkent: Aloqachi, 2008. — B. 436
59. Шермухамедова Н.А. Гносеология - билиш назарияси. — Тошкент: Noshir, 2011.— Б. 179-183.
60. Шермухамедова Н.А. Социально-философский анализ стиля научного мышления.
61. Usmonova, M. M. Ilmiy matnlar tahlili va taqriz metodikasi. — Toshkent: Fan, 2018. — 98 b.
62. Umidov, S. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. — Toshkent: Turon zamin ziyo, 2022. — 98 b.
63. Xolmonova, Z. Adabiy tildan ma’ruzalar umumlashmasi-T.: «O‘zbekiston», 2013, 250 b.
64. X.S. Muhiddinova, N. A. Abdullayeva. Rasmiy uslubning diplomatik turlari. Toshkent, 1997 y.

65. Хайдаров, Б. Риторика ва нутқ маданияти. — Toshkent: Янги аср авлоди, 2018. — 134 б.
66. Yuldasheva, G. Taqriz va annotatsiya yozish bo'yicha qo'llanma. — Toshkent: TDPU, 2022. — 56 b.
67. Yo'ldoshev, A. Ilmiy ish yozish metodikasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2019.
68. Yo'ldoshev, Q. Nutq madaniyati va til estetikasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2015.

## MUNDARIJA:

|                                                                                                                                 |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Kirish.....                                                                                                                     | 3   |
| 1.Akademik yozuvning rivojlanish tarixi. akademik yozuvning roli va ahamiyati Akademik nutq. Ilmiy uslubning xususiyatlari..... | 6   |
| 2.Akademik yozuv va axborot. Axborotning turlari va xususiyatlari.....                                                          | 20  |
| 3.Matn va uning turlari.....                                                                                                    | 42  |
| 4.Matn hosil qiluvchi vositalar. Matnni ma'noviy guruhlariga bo'lish tamoyillari.....                                           | 52  |
| 5.Reja. Rejaning turlari.....                                                                                                   | 59  |
| 6.Nutq uslublari. Ilmiy uslub va rasmiy-idoraviy uslubning leksik grammatik xususiyatlari. Akademik nutq.....                   | 76  |
| 7.Nutq uslublari. Ilmiy uslub va rasmiy-idoraviy uslubning leksik grammatik xususiyatlari. Akademik nutq.....                   | 82  |
| 8.Publitsistik uslub va og'zaki uslubning leksik-grammatik xususiyatlari.....                                                   | 104 |
| 9.Annotatsiya yozish. Imlo savodxonlik.....                                                                                     | 124 |
| 10.Esse haqida tushuncha. Esse turlari.....                                                                                     | 142 |
| 11.Referat. Referat turlari. Referat tarkibidagi klishe'langan jumlar.....                                                      | 163 |
| 12.Ilmiy uslub janrlari. Ilmiy sharh. Kurs ishi.....                                                                            | 174 |
| 13.Ma'ruza. Ma'ruza tuzilmasi. Loyiha. Loyiha turlari.....                                                                      | 189 |
| 14.Tezislar. Tezis turlari. Tezislar yozish uslubi.....                                                                         | 208 |
| 15.Taqriz matni. Taqriz turlari.....                                                                                            | 219 |